ISXAKOVA SARVAR AYUBOVNA
ARTIKOVA SHOXIDA ILYASOVNA
SHERALIYEV AXROR SODIQOVICH

JAHON MINTAQALAR IQTISODIYOTI

O‘QUV QO‘LLANMA



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ISXAKOVA SARVAR AYUBOVNA
ARTIKOVA SHOXIDA ILYASOVNA
SHERALIYEV AXROR SODIQOVICH

JAHON MINTAQALAR IQTISODIYOTI

O‘QUV QO‘LLANMA

SAMARQAND – 2024

UO‘K: 339.1(075)
I 84
KBK: 65.5ya73

S.A.Isxakova, Sh.I.Artikova, A.S.Sheraliyev.

Jahon mintaqalari iqtisodiyoti [Matn]: **o‘quv qo‘llanma /** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 352 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanma dunyoning turli mintaqalaridagi iqtisodiy jarayonlar, shuningdek alohida mamlakatlar va mamlakatlar guruhlari milliy iqtisodiyoti tarkibining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning rivojlanish tendentsiyalarini va iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etuvchi omillarini yoritishga bag’ishlangan. Qo‘llanmada mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida tashqi iqtisodiy aloqalarning roliga hamda davlatlarning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatini tahlil qilishga katta e’tibor berilgan.

O‘quv qo‘llanma 60411900 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar (mintaqalar va faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavrlarga mo‘ljallangan. Undan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, talabalar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, soha rahbarlari va mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Boboqulov S.B. - SamISI dotsenti.

Nasimov D.A. – Ipak yo‘li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti professori.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 30 - avgustdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (1-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-720-78-9

© S.A.Isxakova va b. SamISI. 2024 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashriyoti. 2024 y.

MUNDARIJA

KIRISH 6
I BOB. JAHON MINTAQALAR IQTISODIYOTI FANINING MOHIYATI, MAZMUNI VA AHAMIYATI.....8
1.1. Jahon mintaqalar iqtisodiyoti fanining dolzarbligi 8
1.2. Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining mohiyati va ahamiyati.....17
1.3. Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining obyekti, predmeti va vazifalari.....20
II BOB. KATTA YETTILIK MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 23
2.1. Amerika Qo‘shma Shtatlari iqtisodiyoti 23
2.2.Germaniya davlatining iqtisodiyoti.....31
2.3. Kanada iqtisodiyoti 38
2.4. Buyuk Britaniya iqtisodiyotining o‘ziga xosligi.....44
III BOB. G’ARBIY YEVROPA VA SKANDINAVIYA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 53
3.1. Skandinaviya mamlakatlari va ular iqtisodiyotining o‘ziga xosligi 53
3.2. Ispaniya iqtisodiy rivojlanishi.....55
3.3. Belgiya mamlakati iqtisodiyoti haqida umumiy ma’lumot.....64
3.4. Shveytsariya hozirgi kundagi iqtisodiy rivojlanishi.....69
IV BOB. MARKAZIY YEVROPA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI.....78
4.1. Polsha iqtisodiyoti.....79
4.2. Polshaning tashqi savdo munosabatlari va turizmi 82
4.3. Chexiya iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish yo‘li.....86
V BOB. SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI.....93
5.3. Belarus va Gruziya iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish modellari 106
5.4. O‘zbekiston va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlari 124
VI BOB. AVSTRALIYA VA OKEANIYA MINTAQASI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 129
6.1.Avstraliya va Okeaniya mintaqasi umumiy tavsifi 129
6.2. Avstraliya iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....130
6.3.Yangi Zelandiya iqtisodiy rivojlanish yo‘li 145
6.4. Okeaniya orollari iqtisodiyoti 158

VII BOB. SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 166
7.1. Sharqiy Osiyo mintaqasi iqtisodiyoti 166
7.2. Yaponiya mamlakatining iqtisodiy rivojlanishi 168
7.3. Mo‘g‘iliston mamlakatining iqtisodiyotiga umumiy tavsif 182
VIII BOB. OSIYO MINTAQASI ENG KICHIK INDUSTRIAL MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 188
8.1. Yangi industrial davlatlari iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish yo‘li 188
8.2. Koreya Respublikasi iqtisodiy rivojlanishi 190
8.3. Singapur industrial rivojlangan davlat sifatida.....197
IX BOB. XITOY IQTISODIYOTI 205
9.1. Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy tavsif 205
9.2. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish tarixi 207
9.3. Xitoy mamlakatining energetika tizimi va tabiiy resurlari.....213
9.4. Xitoyning tashqi savdo munosatlari 218
X BOB. HINDISTON IQTISODIYOTI.....223
10.1. Hindiston respublikasiga umumiy tavsif.....223
10.2. Mamlakat iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari 226
10.3. Hindistonning qishloq xo‘jaligi.....229
10.4. Mamlakatning tashqi savdo munosabatlari 233
XI BOB. FORS KO‘RFAZI MINTAQASI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI.....238
11.1. Fors ko‘rfazi mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlari 238
11.2. Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari 240
11.3. Birlashgan Arab Amirliklari iqtisodiyoti 247
11.4. O‘zbekistonning Fors ko‘rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari.....253
XII BOB. TURKIYA IQTISODIYOTI 256
12.4. Mamlakat turizmi va tashqi savdo munosabatlari.....265
12.5.O‘zbekiston - Turkiya munosabatlari.....268
13.1. Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlarining xalqaro bozordagi o‘rni 274
13.2. Kipr davlatiga iqtisodiy tavsif 277
13.3. Livan Respublikasining rivojlanayotgan iqtisodiyoti 282
XIV BOB. MARKAZIY AMERIKA VA KARIB HAVZASI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 287

14.1. Markaziy Amerika va Karib havzasi mintaqasiga umumiy tavsif 287
14.2. Mintaqada turizm sohasi 292
14.3. Panamaning iqtisodiy imkoniyatlari 294
14.4. Kuba Respublikasi iqtisodiyoti 299
XV BOB. JANUBIY AMERIKA MINTAQASI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 304
15.1. Janubiy Amerika mintaqasi iqtisodiyoti.....304
15.2. Braziliyaning rivojlanish modeli.....305
15.3. Argentina iqtisodiyoti.....312
XVI BOB. AFRIKA MINTAQASI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI.....317
16.1. Afrika mintaqasi iqtisodiyotiga umumiy tavsif.....317
16.2. Afrika davlatlarining umumiy iqtisodiy xususiyatlari 320
16.3. Janubiy Afrika Respublikasi iqtisodiyoti 327
16.4. Misr mamlakati iqtisodiyotining rivojlanishi.....330
GLOSSARIY 337
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....346

KIRISH

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish.
“O‘zbekiston-2030” strategiyasi 90-maqsadi

Jahon xo‘jaligining barcha jabhalarida integratsiya va globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda jahon mintaqalari iqtisodiyotini o‘rganish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish omillari va yo‘nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bugungi kunda jahon mintaqalari mamlakatlari, jumladan, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda erishgan yutuqlari hamda yo‘l qo‘ygan kamchiliklari, ularni hal etishdagi yondashuvlari, xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi asosiy rivojlanish tendensiya va yo‘nalishlarini aniqlash, o‘rganish va tahlil qilish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishda tajriba sifatidagi ahamiyati nihoyatda katta.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak mutaxassislarda mintaqaviy mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish tarixi, bugungi holati va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari to‘g’risidagi bilimlarni shakllantirish, mintaqaviy mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish darajasini baholashda tahliliy yondashuv, shuningdek O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston jahonning turli mintaqalarida joylashgan 150 dan ortiq rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari bilan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalarni olib bormoqda. Ushbu mamlakatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun ham jahonning ushbu mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish yo‘llarini (modellari) har tomonlama va keng o‘rganish, bu sohada maxsus ko‘nikmaga ega kadrlarni yetishtirish maqsadga molikdir. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining asosiy g’oyalaridan biri “ barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan

davlatlar qatoridan o‘rin olish va aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishdir”[1].

Mazkur o‘quv qo‘llanmada hozirgi kunda jahon xo‘jaligida mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko‘ra tasnifi, ularning rivojlanish bosqichlari va davrlari, ko‘plab yetakchi va rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy mo‘jiza yaratishidagi asosiy omillari, rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni hamda ularning bugungi kundagi iqisodiy ahvoli va holati to‘g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan. O‘quv qo‘llanmada mavzular bo‘yicha keltirilgan nazariy ma’lumotlar tushunarli va ravon tilda bayon etilgan. Unda dunyo mamlakatlarida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarni ifodalashga qaratilgan ko‘plab jadvallar, chizmalar mavjud bo‘lib, ular taklif etilgan materiallarning to‘liq o‘zlashtirilishini yengillashtirilgan qaratilgan.

Qo‘llanma talabalarda jahon mintaqalari iqtisodiyoti to‘g’risidagi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishda juda foydali.

O‘quv qo‘llanma iqtisodiyot yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavrlar, ilmiy izlanuvchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, soha rahbarlari va mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “ “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi” to’g’risidagi” 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni

I BOB. JAHON MINTAQALAR IQTISODIYOTI FANINING MOHIYATI, MAZMUNI VA AHAMIYATI

An’anaviy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo‘shilish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi 90-maqsadi

Tayanch iboralar: *Mintaqa, mamlakat, davlat, iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, eng yirik davlatlar, katta davlatlar, o‘rta davlatlar, kichik davlatlar, eng kichik davlatlar, jahon mamlakatlari tasnifi, investitsiya.*

1.1. Jahon mintaqalar iqtisodiyoti fanining dolzarbligi

Ma’lumki, yer sharining bor-yo‘g’i 29,2 foizi quruqlik hisoblanadi va unda turli maqomga ega hududiy-ma’muriy birliklar – mustaqil davlatlar, jahon hamjamiyati to‘la tan olmagan mamlakatlar, maqomi noaniq davlatlar, qaram davlatlar mavjud.

Dunyoda 2023 yil holatiga ko‘ra, 278 dan ortiq mamlakat bo‘lib, jumladan jahon hamjamiyati tomonidan mustaqilligi rasman tan olingan 195 ta suveren davlat mavjud. Bulardan 193 tasi BMTning faoliyatida a’zo davlatlar sifatida, 2 tasi (Vatikan, Falastin) esa kuzatuvchi davlat bo‘lib ishtirok etmoqda.

Barcha mamlakatlar bir-biridan turli jihatlari bilan farqlanadi - hududi, materikdagi joylashuvi, aholisi, milliy tarkibi va boshqalar. Shu belgilarga qarab jahon mamlakatlari turli guruhlarga bo‘linadi. Jahon mamlakatlarini tasniflash va tipologiyalarga ajratish ularni bir-biri bilan taqqoslash va o‘rganish uchun ishlatiladi.

Bevosita jahon mamlakatlari tasnifini amalga oshirishga o‘tishdan oldin ba’zi tushunchalar mohiyatiga to‘xtalish zarur.

Mamlakat (keng ma’noda) – bu boshqa qo‘shni hududlardan bir qator muhim jihatlari bilan ajralib turadigan hududdir. Ko‘pincha "mamlakat" tushunchasi "davlat" tushunchasining sinonimi sifatida

ishlatiladi. Davlat esa - ma’lum bir hududga xos bo‘lgan va faqat unga xos bo‘lgan davlat tuzilmasi tizimlari va huquqiy normalar tasniflovchi belgilar sifatida ishlatiladi. Kengroq ma’noda, "mamlakat" tushunchasini aholisi yagona etnik, diniy, tarixiy, madaniy yoki boshqa birlashmani tashkil etuvchi hudud deb hisoblash mumkin. Bugungi kunda ham, ba’zi hollarda, "mamlakat" va "davlat" tushunchalari bir-biriga mos kelmaydi - masalan, ikki Koreya davlatining mavjudligi ko‘pincha bo‘lingan mamlakat mavjudligiga misol sifatida qaraladi, chunki siyosiy bo‘lingan, Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya ham bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo‘lgan tarix, til, madaniyat va insoniy aloqalarga ega.

Davlat (geografik ma’noda) - jamiyatni tashkil etishning yagona siyosiy va huquqiy tizimi mavjud bo‘lgan, suveren faoliyat ko‘rsatadigan mamlakat. Davlat - jamiyatning oliy siyosiy instituti bo‘lib, shu jamiyat yashayotgan mamlakat fuqarolari manfaatini himoya qilish uchun o‘rnatiladi. Davlatlar mamlakat chegaralarini himoya qiladi, boshqa mamlakatlar bilan aloqada bo‘ladi, qonunchilik bilan shug’ullanadi va hokazo. Ularning farqi shundaki, mamlakat hudud bo‘lsa, davlat shu hududda o‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy boshqaruv instituti hisoblanadi.

Mintaqa - bu boshqa hududlardan u yoki bu jihatdan farq qiladigan, yagona siyosiy-huquqiy va ma’muriy qoidalar qo‘llaniladigan hudud. Iqtisodiy jihatdan mintaqa - bu mehnat bozori, xomashyo va resurslar bozorlari, yagona iqtisodiy infratuzilma, shuningdek, bir-biri bilan chambarchas o‘zaro bog’liqlikka asoslangan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bilan tavsiflangan hudud. Mintaqa bir nechta davlatlarning hududlarini (hududlarining bir qismini) qamrab olishi mumkin.

Jahon mamlakatlari tasnifi - bu mamlakatlarning ma’lum mezonlarga ko‘ra guruhlarga bo‘linishi, ko‘pincha miqdoriy. Masalan, geografik joylashuv xususiyatlari, hududning maydoni, aholisi va boshqalar.

Geografik joylashuviga ko‘ra, mamlakatlar quyidagilarga guruhlarga bo‘linadi:

1) qirg’oqbo‘yi - Rossiya, Frantsiya, Liviya, Misr, Marokash, Kamerun, Nigeriya, Xitoy, AQSh va boshqalar;

2) yarim orol - Ispaniya, Hindiston, Italiya va boshqalar;

3) orol - Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kuba, Kipr va boshqalar;

4) kontinental (dengizga chiqish imkoniyati yo‘q) - Mo‘g’uliston, Avstriya, Belarus, Zambiya, Kongo Respublikasi va boshqalar.

Hududi bo‘yicha mamlakatlar quyidagilarga bo‘linadi:

1) eng yirik davlatlar - Rossiya, Kanada, Xitoy, AQSh, Braziliya, Avstraliya, Hindiston. Ularning maydoni 3 million kvadrat kilometrdan ortiq;

2) yirik davlatlar - Argentina, Qozog’iston, Jazoir, DRC, Liviya, Mo‘g’uliston, Misr va boshqalar. Ularning maydoni 1 milliondan 3 million kvadrat kilometrgacha;

3) katta davlatlar - Nigeriya, Venesuela, Zambiya, Ukraina, Madagaskar, Fransiya, Yaman va boshqalar. Ularning maydoni 500 mingdan 1 million kvadrat kilometrgacha;

4) o‘rta davlatlar - Ispaniya, Kamerun, Iroq, Yaponiya, Kongo, Vetnam, Belarus, Suriya, Kuba va boshqalar. Ularning maydoni 100 dan 500 ming kvadrat kilometrgacha;

5) kichik davlatlar – Koreya Respublikasi, Vengriya, Portugaliya, Avstriya, Shri-Lanka, Togo va boshqalar. Ularning maydoni 50 dan 100 ming kvadrat kilometrgacha;

6) eng kichik davlatlar - Slovakiya, Daniya, Shveytsariya, Belgiya, Ekvatorial Gvineya, Isroil, Livan va boshqalar. Ularning maydoni 1 dan 50 ming kvadrat kilometrgacha;

7) “mittilar” – Lyuksemburg, Gonkong, Singapur, Bahrayn, Andorra, Monako, Vatikan va boshqalar. Ularning maydoni ming kvadrat kilometrdan kam.

Aholi soniga qarab (2019) dunyo mamlakatlari quyidagilarga bo‘linadi:

1) eng yirik davlatlar - 100 milliondan ortiq kishi - Xitoy, Hindiston, AQSh, Rossiya, Yaponiya, Filippin va boshqalar;

2) katta davlatlar - soni 40 milliondan 100 milliongacha - Misr, Vetnam, Turkiya, DRC, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Yaman, Jazoir, Nepal va boshqalar;

3) o‘rta davlatlar - soni 20 milliondan 40 milliongacha - Iroq, Polsha, Afg’oniston, Kanada, Kamerun, Avstraliya, Gvineya va boshqalar;

4) kichik davlatlar - 1,5 milliondan 20 million kishigacha - Ruminiya, Qozog’iston, Belgiya, Portugaliya, Belarus, Iordaniya, Livan, Kongo Respublikasi, Mo‘g’uliston, Latviya va boshqalar;

5) eng kichik davlatlar - aholisi 1,5 million kishidan kam - Bahrayn, Islandiya, Monako, Lixtenshteyn va boshqalar.

Bundan tashqari jahon mamlakatlari muhim sifat xususiyatlariga ko‘ra ham turli guruhlarga ajratiladi. Masalan, jamiyatning rivojlanish darajasi, iqtisodiy tizim turi va boshqalar. Analitik maqsadlarda xalqaro tashkilotlar jahondagi barcha mamlakatlarni uchta guruhga bo‘lib o‘rganadi:

1) iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan davlatlar – G7 mamlakatlari (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, Frantsiya, Yaponiya) va boshqa ba’zi mamlakatlar (Janubiy Afrika, Avstraliya va yangi Zelandiya). Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari jahon bozorida va xalqaro mehnat taqsimotida yetakchi rol o‘ynaydi. Ushbu mamlakatlarning barchasi yuqori darajadagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar (ingl. Developed countries) aholining yuqori turmush darajasi bilan ajralib turadi. Rivojlangan mamlakatlar, qoida tariqasida, ishlab chiqarilgan kapitalning katta zaxirasiga va asosan yuqori ixtisoslashgan faoliyat bilan shug’ullanadigan aholiga ega. Ushbu mamlakatlar guruhida dunyo aholisining taxminan 15% yashaydi. Jahon yalpi ichki mahsulotining 47 foizini va xalqaro savdoning 51 foizini ta’minlaydigan 7-guruh (G-7) deb nomlangan mamlakatlar.

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy xususiyatlaridan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

- ushbu mamlakatlarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot o‘rtacha 20 ming dollarni tashkil etadi va doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Bu iste’mol va investitsiyalarning yuqori darajasini hamda butun aholi turmush darajasini belgilaydi.

- rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarmoq tuzilmasi sanoatning ustunligi va sanoat iqtisodiyotini postindustrial iqtisodiyotga aylantirish tendentsiyasiga qarab rivojlanmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasi jadal rivojlanib, unda band bo‘lgan aholi ulushi bo‘yicha yetakchilik qilmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy tuzilishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

- rivojlangan mamlakatlarning biznes tuzilmasi turlicha. Iqtisodiyotda etakchi rol kuchli konsernlarga - TMKlarga (transmilliy korporatsiyalar) tegishli. Istisno - jahon darajasidagi TMKlar mavjud bo‘lmagan ba’zi kichik Yevropa mamlakatlari guruhi. Biroq, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida o‘rta va kichik biznesning keng tarqalganligi bilan ham ajralib turadi. Ushbu biznesda iqtisodiy faol aholining 2/3 qismi ishlaydi. Ko‘pgina mamlakatlarda kichik biznes yangi ish o‘rinlarining 80 foizini tashkil qiladi va iqtisodiyotning tarmoq tuzilishiga ta’sir qiladi.

- rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga ochiqligi va tashqi savdo rejimining liberal tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Jahon ishlab chiqarishidagi yetakchilik ularning jahon savdosi, xalqaro kapital oqimi, xalqaro valyuta va hisob-kitob munosabatlaridagi yetakchi rolini belgilaydi. Xalqaro mehnat migratsiyasi sohasida rivojlangan davlatlar qabul qiluvchi tomon sifatida harakat qiladi.

2) rivojlanayotgan mamlakatlar – 150 ga yaqin mamlakatlar-Hindiston, Braziliya, Meksika, Argentina, Chili, Singapur, Koreya Respublikasi, Yaman, Efiopiya, Chad kabi past va o‘rta daromadli davlatlar kiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining umumiy darajasi rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda dunyo aholisining 80 foizi istiqomat qiladi va ushbu mintaqaning

taqdiri har doim dunyo jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Jahon iqtisodiyotining bo‘g’ini bo‘lib qolgan ushbu mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga iqtisodiy va siyosiy qaramlikni chuqurlashtirish tendentsiyasi davom etmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar hali ham jahon bozoriga xom ashyo va yoqilg’ining yirik etkazib beruvchilari hisoblanadi. Xom ashyo etkazib beruvchilar sifatida ularning iqtisodiyoti tayyor mahsulotlar importiga bog’liq, shuning uchun bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushi atigi 30% ni tashkil etadi, shu jumladan sanoat mahsulotlarini etkazib berishda – 21,4%. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning past rivojlanish darajasi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infratuzilmaning texnik jihozlarining qoloqligi bu mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning eng xarakterli belgisi bu iqtisodiyotning agrar yo‘nalishi va qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining ulushi. Iqtisodiyotning agrasanoat yo‘nalishi rivojlanayotgan mamlakatlarga xos emas. U faqat Lotin Amerikasining eng rivojlangan mamlakatlarida va bir nechta Osiyo davlatlarida rivojlangan. Aksariyat mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi bandligi hozirgacha sanoat bandligidan 2,5 baravar, ba’zan esa 10 baravar ko‘p. Shu nuqtai nazardan, ko‘plab neft ishlab chiqaruvchi davlatlar rivojlangan mamlakatlarga qaraganda rivojlanayotgan mamlakatlarga yaqinroq.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining xususiyatlari ko‘p tarmoqli iqtisodiyot bilan bog’liq. Rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarishning xilma-xil shakllariga ega: kichik tovar ishlab chiqaruvchilardan to monopolistik va kooperativgacha. Tarmoqlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar cheklangan. Rivojlanayotgan mamlakatlar qashshoqlik, aholining haddan tashqari ko‘payishi, ishsizlikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy roli juda katta va an’anaviy funktsiyalar bilan bir qatorda quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tabiiy resurslar ustidan milliy suverenitetni amalga oshirish; davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish dasturlarida ko‘zda tutilgan loyihalarni amalga oshirish uchun foydalanish uchun xorijiy

moliyaviy yordamni nazorat qilish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish, kooperativlarni yaratish va boshqalar bilan bog’liq agrar o‘zgarishlar va milliy kadrlar tayyorlash.

3) bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar – Markaziy-Sharqiy Yevropa, Boltiqbo‘yi davlatlari, Rossiya, Ukraina, sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari, markazlashtirilgan rejadan bozor iqtisodiyotiga o‘tish, shuningdek, ba’zi hollarda Mo‘g’uliston, Xitoy, Vetnam ham kiritiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarga quyidagilar kiradi:

1. *Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik mamlakatlari*: Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Chexiya Respublikasi, Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining vorislari Bosniya va Gersegovina, Makedoniya Respublikasi, Sloveniya, Xorvatiya, Serbiya va Chernogoriya;

2. *Sobiq sovet respublikalari-hozirgi MDH mamlakatlari*: Ozarbayjon, Armaniston, Belorusiya, Gruziya, Qozog’iston, Qirg’iziston, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Ukraina;

3. *Sobiq Boltiqbo‘yi respublikalari*: Latviya, Litva, Estoniya.

Xalqaro valyuta jamg’armasi (XVJ) Xitoyni Hindiston singari rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari qatoriga kiritadi.

"Bozor iqtisodiyotiga o‘tish" atamasi sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotining bozorga aylanishini tavsiflash uchun ishlatiladi. Bozorga o‘tish bir qator muhim o‘zgarishlarni talab qildi, ularga quyidagilar kiradi:

1) xususiylashtirishni va nodavlat korxonalarni rivojlantirishni rag’batlantirishni talab qiladigan iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish;

2) nodavlat mulkchilik shakllarini, shu jumladan ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikni rivojlantirish;

3) iste’mol bozorini shakllantirish va uning tovarlari bilan to‘yinganligi.

Birinchi islohot dasturlari barqarorlashtirish choralari va xususiylashtirish to‘plamlaridan iborat edi. Monetar va fiskal

cheklovlar inflyatsiyani pasaytirishi va moliyaviy muvozanatni tiklashi, tashqi aloqalarni liberallashtirish esa ichki bozorga zarur raqobatni olib kelishi kerak edi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlari kutilganidan yuqori bo‘ldi. Uzoq davom etgan iqtisodiy tanazzul, ishsizlikning yuqori darajasi, ijtimoiy ta’minot tizimining pasayishi, daromadlarni tabaqalashtirishning chuqurlashishi va aholi farovonligining pasayishi islohotlarning birinchi natijalari bo‘ldi.

Turli mamlakatlarda islohotlar amaliyotini ikkita asosiy muqobil yo‘lga qisqartirish mumkin:

1) ko‘plab mamlakatlarda, shu jumladan Rossiyada asos sifatida qabul qilingan tezkor radikal islohotlar yo‘llari ("shok terapiyasi"). Strategiya tarixan 1980-yillarda XVJ tomonidan qarzdor davlatlar uchun shakllangan. Uning xususiyatlari narxlar, daromadlar va iqtisodiy faoliyatni keskin liberallashtirish edi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirishga pul massasining pasayishi va natijada katta inflyatsiya hisobiga erishildi. Shoshilinch tizim o‘zgarishlari xususiylashtirishni o‘z ichiga olgan. Tashqi iqtisodiy faoliyatda maqsad milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga jalb qilish edi. "Shok terapiyasi" natijalari ijobiy emas, balki salbiydir;

2) Xitoyda asos sifatida qabul qilingan iqtisodiyotni bosqichma-bosqich evolyutsion o‘zgartirish yo‘llari.

1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab va qayta tiklanish bosqichi boshlanganida, o‘tish iqtisodiyoti bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish va bozor iqtisodiyotining yaxshi ko‘rsatkichlarini namoyish etdilar. YAIM ko‘rsatkichlari asta-sekin o‘sib bordi. Biroq, ishsizlik darajasi hali ham yuqori. O‘zgarishlar boshlanishining turli vaqtlaridagi turli xil boshlang’ich shartlarni hisobga olgan holda, ularning natijalari boshqacha bo‘ldi. Eng katta muvaffaqiyatlarga Polsha, Vengriya, Chexiya, Sloveniya, Estoniya, Slovakiya erishdi.

Markaziy va Sharqiy Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida (CEE) YaIMda davlat xarajatlarining ulushi katta: kamida 30-50 %. Bozorni isloh qilish jarayonida aholining turmush darajasi pasayib, daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlik oshdi: aholining taxminan 1/5

qismi turmush darajasini oshirishga muvaffaq bo‘ldi, 30 foizga yaqini esa kambag’allarga aylandi.

Ammo mamlakatlarning barcha tipologiyalari shartli, chunki ma’lum bir guruhga kiritish qiyin bo‘lgan davlatlarni topish mumkin.

Hozirgi jahon xo‘jaligining globallashuvi sharoitida rivojlangan yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiyoti muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki so‘nggi yillarda yetakchi mamlakatlar qatorida yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati va nufuzi jahon arenasida yildan-yilga ortib bormoqda. O‘z navbatida, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda daromadlarni maqsadli ravishda sarflash va to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar hajmini oshirish tufayli ularning iqtisodiy taraqqiyotida “iqtisodiy mo‘jiza”lar vujudga kelmoqda. Biz quyida jahon xo‘jaligida “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish davrlari orqali quyidagi bosqichlar orqali tahlil qilib chiqamiz:

1) 1960-yillar (Germaniya va Yaponiya);

2) 1970- yillar (“To‘rt ajdarho” mamlakatlari‖- Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkong);

3) 1980-yillar (‘To‘rtta kichik yo‘lbars” mamlakatlari‖-Malayziya, Tailand, Indoneziya va Filippin;

4) 1990-yillar-(“To‘rtinchi iqtisodiy mo‘jiza”, ya’ni Xitoy);

5) 2000-yillar-(“Cho‘l ustidagi mo‘jiza”, arab mo‘jizasi (BAA va Qatar).

Albatta, har bir mamlakat haqida gap boshlanganda, avvalo ko‘z oldimizda ushbu mamlakatning O‘zbekistondan qanchalik uzoqdaligi yoki yaqinligi, uning yer yuzida qaerda joylashganligi, ya’ni jahon xaritasida geografik joylanishuvi, shuningdek, xududi va aholisi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Mamlakatning qaysidir xususiyatlarini esga olish, qachondir shu mamlakat haqida o‘qigan kitobni yoki ko‘rgan biron bir filmni esga olamiz.

Har bir mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Mazkur o‘rganilayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida qo‘llagan iqtisodiy dasturlari va isloxotlarining nazariy jihatlarini ko‘rib chiqish, jumladan jahon iqtisodiyoti tarixidan

joy olgan: “Pul islohoti” (Germaniya), “Dodj yo‘nalishi” (Yaponiya), “To‘rt modernizatsiya” (Xitoy Xalq Respublikasi), “Yashil inqilob” (Hindiston) va boshqa tarixiy dastur, islohotlarning nazariy jihatlari hamda xususiyatlari orqali chuqur tahlil qilishdan iboratdir. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalarini o‘rganish va tahlil qilish orqali mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlariga taklif va tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir.

1.2. Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining mohiyati va ahamiyati

Jahon xo‘jaligining globallashuvi, xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining tobora chuqurlashib, milliy va mintaqa iqtisodiyotlari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy, ishlab chiqarish, tovarlar va xizmatlar ayirboshlash munosabatlari rivojlanib borar ekan, har bir mintaqa va mamlakat o‘zining milliy va an’anaviy iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga, xavf-xatardan holi bo‘lishga va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida yanada faolroq hamda samaraliroq harakat qilishga intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga kirib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirmoqda.

O‘zbekistondagi aksariyat korxonalarning ham bugungi kunda tashqi bozorga chiqishi, jahon mamlakatlari korxona va kompaniyalarining mamlakatimizda. Shakllanayotgan tovar vaxizmatlar bozoriga kirishi jarayoni sezilarli rivojlanib bormoqda.

Shu sababli jahon mamlakatlari iqtisodiyotini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini o‘rganish, shuningdek bozor iqtisodiyotining rivojlanishidagi yutuq - kamchiliklari, rivojlanish muammolarini xal etishdagi to‘g’ri yondashuvlar bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tib borayotgan Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishda tajriba sifatidagi ahamiyati kattadir.

Jahon xo‘jaligida mamlakatlarning rivojlangan darajasi, ularning

rivojlanish bosqichlari va davlatlari, ko‘plab yetakchi va rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy mo‘jiza yaratishidagi asosiy omillari, rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni hamda ularning bugungi kundagi iqisodiy ahvoli va holatini tahlil qilish xalqaro aloqalarning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Hozirgi jahon xo‘jaligining globallashuvi sharoitida rivojlangan yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiyoti muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki so‘nggi yillarda yetakchi mamlakatlar qatorida yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati va nufuzi jahon arenasida yildan-yilga ortib bormoqda. O‘z navbatida, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda daromadlarni maqsadli ravishda sarflash va to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar hajmini oshirish tufayli ularning iqtisodiy taraqqiyotida ―iqtisodiy mo‘jizalar yaratish kabi tajribasining ahamiyati juda kattadir.

Bu esa o‘z navbatida jahon mintaqalari iqtisodiyoti sohasida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo qiladi.

Chunki, bizning o‘z oldimizga qo‘yilgan asosiy maqsadimiz – boshlagan islohotlarimiz, iqtisodiyotimizni tubdan yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish va chuqurlashtirish, hayotimiz darajasi va sifatini izchil oshirib borishni ta’minlash, xorijiy investitsiyalar ko‘lamini yanada oshirish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida mamlakatimizning iqtisodiyotini tubdan yangilash va jahon xo‘jaligida munosib o‘z o‘rnini topish borasida quyidagi so‘zlarini yana bir ta’kidlash lozim: “Shu nuqtai nazardan, davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O‘zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo‘yicha kuchli milliy g’oya, milliy dastur kerak.

Ushbu dastur O‘zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim.”

O‘zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga kirib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorliklar rivojlanmoqda. Xususan, xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini o‘rganish, shuningdek bozor iqtisodiyotining rivojlanishidagi yutuq – kamchiliklari, rivojlanish muammolarini hal etishdagi to‘g’ri yondashuvlar bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tib borayotgan Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishda tajriba sifatidagi ahamiyati kattadir.

Sanoat ishlab chiqarishda yangi turdagi mahsulotlarning paydo bo‘lishi aholining hayoti va ijtimoiy ehtiyojini qanoatlantirish bilan birga qo‘shni davlatlar bozoriga raqobatbardosh istemol talablarini qanoatlantiradigan mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini berdi. Shu o‘rinda O‘zbekistonda zamonaviy ishlab chiqarishni yanada kengaytirishga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda jahon andozasi talablariga javob beradigan texnologiyalarni jalb qilishga va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga keng yo‘l berishga qaratilgan e’tibor o‘z ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston amalga oshirayotgan tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakli xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqada bo‘lishidir. Zero, “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 5.1.-bo‘limi “Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo‘yicha islohotlar” deb nomlangan bo‘lib, bir qator maqsadlarni o‘z ichiga olgan. Shunga ko‘ra davlatimiz valyuta-kredit munosabatlarini, yani chet el sarmoyalarini xalq xo‘jaligining ko‘pgina tarmoqlariga jalb qilish, xo‘jalik korxonalarini birgalikda ko‘rish va savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining maqsadi talabalarda jahon mintaqalari iqtisodiyotining tarkibi va undagi mamlakatlarning guruhlanishi, mintaqaviy mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish tarixi, bugungi holati va

kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, dunyoning eng yirik iqtisodiy minta qalari va ularni tashkil etuvchi eng rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiyoti o‘tish davridagi mamlakatlar va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlanishining asosiy modellari va tendensiyalari haqida nazariy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Shuningdek, mazkur fan talabalarda mintaqaviy mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish darajasini baholashda tahliliy yondashuv, xorijiy mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnidan kelib chiqqan holda ularni muayyan guruhlar bo‘yicha tasniflash hamda O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo‘ladi.

Mazkur fan mintaqalarda turli rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi asosiy rivojlanish tendensiya va yonalishlarini aniqlash, o‘rganish va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining obyekti, predmeti va vazifalari

Ma’lumki, har qanday fanning tadqiqot obyekti va predmeti bo‘ladi. Obyekt bu keng va serqirra ma’nodagi voqea va hodisa bo‘lib, bu obyektni ko‘pgina fanlar o‘rganishi mumkin. Obyektdan farqli o‘laroq, predmet esa shu obyektning bir tomonini yoki ma’lum bir qirrasi o‘rganadi. Masalan, aholini, ayni paytda iqtisodchilar, demograflar, geograflar, sotsiologlar va boshqa soha vakillari ham o‘rganadi. Biroq, har bir soha vakili bir-biridan farqli o‘laroq, shu obyektning bir tomonini o‘rganishadi. Agar iqtisodchilar, aholini ishlab chiqaruvchi kuchi va iste’molchi nuqtayi nazardan o‘rganishsa, demograf yoki aholishunoslar aholini takror barpo etish, tabiiy ko‘payishi, migratsion ko‘payishi, tug’ilish, o‘lim, nikoh va boshqa jarayonlarni, geograflar esa aholining hududiy joylashish qonuniyatlarini va xususiyatlarini o‘rganadi.

Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining **obyekti** bo‘lib jahonda mavjud yirik iqtisodiy mintaqalar va ulardagi mamlakatlar hisoblanadi.

Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining predmeti esa nafaqat dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotlarigina emas, balki diqqatga sazovor bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiyot modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

Jahon mintaqalar iqtisodiyoti fanining **predmeti**ni eng avvallambor, shu mintaqada mavjud bo‘lgan tabiiy iqlim, yashayotgan insonlar, ishlab chiqarish va ayriboshlash jarayonida vujudga kelgan mintaqada mehnat taqsimoti, ixtisoslashuvi, iqtisodiy, mehnat va ijtimoiy rivojlanish salohiyati tashkil etadi. Ma’lumki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning vujudga kelishida qulay geografik va iqlim sharoitida eng avvalo mehnat taqsimoti paydo bo‘lgan.

Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fani o‘z maqsadiga erishishni ta’minlash uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

-fanning mohiyati, mazmuni va ahamiyatini o‘rganish;

- mintaqalar mamlakatlarini ularning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab tasniflash, turlarini o‘rganish;

- mamlakatlar iqtisodiyotining mintaqalar va integratsion birlashmalar bo‘yicha rivojlanish muammolarini o‘rganish;

- mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishiga ta’sir qiladigan global muammolarni o‘rganish;

- yuqoridagi muammolarni qiyosiy tahlildan va iqtisodiy tahlilning boshqa shakllaridan foydalanish orqali o‘rganish;

- fanda o‘rganiladigan muammolar yuzasidan bahs-munozaralarni olib borish, shuningdek ziddiyatli vaziyatlardan chiqish yechimini topish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;

- talabalar o‘z fikrlarini yozma shaklda aniq va mazmunli bayon qilishga o‘rganishlari uchun ularda esse yozish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;

-o‘rganilayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotining asosiy sabablari, tabiiy resurslari, tashqi iqtisodiy faoliyati, uning qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi va munosabatlari, hozirgi iqtisodiy holati ko‘rsatkichlari;

- jamoaviy ishlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Demak, yuqorida sanab o‘tilgan fanning vazifalari har bir mamlak atning iqtisodiyotini keng ko‘lamda yoritib berishga asos bo‘la oladi.

“Jahon mintaqalar iqtisodiyoti” fani quyidagi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog’liqlikda o‘qitiladi, jumladan “Jahon iqtisodiyoti”, “Iqtisodiy nazariya”, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik”, “Makroiqtisodiyot”, “Marketing”, “Pul, kredit va banklar”, “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish”, “Investisiyalarni baholash” va boshqalar. Ushbu fan tadqiqot usullari bo‘yicha boshqa ijtimoiy fanlar bilan ham mustahkam bog’liqdir. Masalan, “Huquqshunoslik”, “Falsafa”, “Tarix”, “Sotsiologiya”, “Siyosatshunoslik” kabi bir qator fanlar.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Jahon mintaqalari iqtisodiyoti fanining maqsadi va vazifalarini sanab o‘ting.
2. Jahon mintaqalari iqtisodiyotiga tavsif bering?
3. Jahon iqtisodiyotidagi asosiy global muammolarni sanab o‘ting?
4. Xalqaro tashkilotlar jahondagi barcha mamlakatlarni qanday guruhlarga bo‘lib o‘rganadi?
5. Jahon mintaqalar iqtisodiyoti fani qaysi fanlar bilan hamkorlikda o‘qitiladi?
6. Iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan davlatlarni tavsiflab bering.
7. Jahon mintaqalar iqtisodiyotining asosiy tushunchalarini izohlab bering.
8. Aholisi soniga qarab jahon mamlakatlari qanaqa guruhlarga ajratiladi?
9. Jahon mamlakatlarini qaysi sifat xususiyatlariga ko‘ra ma’lum guruhlarga bo‘lish mumkin?
10. “Cho‘l ustidagi mo‘jiza” davlatlari haqida ma’lumot bering.

II BOB. KATTA YETTILIK MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI



Tayanch iboralar: *Aralash iqtisodiyot, London birjasi, xalqaro biznes, IELTS, Buyuk Britaniyaning kosmik sanoati, yalpi ichki mahsulot, "energiya super kuch" dasturi, mineral-xom ashyo resurslari*

2.1. Amerika Qo‘shma Shtatlari iqtisodiyoti

Amerika mamlakatlari, xususan, AQSh bilan yangi davrda strategik sheriklik va har tomonlama hamkorlik aloqalarini tobora kengaytirish, investitsiya, eksport va ilg’or texnologiyalar sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi 92-maqsadi

Katta yettilik mamlakatlariga AQSH, Germaniya, Kanada, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va kiradi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari shimoliy Amerika qit’asida joylashgan bo‘lib, dunyo bo‘yicha o‘zimning barqaror moliyaviy tizimi, Transmilliy kompaniyalari,YaIMning eng yuqoriligi, ta’lim tizimi, astronavtika, energetika va ilmiy-tadqiqot markazlarining judayam taraqqiy etganligi bilan ahamiyat kasb etadi. AQShning rivojlanish modeli aralash iqtisodiyot hisoblanadi. U dunyodagi keng ko‘lamli taraqqiy etgan iqtisod bo‘lib, jahon Transmmilliy kompaniyalarning 70 foizini nazorat qiladi. Inson taraqqiyoti indeksi, Doing Business ko‘rsatkichi, Global innovatsion indekslar bo‘yicha juda kyuqori o‘rinlarga ega bo‘lgan bu mamlakat dunyoning moliyaviy institutlari, xalqaro tashkilotlari, nodavlat tashkilotlari, jahon logistika tizimi,

xalqaro kommunikatsiya, tibbiyot va ta’lim sohalariga bevosita o‘zining ta’sirini o‘tkazib keladi. Bu mamlakat haqiqatan jahon iqtisodiyotining yetakchi lokomativi husoblanadi. AQShda joylashgan Federal Reserv Tizimi (Federal Reserve System) mamlakatning xususiy tashkiloti bo‘lib, mamlakat va butun dunyo bo‘ylab xalqaro savdo aloqalarining hamda jahon valyuta-kredit munosabatlarini eng asosiy valyutasi hsioblanadigan AQSh dollarini tashkil etuvchi qog’oz pullarni pechat qilish shuningdek, metal tangalarni zarb qiladigan muassasa hisoblanadi. Ushbu valyuta xalqaro tranzaktsiyalarda eng ko‘p foydalaniladigan valyutadir. AQSh o‘zining ilm-fan va texnologiyalari, harbiy kuchlari, xalqaro tashqi kapital migratsiyasiga judda katta e’tibor qaratadi, AQSh hukumati tashqi qarzlarini to‘lash uchun to‘la ishonchli, dunyo miqyosida istalgan xalqaro institutlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi dunyodagi eng katta valyuta zaxirasiga ega mamlakat hisoblanadi. Mamlakatda BMT, Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi va boshqa o‘nlab xalqaro nufuzu juda yuqori bo‘lgan tashkilotlar joylashgan. Eng yaqin ittifoqchi mamlakatlardan Saudiya Arabiston, Birlashgan Qirollik, Kanada, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Isroil, Janubiy Koreya, Turkiya, Avstraliya va boshqa mamlakatlar kiradi.

AQSh iqtisodiy rivojlanish tarixi XVII va XVIII asrlarda aholining jamoa xo‘jaliklarga tayanib ish boshlashi bilan boshlandi. Amerika mustamlakalari kichik mustaqil qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotidan voz kechib, 1776 yilda Amerika Qo‘shma Shtatlari deb nomlangan ko‘p tarmoqli bir butun mamlakat iqtisodiyotiga aylandi.

180 yil ichida AQSh jahon iqtisodiyotining beshdan bir qismini tashkil etuvchi ulkan, integratsiyalangan, sanoatlashgan iqtisodiyotga aylandi. Natijada, AQSh aholi jon boshiga to‘g’ri keladigan yalpi ichki mahsulot bo‘yicha iqtisodiy jihatdan ancha ilgarilab ketgan boshqa davlatlar bilan raqobatlashib ularni ortda qoldirdi (Buyuk Britaniya). Milliy iqtisodiyot butun dunyo bo‘ylab millionlab muhojirlarga yuqori ish haqi to‘lanadigan mamlakatga aylana boshladi. Ayniqsa, dengiz portlari orqali ilk migratsiya butun dunyo bo‘ylab

arzon ish kuchi (Hindiston, Afrika mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Janubi sharqiy Osiyo) tashrif buyura boshladi.

XX asrning boshida sanoatda nodernizatsiyalar va mavjud innovatsiyalarni takomillashtirish amerikalik iste'molchilar o‘rtasida turmush darajasini yaxshilash uchun eshiklarni ochdi. Yirik kompaniyalar mamlakatdagi erkinlashtirilgan iqtisodiy siyosatdan samarali foydalangan holda shtatlar bo‘ylab o‘zlarining mehnat taqsimotlari bo‘yicha ixtisoslasha boshladilar.Ayniqsa, neftni qidirish, qazib olish, qayta ishlash, undan tayyor mahsulot olish, uni eksport qilish AQSh uchun eng katta tadbirkorlik manbasiga aylana boshladi. Shuningdek, elektr energiya manbalarini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida takomillashtirib borish, oddiy uy xo‘jaligidagi lampochkadan juda katta kuchlanishli elektr energiyasiga erishish orqali sanoatni rivojlantirish modeli ham aynan ushbu mamlakat milliy evolyutsion tajribasi hisoblanadi, 1 mln.Volt (Edison va Nikola tesla, oddiy va o‘zgarubchan tok). Ushbu sohalardagi monopolistik siyosatlar mamlakatdagi boshqa tadbirkorlarni ancha sarosimaga solib qo‘yar edi. Chunki, ular ham endilikda ilmiy izlanishlar orqali tajribalar o‘tkazib sanoay uchun juda zarur bo‘lgan innovatsiyalarni patentlab amaliyitga joriy qilishga majbur bo‘la boshladilar. Milliy iqtisodiyotda qo‘rquvni ko‘tarilib, ishlab chiqarishning pasayishiga olib keldi. Biroq, raqobatga chiday olmagan kompaniyalarning aksariyati narxlarni pasaytirib aksariyati zarar ko‘ra boshladi. Sanoatning yanada liberallashtirilishi hamda diversifikatsiya qilinishi yangi ish o‘rinlarini yatailishi va dunyoning boshqa mintaqalaridan ilmiy-texnikaviy yangilik egalarini mamlakatga ko‘chib o‘tishi hamda hukumatning tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlovchi milliy qonunchiliklari hisobiga AQShni dunyoning eng ilg'or kapital eksport qiluvchisi aylantirdi.

Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari davrida mamlakat asosan har ikki tomonga harbiy texnikalar uchun yonil'g'i, qurol aslaha, oziq ovqat, kiyim-kechak, transport vositalari, dori-darmon, aloqa vositalari, qimmatbaho ma'lumotlar hamda juda katta miqdorda moliyaviy mablag'lar hisobiga milliy iqtisodiyotini butunlay

yangicha taraqqiy etgan mamlakatga aylantirdi (J.F.Kennedi, Richard Nikson).

BMTning 29.5 foiz byudjetini ta’minlab beruvchi (2017) bu gigant iqtisodiyot endilikda o‘z ilm-fan taraqqiyotini rivojlantirishni yangi darajasiga chiqdi. Suv ostida, quruqlikda, havoda hatto kosmosda dominant bo‘lgan bu mamlakat strategik rejalashtirish, samarali muvofiqlashtirilgan hisob-kitoblar, ko‘p variantli modellashtirishlar va uzoqni ko‘ra bilish kabi murakkab xususiyatli taktikalr hisobiga muvoffaqiyatlarga erishmoqda. Hozirda AQSh dunyodagi sanoat ishlab chiqarishning qariyb 18 foizini tashkil qiladi.

AQShning tashqi savdo tovarlar tarkibi va yo‘nalishlari (2022- y.)

Eksport		**Import**	
Eksport (USD)	$2.06 trillion	**Import (USD)**	$3.37 trillion
Tovarlar bo‘yicha eksport tarkibi	sut mahsulotlari , tranzistorlar, samolyotlar, avtoulovlar uchun ehtiyot qismlar, kompyuterlar, telekommunikatsiya uskunalari , iste’mol tovarlari	**Tovarlar bo‘yicha import tarkibi**	neft mahsulotlarini kompyuterlar, telekommunikatsiya uskunalari, avtoulovlar, ofis uskunalari, avtomobil, kiyim-kechak, dori-darmon
Asosiy hamkorlar	Yevropa Ittifoqi 18.7% Kanada 18.3% Meksika 15.9% Xitoy 8% Yaponiya 4.4% Boshqalar 34.8%	**Asosiy hamkorlar**	Xitoy 21.4% Yevropa Ittifoqi 18.9% Meksika 13.2% Kanada 12.6% Yaponiya 6% Boshqalar 27.9%

AQSh dunyoning eng yirik yog’och ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Eng muhim ekinlar orasida Misr (makkajo‘xori), soya,

bug’doy, paxta, uzum va kartoshka mavjud. AQSh Xitoy, Peru, Hindiston va Indoneziyadan so‘ng dunyodagi jami 3.8 foizni tashkil etgan beshinchi yetakchi baliq sanoat markazlari hisoblanadi.

AQSh hozirgi kunda dunyoning yetakchi energiya ishlab chiqaruvchilardan biridir. XX asrning boshlarida esa Xitoy dunyoning eng yirik energiya iste’molchisi. bo‘lgan. Xususan, ko‘plab energiya manbalari - neft mahsulotlari asosida ishlaydi. Mamlakat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi uchun o‘ziga xos milliy dastur hamda loyihalarga amal qiladi[2].

Amerika Qo‘shma Shtatlari dunyoning eng yaxshi qayta ishlanadigan katta miqdorda tabiiy zaxiraga ega bo‘lgan neft qazib oluvchisidan biri hisoblanadi. AQSh jahondagi yetakchi ko‘mir eksport qiluvchilardan biri hisoblanadi.

AQSHda 12 ta Federal Bank filiallari va bir qancha nufuzli xususiy banklar mavjud. Xizmat ko‘rsatish sohasi mamlakat aholishining to‘rtdan uch qismini ish o‘rinlari bilan ta’minlayda. Sanoat ishlab chiqarish sohasida esa mehnat bozorining beshdan bir qismi band.

Soliq tizimi va Bojxona bojlari. 1951- yilgi Savdo bitimlarini kengaytirish to‘g’risidagi qonunga binoan, prezident AQSh tariflar jadvalida ko‘zda tutilgan imtiyozlar haqida AQSh Xalqaro Savdo Komissiyasini (AQSh Tarif Komissiyasi sifatida 1974-yilgacha ma’lum bo‘lgan) xabardor qilishi kerak. Keyinchalik komissiya "xavf nuqtasi" nima ekanligini aniqlaydi; ya’ni, mahalliy ishlab chiqaruvchiga zarar yetkazmasdan, tarifni qanday pastga tushirish mumkinligini prezidentga ma’lum qiladi yoki mahalliy ishlab chiqaruvchining xorijiy raqobat tufayli zarar ko‘rishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘sish miqdorini ko‘rsatadi.

2018-yilning yanvarida Trump kompaniyasi quyosh panellari va kir yuvish mashinalari uchun tariflarni belgilab qo‘ydi. Keyinchalik u shu yilning o‘zida po‘lat va alyuminiy tariflarini o‘rnatdi. 2018- yil 1-iyunda AQSh po‘lat importiga 25% Yevropa Ittifoqi, Kanada va Meksikada alyuminiy uchun 10% tarif joriy qildi.

[2] Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

Federal hukumatning deyarli barcha daromadlari soliqlardan kelib chiqadi. Federal soliqlar umumiy daromadlari YaIMning beshdan bir qismini tashkil qiladi. Soliq daromadlarining eng muhim manbai - shaxsiy daromad solig'i (federal daromadlarning deyarli yarmi) hisoblanadi. Korporativ daromad solig'idan olinadigan yalpi tushumlar jami federal pul tushumlarining ancha kichik qismini (sakkizdan biri) tashkil etadi. Aktsiz solig'i bo'yicha daromadlar jami federal daromadlarning yana bir kichik qismini (o'ndan bir qismidan kam) hosil qiladi; Biroq, ayrim davlatlar o'z aktsizlari va sotish solig'ini to'laydi. Federal aktsizlar kata miqdordagi spirt, benzin yoqilg'isi va tamaki mahsulotlariga to'g'ri keladi. Boshqa daromad manbalari orasida Medicare va Ijtimoiy Sigortalar bo'yicha ish haqi soliqlari (federal daromadning qariyb beshdan ikki qismini tashkil qiladi) va mulk va sovg'alar solig'i (jami daromadning atigi 1 foizini tashkil etadi) kiradi.

AQSh iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar harakati uchun yo'l transporti tizimiga juda katta bog'liq. Keng hajmdagi yuklarni tashish avtomobil yo'llari orqali boshqariladi va ular umumiy yo'llarning 4 million kilometrini tashkil etadi. Shu jumladan, dunyodagi eng uzun avtomobil yo'llaridan biri ham aynan AQShda joylashgan (91,700 km). Dunyoning ikkinchi yirik avtomobil bozorida Amerika Qo'shma Shtatlari dunyo bo'ylab har ming kishi uchun jon boshiga 765 ta avtomobil bilan dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichga erishgan. Shaxsiy avtomobillarning qariyb 40 foizi - mikroavtobuslar, kichik hajmdagi yuk tashuvchi, suv yoki yengil mashinalari tashkil etadi.

Serharakatchanlik natijasida ba'zi avtomagistrallarda halokatli oqibatlar kuzatilishi, katta shaharlardagi ahvolning yomonlashuvini, transport tirbandligining ko'payishini, atrof-muhitning ifloslanishini va jamoat transporti tizimlarini qo'llab-quvvatlash pasayishi ushbu sektordagi asosiy muammolar hisoblanadi.

Turizm. AQShda sayyohlik yil sayin millionlab xalqaro va mahalliy sayyohlarga xizmat qiladigan yirik sanoat hisoblanadi. Sayyohlar AQShga tabiiy mo'jizalar, shaharlar, tarixiy joylar va ko'ngilochar joylarni ko'rish uchun tashrif buyurishadi. Ikkinchi jahon urushidan

so‘ng mamlakatda yangicha tarzda turizm tiizmi ishga tushdi. Yangi tur operatorlari, yo‘nalishlar, o‘rmonlar, tog’lar, muzeylar, park, kinosanoati (Hollywood), multfilm sanoati (Walt Disney), milliy bog’lar, hayvonot va qushalar dunyosi, sirk hamda yuqori darajadagi mehmonxonalar qurish orqali butun dunyo ahlini o‘ziga jalb qildi. Ayniqsa kasino va otchoparlar milliy madaniy me’rosga aylandi. Sport sohasidagi yutuqlar hamdaa ta’limni yanada yangi cho‘qqilarga olib chiqish mamlakatda xorijlik sayyohlarni yanada ko‘payishini ta’minladi. Tibbiyot tizimi hamda muhandislik sohalaridagi ulkan yutuqlar esa AQShning dunyo yetakchisi ekanin yana bir bor isbotladi. 2013 yil fevral oyida Qo‘shma Shtatlarda sayohat qilgan xalqaro sayyohlar safari va sayyohlik bilan bog’liq mahsulot hamda xizmatlarni sotib olish 10,9 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi.

AQShda 1998- yillarda tadqiqot va rivojlantirish uchun taxminan 227 milliard AQSh dollar sarflangan. 1987-1997- yillar mobaynida tadqiqot va rivojlanish jarayonida million kishiga taxminan 3,676 olim va muhandis qatnashdi. 1998- yilda tadqiqot va rivojlantirish bo‘yicha milliy xarajatlar YaIMning 2,67% ni tashkil etdi. Milliy Ilmiy Jamg’arma (1950 yilda tashkil etilgan) ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirgan bosh davlat muassasalaridan biridir. Amerikaning Ilm-fanni rivojlantirish assotsiatsiyasi (1848-yilda tashkil etilgan) ilm-fan va texnika tushunchalarini tushunishga yordam beradi. Milliy fanlar akademiyasi (1863- yilda tashkil etilgan) va Milliy muhandislik akademiyasi (1964- yilda tashkil etilgan) ikkalasi ham Vashingtonda joylashgan bo‘lib, 1996- yilda AQShda 95000 dan ortiq talaba fan va texnika sohasida magistr darajasini oldi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan AQSh o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 19- fevral kuni o‘rnatilgan. O‘zbekiston AQSh munosabatlari doirasidagi barcha yo‘nalishlarda sifat jihatidan yangi va o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yishni belgilab bergan asosiy hujjat bu ikki mamlakat o‘rtasida 2002-yil martda imzolangan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to‘g’risidagi Deklaratsiya hisoblanadi. O‘zbekistonda AQShning dunyoda taniqli bir qator yirik kompaniyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Xususan, «General Motors»

korporatsiyasi ishtirokida yengil avtomobillar uchun dvigatellar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan «General Motors Powertrain Uzbekistan» zavodi faoliyat ko‘rsatmoqda. «Boeing» kompaniyasi «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasini zamonaviy avialaynerlar, xususan «Boeing-787-8 Dreamliner» rusumidagi yangi avlod samolyotlari bilan ta’minlovchi asosiy va doimiy hamkor sanaladi.«General Electric» korporatsiyasi O‘zbekistonning neft-gaz va aviatsiya sektorlarida, shuningdek, salomatlik va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi muhim hamkori hisoblanadi. AQShning O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyalari ichida «Exxon Mobil», «CNH Industrial», «Coca-Cola», «Hyatt», «Hilton», «John Deere», «Honeywell», «Caterpillar» va boshqalar ham mavjud.

AQShning Toshkentdagi hozirgi va to‘qqizinchi elchisi Daniel Rozenblum qayd etishicha, Vashington hozir qator maqsadlar yo‘lida harakatlanmoqda. Birinchidan, barqarorlik uchun hamkorlik qilish, jumladan Afg’oniston va O‘zbekistonning xavfsizlikni ta’minlash salohiyatini oshirish.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda islohotlarni quvvatlash va ular davomiy va natijali bo‘lishiga hissa qo‘shish. Uchinchidan, deya tushuntiradi Rozenblum, biznes imkoniyatlarni kengaytirish, sarmoya muhiti yaxshilanishi, shaffoflik uchun intilish. To‘rtinchidan, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga e’tiborni oshirib, fuqaro erkinliklari himoyasini yo‘lga qo‘yish, adliya va sud tizimidagi islohotlarni quvvatlash.

Bugungi kunda O‘zbekiston va AQSh o‘rtasida mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza, jumladan, turli xarakterdagi 100 dan ortiq hujjatlar mavjud. Siyosiy muloqotni mustahkamlash, xususan, mintaqaviy xavfsizlik, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirish yuzasidan tashqi ishlar vazirliklari aro siyosiy maslahatlashuvlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri savdo-iqtisodiy sheriklikdir. Tomonlar savdo-iqtisodiy aloqalarni

doimiy ravishda kengaytirishga intilib, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilmoqda. O‘zaro savdo so‘nggi uch yil ichida o‘sib bormoqda. Misol uchun, O‘zbekistonning AQSh bilan tovar ayirboshlash hajmi 2022- yil yakuni bo‘yicha 436,8 million dollarni (eksport – 68,5 million dollar, import – 368,3 million dollar) tashkil etib, 2021- yilga (426,3 million dollar) va 2020- yilga (277 million dollar) nisbatan oshganligini ko‘rsatmoqda.

2.2.Germaniya davlatining iqtisodiyoti

Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022- yil hisobotiga ko‘ra Germaniya nominal YaIM hajmi 4.072 trln. AQSh dollari, 2022- yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 43 032 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 4 o‘rinida turadigan mamlakat.

Germaniya rivojlangan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti modelidir. Yevropada eng yirik milliy iqtisodiyotga ega bo‘lgan bu mamlakat 2022- yilda yevro hududining 28 foiz tovar aylanmasini tashkil qilgan. Germaniya Yevropa Ittifoqi va Yevro hududining asoschisi hisoblanadi. Germaniya Sharqiy mamlakatlar bilan aloqani saqlab qolgan holda g’arbning talablariga to‘la javob beradigan tizimli dastur asosida ish olib boradi. Mamlakat Katta yettilik a’zosi bo‘lib, jahondagi iqtisosdiy, ijtimoiy, texnologik, innovatsion taraqqiyotga bevosita o‘zning ta’sirini o‘tkaza oladigan darajada rivojlangan. Mamlakatda ijtimoiy sohaga juda katta e’tibor qaratilgan bo‘lib aholining turmush darajasi juda yuqori. Davlat shaharsozlik loyohalari asosida betakror infrastrukturani tashkil etgan. Trasport tizimi, dengizda sayohat, havo yo‘llaridagi professional xizmatlar mamlakatning muhandislik sohasidagi ulkan yutuqlari hisobiga to‘g’ri keladi.

Mamlakatda Yevropa Ittifoqi moliyaviy tiziminig asosi bo‘lgan Yevropa Markaziy Banki joylashgan. U ittifoqdagi butun pul mablag’lari aylanmasini nazorat qiladi hamda tartibga soladi. 1999- yil yanvar oyida Germaniya va 10 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatlari Yevropaning umumiy valyutasi yevroni joriy etdi. Hozirda mamlakat

jahon miqyosida eng katta kapitalni eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Mamlakatda xizmat ko‘rsatish sohasi umumiy yalpi ichki mahsulotning 70 foizini, sanoatning 29,1 foizini va qishloq xo‘jaligini 0,9 foizni tashkil etadi. Germaniyaning eng yaxshi 10 ta eksport mahsulotlariga avtomobil, mashinasozlik, kimyo mahsulotlari, electron mahsulotlar, elektrotexnika, farmatsevtika, yuk tashish uskunalari, asosiy metallar, oziq- ovqat, kauchuk va plastmassalardan iborat.

Germaniya 1871- yilda yagona davlatga aylandi. Germaniyada sanoat inqilobi Angliya, Frantsiya va Belgiyaga qaraganda bir asr o‘tgandan keyin yuz berdi. 1845- yildan 1870- yilgacha mamlakatda 5000 kilometrdan ko‘proq temir yo‘l qurildi. 1850- yilda Germaniya o‘z lokomotivlari qurib uzoq olis manzilarada sinab ko‘rdi. Mamlakat Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng ikki qismga bo‘lingan holda keskin rivojlana boshladi. G’arbiy Germaniya AQSh va Buyuk Britaniya tomonida bo‘lsa, Sharqiy Germaniya Sobiq Ittifoq va Sobiq Yugoslabiya hamkorligida rivojlana boshladi. Ikki qismli mamlakat 1989-yilda birlashib Buyuk devor qulatildi.

Germaniya ko‘plab iqtisodiy hamkorlarga ega bo‘lgani uchun yetarli o‘sish, muvozanatli tashqi savdo, barqaror narxlar va past ishsizlik darajasiga erishish uchun yuqori darajadagi muvofiqlashtirishni talab qildi. 1963- yilda tashkil etilgan va "besh dono odam" sifatida tanilgan umumiy iqtisodiy tendentsiyalarni baholash bo‘yicha ekspertlar kengashi har yili milliy iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda yordam berish uchun umumiy iqtisodiy rivojlanishlar modellarini baholaydi. Bundan tashqari, federal hukumat har yili yillik hisobotni ekspertlar kengashining yillik baholashiga va uning amalga oshirayotgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga javob beradigan qonunchilik organiga taqdim etadi.

Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonxo‘jaligi va baliqchilik. Qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanishning eng keng tarqalgan shakllari donli ekinlarni yetishtirish va doimiy yaylovlardir; ikkalasi ham hayvon yemlarining muhim manbalari hisoblanadi. Qora molchilk va qo‘ychilik mamlakatda go‘sht muammosini to‘liq bartaraf etadi. Shuningdek, sut yetkazib berish tog’oldi hududlarida yengil iqlim

sharoitida ommalashgan. Hozirgi vaqtda kichik fermer xo‘jaliklari aynan ushbu sut va sut mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi hisoblanadi. Sharqiy Germaniyada sutni qayta ishlab chiqarish orqali oziq-ovqatlar sohasidagi keng assortimentli tovarlar shahar bozorlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ekin maydonlarida keng miqyosli dalalar yem-xashakka ajratilgan. Mamlakatning G’arbiy ham sharqiy qismlarida tovuqchilik va buzoqlar boqishga ajratilib yirik jamoaviy fermerlik faoliyatlari mavjud. Bugungi kunda, konsentratsiyalangan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimi yer osti suvlari ifloslanishiga olib kelayotganidan ham xavotirga tusha boshlandi. G’arbiy Germaniya tumanlarida meva-sabzavot va gul kabi ekinlar yetishtiriladi. Janubdagi issiq okeanlar tamaki va urug’ makkajo‘xori uchun juda samarali iqlim hisoblanadi. Hududda sabzavotlar katta hajmda yetishtiradilar. Janubda mevachilik xo‘jaligi yanada takomillashib ko‘payib bormoqda. Vodiy yonbag’irlarida sharob uzumlari ham turli xil navlarda yetishtiriladi[3].

XXI asrning boshida Germaniyaning yirik qishloq xo‘jalik mahsulotlarini (masalan, don, shakar, o‘simlik yog’i, sut va go‘sht) yetishtirish ichki iste’moldan oshib ketdi. Natijada mahsulotlar tashqi bozorga eksport qilinib barqaror davomiy profitsitga erishildi.

Germaniyaning umumiy yerlarining uchdan bir qismi o‘rmon bilan qoplangan. O‘rmon maydonida g’ovakorlar asosiy o‘rinni egallaydi; daraxtlarning katta qismi hisobga olib, uning tez o‘sishi va qurilish maqsadlariga muvofiqligi hamda qog’oz, plastmassa ishlab chiqarilishi uchun sanoatda qayta ishlanadi. Mahalliy ishlab chiqarish odatda o‘rmonlarga bo‘lgan talabning yarmini qoplaydi.

Tabiiy resurslar va energetika. Tabiiy resurslarga nisbatan kam bo‘lgan Germaniya, xom ashyosining ko‘p qismini import qiladi. Neft Germaniyaning asosiy energiya manbai hisoblanadi. Mahalliy ishlab chiqarish juda cheklangan bo‘lgani uchun ko‘pgina neft xom ashyosini import qiladi.

[3] Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

Germaniyaga tabiiy gazini yetkazib berish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning yuqori hajmi import qilinadi. Gaz Chexiya Respublikasidan, Rossiyadan import qilinadi. Germaniyaning ikkinchi yirik energiya manbalaridan bo‘lgan bitumli ko‘mir konlardan qazib olinadi. Ammo, ekstraksiyalarning juda qimmatligi sababli davlat tomonidan subsidiyalanadi. 20-asrning so‘nggi yarmida mahsulotning uchdan ikki qismi qisqargan. Ko‘mir endi ikkita asosiy maqsadga: elektr ishlab chiqarish va metallurgiya kokasini ishlab chiqarish uchun asosiy energiya manabaiga aylandi. Germaniya iqtisodiyotining ajoyib xususiyati qo‘ng’ir ko‘mir (linyit)ning hamda uni qayta ishlash tizimining sanoatda mavjudligidir. Bu past sifatli, botqoqlangan yoqilg’I katta hajmli mashinalar bilan qazib olinadigan katta ochiq chuqurliklarda iqtisodiy tarzda ishlanishi mumkin. Barcha ko‘mir konlarining yetti-sakkiztasi to‘g’ridan-to‘g’ri ochiq yer maydonlarida joylashgan elektr stantsiyasiga yetkaziladi.

Germaniya dunyodagi beshinchi yirik energiya iste’molchisi bo‘lib, asosiy energiyaning uchdan ikki qismini import qiladigan mamlakatdir. Shu bilan birga, Germaniya Yevropaning eng yirik elektr energiyasi iste’molchisi bo‘lib, 512,9 terovatt soatni tashkil qilgan.

Germaniyaning asosiy sanoat tarmoqlari mashinasozlik, elektrotexnika, kimyoviy moddalar va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Rivojlangan iqtisodiyotga ega bo‘lgan boshqa ko‘p mamlakatlar kabi, Germaniyaning xizmat ko‘rsatish sektori (ya’ni, savdo, transport, bank, moliya va boshqaruv) yetakchi ish beruvchi hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi eksportchilaridan biri bo‘lgan Germaniya, tashqi savdo hamkorlari bilan doimiy ravishda munosabatlarni yaxshilashga juda katta e’tibor qaratadi. Savdo hajmining yarmidan ko‘pi Yevropa Ittifoqi a’zolari bilan amalga oshirilmoqda. Germaniya asosiy eksport yo‘nalishlari: Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya va Gollandiya hisoblanadi. Sharqiy va Markaziy Yevropa bilan savdo munosabatlari yanada o‘sib bormoqda. Germaniya sobiq Ittifoqi va Rossiyani uchun asosiy savdo sherigi hisoblanadi.

Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyotining umumiy tavsifi (2022- yil)

Poytaxti **YAIM**	BERLIN, $ 4.072 trln	**Budjeti**	Daromadlar$1.748 trillion Xarajatlar: $1.875 trillion
Maydoni **Oltin valyuta zahirasi** **Tashqi qarzi**	357,022 kv km $185.3 mlrd $5.326 trl	**Tabiiy resurslar**	Ko‘mir, mis, molibden, uran boksitt, oltin,temir merkuriy, nikel, kumush, rux, neft, tabiiy gaz, yog’och.
Aholisi	84,4 mln kishi (2022) 16 states	**Qishloq xo‘jaligi**	Kartoshla, bug’doy, donchilik, shakar lavlagi, mevachilik, karam, sut mahsulolatri, qora molchilik, parrandachilik, jun .
Umumiy chegarasi	3,714 km Avstriya 801 Belgiya 133 Chexiya 704 Daniya 140 Fransiya 418 Lyuksemburg 128 Niderlandiya 575	**Sanoati**	asbob-uskunflar, mashinasozlik,kimyo, po‘lat, ko‘mir, sement, avtomobil jihoslari, oziq-ovqat va ichimliklar, tekstil, kemasozlik, metallurgiya, elektronica; va turism
Ishsizlik **Inflatsiya** **Soliqlar**	5.6% 1.7% 43.8% YaIM da	**Sohalar bo‘yicha YaIM tarkibi**	Qishloq xo‘jaligi: 1.4 % Sanoat:24.2% Xizmatlar:74.3%
Yirik kompaniyalari	Mercedes Benz, BMW, Siemens, Volkswagen,Adidas, Bosch, Nivea	**Xalqaro iqtisodiy hamkorlik**	EU, WTO, UNCTAD, EBRD, IBRD, IMF, OECD, OPCW, OSCE, UNCTAD, UNESCO, UNHCR, UNIDO,UNWTO, UN
Davlat boshqaruvi	Federal konstituts. presidentlik	**Jon boshiga YaIM darasi**	$50.840 (nominal)

Asosiy eksportga transport vositalari (shu jumladan, avtomobillar), elektr texnika va kimyoviy moddalar, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari va sharob kiradi. Import tarkibi esa sanoat uchun xom ashyo, energiya resurslari va yarim tayyor mahsulotlar kiradi. Fransiya, Gollandiya, Italiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Xitoy va Belgiya mamlakatlari bilan faol import munosabatlarini amalga oshiradi.Germaniyada tashkilotlar solig’i stavkasi 29,79 foizni tashkil qiladi. Germaniyada shaxsiy daromad solig’i darajasi 47,50 foizni, savdo soliq stavkasi 19 foizni tashkil etadi.

Germaniya juda tirband transport aloqa tarmoqlariga ega bo‘lib Yevropa markazidagi jo‘g’rofiy joylashuvi qo‘shni mamlakatlarga xizmat qiluvchi transit logistika tizimini yengillashtiruvchi davlat hisoblanadi. Bu davlatda quyidagi transport turlari mavjud: suv transporti, temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari, havo transporti.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Germaniya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 6 mart kuni o‘rnatilgan.Ikki mamlakat o‘rtasida turli, jumladan oliy darajadagi siyosiy muloqot yo‘lga qo‘yilgan. Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 13 ta doirasi o‘tkazilgan. Shuningdek, parlamentlararo aloqalar, huquq va xavfsizlik sohalarida hamda mudofaa vazirliklari yo‘nalishida hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Germaniya O‘zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda korporativ boshqaruvning samarador usullarini joriy etishda rivojlangan davlatlar, xususan, Germaniya tajribasi o‘rganilmoqda. Germaniyaning Daimler, Siemens, BMW, Lufthansa, Thyssen Krupp, MAN, Knauf singari 25 yetakchi kompaniyasi tashabbusi bilan 2002-yilda asos solingan Yevropa menejment va texnologiyalar maktabi bilan hamkorlik bu borada muhim rol o‘ynamoqda. Hozirgi paytda oliy ta’lim sohasida Germaniyaning 20 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari bilan sheriklik aloqalari o‘rnatilgan bo‘lib, talabalar, mutaxassislar va pedagog kadrlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Jami 7 ta oliy darajadagi tashriflar Germaniyaga 1993, 1995, 2001 va 2019 -yillarda, O‘zbekistonga esa 1995, 2002 va 2019- yillarda

amalga oshirilgan. Hamda 2021- yil 12- mart kuni O‘zbekiston prezidentining Germaniya kansleri Angela Merkel bilan videokonferensaloqa orqali muzokaralari bo‘lib o‘tgan.

O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasida jami 145 ta shartnoma imzolangan bo‘lib, shundan 92 tasi davlatlararo va hukumatlararo, 20 tasi idoralararo va 33 tasi boshqa xususiyatga ega.



Birgina 2021- yilda Germaniyadan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,1 milliard dollarni (+37,5 foiz) tashkil etib, ular neft-gaz va farmatsevtika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan. 2022- yil yakuniga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 769,1 million dollarni tashkil qildi.



O‘zbekistonda Germaniya sarmoyasi ishtirokida 219 ta korxona faoliyat yuritmoqda, ulardan 97 tasi yakka tartibdagi tadbirkordir. 31 ta nemis kompaniyasining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o‘tgan.



O‘zbekistonda:

- 980 ta maktabda 270 mingga yaqin o‘quvchi nemis tilini o‘rganadi, bu yerda 3 mingdan ortiq o‘qituvchi dars beradi;
- 24 ta maktabda nemis tili, shulardan 6 tasida chuqur o‘rganiladi;
- Germaniyaning 30 dan ortiq universitetlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 1 mingga yaqin o‘zbekistonlik talabalar, aspirantlar va doktorantlar Germaniyaning turli universitetlari va tadqiqot markazlarida tahsil olishadi.

2.3. Kanada iqtisodiyoti

Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022- yil hisobotiga ko‘ra Kanada nominal YaIM hajmi 2140 mlrd. AQSh dollari, hozirda dunyo iqtisodiyotining 10 o‘rnida turadigan mamlakat.

Kanadaning rivojlanish modeli bozor mexanizmlari va yuksak texnologiyaga asoslangan aralash iqtisodiyotdir. Kanada hayot darajasi va turmush tarzi juda yuqori bo‘lgan dunyodagi eng boy mamlakatlardan biridir. Boshqa rivojlangan davlatlar kabi, mamlakat iqtisodiyoti ham xizmat ko‘rsatish sohasiga ega bo‘lib YaIMning aksariyat qismini shakllantirib umumiy ish kuchining

to‘rtdan uch qismini tashkil etadi. Kanada 2016- yilda umumiy qiymati 33,2 trln. AQSh dollariga baholangan tabiiy resurslarning to‘rtinchi eng yuqori zahira ko‘rsatkichga ega. U dunyodagi uchinchi yirik tasdiqlangan neft zaxiralariga ega bo‘lib, to‘rtinchi yirik eksportchisi sanaladi. Bundan tashqari, u tabiiy gazning to‘rtinchi yirik eksportchisi hamdir. Kanada juda boy tabiiy resurslari tufayli "energiya super kuch" dasturiga amal qiladi. XX asr mobaynida Kanada ishlab chiqarish sanoati va xizmatlar sektori tobora rivojlana boshladi. Ko‘p yillar davomida Kanada o‘z ishlab chiqarish tarmoqlarini import qilinadigan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbatan himoyalangan tariflarni qo‘llab-quvvatladi (proteksionizm). Natijada, ko‘pgina AQSh firmalari Kanada bozorini ta’minlash uchun o‘z filiallarini tashkil etdi. Kanada iqtisodiy siyosatining yana bir muhim poydevori hukumatning sekin o‘sib boradigan sohalarda iqtisodiy rivojlanishni rag’batlantirish uchun grantlar va subsidiyalar ajratishi bilan boshlandi. 2009- yilda Kanada, jami eksportning qariyb 58 foizi qishloq xo‘jaligi, energetika, o‘rmonchilik va kon sanoati eksporti hisobiga to‘g’ri keldi. Mashina, uskunalar, avtomobil mahsulotlari va boshqa mahsulotlar 2010 yilda jami eksportning 38 foizini tashkil qilgan.

Kanada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan, bug’doy va boshqa don mahsulotlari bo‘yicha dunyodagi eng yirik yetkazib beruvchilardan biri hisoblanadi. Mamlakat AQSh va Osiyo mamlakatlariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy eksportchisi hisoblanadi. Boshqa rivojlangan davlatlar singari, qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan aholi va yalpi ichki mahsulotning ulushi XX asrga nisbatan sezilarli darajada kamayib bormoqda.

Kanada hududlarining deyarli yarmi o‘rmon bilan qoplangan bo‘lib, yog’ochsozlik va qog’oz uchun juda katta hajmli sanoatni ish bilan ta’minlaydigan zahiraga ega. Kamada AQShga ko‘p miqdorda yumshoq yog’och eksport qiladi.

Kanadada dunyodagi okeanlardan olinadigan baliqlarning faqat bir qismini ushlaydi. Ammo, Kanadaning nisbatan kichik aholisi va jon boshiga tushgan baliq iste’moli miqdori tufayli baliq eksporti hajmi bo‘yicha yetakchilar orasida turadi.

Kanada, uran, rux, nikel, kaliy, asbest, oltingugurt va titanium qazib olish bo‘yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlar orasida o‘z o‘ringa ega. Bundan tashqari, temir, ko‘mir, neft, oltin, mis, kumush, qo‘rg’oshinning asosiy qayta ishlabchisi hisoblanadi. Kanada qazib olishning mineralllarni katta qismini eksport qilar ekan, tog’-kon sanoati jahon narxlarining o‘zgarishiga katta ta’sir o‘tkaza oladi. Yuqori talab qilingan davrda narxlar ko‘tarilib, kon qazib olish korxonalari o‘zlarining faoliyatini oshiradilar va yangi konlarni ochadilar; talab tushganda esa, qazib olish sekinlik bilan pasayadi, konlar yopiladi va ishchilar vaqtincha ta’til beriladi. Kanada o‘z neft va tabiiy gaz ehtiyojlarini qondira oladi shuningdek, katta miqdorda ortiqcha elektr manbasiga ega. Qumliklarda aralashtirilgan uran, neft va ko‘mirning katta konlari mavjud. Kanada sof energiya eksportchisi bo‘lgan rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lib, 2009 - yilda energiya mahsulotlarining aniq eksporti YaIMning 2,9 foizini tashkil etdi[4].

Sanoat ishlab chiqarish Kanada YaIMning 27,5 foizini tashkil etadi va ish kuchining 22 foizini tashkil etadi. Kanadaning temir va po‘lat sanoati zamonaviy hamda samarali tashkil etilgan bo‘lib, avtoulovlar, tog’-kon uskunalari shuningdek, maishiy texnika kabi uzoq muddatli tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

1960-yillarning o‘rtalarida Qo‘shma Shtatlar va Kanadada avtomobillar bo‘yicha bitim tuzildi. Nayijada Kanada avtomobilsozlik sanoati keskin rivojlanish qayd etib kengayib bordi. Yaponiya avtomobil ishlab chiqaruvchilari Kanadada 1980- yilda zavodlar barpo etishni boshlaguniga qadar, sanoatda AQSh firmalarining bir nechtasi o‘z filiallari tashkil qilgan edilar.

Kanada xizmat ko‘rsatish sektori ko‘p qirrali bo‘lib, mamlakat aholisining to‘rtdan uch qismini ish bilan ta’minlab YaIMning 70 foizini tashkil qiladi[5]. Eng yirik ish beruvchi - chakana sektor bo‘lib, Kanadaliklarning qariyb 12 foizini tashkil qiladi. Chakana savdo sanoati asosan xarid qilish markazlarida to‘plangan kichik zanjir do‘konlaridan shakllangan. Xizmat ko‘rsatish sohasining ikkinchi qismi

[4] Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

[5] http://statisticstimes.com/economy/countries-by-projected-gdp.php

biznes-xizmat va aholining faqat bir oz Bunga moliya xizmatlari, ko‘chmas mulk va aloqa sohalari kiradi. Iqtisodiyotning ushbu qismi so‘nggi yillarda jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. U katta shahar markazlarida, xususan, Toronto, Monreal va Vankuverda joylashgan. Ta’lim va sog’liqni saqlash sohalari Kanadaning eng katta xizmatlar sohasidir. Ammo, ikkalasi ham asosan hukumat tasarrufi ostida faoliyat yuritadi. Mamlakatda sog’liqni saqlash sohasi jadal o‘sib bormoqda va Kanadada dunyo bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi.

Kanada moliyaviy xizmatlari iqtisodiyotning pul munosabatlarini tashkil etish va tartibga solishda katta moslashuvchanlikni namoyon etdi. Kanadada ishlash uchun tijorat banki federal hukumat tomonidan alohida tartibga solinishi kerak. Oddiy markaziy bank funktsiyalarining aksariyatini Bank-moliya siyosatini aniqlashda katta avtonomiyaga ega bo‘lgan Bank tomonidan bajariladi. Rasmiy valyuta - Kanada banki tomonidan ishlab chiqilgan va tarqatilgan Kanada dollari hisoblanadi. Boshqa moliya institutlari, masalan, kredit uyushmalari, viloyat tasarrufidagi banklar va ishonchli hamda ipoteka krediti kompaniyalari borgan sari ko‘payib bormoqda. Shu bilan birga, chet el valyutasini jalb etish bo‘yicha faoliyatni boshqarish bo‘yicha nisbatan erkin bo‘lmagan yirik banklar hali ham asosiy moliyaviy institutlarning bir qismi bo‘lib qolmoqda. Kanadada Monreal, Toronto va Vinnipeg fond birjalari mavjud.

Kanada tashqi savdo munosabatlari iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi tarixan katta miqdordagi xom ashyo, ayniqsa, baliq, mo‘yna, don va yog’och eksportiga bog’liq edi. Shunga qaramay, xom ashyo Kanada eksportining asosiy ulushi sifatida kamaydi, qayta ishlangan, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar hajmi keskin ortdi. 1990- yilga Kanada eksportining taxminan beshdan to‘rtqismi qayta ishlangan mahsulotlar hissasiga to‘g’ri keladi. 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab yetakchi Kanada eksporti avtomobillar (umumiy eksportning taxminan to‘rtdan bir qismini tashkil etadi), avtomobil qismlari va boshqa turdagi mashinalar hamda jihozlar, xususan, kompyuterlashtirilgan aloqa tizimlari kabi yuqori texnologik

mahsulotlar hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar Kanadaning asosiy ekspot qilingan tovarlari bo‘lib, ishlab chiqarilgan metallar va boshqa materiallar hamda o‘rmon mahsulotlari, jumladan, yog’ochsozlik materiallari, qog’oz va gazeta qog’ozi hisoblanadi. Muhim import tarkibi esa kimyoviy mahsulotlar, to‘qimachilik, neft mahsulotlari va qish mavsumida sabzavot, tropik hamda subtropik mevalar, yong’oqlar va oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi.

Kanada ishchi kuchining deyarli to‘rtdan bir qismi kasaba uyushmalariga a’zo. Ularning aksariyati Qo‘shma Shtatlarda joylashgan kasaba uyushmalari bilan bog’liq tarzda ish olib boradi. Kanada ittifoqchilari amerikalik hamkasblari bilan ish haqining teng darajasi uchun hamkorlik qiladi. Bu mehnatni boshqarish tangligini keltirib chiqarmoqda. Chunki, Kanada ishlab chiqarish darajalari odatda kichikroq samaradorlik bo‘lgani uchun Qo‘shma Shtatlardagiga qaraganda ancha past darajada. Kanada ish bilan bandlik darajasi 2018-yil fevral oyida 61,70 foizni tashkil qildi.

Kanada o‘zining avtomagistral va yo‘llar bilan dunyo yo‘l qurilish tizimida eng oldingi o‘rinda turadi. Hatto Xitoy va Rossiya ham aynan Kanada modellari asosida o‘zlarining yirik va muzlagan yo‘llarini modernizatsiya qiladi. Kanada geografik jihatdan dunyoda ikkinchi o‘rinda turishi aynan ushbu sohaga juda katta muammolar yaratadi. Ochiq hududlarga kirib borish odatda, jamoat transporti uchun doimo mavjud bo‘lmasada kon qazuvchi kompaniyalar tomonidan qurilgan yo‘llardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Kanada xizmat ko‘rsatish sohasi barcha boshqa faoliyatlardan ko‘ra ko‘proq odamlarni ish bilan ta’minlaydi. Eng jadal rivojlanib borayotgan xizmat ko‘rsatish joylari orasida turizmdir. Kanada, xorijiy sayohatchilar uchun, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Frantsiya va Germaniyadan dunyoning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kanadalik va chet ellik sayyohlar har yili bir necha milliard dollarlik daromad manbai bo‘lgan transport, turar joy, oziq-ovqat, dam olish va ko‘ngil ochish uchun aynan sayyohlikni tanlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Kanada o‘rtasida diplomatik aloqalar **1992-yil 7 sentyabr** kuni o‘rnatilgan. O‘zbekiston Kanada bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga muhim e’tibor qaratmoqda va siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalardagi o‘zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda.

Kanadaning turli kompaniya va notijorat tashkilotlari O‘zbekistonning mineral xom ashyo va neft-gaz konlarini ishga tushirishda qatnashishga g‘oyat qiziqib qaraydi. Navoiy viloyatidagi Tandir maydonini geologik jihatdan birgalikda o‘rganish to‘g‘risida 1998-yil oktabrda O‘zbekiston Geol. va mineral resurslar davlat qo‘mitasi bilan "Xebron Fiord Resourses Ink" kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan shartnomada Kanada tomoni salkam 4,5 mln. AQSH dollari sarflashi ko‘zda tutilgan. Kompaniya mutaxassislari belgilangan ish dasturini bajarishga kirishdi. Toshkent aviatsiya i.ch. birlashmasi Kanadaning "Pratt end Uitni" kompaniyasi bilan Ilyushin II-114 samolyotlari uchun PW-127 dvigatellarini yetkazib berish sohasida bevosita hamkorlik qila boshladi. O‘zbekiston aloka va axborotlashtirish agentligi Kanadaning "Nortel Telekom" kompaniyasi bilan 1993-yildan buyon hamkorlik qilib kelayotir. Keyingi 8 yil mobaynida ushbu kompaniya bilan jami 29 mln. AQSH dollari qiymatiga ega bo‘lgan 8 ta shartnoma amalga oshirilib, O‘zbekistonAmerika "O‘zdunrobita" qo‘shma korxonasi uchun asbob-uskunalar yetkazib berildi.

O‘zR Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Kanadaning bir qancha moliya muassasalari bilan aloqa o‘rnatgan. Ikki mamlakat o‘rtasida ta’lim, fan va texnika sohasida, jumladan, bir-birlariga talabalar, aspirantlar, o‘qituvchilar va mutaxassislar yuborish, ularning malakasini oshirish borasida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. O‘zRda 2000-yil boshlarida Kanadalik sarmoyadorlar ishtirokidagi 13 korxona ro‘yxatga olingan.

2024-yil 3-fevral kuni Bandlik vaziri Behzod Musayev Kanadaning O‘zbekistondagi elchisi Alam Xemson bilan o‘zbekistonliklarni Kanada mehnat bozoriga jalb qilish bo‘yicha

muzokara o‘tkazdi. Uchrashuvda Kanada bilan mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zbekistonlik fuqarolarni Kanada mehnat bozoriga jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha muzokaralar olib borildi.

2.4. Buyuk Britaniya iqtisodiyotining o‘ziga xosligi

Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022 - yil hisobotiga ko‘ra Buyuk Britaniya nominal YaIM hajmi 3071 mlrd. AQSh dollari, 2022 yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 47 232 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 5 o‘rnida turadigan mamlakat.

Birlashgan Qirollik kichik mamlakat bo‘lishiga qaramasdan judayam qulay geografik joyda joylashgan. Ilm-fan nazariya va yutuqlarini amaliyotga to‘liq tadbiq eta olib o‘z taqdirini o‘zgartira olgan yagona davlat, do‘stlik ham emas shunigdek, dushmanlik ham emas shioriga asoslanib dunyo mamlakatlari bilan strategic sherikchilik aloqalarini o‘rnatadigan liberal davlatdir. Klassik va Neoklassik maktablar yaratgan modellarg atayangan Britaniya XVIII-XIX asrda keskin iqtisodiy tub burilish yasadi. Yangi yerlarni kash etilishi va mustamlakachilik aynan iqtisodiy modellarni ishlashi uchun ayni muddao bo‘ldi. Xalqaro ish kuchi migratsiyasi va xalqaro mehnat taqsimoti Buyuk Britaniya uchun jahon iqtisodiyotiga glonallashsish uchun ancha ustunlik berdi. Bu mamlakatning xalqaro savdo aloqalaridan shuni kuzatish mumkinki, deyarli barcha mahsulotlar import hisobiga to‘g’ri kelgan. Mamlakatda sanoat to‘ntarilishidan so‘ng, ilm-fan yutuqlarini sanoatga jalb qilinishi bilan yengil sanoat, elektronika, temir yo‘l tizimi va qishloq xo‘jaligida juda katta o‘sish kuzatildi.

Neoliberal iqtisodning yangi davri 1979- yilda Margaret Tetcherni saylashi bilan boshlandi. 1980-yillarda davlatning ko‘plab sanoat va kommunal xo‘jaligi xususiylashtirildi, soliqlarni qisqartirdi, kasaba uyushmalari islohotlari amalga oshirildi. Bozorlarni tartibga solinishi, mamlakatda politsiyaning rolini kuchaytirildi. Ikkinchi Jahon urushidan buyon eng katta iqtisodiy inqiroz eng yuqori cho‘qqisi qayd

etildi.Ishsizlikni qo‘llab-quvvatlash inqiroz davrida pasayib ketdi va 2010- yilgi umumxalq saylovlarida koalitsiya hukumati konservatorlar hamda liberal demokratlar tomonidan shakllantirildi. Bu esa, byudjet kamomadini yumshatish uchun chuqur sarf-xarajatlarni kamaytirdi.

Birlashgan Qirollik g’arbiy Yevropa davlatlari orasida qishloq xo‘jaligi sohasida ham o‘zgacha rivojlanish xususiyatiga ega. Aynan ushbu soha ish bilan band bo‘lgan aholi sonining (2 foiz atrofida) tashkil etadi. Birinchi navbatda milliy siyosat va keyinchalik Yevropa Ittifoqining umumiy qishloq xo‘jaligi siyosati (CAP) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan rentabellikning yuqori darajasi va mexanizatsiyalashning yuqori darajasini ta’minlab, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda ilgarilab ketdi. Qishloq joylarda muqobil ishga joylashish imkoniyatlarini yaratish uchun sanoat markazlari kengaytirila bishlandi. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer maydoni (qariyb to‘rtdan uch qismi) ham kamayib, shudgor qilinadigan ulush yaylovlar foydasiga tushdi.

Eng muhim dehqonchilik ekinlari bug’doy, arpa, shakar lavlagi, kartoshka va kolza hisoblanadi. Bug’doy, arpa va kolza hosilining katta miqdori chorvachilik uchun yetishtirilsada, qoldiqning ko‘p qismi unli freymlar (bug’doy), distillash (arpa) va o‘simlik yog’ini (kolza) ishlab chiqarish orqali inson iste’moli uchun sanoatda qayta ishlanadi. Asosiy chorvachilik mahsulotlari qoramol va buzoqlardan, qo‘y va qo‘zichoqlardan va parrandadan olinadi. Birlashgan Qirollik shakar va pishloqdan tashqari asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida yuqori darajada o‘zini o‘zi ta’minlashga erishdi.

Birlashgan Qirollikning yer maydonining o‘ndan bir qismi samarali o‘rmonchilikka bag’ishlangan. Hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan o‘rmon xo‘jaligi komissiyasi ushbu o‘rmonlarning qariyb yarmini boshqaradi, qolgan qismi esa xususiy kompaniyalar tasarrufida. Mahalliy yog’ochni qayta ishlash Birlashgan Qirollik talabining beshdan bir qismini ta’minlaydi.

Birlashgan Qirollik Yevropaning yetakchi baliqchilik sektoriga ega davlatlaridan biri bo‘lsada, sanoat uzoq muddatli pasayish davrida bo‘lgan. Yevropa Ittifoqining boshqa a’zolari tomonidan egallangan

hududning katta qismi Britaniya suvlari tarkibida bo‘lganligi sababli, butun jamoa bo‘ylab baliq ovlashni tizimi qonunchilik bilan tartibga solindi. Angliya baliqchilik sanoati hozirgi kunda mamlakatning umumiy talabining yarmini ta’minlamoqda.

Birlashgan Qirollik iqtisodiy jihatdan foydali mineral-xom ashyo resurslari deyarli cheklangan. Bir paytlar mamlakatda temir rudalar qazib olish og’ir sanoatning yetakchi manbasi edi. Hozirda qazib olinadigan boshqa muhim metallarning tarkibiga qalay va rux kiradi. Qum va shag’al, ohaktosh, gips, dolomit, bo‘r, gil, kaolin, jelestin kabi foydali qazilmalar yetarli darajada. Qum, shag’al, ohaktosh, gips va boshqa eziladigan minerallar qurilishda ishlatiladi. Aksincha, Buyuk Britaniyaning boshqa YeI a’zolaridan ko‘ra neft, tabiiy gaz va ko‘mir kabi katta energiya manbalariga ega. Ko‘mir Britaniya iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan yoqilg’i sanaladi. Bir milliondan ziyod ishchi 300 million tonnadan ortiq ko‘mir qazib olgan. 1913- yilda sanoat eng yuqori cho‘qqiga erishdi. Joriy ishlab chiqarish beshdan to‘rt qismga kamayib, ishsizlik yanada o‘sdi. Elektr stantsiyalari ko‘mir uchun asosiy mijozlardir ammo, boshqa yoqilg’idan foydalanishning o‘sishi va ishlab chiqarishga sarflanadigan harajatlarning tobora ortib borishi bilan energetika tizimi sezilarli darajada bosim ostida qoldi.

Umuman olganda Britaniya sanoat ishlab chiqarish jahon iqtisodiyoti alohida tahsinga sazovor. Chunki bu davlat ilm-fan cho‘qqilarini zabt etgan holda, yuqori texnologiyalar asosida eng zamonaviy rejalashtirilgan modellarni istalgan kapital miqdori zahirasi bilan intellektual xodimlar yordamida ishonchli marketing tizimida dunyo mamlakatlari orasida faqat bir o‘zi ishlab chiqaradigan mahsulotlarni sotadi (Rolls-Royce, Ultra project, IELTS, CIPS, Radio texnika jihozlari).

Hozirda sanoat sektori YaIMning beshdan bir qismini tashkil etmoqda. Ishlab chiqarishdagi pasayish 1980-yillarning boshida ishsizlikning tez o‘sishi hisobiga yuz berdi. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan ularning nisbiy ahamiyati jihatidan eng muhim ishlab chiqarish sanoati muhandislik hisoblanadi; oziq-ovqat, ichimliklar (alkogol ichimliklar) va tamaki; kimyoviy moddalar;

qog’oz, bosma va nashriyotchilik; metallar va minerallar; to‘qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal va teri mahsulotlari kiradi. Eng tez rivojlangan tarmoqlar kimyo va elektrotexnika sohalari hisoblanadi. Kimyo sanoati, farmatsevtika va maxsus mahsulotlar orasida eng katta o‘sish kuzatildi. Mashinasozlik va metall buyumlar, elektrotexnika va asbob-uskuna muhandislik va transport muhandislik, jumladan, avtoulovlar va aerokosmik jihozlar tezlikda o‘sib bordi.

Elektron mahsulotlar esa tez orada boshqa mamlakatlar sanoatinig eng asosiy xom ashyosiga aylandi. (Rossiya, Kanada, Hindiston). Boshqa tomondan, avtomashinalarni ishlab chiqarish o‘sishi xorijiy, xususan, yapon kompaniyalari orasida Angliyaga sarmoya kiritgan kompaniyalar orasida keskin kuzatilgan.

Buyuk Britaniya sanoatining yetakchi tarmog’i qurilish bo‘lib, unda yo‘l, ko‘prik, ofislar, aholi yashash uylari, qimmatbaho villalar, sport komplekslari, teatr va oliygohlar hisoblanadi.

Buyuk Britaniyaning kosmik sanoati o‘lchov usuliga qarab dunyodagi ikkinchi yoki uchinchi kosmik sanoati hisoblanadi. Sanoatning bu turida to‘g’ridanto‘g’ri 276,000 kishi atrofida, bilvosita esa 113 ming kishi ishlaydi. Bu esa yiliga 20 milliard funt sterling daromadga ega. Bu sohada muhim ishtirok etadigan Britaniya kompaniyalari BAE Systems (dunyodagi ikkinchi yirik mudofaa pudratchisi) va Rolls-Royce (dunyodagi ikkinchi eng yirik samolyot ishlab chiqaruvchi) hisoblanadi. Buyuk Britaniyada faoliyat yuritadigan xorijiy aviatsiya kompaniyalari orasida EADS va Buyuk Britaniyada 13 mingdan ziyod ishchi bo‘lgan "Airbus" sho‘ba korxonasi mavjud.

Farmatsevtika sanoati Buyuk Britaniyada 67,000 kishini ish bilan ta’minlaydi. Buyuk Britaniyada "GlaxoSmithKline" va "AstraZeneca" joylashgan bo‘lib, ular dunyodagi uchinchi va yettinchi yirik farmatsevtika kompaniyalaridir.

Birlashgan Qirollikdagi eng e’tiborli iqtisodiy rivojlanish xizmat ko‘rsatish sohasining o‘sishi bo‘lib, hozirgi kunda YaIMning uchdan ikki qismini va jami ish bilan band aholining to‘rtdan uch qismini ta’minlaydi. Bu real daromadlarning o‘sishi, iste’mol xarajatlarining shakllanishidagi o‘zgarishlarni va biznes xizmatlarini tashqi bozorlarda

izlash va kengaytirishni aks ettiradi. Garchi ayrim xizmatlar, masalan, jamoat transporti, kir yuvish xizmati, kino va teatrlar kabi xususiy tovarlar foydasiga kamaygan bo‘lsada, bu xizmatlarni tarqatish, saqlash, va sotish Britaniya uchun klassik iqtisodiyot bo‘lib qolmoqda.

Boshqa rivojlangan xizmat ko‘rsatish sohalari mehmonxonalar va ovqatlanish, havo safarlari va dam olish bilan bog’liq boshqa tadbirlar, (ayniqsa, chakana savdo) va moliya sohalaridir. Ayniqsa, hisob-kitob tizimlari va dasturiy ta’minot, boshqaruv konsultatsiyasi, reklama va bozor tadqiqotlari, shuningdek, ko‘rgazma va konferentsiya majmualari bilan ta’minlash kabi boshqa biznesni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarida tezkor o‘sish kuzatildi.

Angliya, dunyoning eng mashhur san’at auktsion uylarining asosiy qismi hisoblanadi. London birjalari (LJSE), London buxgalterlar uyi (London Accountany Hall), London xaridlar uyushmasi (CIPS), London audit (PriceWaterhouoseCoopers, Deloid), dunyo bo‘ylab ingliz tili darajasini baholab beradigan korporatsiya (IELTS), havfsizlik va ehtiyotkorlik bo‘yicha (CSCS), sug’urta, bank xizmatlati, brokerlik, dealerlik, logistic, autsorsing, 2PL, 3PL, 4PL, express pochta xizmatlari, online hamrohlik, televideniye, radio, ta’lim, tibbiyot deyarli barcha sohalarda alohida kompaniya rivojlanish tarixi va modeliga ega. Barcha faoliyat turlari mualliflik huquqlari bilan himoyalangan va davlat ro‘yxatidan o‘tgan korporatsiyalardir.

London, an’anaviy tarzda jahon moliyaviy markazi bo‘lib kelgan. Qayta qurish va tartibga solish sektorni 1980-1990 yillarda, bank, sug’urta, London fond birjasi, yuk va tovarlar bozorlaridagi muhim o‘zgarishlar kuzatildi.

Birlashgan Qirollik bir qancha uyushgan moliyaviy bozorlarga ega. Qimmatli qog’ozlar bozori rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan qimmatli qog’ozlar va aktsiyalar bilan shug’ullanadigan Xalqaro fond birjasini tashkil etadi; kichik korxonalar uchun "Listelenmagan Qimmatli Qog’ozlar bozori"; va uchinchi bozor, kichik ro‘yxatga olinmagan kompaniyalar uchun xizmat qiladi. Valyuta bozori faoliyatiga qonun loyihalari, depozit sertifikatlari, qisqa muddatli depozitlar va tobora ko‘payib borayotgan qimmatbaho qog’ozlar kiradi.

London xalqaro biznes va tijorat uchun muhim markaz bo‘lib, global iqtisodiyotning uchta "buyruq markazlaridan" biri hisoblanadi (Nyu-York va Tokio). Londonda 500 dan ortiq bank mavjud bo‘lib, u bank, sug’urta, yevrobond, valyuta savdosi va energetika kelajagi bo‘yicha yetakchi xalqaro markaz hisoblanadi.

Savdo munosabatlari uzoq vaqtdan beri Buyuk Britaniyaning iqtisodi uchun muhim ahamiyatga ega. Import va eksportning umumiy qiymati mamlakat YaIMning deyarli yarmini tashkil etadi. (Taqqoslash uchun, tashqi savdoning qiymati AQShning yalpi ichki mahsulotining beshdan bir qismiga to‘g’ri keladi).

Buyuk Britaniya eksport hajmi va importi so‘nggi yillarda barqaror o‘smoqda.

Asosiy eksport tarkibiga mashinalar, avtomobillar va boshqa transport uskunalari, elektr va elektronika uskunalar (kompyuterlar), kimyoviy moddalar va neft mahsulotlari kiradi. Xizmatlar, ayniqsa moliya xizmatlari, yana bir muhim eksport hsioblanadi. Mamlakat oziq-ovqat mahsulotlarining o‘ndan bir qismini va mashinasozlik va transport vositalarining uchdan bir qismini import qiladi.

Birlashgan Qirollikda ish bilan bandlik darajasi 2022 yilga kelib 75,20 foizgacha ko‘tarildi.

Birlashgan Qirollikda soliqqa tortish kamida ikki turdagi hukumat darajasida to‘lovlarni o‘z ichiga oladi: mahalliy boshqaruv va markaziy hukumat. Mahalliy davlat boshqaruvi markaziy hukumat mablag’lari, ish stavkalari va qo‘shimcha ravishda haq to‘lash hamda ko‘chma avtoulovlarda to‘lovlar bilan ta’minlanadi. Markaziy boshqaruvning tushumlari asosan, daromad solig’i, milliy sug’urta to‘lovlari, qo‘shilgan qiymat solig’i, korporativ soliq va yoqilg’i solig’idan kelib chiqadi. Birlashgan Qirollikdagi tashkilotlar solig’i stavkasi 19 foizni tashkil etadi. Birlashgan Qirollikdagi shaxsiy daromad solig’i stavkasi 45 foizni tashkil etadi.

Birlashgan Qirollikda deyarli barcha transport tizimi mavjud. Aholi zichligi juda yuqori bo‘lgan Qirollik transport tarmoqlarini modernizatsiya qilishga sezilarli qiyinchiliklarga duch keldi. Mamlakatda portlar, doklar, temir yo‘l terminallari ba

avtomagistrallar juda yuqori sifat va xavfsizlik talablaridan kelib chiqib qurilgan.

Mamlakatda o‘ng qo‘l qoidasi amal qiladi. Londonga tirbandlik tufayli transport xizmatin kengaytirish va aeroportlarni kengaytirish bo‘yicha doimiy bosimlar mavjud.

Turizm. Birlashgan Qirollik 2017-yilda 37,119 millionlik sayyoh bilan dunyoning eng katta 8-sonli sayyohlik maskani hisoblanadi. Buyuk Britaniyada xorijlik sayyohlar tomonidan 22,072 milliard AQSh dollar daromad keltiriladi.Visit Britain ma’lumotlariga ko‘ra, AQShliklar eng ko‘p tashrif buyuradigan mintaqa bolib 2016-yilda 2,8 milliard funt sterling mablag’ sarflaganlar.

Turizm Britaniya iqtisodiyoti uchun juda muhimdir. 2014-yilda mamlakatga 32,6 milliondan ortiq sayyohlar tashrif buyurgan. London 2014- yilda 17,4 million mehmon bilan dunyodagi ikkinchi eng ko‘p ko‘rilgan shahar, Gonkongda birinchi o‘rinni egallagan (27,8 million mehmon).

Mamlakatning sayyohlik bo‘yicha o‘ziga xos siyosati deyarli barcha muzey va galereyalar tekin. Zamonaviy aeroportlar, termnallar, yuqori darajada xizmatlar, xodimlarning barchasi ingliz tilida gapalsha olish darajasi, barqaror transport yo‘l chipta narxlari, istalgan hududlarda ma’lumot xizmati agentlarinig 24 soat aloqada turishi, tekin yo‘l xaritalari, 4 xil tekin gazetalar, 24 soat xizmat qiladigan avtobus xizmatlari, ayrim metro bekatlaridagi 24 soat xizmat, tinimsiz xizmat ko‘rsatadigan savdo markazlari, adashib qolganlar uchun maxsus instruktorlaning mavjudligi, tekin Wi-Fi markazlari, ovqatlanish joylari, chakana savdo markazlari (Tesco, Morrisons, Lidl, Sainsbury’s, ASDA, Wilkinson, WH&Smith), Londonnig 3 xil drajadagi taksilari (Radia taxi, Taxi Cab, Mini Cab), ikki qavatli va qo‘shimcha ulanmali qizil avtobuslari (Double Decker), qizil rangli taksafon qutilari, ko‘chalarda temir betondan o‘rnatilgan qizil rangli pochta qutilari, mehmonxonalar, parklar (Hyde Park, Regents park, Central Park, Zoo park), Temza daryosi sohillarinig deyarli barcha diqqatga sazovor joylari, ODEON kino zallari, teatrlari, shifoxanalari, yoyma klassik bozorlari (Portabella

Market, Notting Hill) va boshqa yuzlab qiziqarli joylar sayyohlarni yillar mobaynida Britaniyaga jalb qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 18 fevral kuni o‘rnatilgan. Ayni paytda ikki tomonlama hamkorlikning ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda.

Tomonlar tashqi siyosiy idoralar o‘rtasidagi maslahatlashuvlar hamda Afg’oniston bo‘yicha muloqotni amalga oshirib kelmoqda. Ikki davlat parlamentlarida o‘zaro hamkorlik bo‘yicha guruhlar mavjud bo‘lib, 2010- yil 22-sentabrda imzolangan Oliy Majlis guruhi bilan Britaniya-O‘zbekiston Umumpartiya parlament guruhi o‘rtasida imzolangan Madaniy-gumanitar hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda, jumladan ta’lim sohasida. Toshkentda 2002-yildan buyon Xalqaro Vestminster universiteti faoliyat yuritib kelmoqda, Kembridj universiteti bilan hamkorlikda esa poytaxtimizda Yuqori texnologiyalar o‘quv-eksperimental markazi tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Birlashgan Qirollikning 5 ta banki bilan va xorijiy banklarning Londondagi 11 ta bo‘limi bilan vakillik munosabatlari o‘rnatdi.

“Barklayz Bank” tijorat to‘lovlari bo‘yicha asosiy vakil hisoblanadi.

Navoiy viloyatidagi oltin konini o‘zlashtirish bo‘yicha “Zarafshon Newmont” loyihasi amalga oshirilishi Milliy bank bilan “Barklayz Bank” birlashgan faoliyatining yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. “Barklayz Bank” 161 mln. fransuz franki (salkam 32 mln. AQSH dollari miqdoridagi) kreditni “Sosete Jeneral” banki bilan birgalikda yangi “Metropol” mehmonxonasi qurilishi uchun 10 yil muddatga, ikkinchi kreditni 1,7 mln. AQSH dollari miqdorida Toshkent to‘qimachilik kombinatiga Birlashgan Qirollikning “Krosrol” firmasi yuboradigan asbob - uskunalar haqini to‘lash uchun berdi.

O‘zbekiston Respublikasida Birlashgan Qirollik sarmoyasi ishtirokidagi 115 ta ishxona mavjud, shundan 34 tasida ingliz kapitali 100% ni tashkil etadi. Birlashgan Qirollikning 36 ta firmasi vakolatxonasi rasmiylashtirilgan.

O‘zbekiston Britan kompaniyalari uchun jozibador investitsiyalar va savdo imkoniyatlarini taklif etmoqda. 2023-yilning 3-choragi uchun yangilangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aloqalari 132.5% o‘sish bilan 472 million funtga yetgan.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. AQSh va Kanada iqtisodiyotlarining o‘ziga xos jihatlarini nimalardan iborat?
2. Katta yettilik mamlakatlari bilan O‘zbekistonning diplomatik munosabatlari?
3. Buyuk Britaniya sanoatida qaysi yo‘nalishlar rivojlangan?
4. AQShning tashqi savdo tovarlar tarkibi va yo‘nalishlari?
5. Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyotini tavsiflab bering?
6. Buyuk Britaniya iqtisodiyotida turizmning o‘rni haqida gapirib bering
7. Kanada xizmat ko‘rsatish sektorining rivojlanish darajasi?
8. AQSh iqtisodiy rivojlanish tarixi?
9. Kanadaning rivojlanish modeli to‘g’risida ma’lumot bering.
10. Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyotini tavsiflab bering.

III BOB. G’ARBIY YEVROPA VA SKANDINAVIYA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI

Hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o‘rnatish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi 90-maqsad

Tayanch iboralar: *Integratsiyalashgan jahon iqtisodiyoti, transmilliy korporatsiya, ishsizlik darajasi, zaif marketing, past brendlar, global iqlim o‘zgarishlari, konstitutsiyaviy monarxiya*

3.1. Skandinaviya mamlakatlari va ular iqtisodiyotining o‘ziga xosligi

G’arbiy Yevropa davlatlariga qit’adagi eng ulkan iqtisodiy salohiyatga ega uchta davlat – **Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya**, shuningdek, **Avstriya, Shveytsariya, Belgiya, Niderlandiya, Irlandiya** hamda "mitti” davlatlar safiga mansub **Lixtenshteyn, Lyuksemburg va Monako** kabi mamlakatlar kiradi.

Skandinaviya davlatlari - *Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Finlyandiya, Islandiya.*

1980-yillarda Skandinaviya iqtisodiyoti Germaniya yoki Fransiyaning ijtimoiy jihatdan o‘xshash iqtisodiyoti kabi qiyinchiliklarni boshdan kechira boshladi. Soliqlarning yuqori darajasi tadbirkorlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qildi va kuchli edi ijtimoiy himoya aholining ishchilar o‘rtasida ishlashga bo‘lgan rag’batini susaytirdi.

1970 yilda iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinni egallagan Shvetsiya 1990- yillarning oxiriga kelib o‘n oltinchi pozitsiyaga ko‘chdi.

Skandinaviya mamlakatlari iqtisodiyoti asosiy belgilar:

1. Jahon iqtisodiy munosabatlar tizimiga yuqori darajada integratsiyalashuvi. Shimoliy mamlakatlar, ehtimol, eng integratsiyalashgan jahon iqtisodiyoti, ular xalqaro biznesning

tashqi muhitidagi o‘zgarishlarga tezda moslashadi, ilg’or ishlab chiqarishga ega, yuqori malakaga ega ishchi kuchi. Sanoat sohalari birinchi o‘ringa chiqadi yuqori texnologiya, fanni talab qiluvchi ishlab chiqarish: elektronika va telekommunikatsiya vositalari.

2. YAIMni qayta taqsimlash mexanizmi orqali iqtisodiyotda yuqori ulushga ega davlat ishtiroki. Skandinaviya mamlakatlari yalpi ichki mahsulotining o‘rtacha 30% ga yaqini soliqlar va ish beruvchilarning ijtimoiy sug’urta badallari hisobiga ishchilar foydasiga qayta taqsimlanadi.

YaIMni umumiy qayta taqsimlashda davlat ishtirokining yuqori darajasi ham xarakterlidir: Shvetsiyada davlat xarajatlari YaIMning deyarli 60 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, davlat ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rag’batlantiradi, ilmiy-tadqiqot ishlarini deyarli 80 foizga moliyalashtiradi.

3. Kuchli moliyaviy va sanoat guruhlari hamda rivojlangan kooperativ harakatining mavjudligi. Shimoliy Yevropa davlatlarining yirik transmilliy korporatsiyalari butun dunyoda tan olingan obro‘ga ega firmalardir. Xususan, Ericsson, ABB, Volvo, Svenska Handelsbanken, Skandinaviska Enskildabanken, Nokia, Sonera, Statoil, Norsk Hydro va boshqalar kabi yirik TMKlar dunyoga mashhur.

4. Yuqori malakali ishchi kuchi. Oliy ta’lim standartlari o‘rta va o‘rta maktab, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari ishchi kuchining malaka darajasi mos kelishini ta’minlaydi zarur talablar bozor tomonidan taqdim etiladi.

5. Hukumatning iqtisodiy siyosatining ijtimoiy yo‘nalishi. Shimoliy mamlakatlarda davlat aholining to‘liq bandligini ta’minlaydi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xavfsizlikni ta’minlash haqida doimiy g’amxo‘rlik qiladigan muhit, ijtimoiy ta’minot tizimini rivojlantirish.

6. Iqtisodiy tuzilmalarning jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘zgaruvchan sharoitlariga faol moslashishi. Misol tariqasida iqtisodiyoti 1980-yillarning oxirigacha bo‘lgan Finlyandiya tajribasini keltirish mumkin. An’anaviy sanoatning o‘rtacha

darajadagi ilm-fan intensivligidagi mahsulotlarning asosiy tashqi bozori sifatida SSSRga yo‘naltirilgan. SSSR parchalanib ketganidan so‘ng va Rossiya iqtisodiyotida tizimli inqiroz rivojlanishi boshlangandan so‘ng, Finlyandiya tezda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Shimoliy Amerika bozoriga yo‘naltirilishi kerak edi, bu bozorlarda bir qator bo‘shliqlarda yuqori texnologiyali mahsulotlar iqtisodiyotning ilg’or tarmoqlari munosib o‘rin egalladi.

Skandinaviya mamlakatlari sanoat mahsulotlarining yuqori sifati va ilmiy intensivligi tovarlarning tashqi bozorlarda yaxshi sotilishini ta’minlaydi. Ko‘pchilik sanoat korxonalari mintaqalar yuqori darajada ixtisoslashgan bo‘lib, jahon bozoriga juda oz miqdordagi tovarlarni yetkazib beradi.

Xalqarolashtirish strategiyasi, shuningdek, global strategiya shimoliy mamlakatlarning yetakchi kompaniyalariga jahon bozorini tobora faolroq zabt etish imkonini beradi.

3.2. Ispaniya iqtisodiy rivojlanishi



Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022- yil hisobotiga ko‘ra Ispaniya nominal YaIM hajmi 1 398 mlrd. AQSh dollari, 2022- yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 27 435 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 13 o‘rnida turadigan mamlakat[6]. Ispaniya 1995- yil 1- yanvarda Butunjahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lgan[7].

Ispaniya aralash kapitalistik rivojlangan iqtisodiyot. Ispaniya iqtisodiyoti Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya va Frantsiyadan keyin Yevropada beshinchi, Yevro hududda esa to‘rtinchi o‘rinni egallaydi. 2016- yilda Ispaniya dunyoning o‘ninchi yirik eksportchisi va o‘n oltinchi yirik importer bo‘lgan. Ispaniyaning geografik jihatdan

[6] *http://www.imf.org/external/datamapper/ngdpdpc@weo/oemdc/advec/weoworld/spa*
[7] *https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm#collapseU*

judayam qulay joylashganligi, (Pireney yarim orol) uning jahon hamjamiyatida betakror tarixi, san'ati, madaniyati, qishloq xo'jaligi, sanoat va turizmining rivojlanishi bilan ahamiyatlidir. Maydoni jihatdan ancha katta bo'lgan Ispaniya judayam qulay iqlimi tufayli barcha sektorlarida iqtisodiy o'sishga erishgan. Qadimdan tashqi savdoga alohida e'tibor qaratgan mamlakat hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va kemasozlik sohalarini yuksak darajada taraqqiy etishiga erishdi.

Ispaniya jahon svilizatisyasida oltin harflar bilan bitilgan ulkan taraqqiyot, mexanisatsiya, modrnizatsiya, diversifikatsiya, modefikatsiya, innovatsiya va sog'lom yashash tarzi bilan dunyo taqdirini o'zgartirgan yagona mamlakat hisoblanadi. Chunki bu hudud jahon tarixida –Tirik Jannat nomi bilan qolgan Al- Andalusiya, Kordobaga buyuk imperiya maskani hisoblanadi. Jahon globalizatsiyasi aynan mana shu hududdan judayam yangi formatga ko'tarilgan deb bemalol ayta olamiz.

2012-2015- yillar mobaynida Global raqobatbardoshlik bo'yicha hisobotda Ispaniya Birinchi darajali infratuzilma bo'yicha dunyoda 10-o'rinni egalladi. Eng yaxshi infratuzilmaga ega bo'lgan va Yaponiyadan yoki Qo'shma Shtatlar kabi mamlakatlardan oldinda bo'lgan 5-Yevropa Ittifoqi mamlakati. Xususan, mamlakat tezyurar temir yo'l sohasida dunyoning yetakchi ikkinchi tarmog'i (Xitoydan keyin) va butun dunyoda ispan texnologiyalari bilan yuqori tezlikli loyihalarni amalga o shirib kelmoqda. Ispaniyaning Valensiya porti O'rta Yer dengizi havzasida eng band bo'lgan dengiz porti, Yevropada 5-o'rinni egallagan va dunyodagi eng kuchli 30-o'rinni egallagan. Dunyoning eng kuchli 100 ta dengiz bandargohi reytingida to'rtta Ispaniya porti mavjud; Natijada, Ispaniya ushbu reytingda yetakchi mamlakatlar Yaponiya bilan bir qatorda turadi.

Ispaniya iqtisodiyoti XVIII asr oxirlarida sanoatlashtirishga kirishdi. XIX asrda sanoatlashish ancha kengayib sezilarli iqtisodiy o'sishga ershildi. Shu bilan birga, mamlakatning yirik tarmoqlari xususan, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan Kataloniya va po'lat ishlab chiqarish sohalari bosim ostida qoldi. Iqtisodiy o'sishning

umumiy sur’ati G’arbiy Yevropaning yirik davlatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va hatto Italiya kabi davlatlarga nisbatan kam rivojlanmoqda edi. Biroq, tashqi sharoitlarga katta bog’liqlik sifatida Ispaniya iqtisodiy o‘sishini Franco davri tugaganidan keyin iqtisodiy o‘zgarishlarga erishdi.

G’arbiy dunyoda uzoq muddatli inflyatsiya va iqtisodiy noaniqliklarni boshlagan 1973-yildagi neft xuruji Ispaniya iqtisodiy o‘sishini to‘xtatdi. Frantsoning 1975-yildagi o‘limi ortidan siyosiy beqarorlik kabi muammolarni keltirib chiqardi. O‘zgarishning eng aniq belgisi ishsizlikning juda yuqori darajasi edi. Ishsizlik darajasi 1975-yilda 4 foizdan 1980- yilga kelib 11 foizga oshdi. 1985- yilda esa 20 foizdan ortiq ko‘rsatkich qayd etdi.

2008-2009-yillarda boshlangan global moliyaviy inqiroz yevro hududida aynan, Ispaniyanig eng og’ir urush yillar davrini eslatdi. AQSh prezidenti tomonidan taklif qilingan bu moliyaviy boshqotirma Ispaniyaning Atlantika sohillarida minglab qurilishi tugamasdan qolgan uy-joylarini aholi qurbi ko‘tarolmas darajaga olib kelishi bilan yakunlandi (Fannie Mae, Freddie Mac, NINA Loan). Ispaniyalik banklar portlash uyqusiga botib ketish oqibatlarini bartaraf etishda allaqachon, milliy iqtisosdiyotni izdan chiqarib bo‘lgan edi. Hukumatning iqtisodiyotni rag’batlantirish uchun dastlabki urinishlari yetarli emasligini ko‘rsatdi va ispaniyaning qarzlari mamlakatning qarz olish qobiliyati mezonlari juda xavfli darajada ko‘tarildi (Bailout Bubble). 2013-2014-yillarga kelib iqtisodiy ahvol yaxshilandi. O‘sha paytdan e’tiboran mamlakat savdo-sotiq kamomadining o‘ttiz yillik davridan keyin ijobiy saldosig aerishildi. Bu qo‘lga kiritgan rekord profitsit 2016- yillarda yanada mustahkamlandi.

1960-yillardan buyon qishloq xo‘jaligining qisqarishi tufayli Ispaniya ko‘plab fermalarni yo‘qoldi. Ispaniya qishloq xo‘jaligi G’arbiy Yevropa me’yorlari bo‘yicha nisbatan orqada qoldi: gektariga sarmoya kiritish Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) uchun o‘rtacha beshdan bir qismga to‘g’ri keladi. Ispaniya 1986- yilda AET ga a’zo bo‘lganligi sababli, Ispaniya qishloq xo‘jaligi sektori Yevropa siyosatiga hurmat ko‘rsatishga majbur bo‘ldi. Natijada, uzumchilik va

sut yetishtirish bo‘yicha ko‘plab kichik fermerlar rag’batlantirildi. 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab Ispaniya qishloq xo‘jaligi mahsuldor yerlarining miqdori sug’orish va ekin maydonlarini innovatsion qayta ishlash orqali ortdi .

Sabzavotlar, mevalar asosan ekinlar Ispaniya qishloq xo‘jaligining to‘rtdan uch qismini tashkil qiladi. Ispaniyaning asosiy ekinlari arpa va bug’doy, guruch o‘stiriladi. Shimolda yetishtiriladigan makkajo‘xori yirik ozuqa mahsulotidir. Boshqa ekinlar paxta; tamaki shakar lavlagi; zaytun va loviya, yasmiq va no ‘xatni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatda meva yetishtirish muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, apelsin (Valensiya va Murcia). Boshqa mevali ekinlar orasida olma, o‘rik, banan, nok, shaftoli va o‘rik mavjud. Ispaniya, shuningdek sabzavot (ayniqsa, pomidor, piyoz va kartoshka) va yong’oq (bodom) yetishtiradi. Ispaniya dunyoning eng yirik vino ishlab chiqaruvchilardan biri bo‘lgani sababli, uzumchilik katta ahamiyatga ega.

Agrobusiness so‘nggi bir necha yil ichida yuqori tarzda o‘sib borayotgan yana bir segment bo‘lgan. 2016- yilda agrobiznes eksporti YaIMning 3 foizini va Ispaniya eksportining 15 foizidan ortig’ini tashkil etib, 40 milliard yevroni tashkil qildi. 2004-2015- yillarda Ispaniya agrobiznesining eksporti 95% o‘sgan sharob va zaytun yog’i bilan shakllangan edi. 2012- yilga kelib Ispaniya dunyodagi eng katta zaytun moyi ishlab chiqaruvchisig aylandi.

Mamlakat 2016 va 2015- yillarda dunyoning eng yirik vino eksportchisi bo‘lgan. Biroq, zaif marketing va past brendlar asosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Chunki, ispan zaytun moyi va sharobining asosiy importchilari Fransiya va Italiya bo‘lib, ular muhim belgilarga alohida e’tibor qaratadilar.

Yevropa Ittifoqida eng yirik yetishtiruvchisi va eksportchi bo‘lgan Turin sitrus mevalaridan (apelsin, limon va mayda narenciyali mevalar), shaftoli va o‘riklardan iborat. Shuningdek, bu Yevropa Ittifoqida qulupnayning eng yirik eksportchisi hisoblanadi.

O‘rmonchilik. O‘rmonlar Ispaniyaning umumiy yer maydonining uchdan bir qismini qamrab oladi. O‘rmon xo‘jaligi Ispaniya qishloq

xo‘jaligida ishlab chiqarishi uchun juda oz miqdorni tashkil etadi. Muhim o‘rmon mahsulotlari mantar, eman, qarag’ay va terakdir. Asrlar mobaynida eroziya, o‘tin yig’ish va yaylovni yaratish mamlakatning ko‘plab o‘rmonlarining yo‘qolib ketishiga olib keldi va hukumat hali ham davom etayotgan 1990-yillarda o‘rmonlarni qayta tiklash ishlarini davlat loyigasiga kiritgan. Global iqlim o‘zgarishlari (Global Warming) mamlakat sohillarida juda katta miqdorda yong’inlar milliy iqtisodiyot va insonlar hayotiga havf tug’dirmoqda (2017- yil iyin).

Tabiiy resurslar va Energetika. Ispaniya Yevropaning eng muhim tog’-kon sanoati rivojlangan mmalakatidan biridir. Ko‘mir asosan, mamlakatning umumiy mineral resurslarining katta qismini tashkil qiladi. Boshqa yirik rudalarga temir, mis, qo‘rg’oshin, rux, volfram, uran, simob va oltin kiradi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan raqobatlashish uchun, Ispaniya kon sanoati qayta tashkil qilishga majbur bo‘ldi. Tog’-kon sanoatining uzoq vaqtdan buyon qazib olinishiga qaramay ko‘mir zahiralari yetarli darajada.

Bundan tashqari, Ispaniyada deyarli neft yo‘q va tabiiy gaz konlari ham cheklangan. Issiqlik energiya stansiyalari, ko‘mir konlari yoki import qilingan neftni qabul qiluvchi portlar, Ispaniya elektr ehtiyojlarini qariyb yarmini ta’minlaydi[8].

Mamlakat shimoliy daryolari umumiy elektr energiyasining oltidan bir qismini tashkil etadigan gidrotexnika kuchiga tayanadi. Energiya yetishmovchiligini hal qilish uchun Ispaniya hukumati 1960-yillarda atom energetika sohasida juda muhim dasturni qabul qildi. Birinchi atom stansiyasi 1968- yilda ishga tushdi va 1980-yillarda bir nechta qo‘shimcha qurilmalar onlayn rejimga o‘tdi.

2006-yilda bir nechta AES yopildi va hukumat qayta tiklanadigan energetikaga o‘tishga intildi. Aslida, XXI asrning boshlarida Ispaniya qayta tiklanadigan energetika sohasida, jumladan, quyosh va shamol energetikasining Yevropa Ittifoqining yetakchi eksponatlaridan biriga

[8] Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

aylandi. 2007- yilda Sevilya yaqinida quyosh issiqlik elektr stantsiyalari ochildi. Mamlakat bo‘ylab shamol energetikasiga asoslangan tizim katta quvvatda elektr energiyasi bilan ta’minlamoqda. 2016- yilda Ispaniyaning elektr energiyasi iste’moli o‘rtacha 6,523 kVt / kishi edi.

Sanoat. Ispaniyaning erta sanoatlashishi yuqori tarifli to‘siqlar ortida bo‘lib o‘tdi. Investitsiyalar yetishmasligi va qisman ichki talabning pastligi tufayli o‘sish past darajada qoldi. Tarixan sanoatda ishlab chiqarish shimoliy qirg’oqqa, Basklar mamlakatida, Kataloniya va Madrid maydonlariga qaratilgan bo‘lsada, Ispaniyaning boshqa qismlari kichik sanoatni rivojlantirishga erishgan.

1960-yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish va xorijiy investitsiyalar oqimi bir qator yirik kompaniyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilib, sanoatining diversifikatsiyalashiga yordam berdi. Ushbu o‘zgarishning eng yorqin misoli avtomobilsozlik sanoati bo‘ldi.

1960-yilgacha Ispaniyada bir nechta avtomobil ishlab chiqarilgan bo‘lsada, 1980-yillarning oxiriga kelib Ford, Renault, General Motors va Ispaniyaning SEAT firmasi (asosan Volkswagen kompaniyasiga tegishli) zavodlarida 1,5 mln. dona avtomashna ishlab chiqarildi.

Avtomobilsozlik mamlakatdagi eng yirik ish ta’minoti bo‘ldi. 2015-yilda Ispaniya dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi 8-davlat va Germaniyadan keyin Yevropada ikkinchi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi edi.

2016-yilga borib, avtomobilsozlik sanoati Ispaniyaning yalpi ichki mahsulotining 8,7 foizini ishlab chiqaradi va ishlab chiqarish sanoatining to‘qqiz foizini tashkil qiladi. 2008- yilga kelib, avtomobilsozlik sanoati eng ko‘p eksport qilinadigan sector bo‘ldi. 2015- yilda umumiy ishlab chiqarishning qariyb 80 foizi eksportga to‘g’ri keldi.

Germaniyalik kompaniyalar 2016-yilda Ispaniyaga 4,95 milliard yevro miqdorida investitisiya kiritib, AQShdan keying ikkinchi mamlakatga aylandi. Ushbu investitsiyaning asosiy ulushi - avtomobilsozlik sanoatiga, temir, po‘lat va kemasozlik hukmron bo‘lgan og’ir sanoatga yo‘naltirildi.

2019-yilda Ispaniya 2,82 million dona avtomobil ishlab chiqargan

va dunyodagi avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar orasida to‘qqizinchi va Evropada Germaniyadan keyin ikkinchi o‘rinni egallagan. 2019-yil yakunlari bo‘yocha 2,21 mln yengil avtomobil, 574 ming tijorat va 20 ming yengil tijorat avtomobili ishlab chiqarildi. Ulardan har-yili 80 foizdan ko‘prog‘i eksport qilinadi (2019-yil - 82 %, yoki 2,3 mln. dona avtomobil).

2019-yilda avtomobilsozlik umumiy Ispaniya eksportining 18,9 foizini tashkil etdi. Asosiy eksport bozorlari bu - Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya va Fransiya bo‘lib, bu davlatlarga 2019-yil Ispaniya avtomobil eksportining 65 % to‘g‘ri keldi. Shuningdek Yaponiya, Janubiy Afrika, BAA, Isroil, Ukraina va Marokkoga ham eksport hajmlari o‘sishi kuzatildi. Shunda tijorat avtomobillarining eksporti 405,8 ming dona tashkil qildi[9].

Ushbu og’ir sanoatning katta qismi ilm-fan va texnologiyaga ixtisoslashgan firmalarga almashtirildi, bu esa hukumatning biotexnologiya, qayta tiklanadigan energiya manbalari, elektronika va telekommunikatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli investitsiyalarini aks ettirdi.

Kataloniya va qo‘shni Valensiyada paxta va jun to‘qimachilik, qog’oz, kiyim-kechak va poyafzal ishlab chiqarish sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Boshqa yetakchi tarmoqlar orasida kimyoviy moddalar, o‘yinchoqlar va elektr jihozlari (televizorlar, muzlatgichlar va kir yuvish mashinalari) ishlab chiqarish kiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish va mebel ishlab chiqarish kabi iste’molchilarga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlari yog’ochga yaqin bo‘lgan yirik shaharlarda yoki qishloq joylarida iste’mol bozorlariga yaqin joylashgan.

Tashqi savdo munosabatlari. Asosiy import qilingan mahsulotlar mashinasozlik va elektrotexnika, avtotransport, kimyo va neft mahsulotlari, metallar, dengiz mahsulotlari va qog’oz mahsulotlari hisoblanadi. Asosiy eksport nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini,

[9] https://anfac.com/actualidad/notas-de-produccion-y-exportacion/la-produccion-espanola-crece-moderadamente-en-2019-superando-los-28-millones-de-vehiculos-fabricados/

balki avtomobillar, mashinalar va elektr jihozlarini, qayta ishlangan temir mahsulotlari, kimyo mahsulotlari, kiyim-kechak va poyafzallarni o‘z ichiga olgan.

Turizm. Ispaniyada sayyohlik sanoati mamlakatning iqtisodiy hayotidagi uchinchi muhim omil bo‘lib, yalpi ichki mahsulotining 10-11 foizini tashkil etadi. Ispaniya sayyohlik sanoati dunyoda narxlar bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi. Ispaniya har yili 55 milliondan ortiq mehmonlarni qabul qiladi - bu butun mamlakat aholisiga nisbatan 10 milliondan ko‘proq kishini tashkil qiladi. Ispaniya markaziy hukumati sayyohlik siyosati va turizmni chet elda targ’ib qilish uchun mas’uldir.

2019-yilda Ispaniya 83,7 million sayyohni qayd etib, dunyoning ikkinchi eng ko‘p tashrif buyuradigan davlati bo‘ldi, bu ketma-ket yettinchi yil rekord o‘rnatdi. Ispaniya Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan 2019-yilda chop etiladigan ikki yillik Sayohat va Turizm raqobatbardoshlik indeksida 140 mamlakat orasida birinchi o‘rinni egallab, 2017 va 2015-yillarda erishilgan eng yuqori o‘ringa mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Ispaniya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 17- mart kuni o‘rnatilgan. O‘zbekiston-Ispaniya o‘rtasida XV asrdayoq aloqa o‘rnatilgani, 1404-yilda Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixo Samarqandga kelgani va Amir Temur saltanati haqida esdaliklar yozgani tarixdan ma’lum.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin Ispaniya bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda hamkorlik yo‘lga qo‘yila boshladi. Ispaniya bilan munosabatlari jadal rivojlanmoqda.

2003-yil yanvar va 2009-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Ispaniyaga tashriflari bo‘lib o‘tdi. Ispaniya Tashqi ishlar vaziri X.M.Garsiya Margalio taklifiga ko‘ra, 2013-yilning 4-7-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri boshchiligidagi delegatsiya Ispaniyaga tashrif buyurdi. Tashrif davomida Tashqi ishlar vazirliklari siyosiy maslahatlashuvlari o‘tkazildi.

Ispaniyaning Tashqi ishlar vaziri X.M.Garsiya Margalio 2014-yil

20-22- aprelda O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2023-yil 17-fevralda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasida Ispaniya elchixonasi Savdo attashesi Xuan-Migel Markes boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda O‘zbekiston – Ispaniya o‘rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish masalalari muhokama etildi.

Tadbirda bo‘lajak qo‘shma biznes-forum doirasida ikki davlat ishbilarmon doiralari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishda oziq-ovqat, tekstil, charm- poyafzal, qishloq xo‘jaligi, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish texnologiyalari, turizm va axborot texnologiyalari sohalarida ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini faollashtirish va bu borada qo‘shima loyihalarni amalga oshirishga ko‘proq e’tibor qaratishga kelishib olindi.

O‘zbekiston FA institutlari bilan Ispaniya Milliy tadqiqot kengashi o‘rtasida quyosh energiyasini fotoelektr usulida o‘zgartirish, yarim o‘tkazgichli materialshunoslik sohalarida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Jahon tillari universiteti Ispaniyaning Granada, Madrid, Alkala de Enares va Malaga universitetlari bilan hamkorlik o‘rnatgan. Toshkentdagi shu universitetda ispan tili va madaniyati markazi ochilgan. Granada va Buxoro davlat universitetlarining hamkorlik qilishi haqida kelishib olingan.

O‘zbekistonda ispan tili va madaniyatiga qiziqish katta. Mamlakat bo‘ylab 100 dan ortiq o‘rta maktablarda 25 000 ga yaqin talaba ikkinchi chet tili sifatida ispan tilini o‘rganadi. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ispaniyalik 20 nafar professor-o‘qituvchi va 300 ga yaqin talaba tahsil oladi.

Bundan tashqari, o‘zbekistonlik talabalar MAEC-AECID dasturlari, Erasmus Mundus va Tempus Europeans stipendiyalari evaziga Ispaniyada muntazam tahsil olmoqda. O‘zbekistonlik talabalar MAEC-AECID dasturlari yoki Erasmus Mundus stipendiyalari tufayli muntazam ravishda Ispaniyada tahsil olishadi.

3.3. Belgiya mamlakati iqtisodiyoti haqida umumiy ma’lumot



Belgiya, Belgiya Qirolligi- G’arbiy Yevropadagi davlat. Shimoliy dengiz sohilida joylashgan. Ma’muriy jihatdan 3 regionga, regionlar viloyat (provinsiya)larga, viloyatlar kommunalarga bo‘lingan. Maydoni 30,528 ming km². Aholisi 12828000 kishi (2023-yil). Poytaxti - Bryussel shahri.

Belgiya - konstitutsiyaviy monarxiya. Amaldagi konstitutsiya 1831-yilda qabul qilingan va o‘sha paytdan beri bir necha bor (oxirgi marta 1993-yil) tuzatishlar kiritilgan. Davlat boshlig‘i - qirol, uning hokimiyati cheklangan. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol va parlament amalga oshiradi. Ikki palatali parlament 4 yil muddatga saylanadi. Vakillar palatasi 150 deputatdan va senat 72 a’zodan iborat.

Ijrochi hokimiyatni qirol va u tomonidan tayinlanadigan hamda parlamentga hisobot beradigan hukumat (vazirlar kengashi) amalga oshiradi, unga bosh vazir boshchilik qiladi.

Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2018-yil ikkinchi choragi hisobotiga ko‘ra Belgiya nominal YaIM hajmi 562,229 mlrd. AQSh dollari, 2017- yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 18,047 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 25 orinida turadigan mamlakat.

Belgiya xizmat ko‘rsatish sohasiga asoslangan rivojlangan erkin bozor iqtisodiyotidir. Mamlakat ko‘p jihatdan xalqaro savdo munosabatlariga bog’liq bo‘lib, azaldan dunyo hamjamiyatinig ishinchida bo‘lgan. Shu jihatdan ham, Belgiya Yevropa Ittifoqining markaziy kengashi hisoblanadigan Yevro Parlament aynan Brusselda joylashgan.

Belgiyaning ko‘plab sohalari eksportga yo‘naltirilgan bo‘lib, xalqaro savdo munosabatlariga dengi yo‘li orqali chiqa oladigan ustunlikka ega. Rivojlangan Germaniya va Fransiyadek mamlakatlar

orasida geografik joylashuvi uni sanoat sohasidagi kuchli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirdi.

Iqtisodiy rivojlanish tarixi. XIX asrning boshlarida Yevropa qit’asida sanoat inqilobga qarshi kurashgan birinchi mamlakat, Belgiya o‘z tarmoqlarini qo‘shnilari bilan birlashtirish uchun portlar, kanallar, temir yo‘l va avtomobil yo‘llarining mukammal transport infratuzilmasini yaratdi.

Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonxo‘jaligi va baliqchilik. Mamlakatning aholisining bir qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug’ullanadi. Belgiyaning yer maydonlarining qariyb to‘rtdan bir qismi qishloq xo‘jaligi va doimiy ravishda yetishtiriladigan hosillar uchun ajratilgan.

Belgiya qishloq xo‘jaligi faoliyati asosan, chorvachilikka qaratilgan bo‘lib, sut va go‘sht mahsulotlari umumiy xo‘jalik. Yem-xashakli ekinlardan arpa, hatto bug’doy hamma mamalakat janubiy-sharqida yetishtiriladi.

Belgiyaning baliqchilik sanoati nisbatan kichik hajmdan iborat. Midiya mahsulotlarini yig’ish ham Belgiyada muhim soha hisoblanadi, chunki mollyuskalar butun mamlakat bo‘ylab restoranlarda mashhur menyudagi mahsulot hisoblanadi.

Tabiiy resurslar va Energetika. Tarixiy jihatdan ko‘mir Belgiyaning eng muhim mineral resurslaridan hisoblanadi. Hududda ikkita yirik ko‘mir koni mavjud. XIII asrdan boshlab qazib olingan bu ko‘mir zaxiralari XIX asrda Belgiyaning sanoatlashishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. 1960-yillarga kelib ko‘mir zahiralari tugadi va mintaqaning ko‘plab konlari yopildi.

Interkonnektor Birlashgan Qirollik va kontinental Yevropa o‘rtasida tabiiy gaz quvur liniyasi hisoblanadi. Quvurning qurilishi 1998- yilda yakunlandi.

U Buyuk Britaniya va kontinental Yevropa gaz bozorlarida ham energiya savdosini yengillashtirish uchun ikki tomonlama transport imkoniyatini beradi. Buyuk Britaniyadan gaz eksport qilish "old oqim" deb ataladi va Buyuk Britaniyaga gazni import qilish "teskari oqim" deb ataladi.

Markaziy Yevropa quvur tizimi Ittifoqning havo va yer osti

transport vositalariga yoqilg’i yetkazib berish uchun ishlatilgan. Ular dastlab harbiy maqsadlarga qaratilgan bo‘lib, Yevropa yonilg’isini xavfsiz va tezkor taqsimlanishiga ko‘maklashgan. Hozirgi kunda tizim orqali olib o‘tilayotgan yonilg’ining taxminan 90 foizi aholi foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

Mamlakatda tabiiy resurslar chegaralangan miqdorni tashkil etadi. Shunga qaramay, an’anaviy sanoat tarmoqlarining aksariyati iqtisodiyotda, shu jumladan po‘lat, to‘qimachilik, qayta ishlash, kimyoviy moddalar, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, farmatsevtika, avtomobillar, elektronika va mashinasozlik ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladi. Og’ir sanoat tarkibiy qismiga qaramasdan, sanoat sohasi YaIMning 22,3 foizni tashkil qiladi.

Belgiyada yaratilgan zargarliklar asrlar davomida xalqaro miqyosda tanilgan. Katta yoshdagi malakali ayollarga bog’liq bo‘lgan ushbu sanoat sekinlashib ketishiga qarshi kurashish uchun yosh yangi xodimlarni tayyorlash uchun Mons va Binchega maxsus maktablar tashkil etildi.

Xorijiy investitsiyalar XX asrning oxirlarida Belgiya iqtisodiyotining mashinasozlik sektorida sezilarli darajada o‘sishiga olib keldi. Mamlakatda xorijiy avtomobil ishlab chiqaruvchilar uchun yig’sh va butlash zavodlar, shuningdek og’ir elektronika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi xorijiy firmalar mavjud. Bundan tashqari, Belgiyada mashinasozlik va ixtisoslashtirilgan plastmassa ishlab chiqaruvchi bir qator muhim ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mavjud.

Xizmatlar sohasi. Belgiya jahon hamjamiyati diqqat markazida xalqaro xizmatlar ko‘rsatadigan hudud sifatida turadi. BMTning bir nechta tashkilotlarining bosh qarorgohlari joylashgan hamda Yevropa Ittifoqi Parlamentining joylashuvi Brysselning yil bo‘yi mamlakatga tashrif buyuradigan prezidentlar, diplomatlar, elchilar, konsullik vakillari, tashkilot a’zolari hamda ommaviy axborot vositalriyu va boshqa ko‘plab soha vakillari bilan doim gavjum bo‘ladi.

Belgiya ulgurji va chakana savdo, transport va saqlash, mehmonxona, bank va moliya, sug’urta, televideniya va restoran, xordiq chiqarish, xavfsizlik xizmatlarini yuqori standartda taklif qiladi.

Moliya. XIX asrning boshlarida Bryusselda Yevropadagi muhim fond birjasi tashkil etilgan. 2000- yilda Amsterdam va Parij birjalari bilan birlashtirilib, Euronext Transmilliy birinchi to‘liq valuyata bozoriga aylandi. Belgiya uzoq vaqtdan buyon muhim xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va kapital qo‘yilmalarini joylashtirishni maqsad qilib olgan.

XXI asrda Belgiya energetika, moliya va biznesni qo‘llab-quvvatlash, xavfsizlik, transport, logistika, turizm sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida ahamiyat qaratmoqda[10]. Davlat qarzlarining ulushi 2017-yilda YaIMda 103%, 2023-yilda YaIMda 105%ni tashkil qilgan. Inflyatsiya darajasi 2022-yil iyul oyida 9.62%.

Tashqi savdo munosabatlari. Belgiya tashqi savdo hajmining qariyb 80 foizi YeIga a’zo davlatlar bilan amalga oshiradi. Ushbu yuksak ulushni hisobga olgan holda Belgiya Ittifoqdan tashqaridagi mamlakatlar bilan kengaytirishga intiladi.

2023-yilda Belgiyaning importi 145 mlrd.dollarni tashkil etib, neft xom ashyosi, avtoulovlar, kimyoviy moddalar, to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi. Shu yildagi eksporti 393 mlrd.ni tashkil etib, tarkib bo‘yicha esa avtomobillari, kimyo va farmatsevtika mahsulotlari, mashinalar, plastmassalar, olmos, oziq-ovqat va chorvadorlik, to‘qimachilik mahsulotlari, temir va po‘latdan iborat.

Soliq tizimi. Belgiya hukumati daromad solig’i, shuningdek tovarlar va xizmatlardan soliqlar undiradi. Ushbu soliqlar, ijtimoiy ta’minot darajasi bilan birga, milliy daromadning asosiy qismini tashkil qiladi. Mintaqalar va mahalliy hokimiyat idoralari ham soliqlarni yig’ishi mumkin. Belgiyada korporativ soliq stavkasi 34 foizni tashkil etadi.

Turizm. Belgiya turizm sanoati o‘sib borayotgan tarmoqlardan biridir. Yevropaning boshqa mamlakatlaridan tashrif buyuruvchlar soninig oshishi uning mashhur sayyohlik maskanlaini yanada boyitmoqda. Belgiyai yalpi ichki mahsulotning 2,8 foizini va mehnatga

[10] Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

layoqatli aholining 3,3 foizini ish bilan ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan aloqalari. O‘zbekiston Respublikasi bilan Belgiya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 10 mart kuni o‘rnatilgan. 1993- yilda Belgiya poytaxti Bryussel shaharda O‘zbekiston elchixonasi ochilgach, ikkala mamlakat o‘rtasidagi rasmiy munosabatlar amaliy asosga o‘tkazildi.

Ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar yo‘li bilan muntazam muloqotlar tashkil etildi. Hozirgacha 6-ta siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tdi (2005 yiningl 13 - dekabrida O‘zbekiston Respublikasida, 2009 - yilning 27-30 oktyabrida O‘zbekiston Respublikasida, 2010 - yilning 25 noyabrida Belgiyada, 2012 - yilning 26-27 sentyabrida O‘zbekiston Respublikasida, 2016- yilning 10- mayida Toshkentda, 2018- yilning 9-mayida Belgiyada).

Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvlari muntazam ravishda o‘tkazilmoqda. 2015 - yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilovning Bryusselga tashrifi doirasida Belgiya tashqi ishlar vaziri Didier Reynders va Belgiya parlamenti Vakillar palatasi raisi Siefried Brake bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

2017 - yilning 18- iyulida Bryusselda Belgiya Bosh vazirining o‘rinbosari, Belgiya tashqi ishlar va Yevropa ishlari bo‘yicha vaziri Didier Reynders bilan uchrashuvda O‘zbekiston-Belgiya hamkorligini yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qilindi.

2022-yil 7-sentabrda O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Vladimir Norov boshchiligidagi delegatsiya Bryusselga tashrifi doirasida Belgiya tashqi ishlar, Yevropa, tashqi savdo va federal madaniyat institutlari vaziri Xadjoy Lahbib bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston va Belgiya o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning rivojlanish dinamikasiga ijobiy baho berildi.

3.4. Shveytsariya hozirgi kundagi iqtisodiy rivojlanishi



Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022 yil hisobotiga ko‘ra Shveytsariya nominal YaIM hajmi 808 mlrd. AQSh dollari, 2022 yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 88 464 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 20 o‘rnida turadigan mamlakat.

Shveytsariya uchta rivojlangan mamlakat orasidagi geografik jihatdan noqulay hududda joylashgan. U bozor mexanizlari to‘liq amal qiladigan xizmat ko‘rsatishga tayangan rivojlangan iqtisodiyot. Shveytsariya jahon hamjamiyatida betaraf mamlakat sifatida tanilgan. Hatto ikkita Jahon urushi davrida ham mamlakatga hech qanday zarar yetmagan.

Mamlakat asosan, xalqaro hamjiyatning turli xil sammit va yig’inlari o‘tkaziladigan joyga aylandi. Hozirda Jahon Bankining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi tendensiyalar, muammolar va yechimlar haqidagi har yillik sammiti — Dunyo Iqtisodiy Forumi (World Economic Forum) ham aynan Shveytsariyaning Davos shahrida o‘tkaziladi.

Mamlakat hududi judayam kichik bo‘lgani uchun qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirishda xom ashyo muammosiga duch keladi. Har yili mavjud yog’ingarchilik va tuproq holatiga qarab ekish turini va hajmini aniqlaydilar.

Savdo va transport sohalari esa Shveytsariyaning Yevropa markazida joylashuvi hamda to‘g’ridan-to‘g’ri dengiz yo‘llari mavju bo‘lmaganligi tufayli xalqaro savdo koridorlaridan foydalandi. Shvetsariyadagi ajoyib tabiat, jumladan, muzliklar va Alpin ko‘llar, tog’lar sayyohlik salohiyatini keskin oshiradi.

Ikkinchidan, mamlakat ichki bozorini yuqori malakali va samarali tadbirkorlikni o‘zlashtira olmasligi Shveytsariyani jahon bozorlariga

chiqishga majbur qildi. Shunday qilib, xom ashyolarni import qilish va tayyor mahsulotni eksport qilish uchun yuqori sifatli, baland qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulotlarga aylantirish yaxshi tashkil etilgan.

Samarali transport tizimini ishlab chiqish va sayyohlik sanoatini rivojlantirilgan. Erkin bozor munosabatlariga yo‘naltirilgan qo‘l mehnati, hunarmandchilik keyinchalik sanoatning bir qismiga aylanishi mamlakatni dunyodagi birinchi sifatli soat ishlab chiqaradigan kompaniyalar bilan boyitdi. Shveytsariya odatda, ishsizlik darajasini past darajada va inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turadi.

Iqtisodiy rivojlanish tarixi. Shveytsariya federal davlat sifatida 1848- yilda tashkil etilgan. O‘sha vaqtga qadar, Syurix va Bazel shahar-kantonlari sanoat va savdo asosida iqtisodiy rivojlana boshladi. Zamonaviy davrda dastgoh tizimi mavjud bo‘lgan bo‘lsada, mashinalar ishlab chiqarilishi 1801 yilda Sankt-Gallenda boshlandi.

Buyuk Britaniyadan import qilingan uchinchi avlod mashinalari esa mamlakatda yangi texnologiyalar ustida ishlashga undadi. Biroq, mamlakat topografiyasidan kelib chiqib, ko‘mir zaxiralari mavjud emasligi, bug’ dvigatellari o‘rniga gidravlik kuch tizimida ishlaydigan texnikalar keng ommalashdi.

Mamlakatda minerallar va boshqa xom ashyoning ozligi hamda uning cheklangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tufayli Shveytsariya oziq-ovqat, yemxashak mahsulotlarini eksporti bilan moliyalashtiradigan sanoat xom ashyosiga bog’liq bo‘lgan.

Qishloq xo‘jaligi juda muhim ammo, yetishmasligi daraja va unumdor yerlar bilan chegaralanib qolsada, ishlab chiqarish fermer xo‘jaligi kabi ko‘plab ishchilarni ko‘proq jalb qiladi. Shveytsariya ishlab chiqaruvchilari mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qaraganda uning sifati bo‘yicha yuqori natijalarga erishdilar.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari qatoriga xalqaro bank, sug’urta, turizm va transport kiradi. 1980-yillarning boshlarida butun dunyo miqyosidagi iqtisodiy inqirozi tufayli Shveytsariya aksariyat boshqa davlatlarga qaraganda kamroq zarar ko‘rdi.

Shveytsariya iqtisodiy sektorlarga nisbatan odatiy Birinchi Jahon

modeliga mos keladi. Ishchilarning faqat kichik qismi boshlang'ich yoki qishloq xo‘jaligiga (1,3% aholi, 2016-yilda) jalb qilingan bo‘lsa, ikkinchi darajali yoki ishlab chiqarish sohasiga (2016-yilda 27,7%) jalb qilingan. Ishlaydigan aholining aksariyati iqtisodiyotning uchinchi yoki xizmat ko‘rsatish sohasiga (2016-yilda 71,0%) jalb qilingan.

Shveytsariyaning sanoatlashishi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan bo‘lib, omon qolishi mexanizmi yaxshi ishlangan formulaga asoslangan: motorlar, turbinalar va soatlar kabi maxsus mahsulotlar ishlab chiqarish; yetkazib berish sanasini kafolatlash; samarali bank tarmog'i orqali kerakli moliyalashtirishni taklif qilish; samarali savdodan keying ishonchli xizmat taqdim etish; butun dunyo bo‘ylab mahsulotni sotish va shu tariqa kengayuvchan bozor iqtisodiyotiga erishish yo‘lini tanladi. Shveytsariyaning bir qancha sanoati singari, kimyo-farmatsevtika sanoati tadqiqot va rivojlantirishga katta miqdorda kapital sarflaydi.

1981 yilga kelib, Shveytsariya dunyodagi eng rivojlangan sanoati rivojlangan mamlakatlardan biriga aylandi. Sanoatning asosiy tarmoqlari — mashinasozlik, to‘qimachilik, kimyo va oziq-ovqat, xaytek va farmatsevtika.

Mashinasozlik. Bugungi kunda mamlakatda mashinasozlik, elektrotexnika uskunalari ishlab chiqarish va metallurgiyada 330 ming kishi band. MEM sanoati deb qisqartirilgan ushbu sanoat yalpi ichki mahsulotning 18% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, ushbu sektor turli sanoat tarmoqlariga eksport hajmi bo‘yicha Shveytsariyada ikkinchi o‘rinda turadi. Xorijdagi MEM sanoat korxonalarida jami 500 mingdan ortiq fuqaro mehnat qiladi. Bu sanoat XIX asrda to‘qimachilik sanoatining bir qismi sifatida vujudga kelgan. O‘sha davrda Shveytsariya to‘qimachilik kompaniyalari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashga intildilar. Biroq, Angliyadagi raqobatchilardan asbob-uskunalar sotib ololmagani uchun ular o‘zlarining ishlab chiqarish uskunalarini yaratish zaruratiga duch kelishdi.

Bugungi kunda Shveytsariya kompaniyalari dunyodagi eng raqobatbardosh kompaniyalardan biri hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, stanoklar ishlab chiqaruvchi korxonalarga, shuningdek,

to‘qimachilik sanoati va poligrafiya sohasida qo‘llaniladigan uskunalarga taalluqlidir. Bu sektorda kichik va o‘rta korxonalar ustunlik qiladi; jami 2500 dan ortiq kompaniya mavjud. Iqtisodiyotning ushbu sektoridagi eng yirik ishtirokchilar - ABB, Alstom, Bobst, Liebherr, Georg Fischer, Rieter va Shindler. Mutlaq raqamlar bo‘yicha Shveytsariya ishlab chiqarish mashinalari eksporti bo‘yicha dunyoda o‘ninchi o‘rinda turadi.

Mamlakat tog’li hududda joylashganligi tufayli aholining bozorlarga, Shahar ko‘chalrida yura olishi judayam qiyin bo‘lgani uchun qadimdan aynan hunarmandlar qo‘l mehnati va vaqt talab qiladigan soatsozlikka ixtisoslashgan ekanlar. Bu esa ularni tog’liklar orasida kamroq harakatlanishi hamda yuqori daromad olishini ta’minlagan ekan.

Shveytsariya iqtisodiyoti asosan xizmat ko‘rsatish sohasi tufayli dunyodagi eng raqobatbardosh davlatlardan biriga aylangan. Shveytsariya nisbatan kam qarzga ega va raqobatbardosh soliq tizimiga ega. Shveytsariya iqtisodiyoti asosan oilaviy tadbirkorlikka asosalangan kichik va o‘rta korxonalardan iborat bo‘lib, eksportga yo‘naltirilgan.

Boshqa mamlakatlarga nisbatan kichik davlat qarziga (koronavirus bilan bog'liq chora-tadbirlardan keyin ham) xarajatlarni qisqartirish mexanizmi, ya'ni "qarz tormozi" orqali erishildi. Agar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qarz ko‘rsatkichi milliy yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 70-100 foizini tashkil etsa, so‘nggi o‘n yil ichida Shveytsariyaning qarz majburiyatlari hajmi 40 foiz atrofida saqlanib qoldi. Federal soliq tizimi yuridik shaxslar uchun nisbatan past soliqlarni taqdim etadi, bu esa Shveytsariyani biznes uchun jozibador qiladi. Mamlakatning boshqa hal qiluvchi afzalliklari – malakali ishchi kuchi, yuqori darajadagi innovatsiyalar, siyosiy barqarorlik, jozibador yashash sharoitlari va Yevropada markaziy joylashuv. Bu Shveytsariyada ko‘plab transmilliy korporatsiyalarning mavjudligini tushuntiradi.

Mamlakat iqtisodiyotining aksariyat kichik va o‘rta korxonalardan iborat bo‘lib, odatda KO‘K deb ataladi. Ushbu kompaniyalarning aksariyati eksportga yo‘naltirilgan, shuning uchun Shveytsariya

muntazam ravishda savdo profitsitiga erishadi.

Shveytsariyaning asosiy savdo sheriklari (eksport qilinadigan va import qilinadigan tovarlar bo‘yicha)

№	**Hamkor mamlakatlar**	**Eksport (%)**	**Import (%)**
1	Germaniya	15%	25%
2	AQSh	20%	10%
3	Xitoy	10%	10%
4	Italiya	8%	12%
5	Frantsiya	7%	6%
6	Buyuk Britaniya	6%	5%
7	Niderlandiya	5%	8%
8	Yaponiya	3%	4%

Shveytsariyadan eksport qilinadigan muhim mahsulotlar: Farmatsevtika va kimyoviy moddalar-Shveytsariya dunyodagi eng yirik farmatsevtika eksportchilaridan biridir.

Mashinalar va elektronika yuqori texnologiyali uskunalar, shu jumladan soatlar va boshqa mahsulotlar.

Zargarlik buyumlari - Shveytsariya dunyoning yuqori sifatli soatlar va zargarlik buyumlari ishlab chiqarish poytaxti sifatida tanilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari-ayniqsa shokolad va qahva.

Soat sanoati eksport bo‘yicha boshqa tarmoqlar orasida uchinchi o‘rinda turadi, korxonalarda 40 mingga yaqin kishi ishlaydi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 1,5% ni tashkil etadi. Jahon bozorida Shveytsariya eksport qiluvchi davlatlar orasida qiymat jihatidan birinchi o‘rinda turadi. Shveytsariyadan eksport qilinadigan soatlarning 95% qo‘l soatlaridir. Ushbu soatlarning eksporti asosan Osiyo (55%), Yevropa (29%), Amerika (14%), Afrika va Okeaniya (har ikkisi ham 1%) ga to‘g’ri kelmoqda. 1000 dan ortiq xodimga ega korxonalar: Richemont, Swatch guruhi, Rolex, Patek Filipp.

Shveytsariyaga import qilinadigan muhim mahsulotlar:

Mashina va uskunalar-Shveytsariya o‘z sanoati uchun yuqori

texnologiyali uskunalarni faol ravishda import qilmoqda.

Neft va neft mahsulotlari-mamlakat neft ishlab chiqarmaydi, shuning uchun u katta hajmlarni import qiladi.

Oziq-ovqat-qishloq xo‘jaligi yerlari cheklanganligi sababli Shveytsariya ko‘plab oziq-ovqat mahsulotlarini import qiladi.

Avtomobillar va avtomobil qismlari — Shveytsariya avtomobillarni, shu jumladan avtomobillar va yuk mashinalarini faol ravishda import qiladi.

Xizmatlar sohasi. Shveytsariya xizmat ko‘rsatish sektori iqtisodiy tuzilmasining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakat YaIMning 70 foizini tashkil qiladi. Shveytsariya federal statistika idorasi hisobotiga ko‘ra, moliya va bank xizmatlari shveytsariya iqtisodiyotiga 11,6 foiz miqdorida qo‘shimcha xizmat ko‘rsatishning asosiy tarkibiy qismidir.

Shveytsariya sayyohlik kompaniyasi mamlakatning iqtisodiy tuzilmasining yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning sof daromadi 2017- yilda 31,7 mlrd. yevroni tashkil etgan.

Sug’urta xizmati iqtisodiyotning yana bir muhim qismi hisoblanib, jahon miqyosida faoliyat olib boradilar. Bu kompaniyalar qayta sug’urtalash kabi muayyan sohalarda yetakchi hisoblanadi. Shveytsariya ushbu innovatsion xizmat turlarini kashf qilgan mamlakat hisoblanadi.

Shveytsariyaliklar aholi boshqa har qanday millatdlardan ko‘proq sug’urta qilishadi. Shveytsariyaning ko‘plab sug’urtachilari - Axa Winterthur, Zurich Insurance, Vaudoise va boshqalar. Shveytsariyaning ko‘pgina sug’urtalovchilari o‘z hayotlarini, mulk, faoliyat, kashfiyotlarni sug’urta qiladi.

Mamlakataning rasmiy pul birligi Shveytsariya franki bo‘lib, Lixtenshteynda ham ishlatiladi. Shveytsariya bank qonuni (1934-yil) markaziy joylashuv, siyosiy barqarorlik va maxfiylik to‘g’risidagi qonunlar mijozlar va ularning hisoblari to‘g’risida ma’lumotni ruxsatsiz oshkor qilish uchun jinoiy jazoga aylandi.

Shveysariyani dunyodagi eng muhim moliyaviy markazlardan biriga aylantirishda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, maxfiylik qonunlari Shveytsariya banklarida hisob-kitoblarni amalga oshirish

uchun uyushgan jinoyatchilik tashkilotlarini hamda Shveytsariya bank qonunchiligini o‘zgartirishga olib keldi. Eng yirik banklar, Shveysariya Yunayted banki va Credit Suisse Group dunyoning yirik moliyaviy tashkilotlari qatoriga kiradi.

Globallashuv jarayonida, Shveytsariya banklariga xos bo‘lgan xususiyatlar – biznesga ishionch, shaffof va yuksak darajadagi professionalligi dunyodagi eng yirik moliya institutlari tomonidan taqlid qilingan.

Bundan tashqari, 1990-yillardagi Sovuq urush tugaganidan so‘ng yuzaga keladigan keskinlikning kamayishi Shveytsariyaning betarafligi bilan bog’liq vaziyat xavfsizligini ta’minlamagan.

Shunday qilib, 90-yillar davomida bank sektorining konsolidatsiyasi va qayta tashkil etilish samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Bank. 2016-yilda moliyaviy sektor Shveytsariyaning yalpi ichki mahsulotining 11,6 foizini tashkil qildi va taxminan 196 ming kishini ish bilan ta’minladi (ulardan 136 ming tasi bank sektorida ishlaydi). Bu Shveytsariya ishchilarining umumiysonining 5,6% ni tashki etadi.

Shveytsariya betarafligi va xorijiy davlatlar tomonidan e’tirof etilgan milliy suverenitet bank sektori rivojlanishi uchun barqaror muhitni yaratdi. Shveytsariya jahon urushlari orqali Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lmagan va 2002-yilgacha Birlashgan Millatlar Tashkilotining a’zosi ham bo‘lmagan. Hozirgi vaqtda kelib chiqish mamlakatidan tashqarida o‘tkaziladigan jamg’armalarning qariyb 28 foizi (ba’zan "offshor" mablag’lar deb ataladi) Shveytsariyada saqlanadi[11].

Shveytsariyaning asosiy eksporti mashina va uskunalar, kimyo-farmatsevtika mahsulotlari, soatlar va to‘qimachilik va kiyim-kechak. Xom-ashyo, oziq-ovqat, o‘simlik moylari hisoblanadi. Yoqilg’i resurslari umumiy importning qariyb to‘rtdan bir qismini tashkil qilib, temir yo‘l, yuk mashinasi yoki quvur transporti orqali tashiladi.

Uning alohida savdo hamkorlari orasida Germaniya yetakchi bozor bo‘lib, Shveytsariyaning eksportining qariyb beshdan bir qismini va importining to‘rtdan bir qismini qamrab oladi. Boshqa yetakchi eksport

[11] *http://www.worldbank.org/en/country/switzerland/overview#2*

bozorlari orasida Fransiya, Italiya, AQSh va Buyuk Britaniya mavjud. Asosiy ta’minotchilar orasida esa Fransiya, Italiya va Xitoy kiradi.

Turizm. Turizm Shveysariya iqtisodiyoti uchun juda muhim daromad manbai hisoblanadi. Ushbu sohada mamlakat ishchi kuchining 4% ish bilan band. An’anaviy sayyohlik mamlakati sifatida Shveytsariya bu sohada Yevropada kuchli mavqega ega va eng ko‘p turistlar Germaniya (yiliga 3 mln.)dan tashrif buyurishadi.

Rivojlangan turizm infratuzilmasi, temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari tarmog’ining mavjudligi go‘zal tabiat va qulay geografik joylashuvi bilan mamlakatga ko‘plab sayyohlarning, birinchi navbatda, nemislar, amerikaliklar, yaponiyaliklar va so‘nggi yillarda ruslar, hindlar va xitoylarning ham kirib kelishini ta’minlaydi. Milliy daromadning 15 foizi turizmdan keladi.

Alp tog’lari Shveytsariya hududining 2/3 qismini egallaydi va har yili mamlakatga minglab ochiq havo ishqibozlarni jalb qiladi. Shveytsariyada turizm rekreatsion resurslardan foydalanishga asoslangan Shveytsariya iqtisodiyotining muhim tarmog’i hisoblanadi. Shveytsariya byudjeti har yili turizmdan 1,5 milliard dollar oladi, bu muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Shveytsariyadagi eng mashhur sayyohlik shaharlari: Syurix, Bern, Lucerne, Bazel, Jeneva.

2021-yilda turizm Shveysariya asosiy daromad manbasidan biri bo‘lgan va mamlakat YaIMning 3%, ya’ni 17 mlrd. frank miqdorida tushumni ta’minlagan.Germaniyadan tashqari ushnu mamlakat boy tabiatidan bahramand bo‘lish uchun AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Fransiya, Italiya, Hindiston, Niderlandiya, Belgiyadan ko‘plab sayyohlar tashrif buyurishadi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan aloqalar. O‘zbekiston Respublikasi bilan Shveysariya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 7 may kuni o‘rnatilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston – Shveytsariya munosabatlari siyosat, iqtisodiyot, moliya va bank, madaniyat va ta’lim kabi turli sohalarda muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.

Shveytsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi bilan samarali sheriklik yo‘lga qo‘yilgan. Shveytsariyaning yetakchi kompaniyalari bilan kimyo, to‘qimachilik, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, sog’liqni

saqlash va turizm sohasida kooperatsiya uchun imkoniyatlar mavjudligi alohida qayd etildi.

Jumladan, 2022-yil 2 dekabr kuni O‘zbekiston muvaqqat ishlar vakili Nodir G’aniyev Shvetsiya Moliya vazirligi xalqaro va iqtisodiy aloqalar departamenti bosh direktori o‘rinbosari Deniyel Sonesson bilan uchrashdi. Muloqot chog’ida ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik bugungi holati, Shvetsiya 2023- yil birinchi yarmida Yevropa Ittifoqiga raisligi doirasida O‘zbekiston va Shvetsiya o‘rtasida moliya sohasida hamkorlikni faollashtirish istiqbollari muhokama qilindi.

2023- yil may oyida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashi navbatdagi yillik yig’ilishida Moliya vazirligi vakili ishtiroki tasdiqlandi. Ikki mamlakat Moliya vazirliklari o‘rtasida amaliy aloqalarni davom ettirish, hamkorlikda seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Skandinaviya davlatlari iqtisodiyotidagi muvaffaqiyat sirlari nimadan iborat?
2. Shveytsariya iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering.
3. Ispaniya iqtisodiyoti tarmoqlarini izohlab bering.
4. Belgiya iqtisodiyotidagi yetakchi sohalarni YaIM mahsulot tarkibida ahamiyatini ifodalang.
5. Shveytsariyaning tashqi savdo munosabatlari?
6. Ispaniya davlati sanoatining rivojlanish xususiyatlari?
7. Shveytsariya iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyati?
8. Shvetsariyaning iqtisodiy rivojlanish tarixi?
9. Skandinaviya mamlakatlarida aholi turmush darajasi?
10. Xorijiy investitsiyalarning Belgiya iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni?

IV BOB. MARKAZIY YEVROPA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI

Yevropa Ittifoqi «yashil rivojlanish» bo‘yicha bizning asosiy hamkorimiz hisoblanadi. Mintaqamizda energiyani samarali sarflaydigan va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, «aqlli qishloq xo‘jaligi»ni rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalari imkoniyatlarini to‘liq ishga solishda biz, albatta,..... barcha Yevropa davlatlarining eng ilg’or va zamonaviy tajribasiga tayanamiz.
Shavkat Mirziyoyev

Tayanch iboralar: *Parlament, xususiylashtirish, ishsizlik darajasi, shok terapiyasi, Jahon sayyohlik tashkiloti, tog’-kon sanoati, kimyo sanoati, qo‘shilgan qiymat solig’i, qo‘shma korxona.*



Markaziy Yevropa Yevropaning shartli qismi bo‘lib, u G‘arbiy va Sharqiy Yevropa o‘rtasida ko‘rsatilgan.

Uning chegaralari masalasi munozarali bo‘lib qolmoqda.

Ushbu mintaqa mamlakatlari qatoriga Avstriya, Vengriya, Germaniya, Lixtenshteyn, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya davlatlari kiradi.

Markaziy Yevropa geografik voqelik emas, balki tarixiy, ma’lum ma’noda tarixiy va mafkuraviy tushunchadir. Fridrix Naumann Birinchi jahon urushi avjiga chiqqan paytida xuddi shu nomdagi kitobda o‘zi bayon qilgan Mitteleuropa kontseptsiyasini ilgari surdi (nemischadan tarjimasi – Markaziy Yevropa). Unda Markaziy (aniqrog‘i, „O‘rta“) Yevropa Germaniyaning ta’sir doirasi sifatida ko‘rib chiqildi, u urushdagi go‘yoki g‘alabasidan keyin kengaydi, ammo shu bilan birga, birinchi navbatda, iqtisodiy, o‘zaro manfaatli asosdagi Germaniyaning ta’sir doirasidagi mintaqa sifatida qaraldi.

4.1. Polsha iqtisodiyoti

1997 yilgacha Polshada hukumat shakli uzluksiz o‘zgarishlar qayd etib, xususiyatlari aniq bo‘lmagan. Polsha kommunistik davr juda o‘zgartirilgan shaklda ish olib borgan. Eng muhim islohot – Januzel hukumati 1989 yilda senat va president lavozimini tuzgan. Parlament ikki palatadan iborat: quyi uy 460 a’zo va senat 100ta a’zo. Ularning barchasi 4 yilga saylanadi.

Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022 yil hisobotiga ko‘ra Polsha nominal YaIM hajmi 688 mlrd. AQSh dollari, 2022 yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 16 705 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyoiqtisodiyotining 22 o‘rnida turadigan mamlakat. Polsha 1995 yil 1 iyilda Butunjahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lgan.

Polsha iqtisodiyoti Yevropa Ittifoqining sakkizinchi yirik iqtisodiyoti bo‘lib Yevropa Ittifoqining sobiq Sharqiy Bloki a’zolaridan eng kattasi hisoblanadi. 1990 yildan buyon Polsha iqtisodiy liberalizatsiya siyosatini olib bormoqda va uning iqtisodiyoti 2007-2008 yillardagi iqtisodiy inqirozdan so‘ng Yevropa Ittifoqiga kirib borayotgan yagona mamlakat bo‘ldi. Polsha iqtisodiyoti so‘nggi 20 yil mobaynida barqaror o‘sib, bu davrda aholi jon boshiga to‘g’ri keladigan YaIMning o‘rtacha 6%dan o‘sib bordi. Polsha tarixi davlat sifatida X asrning o‘rtalarida boshlangan. XVI asrning o‘rtalariga kelib, Polsha-Litva Hamdo‘stligi Markaziy va Sharqiy Yevropada keng maydonlarni boshqargan. XVIII asr mobaynida ichki tartibsizliklar mamlakatni zaiflashtirdi va 1772-1795 yillarda bir qator shartnomalar asosida Rossiya, Prussiya va Avstriya Polshani o‘zlariga qo‘shib oladi.

Kichik va o‘rta davlat korxonalarini xususiylashtirish, yangi firmalar yaratish to‘g’risidagi liberal qonun xususiy biznesni rivojlantirishni rag’batlantirdi. O‘z navbatida bu islohot Polshaning iqtisodiy o‘sishining asosiy omili bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi sektori tarkibiy muammolar, ortiqcha mehnat, samarasiz kichik fermer xo‘jaliklari va investitsiyalarning yetishmasligi bilan cheklanib qolmoqda. 2008- 2009- yillardagi iqtisodiy pasayish davrida Polsha

iqtisodiy inqirozdan qochib qutulish uchun yagona Yevropa Ittifoqi mamlakati bilan hamkorlik qilish bo‘ldi.

O‘rta muddatli Polshada sarf-xarajatlarni qisqartirish bo‘yicha hukumatning bo‘sh moliyaviy siyosati tufayli, Yevropa Ittifoqining rivojlanish jamg’armalaridan eng yirik qarz oluvchi mamlakat sifatida iqtisodiy o‘sish sur’atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kutilgan edi.

Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonxo‘jaligi va baliqchilik. Polshaning qishloq xo‘jaligi o‘rtacha rivojlangan bo‘lib, unda yetishtiriladigan mahsulotlar asosan xususiy fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g’ri keladi. So‘nggi yillarda Polshaning ushbu sohadan daromadi pasayib ketdi, chunki sanoat mahsulotlari narxi ko‘tarildi va G’arbiy Yevropadan olib kelingan qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari sifat jihatidan Polsha mahsulotlarini bozordan siqib chiqara boshladi.

1989-yildan keyin davlatning ko‘plab fermerlari inqirozga yuz tutdi, natijada qishloq xo‘jaligida ish bilan band bo‘lganlarning ulushi qisman fermer xo‘jaliklarini tugatish, qishloq xo‘jaligi ishchilarining qarishi va 90-yillarning boshida yuz bergan qurg’oqchilik tufayli kamayib ketdi. Shunga qaramay Polsha bugungi kungacha jahonda kartoshka va don mahsulotlari yetishtiruvchi yirik yettita davlatdan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, boshqa asosiy ekin sifatida bug’doy yetishtirish ham yaxshi. Qishloq xo‘jaligida asosiy muammo sifatida esa tuproqning sifati o‘zgarib turishi hamda Polshaning markaziy va shimoliy qismida katta miqdordagi yer maydonlarining nisbatan unumsiz yerlar ekanligini keltirishimiz mumkin[12].

Bugungi kunda mamlakatdagi mehnatga yaroqli aholining 12,7 foizi qishloq xo‘jaligida band bo‘lib, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 3,8 foizni tashkil etmoqda. Sanoat sektoridan farqli o‘laroq, Polshaning qishloq xo‘jaligi o‘tganyillar mobaynida xususiy kompaniyalarga zimmasida qoldi. Bugungi kunda Polshada 2 million xususiy fermer xo‘jaliklari bo‘lib, ular barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 90 foizini tashkil etadi.

[12] Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

Mamalakatdagi barcha fermer xo‘jaliklarining yarmidan ko‘pi faqatgina o‘z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarib, kamroq sotadilar.

Tabiiy resurslari va Energetika. Polsha mintaqadagi tabiiy resurslarga boy mamlakat hisoblanadi. Mamlakat qo‘ng’ir ko‘mir qazib olinishiga qaramasdan uning asosiy foydali qazilmalari bitumli ko‘mirdir. Boshqa yonilg’i manbalari orasida oz miqdordagi neft va o‘rta darajada tabiiy gaz konlari mavjud.

Sanoat. Polshada sanoat ishlab chiqarilishi deyarli faqat miqdoriy talablarga javob beradigan va Comecon orqali taqdim etiladigan arzon xom ashyolarga bog’liq bo‘lib, asosan samarasiz va jahon bozorida raqobat qilishga tayyor emas edi. Sanoat mahsuloti kommunizmning yo‘q bo‘lib ketishi bilan, ayniqsa, shok terapiyasining dastlabki yillarida sezilarli darajada kamaydi. Narxlarning o‘sishi va Comeconning qulashi oqibatida ishlab chiqarish va tog’-kon sanoati deyarli barcha sohalarida uchdan bir qismga kamayishiga olib keldi. Polsha sanoati pasayish sur’atiga qaramasdan, ishlab chiqarish darajasi yaxshilandi va 90-yillarning o‘rtalariga kelib YaIMning deyarli ikki qismiga o‘sdi.

Boshqa tarmoqlar tez o‘sib borishi bilan, ishlab chiqarish 90-yillar oxiriga qadar YaIMning beshdan bir qismini tashkil etdi va 2010- yilga kelib YaIMning beshdan bir qismidan boshlab o‘ndan bir qismigacha kamaydi. Mamlakatda mashinasozlik va transport uskunalari, oziq-ovqat mahsulotlari, metall va metall mahsulotlari, kimyoviy moddalar, ichimliklar, tamaki mahsulotlari, to‘qimachilik va kiyimkechaklar ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi. Xizmat ko‘rsatish sohasi XX asrning oxirgi o‘n yilida YaIMning qariyb 4 foizi miqdorida o‘sishi bilan izohlandi. O‘sish moliyaviy xizmatlar, chakana savdo, sayohatlar va boshqa xizmatlar ko‘rsatildi. XXI asrga kelib xizmat ko‘rsatish sohasi mamlakat YaIMning uchdan ikki qismini tashkil etdi. Polsha ishchilarining yarmidan kamini ish bilan ta’minladi. 2005-yilda sayyohlik Polsha iqtisodiyotiga 6 mlrd. AQSh dollari miqdorida hissa qo‘shdi.

Polsha Markaziy statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2014-yilda Polsha iqtisodiyoti 3,3 foizga, 2015 yilda esa 3,8 foizga o‘sgan. 2016-yilda iqtisodiy o‘sish sekinlashgan bo‘lsa-da, 2016-yil oxirida mehnat bozorining keskinlashuvi bilan birga davlat tomonidan rag’batlantirish choralari yangi o‘sishni keltirib chiqardi, bu 2017-yilda 5,2 foizni tashkil etdi.



Butunjahon bankining xabar berishiga ko‘ra, 2022-yilda mamlakatda xizmat ko‘rsatish sohasining qo‘shilgan qiymati YaIMga nisbatan 58,16 foizni tashkil etdi.

4.2. Polshaning tashqi savdo munosabatlari va turizmi

1996- yildan boshlab, savdo hajmining 70% Yevropa Ittifoqi a’zolari bilan bo‘lgan. Qo‘shni Germaniya bugungi kunda Polshaning asosiy savdo hamkoridir. Mamlakat 2004 yil may oyida Yevropa Ittifoqiga qo‘shilgan edi. Bundan oldin u Vengriya, Chexiya, Slovakiya va Sloveniyani o‘z ichiga olgan Markaziy Yevropa erkin savdo shartnomasi (CEFTA) orqali mintaqaviy integratsiya va savdoni qo‘llab-quvvatlagan. Polsha Jahon Savdo Tashkilotining asoschisidir.

2023- yilda Polshaga umumiy import 341 milliard dollarni tashkil etdi. Polshaga tovar yetkazib berishning qiymat jihatidan qisqarishi 2022-yilga nisbatan 4,79 foizni tashkil etdi: tovarlar importi 17,1 milliard dollarga kamaydi (2022- yilda Polshaga 358 milliard dollarlik mahsulot import qilingan).

Polshaning yirik importi sanoatni qayta ishlash va ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan omil xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Polsha Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining aksariyatiga qaraganda tashqi savdoga nisbatan kamroq. Lekin, uning Yevropa bilan savdo – iqtisodiy aloqalari juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. 2011- yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan yevro hududiga bo‘lgan savdo hajmi (import va eksport) 40 foizni tashkil etdi, bu 1990- yillar o‘rtalaridan ikki barobar ortdi. Polsha eksportining 28 foizi Germaniyaga, qolgan 30 foizi Yevropaning qolgan qismiga to‘g’ri keladi. Polshaning Rossiyaga eksporti sezilarli darajada oshdi. Biroq, 2014- yilning avgust oyida Rossiyaga meva va sabzavot eksporti keskin ravishda Moskva tomonidan siyosiy sabablarga ko‘ra taqiqlanganidan so‘ng sezilarli darajada kamaydi.

2023- yilda Polshada jami eksport 354 milliard dollarni tashkil etdi. Qiymat jihatidan 2022- yilga nisbatan Polshadan tovarlar yetkazib berish hajmining o‘sishi 3,44 foizni tashkil etdi: tovarlar eksporti 11,8 milliard dollarga oshdi (2022- yilda Polshadan 342 milliard dollarlik mahsulot yetkazib berilgan). Eksportning asosiy qismini mashinalar, metallar, to‘qimachilik va kiyimkechak, ko‘mir, oziq-ovqat, mashinalar, kimyoviy moddalar tashkil etadi.

Yoqilg’i esa asosiy import tovari hisoblanadi. Germaniya eksportning deyarli barcha toifalari uchun eng katta bozor bo‘lib qolmoqda, Rossiya esa, energiya importining eng muhim manbai bo‘lib qolmoqda, Germaniya va Xitoy xorijiy texnika, kimyoviy moddalarning asosiy manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

Turizm. Polsha global turizm sanoatining bir qismi bo‘lib sayohatchilar sonining tobora oshib borishi bilan ahamiyat kasb etmoqda. Polshada sayyohlik mamlakatning umumiy iqtisodiyotiga eng asosiy hissa qo‘shayotgan tarmoqlardan biridir. Polshaning asosiy sayyohlik takliflari shaharlar va Shahar tashqarisidagi tarixiy yodgorliklar, sayyohlik safarlari, malakali sayyohlik, agroturizm, tog’ sayohatlarini o‘z ichiga oladi. 2017-yilda Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan sayyohlik bo‘yicha

Polshaning xorijiy sayyohlar tomonidan dunyodagi eng ko‘p sayyohlik qilayotgan davlatlaridan biri deb topildi.

Polsha, ayniqsa, 2014- yilda Yevropa Ittifoqiga qo‘shilgandan so‘ng, sayyohlar tomonidan tez-tez tashrif buyuradigan joyga aylandi. Polshada ko‘p sayyohlik joylari tabiiy muhit, tarixiy joylar va madaniy tadbirlar bilan bog’liq. Har yili dunyoning turli burchaklaridan millionlab sayyohlar jalb qilinadi. Sayyohlik institutlari ma’lumotlariga ko‘ra, 2006- yilda Polshaga 15,7 million sayyoh, 2007 yilda esa 15 million sayyoh tashrif buyurgan. 2016- yilda Polshaga kelganlarning soni 28,5 mln. kishini tashkil etdi. Bu raqamlarning 17,5 millioni sayyohlik maqsadlari uchun (kamida bir kecha qolib ketadigan) sayohatlar bo‘lib, bu dunyodagi eng ko‘p tashrif buyurilgan 16 mamlakat hisoblanadi.

Ayrim mamlakatlatlardan Polshaga tashrif buyuruvchilar soni 2023-yil birinchi yarim yilligida 2019-yilligiga nisbatan o‘sgan. Ushbu davlatlar ichida eng katta ko‘rsatkich Chexiyaga tog’ri kelib - 97%ni, Litvadan kelgan mehmonlar soni – 47%, AQShdan tashrif buyuruvchilar esa 36%ga o‘sganligi kuzatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi bilan aloqalari. O‘zbekiston Respublikasi bilan Polsha o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 19-mart kuni o‘rnatilgan.Ikki xalq o‘rtasidagi aloqalar ko‘p yillik tarixga ega. Xususan, 1863-1864 yillarda chor Rossiyasiga qarshi qo‘zg’olon ko‘targan polyaklar O‘rta Osiyoga surgun qilingan edi. Ular Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Qo‘qon shaharlarda yashab, mehnat qildilar. 1895 yilda Toshkentda polyak bolalari uchun maktab va kutubxona ochildi, yana 2 yildan keyin polyaklar jamoatchilik madaniyat markazi tashkil topdi, polyaklar kosteli faoliyat boshladi.

Mamlakatimiz bilan Polsha o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar esa, O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq yo‘lga qo‘yildi. 1992- yil 19- martda Varshavada ikki mamlakat o‘rtasida "Iqtisodiy hamkorlik va savdo-sotiq to‘g’risida" shartnoma tuzildi. Shu kunga qadar O‘zbekiston-Polsha muhosabatlarida 41 hujjatdan iborat mustahkam shartnomaviy-huquqiy asos yaratildi. Tomonlar O‘zbekiston va Polshaning davlat va jamoatchilik tuzilmalari, biznes, fan va ta’lim

muassasalari, madaniyat va san’at vakillari o‘rtasida ulkan ijobiy hamkorlik tajribasi ortirildi.

2017-yilda Polsha-O‘zbekiston tovar ayirboshlash hajmi 130,6 million dollarni (eksport – 78,5 million dollar, import – 52,1 million dollar) tashkil etdi, bu Polsha Respublikasining bilan Markaziy Osiyodagi eng muhim savdo hamkori bo‘lgan Qozog’iston Respublikasi savdo aylanmasidan 10 baravar kamdir.

2018-yilda Polsha Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi tovar ayirboshlash 206,1 million yevro darajasiga yetdi, 2018 yilda Polsha eksporti 130 foizdan ortiq (69,5 dan 160,2 million yevrogacha) o‘sdi, bu Polsha kompaniyalari erishgan eng yaxshi natijalardan biridir. dunyo bo‘ylab), import esa 2017 yildagi darajasida qoldi. - taxminan 46 million yevro. o`tgan yili). Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi bilan savdo sohasida ham sezilarli o‘sish salohiyati mavjud, chunki O‘zbekiston bozori odatda Polsha tovarlari uchun ochiq.

O‘zbekiston va Polsha o‘rtasida oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. 2019-yilda Polsha oliy ta’lim muassasalari vakillarining O‘zbekistonga tashrifi va ta’lim ko‘rgazmasi tashkil etilgan bo‘lsa, 2020-yil kuzida O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari vakillarining tashrifi amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlarning natijasi Polsha Respublikasida o‘qishga bo‘lgan qiziqishning sezilarli darajada ortishidir.

Polsha Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi O‘zbekiston Respublikasidagi Polsha ilmiy tadqiqotlarini – Varshava universitetining Arxeologiya instituti va Lyubel politexnika universitetini qo‘llab-quvvatladi.

2022-yil 17-noyabrda O‘zbekiston elchixonasida Polshaning Adamed Group kompaniyasi direktori Katarina Dubno bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish va kompaniyaning O‘zbekiston farmatsevtika bozoriga yanada faol kirishi bilan bog’liq masalalar atroflicha muhokama qilindi.

2022-yil oktabr oyida Toshkent shahrida ushbu kompaniyaning to‘laqonli vakolatxonasi ochildi. Ofis faoliyati mutaxassislar

tayyorlash, O‘zbekistondagi tibbiyot muassasalarini maxsus jihozlar bilan ta’minlash, farmatsevtika sanoatida texnologik innovatsiyalarni qo‘llash, farmatsevtika va tibbiy xizmatlar integratsiyasini rag’batlantirish, Polshada mutaxassislar tayyorlash uchun grantlar ajratish bilan bog’liq loyihalarni ilgari surishga yo‘naltirilgan.

4.3. Chexiya iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish yo‘li

Chexiya, Chex Respublikasi – Markaziy Yevropadagi davlat. Maydoni -78,9 ming km². Aholisi -10 527 000 kishi (2022). Poytaxti – Praga shahri. Ma’muriy jihatdan 14 oblast (viloyat)ga bo‘linadi.

Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022 yil hisobotiga ko‘ra Chexiya nominal YaIM hajmi 291 mlrd. AQSh dollari, 2022 yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 20 540 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 46 orinida turadigan mamlakat.

Chexiya – industrialagrar mamlakat. Milliy daromadda *qishloq xo‘jaligi* 5%, *sanoat* 33%, *xizmat ko‘rsatish tarmog‘i* 61,2% ni tashkil etadi. Chexiya iqtisodiyoti barqaror o‘sib borayotgan Yevropa Ittifoqining ijtimoiy modeli hisoblanadigan "kontinental" turini ta’minlaydigan xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish va innovatsiyalarga asoslangan holda eksportga yo‘naltirilgan rivojlanayotgan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti.

Chexiya Yevropa Ittifoqi a’zosi sifatida yakka bozorini tashkil qilib Ittifoq iqtisodiyotining bir qismi hisoblanadi. Lekin, yevro o‘rniga o‘zining valyutasini bo‘lmish chex korunasini ishlatadi.

Chexiya - YaIMning eng yuqori o‘sish sur’atlaridan biri va Yevropa Ittifoqidagi eng past ishsizlik darajasiga ega bo‘lgan mamlakat bo‘lib, sust o‘sib borayotgan farovon bozor iqtisodiyoti modeli hisoblanmoqda. Milliy iqtisodiyotdagi o‘sish tovar va xizmatlarga nisbatan tashqi talabning qisqarilishiga katta ta’sir qilmoqda.

Sobiq kommunistik davlatlar orasida Chexiya eng barqaror va muvaffaqiyatli iqtisodiy tizimlardan biriga ega. Uning asosini *sanoat* (mashinasozlik, elektrotexnika va elektronika, kimyo, oziq-ovqat sanoati va qora metallurgiya), *qurilish va xizmat ko‘rsatish sohasi*

tashkil etadi. Qishloq, o‘rmon xo‘jaligi va tog’-kon sanoatining ulushi unchalik katta emas va pasayishda davom etmoqda.

Iqtisodiy rivojlanish tarixi. Chexiya yerlari Germaniya Konfederatsiyasi davrida qit’alararo Yevropadagieng qulay va geografik joylashuvli davlat sifatida qarab kelingan. XIX asrga kelib Bohemiya qirolligi yerlari Avstriya imperiyasining iqtisodiy va sanoat yuragi hisoblangan. Chexiya yerlari imperiyadagi barcha sanoat mahsulotlarining aksariyat qismini (taxminan 70%) ishlab chiqargan bo‘lib, ularning ba’zilari deyarli monopol edi.

Mamlakat raqobatbardosh iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarmog’iga ega va davlatning yirik sanoat tarmoqlarini xususiylashtiruvchi tizim orqali erishildi.Tizimga ko‘ra, har bir fuqaroga har qanday davlat shirkatining potentsial aksiyalarini ifodalovchi kvotalarni sotib olish imkoniyati berilgan. Voucher egalari keyinchalik tanlangan kompaniyaning sarmoyaviy bazasini ko‘paytirib, fuqarolik sheriklari bo‘lgan xalqni yaratish uchun o‘zlarining kuponlarini investitsiya qilishlari mumkin edi. Bu Sobiq Ittifoq xususiylashtirish tizimidan farqli o‘laroq, kommunal aktivlarni fuqarolarga ulashdan ko‘ra xususiy kompaniyalarga sotishdan iborat edi. Ushbu siyosatning ta’siri hayratlanarli bo‘ldi. Zamonaviy rivojlanish davrida tadbirkorlik subyektlariga davlat mulkining 97% to‘g’ri keladi.

Ko‘chmas mulkni eski egalariga qaytarish yo‘li bilan xususiylashtirish 1992 yilda tugatilgan edi. 1998 yilga kelib, korxonalarning 80 foizdan ortig’i xususiy shaxslarga tegishli edi. Hozirgi kunda dastur yakunlandi va dastur chexiyalik kompaniyalarning har birining aksiyalariga egalik qildi. Bu dunyodagi eng yuqori egalik qiluvchi tadbirkor safini kengaytirdi.

Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonxo‘jaligi va baliqchilik. Chexiya qishloq xo‘jaligi, Sharqiy Yevropada eng rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lib hosildorlik darajasi ancha yuqori hudud hisoblanadi. Bug’doy, shakar lavlagi, arpa, javdar, jo‘xori va kartoshka eng muhim ekin hisoblanadi. Yirik qoramollar, qo‘ylar va parrandalar chorvadorlikning asosiy qismidir.

1989 yilga kelib respublika o‘rmonlarining deyarli uchdan ikkisi vayron qilingan yoki jiddiy zarar ko‘rgan edi. O‘shandan beri yangilangan o‘rmonlarni qayta tiklash ishlari bargli daraxtlar barqaror navlari bilan samaraliroq bo‘lib, mamlakatning uchdan bir qismini egallagan umumiy o‘rmon maydonlarida yuqori rentabellikka olib keldi.

Chexiya Respublikasida qishloq xo‘jaligi yerlari 4,264 million gektarni tashkil etadi - umumiy maydonining taxminan 54%. Tarmoqlari asosan o‘simlikchilik (g‘alla, kartoshka, lavlagi, kolza, dukkaklilar, sabzavot va mevalar, hop, uzum) va chorvachilik (sut va go‘sht chorvachiligi, cho‘chqachilik, parrandachilik, qo‘ychilik, baliqchilik, asalarichilik) hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida 100,2 ming kishi yoki Chexiya aholisining 1,9 foizi band (ularning yarmi 45 yoshdan oshgan). 2016-yilda Chexiya qishloq xo‘jaligining foydasi 25,9 foizga oshib, 20,22 milliard kronni tashkil etdi. 2016 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 1,8 foizga o‘sib, 129,3 milliard kronni tashkil etdi. 2016 yilda o‘simlikchilik 3,5 foizga o‘sib, 77,3 milliard CZKni tashkil etdi. Eng katta o‘sish makkajo‘xori ishlab chiqarishda qayd etildi. Go‘sht ishlab chiqarish ham 0,3 foizga oshdi, ayni paytda go‘sht mahsulotlarining umumiy ishlab chiqarish hajmi 448 ming 967 tonnani tashkil etmoqda.

1990-2022- yillar davomida Chexiya qishloq xo‘jaligi joriy narxlarda 2,6 milliard dollarga (90,3 foiz) o‘sib, 5,5 milliard dollarni tashkil etdi. Chexiya Respublikasida qishloq xo‘jaligining o‘rtacha yillik o‘sishi 0,082 milliard dollarni yoki 2,0% ni tashkil etdi. 2022-yilda Chexiya Respublikasida aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi 526,4 dollarni tashkil etib, dunyoda 70-o‘rinni egalladi.

Tabiiy resurslar va Energetika. Mamlakat energiya resurslar zaxiralari cheklangan bo‘lsada, Chexiya katta miqdordagi bitum, antrasit va qo‘ng’ir ko‘mir qazib chiqaradi. Bitimli ko‘mirning ko‘p qismi shimoliy-sharqiy Ostrava-Karvina ko‘mir konidan olinsa-da, Plzenhavzasidagi Kladno yaqinida, shuningdek Trutnov va Brno yaqinida qazibolinadigigan ko‘mir alohida ahamiyat kasb etadi. Bitimli ko‘mirning katta qismi sanoatga yo‘naltiriladi.

Qo‘g’ir ko‘mir qazib olish XX asrning o‘rtalariga qadar jadal sur’atlar bilan o‘sib bordi va 1990-yillarga qadar uni qazib olish keskin kamayib ketdi. ushbu tabiiy resurs issiqlik elektr stantsiyalarida va kimyo sanoati xomashyosi sifatida ishlatiladi. Slovakiya chegarasida Hodonin yaqinida kichik miqdorda neft va tabiiy qazib olinadi. Mamlakatdagi qolgan asosiy energiyaga bo‘lgan talab quvur liniyalari orqali Rossiyadan (neft va tabiiy gaz) import qilinadi.

Chexiya respublikada energiya manbai sifatida past darajadagi qo‘ng’ir ko‘mirni ifloslantiruvchi moddaga qaramligini pasaytirdi. Bugungi kunda atom energiyasi jami energiya ehtiyojining qariyb 30% ni ta’minlab, uning ulushi 40% gacha ko‘tariladi.

Sanoat. 1990-yillarning boshlarida Chexiya sanoatining aksariyat qismi G’arbiy Yevropa standartlari bo‘yicha eskirgan texnologiyalar asosida ishlagan bo‘lsada, aksariyat tarmoqlar, xususan, avtomobil va elektronika sanoati hozirgi zamonaviy samaradorlikni ta’minlab beradigan innovatsion modrnizatsiya qilish orqali rivojlantirishga erishilmoqda.

Muhandislik - sanoatning eng katta tarmog’i hisoblanadi. Bundan tashqari, oziq-ovqat va pivo ishlab chiqarish, kimyo sanoati, kauchuk, sement, to‘qimachilik, poyabzal va shisha sanoati ham muhim ahamiyatga ega. Chexiya temir va po‘lat sanoati an’anaviy ravishda sharqiy Yevropaning eng yirik shirkatlaridan biri. Og’ir sanoat tarmog’ida avtomobillar, yuk mashinalari, traktorlar, avtobuslar, samolyotlar, mototsikllar, dizel va elektr lokomotivlar, temir yo‘l va tramvay transport vositalari ishlab chiqariladi.

Avtomobil sanoati. Chexiya Yevropada aholi jon boshiga avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchilardan biri bo‘lib, Slovakiyadan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Chexoslovakiyaning bir qismi sifatida mamlakat XX asrning boshidan avtomobilsozlik texnologiyasida kuchli mavqega ega edi va sotsializm davridan so‘ng XX asrda tez o‘sish bilan Chexiya yiliga bir milliondan ortiq avtomobil ishlab chiqaradigan eng yaxshi yigirmatalik mamlakat qatoriga kirdi. So‘nggi yillarda mamlakat har yili qariyb yoki bir milliondan ortiq avtomobil ishlab chiqaradi va avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha

Yevropada 6-o‘rinni egallaydi.

Eng katta ulush yengil avtomobillar ishlab chiqarishga to‘g’ri keladi. Dominant ishlab chiqaruvchi Mladoboleslav milliy kompaniyasi Škoda Auto bo‘lib, u turli toifadagi avtomobillarning uchdan ikki qismini ishlab chiqaradi, undan keyin Yaponiya-Frantsiya Toyota Peugeot Citroën Automobile Chex va Janubiy Koreyaning Hyundai Motor kompaniyalari, har biri avtomobillarning to‘rtdan bir qismini ishlab chiqaradi. Chexiya asosiy avtosanoati eng qadimgi avtomobil ishlab chiqaruvchisi Skoda bo‘lib, asosiy zavodi Mlada Boleslavda joylashgan. 1990-yillarning boshida Germaniyaning Volkswagen kompaniyasi tomonidan olib borilgan va modernizatsiya qilingan. Skoda 2000-yillarning boshlarida Chexiya Respublikasining eng katta eksportchisi bo‘ldi, mamlakatning umumiy eksportining o‘ndan birini tashkil etadi va milliy bremd manbasi bo‘lib hisoblanadi.

Soliq tizimi. Chexiyada shaxsiy daromad solig’i juda ahamiyat kasb etadi. Chexiya Respublikasida shaxsiy daromad solig’i stavkasi 22 foizni tashkil etadi. 1992 yilda tashkilotlar solig’i stavkasi yakuniy yilda deyarli to‘rtdan bir qismga qisqardi.

Mamlakatda shuningdek ayrim turdagi korxonalar, shu jumladan pochta aloqasi, moliya institutlari, sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, radioeshittirish va nodavlat tashkilotlari uchun istisno tariqasida qo‘shilgan qiymat solig’i (QQS) qo‘llaniladi. 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Chexiya Respublikasidagi tashkilotlar uchun soliq stavkasi 15 foizni tashkil etadi.

Turizm. Chexiya Respublikasida turizm Chexiya iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biridir. Chexiya tarixiy va tabiiy diqqatga sazovor joylarga boy va o‘zining oshxonasi va tabiiy kurortlari bilan mashhur mamlakat sifatida dunyoning ko‘plab davlatlaridan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

1989- yilgacha Chexiya sayyohlik sanoati asosan boshqa Sharqiy Yevropa davlatlaridan tashrif buyurganlarga yordam berdi. Sobiq Itifoq tugatilishidan so‘ng sayyohlarning aksariyati G’arbiy Yevropa va AQSh hissasiga to‘g’ri keladi. Asosiy diqqatga sazovor joylar orasida tarixiy Praga, ko‘pgina mineralli hudular, qishki dam olish maskanlari

va turli madaniy festivallar mavjud.

O‘tgan asrning 90-yillaridayoq turizm daromadlari sezilarli darajada oshdi va mamlakat daromadlariga sezilarli darajada hissa qo‘shdi. Ushbu tarmoq XXI asrning birinchi yillarida mamlakat YaIMning yarmidan ko‘p qismiga to‘g’ri keladigan xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Chexiyada sayyohlar uchun poytaxt Praga eng mashhur joy hisoblanadi.

Chexiya iqtisodiyoti turizmdan katta daromad oladi. 2021-yilda turizmdan jami daromad 118,13 mlrd kronaga yetdi, bu YaIMning 5,5% ni tashkil etdi. 2021- yilda 171 mingdan ortiq Chexiya fuqarolari turizm sohasida doimiy ish bilan ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi bilan aloqalari. O‘zbekiston Respublikasi bilan Chexiya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1993-yil 1-yanvar kuni o‘rnatilgan. Mamlakatlarimizning iqtisodiy munosabatlari savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik, sarmoyalarni o‘zaro himoyalash va rag’batlantirish, ikki tomonlama soliqdan qochishga oid qator hujjatlarga asoslanadi.

O‘zbekistonda Chexiya kapitali ishtirokida 50 ga yaqin qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. 2023 -yil boshidan buyon o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2,6 barobar oshgan. Chexiyaning bir qator yetakchi firma va kompaniyalari yurtimizda o‘z vakolatxonalarini ochgan. Ular oziq-ovqat sanoati, to‘qimachilik, neft va gaz, plastmassa mahsulotlar ishlab chiqarish hamda sayyohlik sohalarida faoliyat olib bormoqda.

Chexiya Respublikasi mamlakatimizning Yevropadagi eng muhim hamkorlaridan biri sanaladi. Keyingi paytda, ayniqsa, iqtisodiy, investitsiyaviy munosabatlar tobora mustahkamlanib, o‘zaro savdo aloqalari uchun qulay muhit yaratildi.

Natijada tovar ayirboshlash hajmi yil sayin ortmoqda.

Xususan, 2022- yil davomida o‘zaro savdo hajmi 184,8 million AQSH dollari, jumladan, eksport –30,5 million AQSH dollari, import – 154,2 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Chexiyada yurtimizda ishlab chiqarilgan tabiiy mato va gazlamalar, shuningdek, xizmatlarga talab katta bo‘lsa, o‘z navbatida, mamlakatimizga farmatsevtika mahsulotlari, qurilish materiallari,

elektrotexnika buyumlar yetkazib beriladi.

2023 - yil 10 - 11-oktyabr kunlari Chexiya bosh vaziri Petr Fialaning taklifiga binoan O‘zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov boshchiligidagi hukumati delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Bosh vazir matbuot xizmatining xabar berishicha, tashrif yakunlari bo‘yicha umumiy qiymati *800 million yevrodan ziyod* investitsiya bitimlari va savdo shartnomalari imzolandi.

Hukumat delegatsiyasi Brno shahrida an’anaviy tarzda 60 yildan beri har yili o‘tkazib kelinayotgan «MSV 2023» xalqaro sanoat ko‘rgazmasida ishtirok etdi. Uning rasmiy ochilish marosimida Abdulla Aripov so‘zga chiqdi.

43 davlatdan 1260 ta kompaniya ishtirok etgan ko‘rgazmada O‘zbekiston delegatsiyasi alohida stend bilan ilk bor qatnashdi. «Made in Uzbekistan» milliy stendida metallurgiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish borasidagi namunalar namoyish etildi.

Nazorat va takrorlash uchun savollari

1. Polsha iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalab bering?
2. Polsha mamlakatining tashqi savdo munosabatlari?
3. Chexiya mamlakatining iqtisodiy rivojlanish tarixini aytib bering?
4. Chexiyada turizm?
5. Markaziy Yevropa mamlakatlarining O‘zbekiston bilan iqtisodiy munosabatlari?
6. Polshaning qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasi?
7. Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi tomonidan Polshaga qanday tavsif berilgan?
8. Chexiya va O‘zbekiston aloqalari?
9. Polshada turizmning qaysi turlari rivojlangan?
10. Polsha davlatining boshqaruv shakli?

V BOB. SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI

MDH mamlakatlari bilan an’anaviy, keng qamrovli va strategik sheriklik aloqalarini bundan buyon ham samarali kengaytirib borish.
“O‘zbekiston 2030” strategiyasi 92-maqsad

Tayanch iboralar: *Mintaqa, Sovet Ittifoqi, shahar aglomeratsiyalari, xalqaro ixtisoslashuv, o‘rmonchilik, neft, tabiiy gaz, yirik temir yo‘l tarmog’i, Chernobil AES, energetika xavfsizligi, xususiylashtirish, agrar iqtisodiyot, byudjet taqchilligi, TRACECA.*

5. 1. Sharqiy Yevropa mintaqasi iqtisodiyoti

Sharqiy Yevropa davlatlari. Bu subregionga qit’ada joylashgan sobiq Ittifoqdosh respublikalar (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova) hamda Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Latviya, Litva, Estoniya kiradi. Bu mamlakatlarning muhim umumiy jihatlaridan biri o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar blokiga mansubligidir.

Sharqiy Yevropaning siyosiy xaritasida o‘tgan asrning oxirida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Sovet Ittifoqi tarqalib ketganligi natijasida Rossiya, Ukraina, Belarus va Moldova davlatlari tashkil topdi. Sharqiy Yevropa subregionining yana bir xususiyati bironta ham monarxiya davlati yo‘qligidir.

Subregion hududi asosan, ulkan Sharqiy Yevropa tekisligidan iborat bo‘lsa-da, yirik tog’ tizimlari ham mavjud. Foydali qazilmalardan neft va tabiiy gaz, tosh va qo‘ng’ir ko‘mir, temir rudalari, rangli metallar, kaliy tuzlari, torf zaxiralarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Sharqiy Yevropaning tog’li mamlakatlari gidroenergiya resurslariga boy bo‘lib, ulardan samarali ravishda foydalanilmoqda.

Aholi daryo vodiylari, dengiz bo‘ylarida hamda yirik sanoat rayonlarida zich joylashgan. O‘rtacha olganda, boshqa subregionlarga nisbatan Sharqiy Yevropaning shaharlashuv darajasi biroz pastroq. Eng

yirik shahar aglomeratsiyalari Moskva, Sankt-Peterburg, Praga, Kiyev, Ukrainadagi Donetsk-Dneprbo‘yi sanoat rayonlarida, Rossiya hamda Bolgariyaning Qora dengiz bo‘yi sohillarida shakllangan.

Sharqiy Yevropa davlatlarida oxirgi yillarda shakllangan demografik vaziyat inqirozli ko‘rinishga ega bo‘lib, tug’ilishning o‘lim darajasidan pasayib ketganligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham Sharqiy Yevropadagi aksariyat mamlakatlar aholi soni tez sur’atlar bilan kamayib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining yirik bozori yaqinida joylashganligi sababli, erkinlashtirishning yana bir muhim komponenti xalqaro savdoning ochilishi bo‘ldi.

Qisqa muddatda G’arb bilan savdo qilish imkoniyati bir zumda raqobatni ta’minladi va davlat korxonalarining ichki monopol hokimiyatini sezilarli darajada pasaytirdi. Uzoq muddatda xalqaro savdo Sharqiy Yevropa iqtisodlarining G’arb iqtisodlari bilan yakuniy integratsiyalashuvi uchun kalit hisoblanadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarining xalqaro ixtisoslashuvi asosan ko‘p tarmoqli sanoat, jumladan, yoqilg’i-energetika, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, yengil sanoati, oziq-ovqat ishlab chiqarishlari bilan belgilanadi.

Sanoat: Mintaqadagi ko‘plab mamlakatlarda (masalan, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya) sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari (mashinasozlik, kimyo sanoati, avtomobilsozlik) iqtisodiyotning muhim qismi bo‘lib qolmoqda. Bu mamlakatlarning ko‘pchiligi yirik G‘arb kompaniyalari uchun yirik ishlab chiqarish markazlariga aylanib, eksportga yo‘naltirilgan sanoatni rivojlantirishga ko‘maklashdi.

Qishloq xo'jaligi: Ruminiya, Bolgariya, Ukraina va Belorussiya kabi aholining ko'p qismi qishloq joylarda yashaydigan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi, ayniqsa, muhimligicha qolmoqda. Ba’zi davlatlar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining eksporti bilan ham ajralib turadi. Biroq bozor iqtisodiyotiga o‘tgandan so‘ng qishloq aholisi va qishloq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamaydi.

Xizmatlar: So‘nggi o‘n yilliklarda xizmat ko‘rsatish sohalari, jumladan, moliya, savdo, axborot texnologiyalari va turizm mintaqa iqtisodiyotida, ayniqsa, Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda muhim o‘rin tuta boshladi. Turizm Chexiya, Vengriya, Polsha, Xorvatiya kabi mamlakatlar uchun muhim daromad manbayiga aylandi.

Axborot texnologiyalari (IT): Estoniya, Polsha va Ukraina kabi mintaqadagi ko‘plab mamlakatlar yuqori texnologiyali sanoatni faol rivojlantirmoqda, bu esa IT va autsorsing tarmoqlarining o‘sishiga yordam beradi.

Sharqiy Yevropa davlatlari o‘zlarining qayta ishlash sanoati tufayli jahon bozorida o‘z o‘rniga ega. Ular mebel, elektronika, avtomobillar va ular uchun ehtiyot qismlar, kiyim-kechak ishlab chiqaradilar - va bularning barchasi yetarlicha arzon va sifatli bo‘lib, asosiy bozor Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari hisoblanadi.

O‘tgan yili Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari Yevropa Ittifoqining qolgan mamlakatlariga 380 milliard dollarlik mahsulot yetkazib berishdi, bu ularning umumiy tovar eksportining 64 foizini tashkil etdi.

5.2. Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyoti





Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2023-yil hisobotiga ko‘ra Rossiya nominal YaIM hajmi 2 240 trln. AQSh dollari, 2023-yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 10 079 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 11 o‘rnida turadigan mamlakat. Rossiya 1995- yil 1- yanvarda Butunjahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lgan.

Sharqiy Yevropadan shimoliy Osiyo hududlarigacha keng yoyilgan ulkan hudud hisoblanadigan Rossiya Federatsiyasi jahon iqtisodiyotida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, geografik jihatdan shimoliy qutbning aksariyat qismida joylashgan Arktika, bepoyon o‘rmonlar, Tundra, Sibir, Tayga, sersuv ko‘llar, daryolar, dengizlar, tog’-adirlar, serhosil yer maydonlari; qishloq xo‘jalik sohasida rekord natijalar qayd etgan, sanoatning barcha tarmoqlarida muhim o‘zgarishlar kashf etgan mamlakat hisoblanadi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasidagi barqaror o‘sish, ilm-fan yutuqlari, (kosmosni zabt etish), quyosh va yadro fizikasi, oliy matematika, kimyo-biologiya, tibbiyot, farmatsevtika, arxitektura, energetika, innvatsion texnologiyalar, injenerlik, tog’-kon metallargiya, harbiy soha, logistika, aviatsiya, kosmonavtika, telekommunikatsiya, kinomotografiya, milliy bozor ko‘laminig juda-juda kattaligi, ko‘plab portlar va erkin iqtisodiy zonalari hamda 14 mamlakat bilan chegaradosh mamlakat hamdir.

Ikkinchi jahon urushidan ulkan zarar ko‘rgan holda uchinchi reyx natsistlar ustidan mutloq g’alaba qozonib, sharqiy va g’arbiy Yevropada tinchlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shgan, sovuq urushlar davrini boshidan kechirgan mamlakat. Imperator Romanovlar oilasini qulatib sotsializm qurish maqsadida butun imperiya hududida markazdan boshqariladigan, ma’muriy buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyotdan hozirda, ochiq bozor mexanizmlari asosida ishlaydigan o‘tish davri iqtisodiyoti, Kaliningrad-Sharqiy Yevropa-Kavkaz-O‘rta Osiyo-Afg’oniston- Saxalin-Kuril orollariga harbiy yurishlar qilgan, hozirda, dunyoning juda ko‘p mamlakatlari bilan ochiq va shaffof diplomatiya yuritadigan, konstruktiv dialoglar orqali xalqaro muammolarni betakror hal qila oladigan kuchli prezidentli mamlakat hisoblanadi.

Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (Sobiq Ittifoq) deb nomlanuvchi 15 Sovet Respublikasini biriktirgan ittifoq 1991- yil dekabrida tarqatib yuborilgandan so‘ng mustaqil davlatga aylandi.

Davlat tuzimi esa, 1993- yil 12-dekabrda bo‘lib o‘tgan referendumda Rossiya uchun yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya Federal Majlis tomonidan ma’lum bo‘lgan ikki palatali

qonun chiqaruvchi organni o‘rnatadi. Quyi palatada (Davlat Dumasi) 450 ta saylangan deputatlardan iborat bo‘lib, 178 a’zodan iborat yuqori palata (Kengash) Rossiyani tashkil etuvchi viloyatlar va muxtor respublikalarning vakillaridan iborat. Prezident to‘rt yil muddatga saylanadi.

Prezident qonun chiqaruvchi organ tomonidan ma’qullanishi kerak bo‘lgan mahkama va boshqa yuqori lavozimlarni tayinlaydi. Bosh vazir vazir o‘rinbosarlarini va markaziy bank raisi lavozimiga tayinlanishi Davlat Dumasi tomonidan tasdiqlanadi. Sudyalar va bosh prokurorlarning tayinlanishi Federatsiya kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Davlat Dumasining byudjet va iqtisodiy siyosatiga nisbatan vakolati bor, ularning aksariyati keyinchalik Federatsiya Kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Kengash viloyatlar va avtonom respublikalarga ta’sir ko‘rsatadigan masalalar, jumladan, chegaradagi o‘zgarishlar va Rossiya Federatsiyasi hududida kuch ishlatish masalalari bo‘yicha yurisdiktsiyaga ega.

Dunyoning hududiy jihatdan eng katta mamlakat hisoblanib, 11 ta vaqt mintaqasiga ega. Yevropaning eng uzun daryosi ham aynan shu hududda joylashgan. Volga va uning eng katta ko‘li bo‘lgan Ladoga joylashgan. Rossiyada dunyoning eng chuqur ko‘li hisoblanadigan Baykal joylashgan. Mamlakat Shimoliy va Janubiy qutblardan tashqarida dunyoning eng past haroratini qayd etadi. Rossiya iqtisodning strategik sohalarida davlat mulkiga ega bo‘lgan yuqori darajali daromad manbaiga ega. 1990- yillarda bozor islohotlari Rossiyaning ko‘plab sanoat va qishloq xo‘jaligini xususiylashtirdi, energetika va mudofaa bilan bog’liq sohalarda yuzaga keladigan xususiylashtirish muhim iqtisodiy o‘zgarishlarni o‘zida namoyon etdi. Rossiyaning yirik geografiyasi iqtisodiy faoliyatning muhim omilidir. Ba’zi manbalarda qayd etilishicha Rossiya dunyo tabiiy resurslarning 30 foizidan ko‘prog’ini tashkil etadi.

Sobiq Sovet iqtisodiyoti va jamiyati Stalin boshqaruvidan keyingi o‘n yilliklar davomida bosh kotib Mixail Gorbachev (1985-91) kommunizmni modernizatsiya qilish uchun qayta konfiguratsiya

qilishni boshlaguncha to‘xtab qoldi. Biroq, uning tashabbuslari g’ayrioddiy tarzda 1991- yil dekabrga kelib SSSRni Rossiya va boshqa 14 mustaqil respublikaga aylantirdi. Sobiq Ittifoqni inqirozga uchrashi AQShning har bir bosqichi 5 yilga mo‘ljallangan 15 yillik loyiha bo‘lib, uch bosqichli sirli dasturdan iborat bo‘lgan (Reforma-Perestroyka-Zaversheniya). Bu ulkan tarixiy voqeaga javobgar shaxs Mixayel Sergeyevich Gorbochyovning o‘zi bo‘lgan.

Rossiya atrof-muhitining murakkabligi fermerlik uchun foydalaniladigan yerlarning juda oz qismida aks ettirilgan. Qishloq xo‘jaligi yerlari mamlakat hududining oltidan bir qismini tashkil etadi. Rossiya qishloq xo‘jaligining uchdan bir qismi ekinlar yetishtirish uchun ishlatiladi; qolgan qismini yaylov va o‘tloqlar tashkil etadi. Umuman olganda, qishloq xo‘jaligi Rossiyaning yalpi ichki mahsulotining 5 foizdan kamroq miqdorni tashkil etadi. Ushbu sektorda jami ishchi kuchining sakkizdan bir qismi ishlaydi.

Rossiya qishloq xo‘jaligining asosiy mahsuloti har doimgidek ekin maydonlarining yarmidan ko‘prog’ini tashkil etadigan bug’doy, boshli don, arpa, javdar va grechkadan iborat. Ekin maydonining uchdan bir qismidan ko‘prog’iga yem-xashak ekiladi. Janubiy tumanlarda jo‘xori (makkajo‘xori)ga bag’ishlangan. Qolgan qishloq xo‘jaligi yerlari shakar lavlagi, zig’ir, kartoshka, poliz ekinlari va boshqa sabzavotlar kabi sanoat ekinlariga bag’ishlangan.

Qora tuproq va iqlimdagi o‘zgarish qishloq xo‘jaligida mintaqaviy farqlarni keltirib chiqaradi.Rossiyasidagi ekinlarga ajratilgan yerlarning janubiy qismida unumdor qora tuproq mintaqasi qariyb uchdan ikki qismgacha tashkil etadi. G’arbiy va sharqiy Sibir hamda Uzoq Sharqdagi ekinlar ham serhosil daromad keltiradi. Ko‘pchilik hududlarda don ekiladigan dalalar hudud yerlarining uchdan ikki qismini egallaydi. Chorvachilik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shimoli-g’arbiy va markaziy hududlarda yuzlab fermer xo‘jaliklari go‘sht va sut mahsulotlari yetkazib beradi. Fermer xo‘jaligining intensivligi va erishilgan rentabellik darajasi odatda, mamlakatning Yevropa qismida sovuq Sibirga qaraganda ancha yuqori darajaga ega.

Shuningdek, chorvachilik sohasi uchun ham xuddi shunday natija qayd etiladi.

O‘rmonchilik. Rossiya o‘rmonchilik bo‘yicha dunyodagi eng katta zaxiralarni o‘zichiga oladi va uning yog’ochsozlik, qog’oz, qayta ishlash sanoati alohida muhim hamda strategik ahamiyatga ega. Rossiyaning beshdan ikki qismi o‘rmon bilan qoplangan, va mamlakatda butun dunyo miqyosidagi o‘rmonlarning beshdan birimi tashkil etadi. Biroq, rus o‘rmonlari sovuq, kontinental iqlim tufayli o‘sishning juda sekinlashuviga ega. Mamlakat asl o‘rmon maydonlarining taxminan uchdan birini yo‘qotmoqda. Milliy qonunchilik 1990-yillarning oxirlarida keyingi o‘rmonlarni kesishni muvofiqlashtirish uchun islohotlar amalga oshirdi. O‘rmon sanoatida bir millionga yaqin odam ishlaydi. Daraxt turlari betakror ustunlik namoyon etadi; *Rossiya dunyodagi yumshoq daraxtlarning beshdan bir qismini yetishtiradi*.

"Roslesxoz" rahbari Ivan Sovetnikovning ta’kidlashicha, bir qator mamlakatlarning sanksiyalar bosimiga qaramay, 2022- yil oxirida 195 million m3 yog’och yig’ib olingan. Mamlakatda ko‘plab yog’och mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan dunyodagi yetakchi xalqaro kompaniyalardan bir qanchasi faoliyat yuritmoqda. Ular qog’oz, karton va sellyuloza eksporti orqali milliy daromadlarga hissa qo‘shadi. 2022- yilda federal byudjetga o‘rmonlardan foydalanishdan 46,6 milliard rubl tushdi, bu rejalashtirilgan hajmning 91,2 foizini tashkil qiladi.

Baliqchilik. Baliqchilik sanoati Rossiya iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Atlantika va Tinch okeanining muhim resurslariga ega bo‘lgan holda, dengiz baliqchiliklari juda yaxshi rivojlangan. Rossiyaning konserva zavod kemalari parki uzoq joylarda katta hajmli sanoat qayta ishlash faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Yevropa bo‘ylab baliq ovlash portlari - Kaliningrad va Sankt-Peterburg, Boltiq dengizi, Murmansk, Arxangelsk va boshqalar. Azov dengizida, Qora va Kaspiy dengizlarida (dunyodagi eng zaychik manbai bo‘lgan Kaspiybli baliq ovqati) kichik miqyosdagi baliq ovlari amalga oshiriladi. Lekin, daryo oqimlari va qishloq xo‘jaligi oqimi,

sanoat chiqindilarining ifloslanishi va kanalizatsiya dezinbatsiyasi baliqchilik sanoatiga keskin zarba bermoqda. Ko‘l va daryolarda, jumladan, baliq yetishtirishning muhim jihati bo‘lgan ichki suv havzalarida baliqchilik fermalarini juda ko‘plab uchratish mumkin[13].

Rossiyaning baliq ovlash sanoati dunyodagi boshqa yetakchi ishlab chiqaruvchilar (Yaponiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Xitoy) hajmiga raqobat qiladi. Rossiya konserva baliqlarining taxminan uchdan bir qismini, dunyodagi tirik va muzlatilgan baliqlarning to‘rtdan bir qismini ovlaydi. 1990-yillarda baliqchilikni xususiylashtirish siyosati sanoatning katta hajmda kengayishi natijasida ichki iste’mol uchun ishlab chiqarishdan eksportga yo‘naltirilgan.

Jumladan, 2022-yilda Rossiya Federatsiyasi, Butunrossiya baliqchilik uyushmasi ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyga 937,3 ming tonna baliq mahsulotlarini eksport qildi, bu o‘tgan yilga nisbatan bir yarim baravar ko‘pdir. Yaponiya va Janubiy Koreya Rossiyadan baliq mahsulotlarini import qiluvchi yetakchi uchlikka kiradi. Bu mamlakatlarga jami 1,667 million tonna yetkazib berildi, bu 2021-yilga nisbatan 1,25 foizga ko‘pdir. 2022- yilda Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiyaga jami eksport 370,9 milliard rublni tashkil etdi[14].

Rossiya juda ko‘p foydali qazilmalarga boy energetika zahiralariga ega. Aksariyat hollarda, zamonaviy sanoat tomonidan talab qilinadigan xom ashyolarning deyarli barchasi mavjud. Uning ko‘mir zaxiralari, metal rudalar, alyumeniy hamda mis konlari o‘zining keng ko‘lami bilan dunyoda yetakchi mamlakatligii ifodalaydi. *Gidroenergiya*ning ko‘p qismi Volga, Kama, Ob, Yenisey, Angara va Zeya daryolaridagi yirik stansiyalardan olinadi. *Atom energiya* ishlab chiqarish 1986- yil Ukrainada Chernobil halokatigacha tez sur’atlar bilan kengaytirildi. Sibirning elektr energiyasining katta qismi yuqori voltli quvvat sim tarmoq bo‘ylab Yevropa hududiga uzatildi. Rossiya

[13] Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

[14] Российский статистический ежегодник 2011, стр. 442

yonilg’i energiyasi va elektr energiyasini ishlab chiqarish, iste’mol qilish va eksport qilish kabi eng ilg’or va strategik manzara tasvirlaydi.

Rossiyada yer yuzidagi har qanday davlatning *eng yirik tabiiy gaz zahirasi, ikkinchi ko‘mir zahirasi va sakkizinchi yirik neft zaxiralari* mavjud. Bu jahonda tasdiqlangan tabiiy zahiralarning 32% (ehtimoliy zaxiralarning 23%), tasdiqlangan neft zahiralarining 12%, kashf etilgan ko‘mir zaxirasining 10% (taxminiy zaxiralarning 14%) va tasdiqlangan uran zahiralarining 8%.ni tashkil etadi. Rossiya gaz sektorini asosiy strategik ahamiyatga ega ekanligini yashirmaydi. Tabiiy gazning asosiy energiya manbai sifatida ulushi butun dunyoga nisbatan ancha yuqori. Rossiya tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmining 94 foizini ishlab chiqaradigan **"Gazprom"** monopoliyasiga tegishli bo‘lib, dunyodagi eng yirik tabiiy gaz zaxiralariga ega. Jahon miqyosida "Gazprom" dunyodagi mashhur gaz zaxirasining 25 foizini egallaydi va jahon bo‘yicha 16 foizini tashkil etadi.

Barcha neft magistral quvurlari (Kaspiy quvur liniyasi konsortsiumi bundan mustasno) davlatga qarashli **"Transneft"** monopoliyasiga tegishli. Neft mahsulotlari quvurlari o‘zlarining "Transnefteproduct" sho‘ba korxonasiga tegishli. "Transneft" Rossiyaning neftini Osiyo va Tinch okeani mintaqalariga (Xitoy, Yaponiya, Koreya) yetkazib beruvchi Sharqiy Sibir - Tinch okeani neft quvuri qurmoqda.

Rossiya dunyodagi *ikkinchi yirik ko‘mir zaxirasiga* ega bo‘lib, 157 milliard tonna zaxiraga ega. Rossiyaning ko‘mir zahiralari juda katta keng maydonlarda tarqalgan.

Gidroenergetika. Gidroenergetika Rossiyaning umumiy elektr energiyasini ishlab chiqarishning qariyb 21 foizini tashkil qiladi. Hozirgi kunda Rossiya 102 GESni qurilgan bo‘lib umumiy quvvatning 35 GVtdan oshadi. Rossiyaning "RusHydro" kompaniyasi dunyodagi ikkinchi yirik gidroenergetika ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.

Rossiya iqtisodiyotining umumiy tavsifi (2022- y.)

Poytaxti YaIM **Oltin valy zahirasi** **Tashqi Qarzi**	MOSKVA, $2.215 trillion $418.5 mlrd $451.5 mlrd	**Budjeti** **Global innovation index** **HDI**	Daromadlar**:** $343.3 mlrd Xarajatlar: $336.2 mlrd 45 (38.76) 49 (0.804)
Maydoni	17,098,242 km, Ozarbayjon 338 km, Belarus 1,312 km, Xitoy 4,133 km, Estoniya 324 km, Finlyandiya1 309km Gruziya 894 km, Qozog'iston 7,644km Latviya 332 km, Kaliningrad 261km Mo'g'iliston3,452km Norvegiya 191 km, Polsha 210 km, Ukraina 1,944 km	**Sanoati**	ko'mir, neft, gaz, kimyo, metallarlurgiya, samolyotsozlik va kosmik transport vositalari, mudofaa sanoati (radar, raketa ishlab chiqarish, ilg'or elektron komponentlar), kema qurish; yo'l transporti vositalari; kommunikat. uskunalari; qishloq xo'jaligi texnikasi, traktorlar va qurilish uskunalari; elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish uskunalari; tibbiy vositalar; iste'mol tovarlari, to'qimachilik, oziq-ovqat mahsulotlari
Aholisi	146,425,519 kishi	**Tabiiy resurslar**	neft, tabiiy gaz, ko'mir va ko'plab foydali qazilmalar, yog'och
Umumiy chegarasi	22,408 km	**Qishloq xo'jaligi**	Bug'doy, shakar lavlagi, sabzavotlar, mevalar; mol,
Ishsizlik **Inflatsiya** **Soliqlar**	5.4% (Iyun 2017) 4.2% 17.3% YaIMda	**YaIM tarkibi**	Qishloq xo'jaligi: 4.7 % Sanoat:32.5% Xizmatlar:62.1%
Xalqaro iqtisodiy Hamkorlik	WTO, CIS, APEC, EURASEC, G-20, BRICS, SCO, UNCTAD, UNIDO,	**Yirik kompaniyalari**	Gazprom, Lukoil, Rosneft, Russian Railways, Magnit, Surgutneftegaz, Transneft,X5 Retail Group,Rosseti,
Davlat boshqaruvi	Prezidentlik federatsiyasi	**Jonboshiga YaIM darajasi**	$10.079 (nominal)

Manba: Xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmalari (ciaworldfactbook.com, britannica.com, countrymattersltd.com, un.org, worldatlas.com, focus-economics.com, imf.org, metrocosm.com, statista.com) asosida.

Quyosh energiyasi. Rossiyaning quyosh energiyasi uchun umumiy salohiyati 2,3 trln.Vtni tashkil etadi. Eng yaxshi quyosh nurlanish salohiyatiga ega mintaqalar Shimoliy Kavkaz, Qora va Kaspiy dengizi hududlari, Sibir va Uzoq Sharqning janubiy qismlari. Ushbu salohiyat katta darajada foydalanilmayapti, lekin quyosh energiyasidan tashqari quyosh energiyasi yoki uzoq hududlarda gibrid ilovalar uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Shamol energiyasi Rossiya Tinch okeani va Arktika qirg'oqlarida, keng cho'l va tog'li hududlarda yuqori sifatli shamol resurslariga ega.

Xizmatlar sohasi. Sug'urta. 2016- yil oxiriga kelib Rossiyada 388 sug'urta faoliyati subyekti, 263 ta sug'urta kompaniyasi va 12 ta xalqaro sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritgan.

Moliya. Bugungi kunda Federal Soliq xizmati va Federal Bojxona xizmati tomonidan nazorat qilinadigan valyuta munosabatlari mamlakatdagi tashqi va ichki savdo munosabatlarini rivojlantirish asosi hisoblanadi.

Rossiya Markaziy bankini ko'pchilik CBR (The Central Bank of Russian) deb tan olgan. Bu milliy valyuta hisoblangan Rossiya Rublning barqarorligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan yagona organ hisoblanadi.

CBR bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi, jumladan:

- Rublning himoyalanganligini va barqarorligini ta'minlash
- Valyuta munosabatini nazorat qilishda qarz beruvchi sifatida harakat qilish,
- Kredit tashkilotlari uchun qayta moliyalashni tashkil etish
- Bank operatsiyalari uchun hisob-kitob qoidalarini belgilash
- Milliy to'lov tizimini tartibga solish va nazorat qilish qoidalarini belgilash
- Davlat byudjeti hisob-kitoblarini yuritish
- CBR xalqaro zahiralarini boshqarib, moliyaviy tashkilotlarni nazorat qilish va ro'yxatga olish.

Bank sektori. Rossiya bank sektori so‘nggi yillarda ijobiy o‘sish tendentsiyalarini kuzatdi. 2016- yilda bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4 barobar oshdi.

Kreditlar ajratish sifati yaxshilanganligi sababli 2017- yilda ham moliyaviy transhlar ortdi. Rossiyada 2017- yilning dekabr oyida 674 ta kredit tashkilotlari faoliyat yuritgan (594 ta bank va 80 ta noaniq kredit tashkilotlari).

Rossiya tashqi savdosi tovarlar tarkibi va yo‘nalishlari (2022-yil)

Eksport (USD)	$591.5 mlrd	**Import (USD)**	$259.1 mlrd
Tovarlar bo‘yicha eksport tarkibi	Neft va neft mahsulotlari, tabiiy gaz, metallar, yog’och va yog’och mahsulotlari, kimyoviy moddalar va turli xil fuqarolik va harbiy ishlab chiqaruvchilar	**Tovarlar bo‘yicha import tarkibi**	Mashina, transport vositalari, farmatsevtika, plastmassa, yarim tayyor metal, polat, go‘sht, meva va yong’oq, optik va tibbiy asbob-uskunalar, temir,
Asosiy hamkorlar	Yevropa Ittifoqi 45.8% Xitoy 9.8% Belarusiya 4.9% Turkiya 4.8% Janubiy Koreya 3.5% Boshqalar 31.2%	**Asosiy hamkorlar**	Yevropa Ittifoq 38.2% Xitoy 20.9% AQSh 6.1% Belarusiya 5.2% Yaponiya 3.7% Boshqalar

2022- yilda Rossiyaning asosiy eksporti *neft va tabiiy gaz* (umumiy eksport hajmining 68,4%), *rudalar va metallar* (5,9%), *kimyo mahsulotlari* (5,8%), *mashina va transport vositalari* (6,4%) va *oziq-*

ovqat (4,7%) hisoblanadi. Boshqalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qishloq xo‘jalik xom ashyolari (2,2%) va to‘qimachilik (0,2%)ni tashkil etdi.

Rossiya jahon tovar bozoridagi narxlarning ko‘tarilishiga katta darajada bog’liq. Chunki, mamlakat tovar eksportiga qaram bo‘lib, jahon bozoridagi o‘zgaruvchan tendensiyalar milliy iqtisodiyotga keskin zarba beradi.

Rossiyada ish bilan bandlik darajasi yanvar oyida 59,30% gacha kamaydi va 2017- yil dekabr oyida 65,80% ni tashkil qildi.

Rossiyada tashkilotlar solig’i stavkasi 20 foizni, xususiy daromad solig’i stavkasi 13 foizni tashkil etadi. Mamlakatda sotuvdan olinadigan soliq stavkasi 18 foizni tashkil etadi.

Rossiya 2011 yilda dunyo bo‘ylab umumiy uzunligi 87157 kilometr (54157 milya) bo‘lgan, faqat AQSh va Xitoydan keyin *dunyodagi uchinchi yirik temir yo‘l tarmog’iga* ega.

2006 - yildan boshlab Rossiyada 933 ming km avtomobil yo‘llari mavjud edi, ulardan 755 mingtasi zamonaviy Yevropa standrtidagi asfaltlangan. Ulardan ba’zilari Rossiya federal avtomagistral tizimini tashkil qiladi.

Rossiya temir yo‘l xizmat qilish tizimi 144 davlat ichida 136-o‘rinni egallaydi. Har yili Rossiyada avtomobillar soni olti foizga ko‘paymoqda, biroq, talabga javob beradigan avtomagistral tizimi 2200 kilometrni tashkil etadi. Kreml rahbari buni korruptsiya, nazoratni yo‘qligini va 30 yil muqaddam belgilangan standartlarni yangilash zaruriyati bilan aybladi.

Rossiya Federatsiyasining Federal Davlat statistika xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2003-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davrda yo‘llar tarmog’i 519 ming kilometrga oshgan bo‘lsa ham, bu asosan, tizimga solinmagan yo‘llar hisobiga to‘g’ri kelmoqda.

Rossiya hukumati Dengizchilik Kengashi (Morskaya Kollegiya) ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda Rossiyaning ichki suv yo‘llari orqali 136,6 million tonna yuk tashilgan. O‘sha yili Rossiyaning ichki suv yo‘llari orqali o‘tadigan 53 ta kompaniya yo‘lovchilarni tashish bilan shug’ullanib 22,8 million kishini tashkil etgan.

Rossiya - ulkan, resurslarga boy mamlakat bo‘lib, juda xilma-xildir. Dunyodagi 7 ta eng yirik ko‘mir havzasidan 5 tasi Rossiyada joylashgan. Rossiyada dunyodagi temir rudasi, berilliy zaxirasining 30%, neftning 17–18%, gaz, olmos, niobiy, tantalning 70–75%, palladiyning 50%, nikelning 40% dan ko‘prog‘i, uranning 10% mavjud.



Neft narxlari va sanktsiyalarning ikkilamchi zarbalari bilan mamlakat barcha cheklovlarga chambarchas bardosh bermoqda. Lekin, uzoq muddatli resessiyadan keyin iqtisodiyot 2015-2016-yillarda 3,1 foiz qisqarishi natijasida 2017-yilda o‘sishga qaytdi. Ushbu o‘sish davom etishi kutilmoqda, o‘sish esa 2017 va 2018- yillarda 1,7% va 2019- yilda 1,8% darajasida.

Ushbu o‘sishni uzoq muddatli strukturaviy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan ta’minlash davom etmoqda. Aholi sog’lig’ini yaxshilash, ta’lim olish imkoniyati va sifati ham muhim islohotlar tarkibiga kiritilgan. Barcha darajalarda boshqaruvni kuchaytirish va moliyaviy hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashi kerak.

5.3. Belarus va Gruziya iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish modellari

BELARUS

Mamlakat haqida umumiy ma’lumot. Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022 yil hisobotiga ko‘ra Belarussiya nominal YaIM hajmi 79.72 mlrd. AQSh dollari, 2022 yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 6 217 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 99- o‘rnida turadigan mamlakat.

Tarmoqlar bo‘yicha YaIM:

qishloq xo‘jaligi – 8,1%,

sanoat - 40,8%,

xizmat ko‘rsatish sohasi – 51,1% (2017-yil).

Belarus mamlakati bozor mexanizmlariga asoslangan o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakat. Unga Rossiya Federatsiyasi va G’arbiy Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi tashqi savdo, ijtimoiy, gumanitar, energetika, transport va boshqa sohalarda vositachi mamlakat sifatida xalqaro hamjimiyat tomonidan ulkan ishonch bildirilgan.

Mamlakat milliy iqtisodiyoti mustaqillikka erishgunga qadar samarasiz va subsidiyalariga bog’liq bo‘lgan keng qishloq xo‘jaligi bazasiga tayangan edi. 1991- 1994- yillarda kapitalistik islohotlarning dastlabki inqirozidan so‘ng kichik davlat korxonalari va ayrim xizmat ko‘rsatish sohasi xususiylashtirish, xususiy mulkchilik institutlarini yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan milliy dastur Belarussiyaning iqtisodiy rivojlanishi juda sekinlashtirdi. Barcha sanoatning qariyb 80 foizi davlat qo‘li ostida bo‘lib xorijiy hamda xususiy investitsiyalarning yo‘qligi yoki davlatga qarashli bo‘lgan xususiy investitsiyalarni jalb qilishni istamasligi tufayli to‘sqinlik qilmoqda.

Milliy davlat tizimi sohasida izchil islohotlar qilindi. 1994- yil 19-iyulda Belarusda prezidentlik saylovlari bo‘lib o‘tdi. Aleksandr Lukashenko 80,1 foiz ovoz olgan. U kommunistik tuzumni tozalash uchun islohotlarni boshladi. Biroq, kommunistik rahbariyat Lukashenko demokrat emas, balki siyosiy yoki iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun rejalari mavjud emas deb fikrladi. 1996- yil noyabrida Lukashenko o‘zining vakolatlarini kengaytirish uchun plebissitni qo‘lga kiritdi. U yangi konstitutsiyani parlamentga tarqatish uchun prezident vakolatlarini beradigan qonunga imzo qo‘ydi va yangi ikki palatali Milliy Assambleya tashkil qilish uchun 64 kishilik yuqori palataga, Respublika Kengashiga va 110 a’zoga ega bo‘lgan quyi palataga, Vakillar Palatasini joriy qildi. Barcha qonunchilar to‘rt yillik muddatga xizmat qiladi. Prezidentning muddati 2001- yilga qadar uzaytirildi. Lukashenko 2001- yilda qayta saylandi va navbatdagi prezident saylovi 2006- yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tdi.

Mamlakat iqtisodiyoti Rossiya federatsiyasi bilan chambarchas bo‘g’liq bo‘lib inqirozgacha markazdan boshqarilgan. Hududda tog’-

kon metallurgiya, transport va sanoatning boshqa yetakchi sohalari Ittifoqning mehnat taqsimoti dasturi asosida ishlagan. Ikinchi Jahon urushidan so‘ng mamlakatda sanoatni diversifikatsiya qilish boshlangan. Iste’mol tovarlarinig akasriyat qismi markazdan yetkazib berilgan bir paytda mamlakt milliy boyliklari, tog’-kon rudalari, ko‘mir juda katta hajmda o‘zlashtirila boshlandi.

1991-1995 yillarda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlariga sobiq Ittifoq qulashi sababli chuqur iqtisodiy inqiroz ta’sir ko‘rsatdi. Dastlab ushbu voqea an’anaviy iqtisodiy jarayonlarning tugashiga, sobiq Ittifoq respublikalari korxonalarining iqtisodiy salohiyatining keskin pasayishiga olib keldi. Ular Belarus mahsulotlarining asosiy iste’molchilari bo‘lgan, Ittifoq harbiylarining moliyalashtirilishi to‘xtatildi. Belarussiya sanoatining sezilarli ulushini, narxni liberallashtirishning zarari va birinchi navbatda, xom-ashyo hamda energiya resurslari bahosini o‘sishini ta’minlovchi tarmoqlar tashkil etdi.

Bundan tashqari, Belarus sobiq Ittifoqi respublikalari kabi boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarning bozor tizimi uchun mamlakat instituti va jamiyatiga umumiy tayyorgarlikning yetishmasligi bilan ajralib turdi. Xom-ashyo va energiya resurslari narxlarining keskin o‘sishi iqtisodiyotning salohiyati va sifati pastligi bilan texnologik nochorligini ko‘rsatdi. Mahalliy mahsulotlarning zaif raqobatbardoshligi, huquqiy davlatlararo cheklovlar, marketing va moliyaviy boshqaruv qobiliyatlarining yo‘qligi mamlakat xo‘jalik subyektlariga an’anaviy bozorlarda yangi talabni qondirish orqali talabning pasayishiga to‘sqinlik qildi.

Chernobil AESidagi Ukraina chegara bo‘ylab tarqalgan yirik atom falokati (1986 yil 26 aprel) Belarussiya uchun dahshatli ta’sir ko‘rsatdi; radioaktivlik tarqalishi natijasida mamlakatning katta qismida qishloq xo‘jaligi barbod bo‘ldi va ko‘plab qishloqlar tashlandiq holatga keldi. Qayta joylashtirish va jiddiy tibbiy xarajatlar uzoq vaqtga cho‘zildi.

1996- yildan 2000- yilgacha bo‘lgan muddat, shuningdek, 1998 va 1999- yillarda Rossiyaning moliyaviy va iqtisodiy inqirozi natijasida sezilarli darajada qiyinchiliklarga uchradi. Bu asosan, narxlarning

keskin o‘sishi va milliy valyutaning devalvatsiyasi, Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari bilan savdoning pasayishi, korxonalararo qarzdorlikning o‘sishi va mamlakat to‘lov balansining umuman yomonlashuviga olib keldi. Valyuta bozoridagi keskin taranglik 1998 va 1999- yillarda iqtisodiyotni beqarorlashtiruvchi asosiy omil bo‘ldi. 1999- yilda iste’mol narxlari 294 foizga o‘sdi.

2014-yilda Belorusiya Rossiya Federatsiyasi bilan savdo munosabatlarisiz ishlash imkoniyatiga ega bo‘lmasada, Yevropa Ittifoqi bilan yanada yaqinroq aloqada bo‘lish uchun hamkorlikni kengaytirdi. Belarussiya neft xom ashyosining katta bo‘lmagan zaxiralariga ega.

Ishchi kuchining o‘ndan bir qismini tashkil etuvchi ammo, YaIMning past ulushini tashkil etadigan Belarusiya qishloq xo‘jaligi sektori katta jamoa va fermer xo‘jaliklari tomonidan boshqariladi. Sobiq Ittifoq davrida mulkdorlar uchun shaxsiy uy-joylarga ruxsat berildi, ammo mustaqillikka erishgandan so‘ng sezilarli darajada oshdi. XXI asrning boshlarida xususiylashtirilgan yoki davlat tomonidan boshqariladigan kompaniyalarga ko‘plab kolxozlar sotila boshladi.

Mamlakatning ko‘pchiligi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanib, zig’irpoyani yetishtirishda tarixiy ahamiyatga ega. (Sovet Ittifoqi davrida Belarussiyalik S.S.R. USR ning umumiy miqdorining to‘rtdan bir qismini ishlab chiqardi.) Kartoshka, shakar lavlagi, arpa, bug’doy, javdar va jo‘xori (makkajo‘xori) boshqa muhim dala ekinlari hiusoblanib, ularning katta qismi hayvon yemi uchun ishlatiladi.

Chorvachilik va parrandachilik asosiy tarmoq hisoblanadi. 19-asrning oxiridan boshlab, botqoqli past tekisliklarning sezilarli hududlari suv bilan to‘ldirilgan yerlarning yem-xashak ekinlari uchun ishlatilgan. Belarussiyaning qariyb beshdan ikki qismi o‘rmonlar bilan qoplangan, ular yog’och va qog’oz mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ekspluatatsiya qilinadi. Mamlakatdagi baliqchilik sanoatining katta qismi dengiz mahsulotlari yetishtirish va eksportga yo‘naltirish bilan shug’ullanadi.

2021-yilda mamlakatning barcha fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 22,749 milliard rublni tashkil etdi (joriy narxlarda). Mahsulotning 4/5 qismi qishloq xo‘jaligi

tashkilotlarida (umumiy o‘simlikchilik mahsulotlarining yarmidan ko‘pi, chorvachilik mahsulotlarining 96 foizi), 16 foizi xususiy uy xo‘jaliklarida, 2,5 foizdan ortig‘i fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan. G’alla yetishtirishda qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining ulushi 94,2 foiz, kartoshka – 10 foiz, sabzavot – 12 foizni tashkil etadi.

2023-yilda 9,5 million tonna g’alla, shu jumladan kolza yetishtirildi. Shu bilan birga, boshoqli ekinlar - 6,4 million tonna, makkajo‘xori hosili 2 million tonnaga baholanmoqda (bu o‘tgan yilga nisbatan 500 ming tonnaga ko‘p), kolza - taxminan 1,48 million tonna, bu ham 2022- yilga nisbatan 111 ming tonnaga ko‘pdir. 2023-yilning bahor-yoz oylarida iqlim sharoiti Belarusda past hosilga olib keldi (bir qator viloyatlar va fermer xo‘jaliklari, hattoki bunday iqlim sharoitida ham Yevropa darajasidan yuqori hosil olishgan, eng yuqori ko‘rsatkich Grodno viloyatida bo‘lgan. 83,5 sentner). Hammasi bo‘lib qishloq xo‘jaligi 101,2% ko‘rsatkich oldi[15].

Belarussiya odatda mineral resurslarga ega emas. Hukumat xom-ashyo bazasini rivojlantirishni tezlashtirishga harakat qilmoqda biroq, Belarussiya milliy energetika tizimi Rossiyaga qaram bo‘lib qolmoqda. 1960-yillarda respublikaning janubi-sharqiy qismida, Rechitsa yaqinida neft konlari topildi. Ishlab chiqarish 1975- yilda eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. 90-yillarga kelib bu tarmoqda barqaror o‘sish umumiy miqdorning to‘rtdan bir qismiga to‘g’ri keldi.

Mamlakatning eng qimmat foydali qazilmalariga mineral o‘g’itlar kimyo sanoati uchun ishlatiladi. 1960- yillardan boshlab Minskning janubida topilgan yangi Soligorsk koni mineral o‘g’itlarni ishlab chiqarish markazi atrofida ekspluatatsiya qilingan kaliy tuzlari dunyodagi eng katta zaxiralardan biri hisoblandi.

Mamlakat shuningdek, Pripet cho‘qqilarida juda ko‘p bo‘lgan torf ishlab chiqarish bo‘yicha dunyodagi yetakchi hisoblanib yonilg’i sifatida ishlatiladi. Qayta tiklanadigan boshqa minerallar orasida uglevodorodlar mavjud. Deyarli barcha elektr quvvati quvur nefti va

[15] Беларусь в цифрах, 2024 Архивная копия от 14 апреля 2024 на Wayback Machine. — Мн.: Национальный статистический комитет Республики Беларусь, 2014. — С. 38.

tabiiy gaz yordamida issiqlik elektr stantsiyalarida ishlab chiqariladi; biroq, mahalliy resurslardan ham foydalanish hisobiga bir qator past quvvatli gidroelektrostantsiyalar ishlab turibdi.

XXI asrning boshlarida Belarussiya o‘zining birinchi atom stansiyasini qurishni boshladi. Zavodning Litva chegarasidan 24 km uzoqlikdagi qurilisi aholi tomonidan qattiq e’tiroz bildirdi.

Belarussiya Yevropa Ittifoqining INOGATE energetika dasturining hamkori hisoblanib, u to‘rtta asosiy mavzuni o‘z ichiga oladi: energetika xavfsizligini oshirish, a’zo davlatlarning energetika bozorlarini Yevropa Ittifoqining ichki energiya bozori tamoyillari asosida yaqinlashtirish, barqaror energetikani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, umumiy va mintaqaviy energetika loyihalari uchun sarmoyalarni jalb qilish.

Neft. Ko‘pgina neft xom ashyosi va tabiiy gazni Rossiyadan jahonin bozoridagi narxlardan sezilarli darajada import qiladi. Belarussiya, keyinchalik Rossiya neftini qayta ishlash va uni bozor narxlarida sotish orqali eksportdan daromad oladi. 2006- yil oxirida Rossiya Belarussiyaga neft va gaz eksportiga subsidiyalarni qaytarib olish jarayonini boshladi.

Mamlakatda neft va gazni qidirish, qidirish va qazib olish bilan bog’liq barcha faoliyatni "Belneftekhim" davlat kompaniyasi o‘z sho‘ba korxonasi, "Belorusneft" unitar korxonasi orqali amalga oshiradi. "Belorusneft" neft mahsulotining taxminan 50 foizini eksport qiladi. 2017- yilda Belarussiyaning o‘z ishlab chiqarishida mahalliy neft iste’molining taxminan 30% ni tashkil etadi. Shuning uchun Hukumat mamlakatlar boshqa hududida neft va gaz resurslaridan foydalanish yo‘llarini izlamoqda. Belarussiyadagi neftni qayta ishlash zavodlariga xom ashyo yetkazib berilishi qayta ishlangan mahsulotlar ichki bozorda sotiladi.

Tabiiy gaz. Belarussiyada ishlatiladigan tabiiy gazning deyarli barchasi Rossiyadan import qilinadi (iste’molning qariyb 99 foizi). Mahalliy gaz narxi hukumat tomonidan tartibga solinmoqda va ko‘p hollarda real talabning faqat bir qismini qoplaydi. Belarusiyada iste’molchilariga tabiiy gaz yetkazib berishni ta’minlaydigan yaxshi

rivojlangan gaz transporti va gaz taqsimlash tarmoqlari mavjud. Hozirda faoliyat ko‘rsatayotgan "Beltransgaz" OAJ 100% davlat aktsiyadorlik jamiyati asosiy tabiiy gaz quvurlari tizimiga ega. 2002-yil noyabr oyida Belarus parlamenti "Beltransgaz" ni xususiylashtirishga ruxsat beruvchi qonunni qabul qildi. "Gazprom" bilan 2016- yilda "Beltransgaz" OAJning 50% aktsiyalarini 2,5 mlrd. Dollarga sotib olish to‘g’risida kelishuvga erishildi.

2022-yil 19-dekabr kuni Minskda Rossiya prezidenti Vladimir Putin va Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko muzokara o‘tkazdi. Uchrashuv yakunlari bo‘yicha Lukashenko mamlakatlar 2023-yilda gazning qat’iy narxi bo‘yicha kelishib olganini ma’lum qildi.Muhokamalarda yagona gaz bozori konsepsiyasi va kelasi uch yil 2023-2025-yillar uchun narx belgilanishi haqida bo‘ldi.

2022- yilda Belarus uchun Rossiya gazining narxi ming kub metr uchun 128,5 dollar etib belgilandi. Belarus 2022-yil 1-apreldan boshlab Rossiya Federatsiyasidan gaz yetkazib berish uchun to‘lovni belgilangan tartibda rus rublida amalga oshiradi.

2023- yilda Belarus hududi orqali tabiiy gazni tashish bo‘yicha xizmatlar qiymati taxminan 12 milliard rublni tashkil qiladi (2022 yilda qiymati 250 million dollarga baholangan), 2023-2025 yillarda etkazib beriladigan gazning taxminiy qiymati esa yiliga 200 milliard rublni tashkil qiladi (2022 yilda qiymati 2,44 milliard dollarga baholangan).

Belarussiyada temir konlari, rangli metall rudalari, dolomit, kaliy (o‘g’itlarni ishlab chiqarish uchun), tosh tuzi, fosforitlar, refrakter gil, qum, shisha ishlab chiqarish uchun kvarts va turli minerallar qazib olinadi. Belarussiyada sanoat olmos, titanium, mis, qo‘rg’oshin, simob, boksit, nikel, vanadiy va amber konlari mavjud.

Belarus *sanoat tarmog*’i milliy iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan bo‘lib, yalpi ichki mahsulotning to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichning asosini minerallar va uglevodorodlarni qayta ishlash muhim rol o‘ynaydi. Soligorskda shahrida kaliy o‘g’itlarini ishlab chiqarish bo‘yicha yirik korxona joylashgan. Polatsk mintaqasida va janubdagi Mozirda neftni qayta ishlash zavodlari mavjud.

Og’ir sanoat Belarusda juda yaxshi rivojlangan. Og’ir *yuk avtomobillari*, xususan, yuk mashinalari va traktorlar Minsk, Jodzina va Milyovda ishlab chiqariladi. Boshqa muhandislik mahsulotlariga metallga ishlov berish uskunalari kabi dastgohlar kiradi. Yengil sanoatda ishlab chiqarish asosoan, 1970 va 1980- yillar mobaynida *radio, televizor, soatsozlik, velosiped, kompyuter* kabi iste’mol tovarlari ishlab chiqildi. Boshqa kichik tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarish mahalliy iste’mol uchun yo‘naltirilgan. Ular yog’ochni qayta ishlash, mebel ishlab chiqarish, mato va qog’oz tayyorlash, to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish hamda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi.

Belarus og’ir yuk mashinalarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Mashinasozlik mahsulotlarining 75% dan ortig’i xorijda 140 dan ortiq mamlakatlarga sotiladi. Mashinasozlik sanoati sanoatda band bo‘lganlarning umumiy sonining 19 foizini ish bilan ta’minlagan (2022- yil ma’lumotlariga ko‘ra).

Belarusda ishlab chiqarilgan avtomobillarning ko‘pchiligi eksportga yo‘naltirilgan. Belarussiya mamlakatda xorijiy avtomobilsozlik kompaniyalari va zavodlar bilan hamkorlik qilmoqda. Jumladan, "MAZ" va "MAN" nemis kompaniyasi 1997- yildan buyon yirik investitsion loyihalarni amalga oshirgan. Eng so‘nggi hamkorlik "General Motors" va Belarussiya "Unison SP ZAO" o‘rtasida o‘rnatilgan bo‘lib ular asosan, Rossiya va MDH bozorlari uchun Cadillac Escalade ishlab chiqaradi.

Xususiylashtirish. 1991- yilda dastlabki 40 ta korxonada davlat mulki tarkibini qayta tuzib chiqildi. 1993- yil 19- yanvarda Belarus Respublikasida "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g’risida" gi qonun qabul qilindi va bu keng miqyosli xususiylashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kerak edi. 1993- yil 8- may kuni parlamentga qilgan murojaatida Prezident Lukashenko korxonalarni qisman xususiylashtirish rejalarini e’lon qildi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi yalpi ichki mahsulotning 52% tashkil etadi va aholining katta qismini ish bilan ta’minlaydi. XXI asrning

boshlarida bank, aloqa va ko‘chmas mulk savdosining o‘sish sur’atlari sezilarli darajada rivojlandi. Belarussiyada turizm sohasi qo‘shni mamlakatlarga qaraganda kamroq rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan, XXI asrning boshlarida sayyohlik faoliyatidan olingan daromad 13% ga o‘sdi. Belovezhskaya maskani eng ko‘p tashrif buyuradigan joylardan biri bo‘lib, sayyohlik xo‘jaligida oilaviy turlar ommalashib bormoqda. Tez-tez tashrif buyurilgan yana bir maskan Brest hisoblanadi. U 1941-yilda natsistlarni bosib olgan Sovet askarlari tomonidan qurilgan jasoratli mudofaa uchun Qahramon Qal’asi deb nomlanadigan inshoatdir.

Moliya. Mustaqil mamlakatda Belarusiya Milliy banki va ko‘plab tijorat banklari tashkil topgan bo‘lib, ularning aksariyati aktsiyadorlik yoki cheklangan-mas’uliyatli muassasalardan iborat ikki bosqichli tizimga aylandi. Respublika o‘z valyutasini, ya’ni Belarus rubelini 1992- yilda joriy etdi. O‘sha yili qimmatli qog’ozlar bozori va fond birjasi ham xalqaro hisob-kitoblar va milluy valyuta bozori uchun tashkil etildi.

So'nggi yillarda Belarusda moliyaviy ahvol ancha og'irligicha qolmoqda. Mamlakat yuqori inflyatsiya, milliy valyutaning qadrsizlanishi, katta tashqi qarz va xalqaro savdodagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, siyosiy beqarorlik va xalqaro sanksiyalar iqtisodiyotga sezilarli bosim o'tkazmoqda.

Belarus davlatining tashqi qarzi

Yil	Tashqi qarz (mlrd.dollar AQSh)	Qarz yuki (yalpi ichki mahsulotga nisbatan)
2019-y.	17,1	27,7%
2020-y.	19,6	32,9%
2021-y.	20,3	33,0%
2022-y.	22,0	37,3%
2023-y	23,5	41,1%

Belorussiya tashqi qarzning o'sishiga duch kelmoqda, bu byudjet taqchilligi va kredit to'lovlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog'liq.

Bank xizmatlari. Davlat banklari bank sektorining 75 foizini tashkil qiladi. Belarus hukumati banklarning kredit faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va foizlarni kamaytirish orqali pul- kreditni rag’batlantirish kabi o‘sishni rag’batlantirish uchun bir qator chora- tadbirlarni amalga oshiradi; soliqni rag’batlantirishni ta’minlash (birinchi darajadagi ish haqi stavkasini oshirish va, natijada, barcha to‘lovlar stavkalari); xorijiy kreditlarni importga bo‘lgan yuqori talab sharoitida valyuta bozorining barqarorligini saqlash uchun jalb qilish; milliy valyutaning siljishi.

Ko‘pgina tijorat banklari hukumatning bevosita va shaxsiy ta’siriga duch keladilar. Chunki, vazirliklar darajasida ko‘plab mansabdor shaxslar bank rahbarlari va boshqaruvchilari sifatida ishtirok etdilar. Tijorat banklari davlat moliyaviy resurslarini yo‘naltirish orqali markaziy bankning agentlari sifatida faoliyat yuritadilar. Shuning uchun, Belarus Markaziy Banki ko‘pincha texnik funktsiyalarni amalga oshiradi. Chunki, Prezident va hukumat qarorlar bilan butun bank tizimining faoliyatiga aralashmoqda.

Belarusiya tashqi savdosi tovarlar tarkibi va yo‘nalishlari (2022- y.)

Eksport		**Import**	
Eksport (USD)	$37,565mlrd	**Import (USD)**	$37,393mlrd
Tovarlar bo‘yicha eksport tarkibi	mashina va uskunalar, mineral mahsulotlar, kimyoviy moddalar, metallar, to‘qimachilik, oziq-ovqat mahsulotlari	**Tovarlar bo‘yicha import tarkibi**	mineral moddalar, mashinava uskunalar, kimyoviy moddalar, oziq-ovqat mahsulotlari, metallar
Asosiy hamkorlar	Rossiya 42.2% Ukraina 11.3% Buyuk Britaniya 8.2% Gollandiya 4.8% Germaniya 4.6%	**Asosiy hamkorlar**	Rossiya 54.6% Germaniya 6.0% Xitoy 5.8% Ukraina 4.1%

Belorussiyada mehnatga layoqatli aholi soni demografik o'zgarishlar: tug'ilishning kamayishi va aholining qarishi tufayli

kamayib bormoqda. Mamlakatda ishsizlik darajasi an'anaviy ravishda nisbatan past darajada bo'lib kelgan, bu davlat tomonidan bandlikning yuqori darajasi va turli davlat dasturlari orqali mehnatga layoqatli aholini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Rasmiy ishsizlik darajasi pastligicha qolmoqda - 1%ga yaqin.

Davlat korxonalari va muassasalarida bandlikning yuqori darajasi (30%) Belarus iqtisodiyotining xususiyatlaridan biridir. Mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati kabi koʻplab yirik korxonalar davlat tasarrufida boʻlib qolmoqda. Belarussiya ishchi kuchining aksariyati xizmatlar yoki tog'-kon sanoati sohasida ishlaydi. Belarussiya istalgan mamlakatda ishlaydigan ayollarning eng yuqori foiziga ega boʻlib, ayollar ta'lim, sog'liqni saqlash, aloqa, ishlab chiqarish va qishloq xoʻjaligi sohalarida asosiy rol oʻynaydi. Belarussiyaning aksariyat xodimlari kasaba uyushma a'zolaridir.

XXI asrning boshlarida Belarussiya soliq tizimi yanada koʻproq Yevropa standartlariga mos kelishi uchun soddalashtirildi. Jismoniy shaxslarga olinadigan soliqlar: daromad solig'i, ijtimoiy ta'minot soliqi va mol-mulk solig'idir. Tadbirkorlik solig'i uchun korporativ daromad solig'i, ijtimoiy ta'minot solig'i, qoʻshilgan qiymat solig'i, ekologik soliqlar (tabiiy resurslardan foydalanish uchun) va mol-mulk solig'i kiradi. Belarusiyada tashkilotlar solig'i stavkasi 18 foizni tashkil qiladi. Belarusda Shaxsiy daromad solig'i stavkasi 13 foizni tashkil qiladi. Savdo boʻyicha soliq stavkasi 20 foizni tashkil etadi.

Belorusiya yaxshi temir yoʻl tarmog'iga ega, u mamlakatni kesib oʻtadigan yirik mintaqalararo temir yoʻllari boshqaradi: Berlin-Moskva oʻrtasida sharq-g'arb; Sankt-Peterburg va Kiev oʻrtasidagi shimoliy-janub (Ukraina); va Boltiqboʻyi davlatlari va Ukrainaning shimoli-janubi-sharqiy qismida joylashgan. Shuningdek, poytaxt va barcha viloyat markazlari oʻrtasida yaxshi aloqalar mavjud. Koʻp tarmoqli avtobuslar mamlakat boʻylab faoliyat koʻrsatadi. Minsk shahriga avtobuslar, koʻchalar va Minsk metrosu deb nomlanadigan yer osti temir yoʻlini oʻz ichiga olgan keng miqyosli ommaviy tranzit tizimi xizmat koʻrsatadi. Minskning aviya xizmatlar ham yaxshi yoʻlg a qoʻyilgan.

Loyihalar. Jahon Banki tomonidan qo‘llab-quvvatlangan dasturlar transport infratuzilmasi, suv ta’minoti, chiqindilarni boshqarish, energiya samaradorligi va davlat xizmatlari uchun muhim natijalarga erishdi. Belarus, barcha hududlardagi ijtimoiy soha ob’ektlarining 1000 ta binosida o‘quvchilar, o‘qituvchilar, shifokorlar va bemorlar hozirda yangilangan hamda sifatli kommunal xizmatlar ko‘rsatilmoqda.

Turizm. Mamlakatga Rossiyadan kelgan sayyohlar umumiy miqdorning katta qismini tashkil etadi. Rossiya va Belarussiya o‘rtasidagi chegara birlashma davlat siyosati doirasida hech qanday nazorat qilinmasligi ushbu ko‘rsatkichni yanada ishirishga asos bo‘ladi. Shu sababli, Belarusning kirish turizmi asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniq statistik ma’lumot yo‘q. Belarussiyaning sog’lomlashtirish oromgohlari va sanatoriylari nisbatan past narxlar tufayli rus sayyohlari bilan gavjumdir.

Belarussiyada sanatoriy, sog’lomlashtirish muassasalari va boshqa ixtisoslashtirilgan turar joylarining jami soni 334 tani tashkil etadi. 2016-yilda chet el sayyohlari soni 7,464,2 mingni tashkil qildi. Mamlakatda 783ta sayyohlik agentliklari (2010-yilda) mavjud bo‘lib, ular xorijiy fuqarolarning kam sonli qismini va Belarusiyaliklarning jo‘nab ketishiga xizmat qiladi. Sayohat agentliklarining aksariyati xususiy, ulardan 50% dan ortig’i Minskda joylashgan. Xalqaro sayyohlik sohasidagi asosiy hamkorlar - Germaniya, Polsha, Buyuk Britaniya, Turkiya, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Shvetsiya va Niderlandiya davlatlari. Eksportning umumiy hajmida turizm hajmi 1% ni tashkil etadi.

Dunyoning eng mehmondo‘st davlatlari reytingida, "Keluvchi davlatlar reytingi - 2023" (bu davlatlar vizasiz rejim imkoniyatlari va aeroportda viza olish bilan baholanadi), Belarus 199 davlat orasida 53-o‘rinni egalladi. Sayyohlar Belorussiyani tanlaydilar, jumladan, mamlakatning tashrif kartalari - tozalik va xavfsizlik. Zamonaviy dunyoda bu fazilatlar katta raqobat ustunligiga aylanadi. National Geographic ma’lumotlariga ko‘ra, Belovejsk o‘rmoni 2020- yildagi eng yaxshi 25 sayohat yo‘nalishi qatoriga kiritilgan.

GRUZIYA



Mamlakat haqida umumiy ma’lumot. Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022- yil hisobotiga ko‘ra Gruziya nominal YaIM hajmi 24,6 mlrd. AQSh dollari, 2022- yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 5,425 AQSh dollarini tashkil etib, hozirda dunyo iqtisodiyotining 120 o‘rinida turadi. Gruziya 2000 - yil 14 - iyunda Butunjahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lgan.

Gruziya iqtisodiyoti yaxshi rivojlanayotgan sanoat bazasi bilan bir qatorda xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilgan bozor mexanizmlariga asoslagan o‘tish davri iqtisodiyoti hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizini tashkil etadi. Sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari har birida ishchi kuchining beshdan ikki qismi ishlaydi. Gruziyaning asosiy iqtisodiy faoliyati uzum, sitrus mevalari va funduk kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish; kichik korxonalarda spirtli va alkogolsiz ichimliklar; sanoatda marganets, mis va oltin qazib olish; metallar, mashinalar va kimyoviy moddalar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Mamlakat tabiiy gaz va neft mahsulotlarining deyarli barcha ehtiyojlarini qondiradi. Ayni paytda uning energiya ehtiyojlarini ta’minlaydigan gidroenergetika tizimi mavjud.

Mamlakat davlat tizimini tubdan isloh qildi. Yangi milliy qonunchilik asosida boshqaruv yanada demokratik tamoyillar bilan uyg’unlashdi. Konstitutsiyaga asosan, Prezident 5 yil muddatga saylanadi. Konstitutsiya bir mandatli saylov okruglari (85 o‘rin) va partiyalar ro‘yxatlari (150 o‘rin) tomonidan saylanadigan bitta qonun chiqaruvchi, 235 a’zodan iborat qonun chiqaruvchi organni tashkil qiladi. Qonun chiqaruvchilar 4 yil muddatga xizmat qiladi. Hukumat vazirlari davlat boshlig’ining yordamchisi bo‘lgan prezidentga javobgar.

XX asrgacha Gruziya keng ko‘lamli agrar iqtisodiyotga ega edi. Gruziyaning zamonaviy iqtisodiyoti an’anaviy ravishda Qoradengiz

iqlimi atrofida sitrus mevalar, choy va uzum yetishtirish; yengil sanoatda to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik tarmoq sohasiga ega.

Gruziya 1990-yillardagi keskin iqtisodiy pasayish davrini boshdan kechirdi, yuqori darajadagi inflyatsiya va yuqori budjet taqchilligi davrida soliqlar to‘lanishidan qat’i nazar, mamlakatda ushbu ko‘rsatkich 6,2 foizga oshdi. Ushbu davrda xalqaro moliya institutlari Gruziya byudjetni tahlil qilib zararlarni baholashda muhim rol o‘ynagan.

Hukumat AQSh va xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan katta moliyaviy yordam tufayli iqtisodiy barqarorlikni saqlab qoldi. Chet elda ishlaydigan ishchilarning xalqaro moliyaviy ko‘mak va pul o‘tkazmalari o‘rta muddatda joriy hisob-kitoblar tanqisligini qoplaydi.

Gruziya iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyati shundaki, qishloq xo‘jaligi yerlari ham qisqa muddatga ijaraga beriladi. Ekin maydonlarining hosildorligi ancha yuqori. Shu bilan birga choy va sitrus mevalari kabi mehnat talab qiladigan (yuqori daromadli) ekinlarni yetishtirish qishloq xo‘jaligidagi ba’zi unumsiz hosildorlik yerlari mahsulotini kompensatsiya qiluvchi omil hisoblanadi.

Shakar lavlagi va tamaki boshqa tijorat ekinlari orasida yuqori ahamiyat kasb etadi. Parfyumeriya sanoati uchun asosiy yog’lar (geranium, gul va yasemin) ham ishlab chiqariladi. Bug’doyni o‘z ichiga olgan donli ekinlar muhim ahamiyatga ega, ammo, ushbu mahsulot mamlakat ichki talabi uchun yetarli miqdor bo‘lmaganligi uchun import qilinadi. Shaharlarda sabzavot va poliz mahsulotlari ancha turlari yetishtirildi.

Chorvachilikni rivojlantirish turli xil yoz va qishki yaylovlarning turfaligi bilan belgilanadi. Qo‘y va echkilar, qoramollar va qo‘ychilik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, 2022-yilda Gruziyada 74,7 ming tonna go‘sht ishlab chiqarilgan, bu 2021-yilga nisbatan 2,9 foizga ko‘pdir. Asalarichilik va parrandachilikning zamonaviy samarali texnologiyalari joriy etilgan. Qora dengizda baliqchilik sanoati keng ko‘lamda ishlaydi.

Mamlakat vinolar va spirtli ichimliklar eksport bo‘yicha dunyodagi o‘nlikka kiradi. Gruziya milliy vino agentligiga ko‘ra, gurjiston sharobini eksport qilish tarkibi va hajmi oshib bormoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari Gruziya eksportining taxminan 6 foizini tashkil etdi va umumiy qiymati 130 million AQSH dollari miqdoridagi 10 ta eng yaxshi eksport tovarlari ro‘yxatiga kiradi. Yong’oqlar 53 mamlakatga eksport qilindi.

So‘nggi yillarda Gruziya o‘z elektroenergetika tarmog’ini to‘la-to‘kis takomillashtirdi va hozirda u bozorlarga erkin va ochiq kirish imkoniyati mavjud. Gruziya katta hajmdagi gidroenergetik quvvatga ega bo‘lib uning energiya ta’minoti va siyosatining tobora muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Mamlakatning topografiyasi va gidroenergetika ko‘pligi Kavkaz mintaqasidagi gidroelektr stantsiyalariga bp’yicha ustunlikka ega. Gruziya energetika vazirligi mamlakat hududida juda katta miqdorda suv resurslari zaxirasiga boyligini e’tirof etmoqda. So‘nggi yillarda Gruziya mintaqada elektr energiyasining asosiy eksportchisi bo‘lib, 2016- yilda 1,9 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi eksport qilgan. Gurjistonning gidroelektrostantsiyalari mamlakat hududida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 80-85 foizini tashkil qiladi. Qolgan 15-20 foizini issiqlik energiyasi stantsiyalari zimmasiga to‘g’ri keladi. Energetika va tabiiy resurslar vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, hozircha Gruziya gidroenergetika salohiyatining atigi 18 foizini ishlatmoqda.

Gruziyaning gidroenergetikaga bo‘lgan ishonchi mamlakatni iqlimiy o‘zgarishlarga moyildir. Bu esa meva-sabzavot yetishmovchiligini ta’minlash uchun importni talab qiladi. Gruziya hali ham mavjud gidroenergetika inshootlarini barpo etish, shuningdek, yangi gidroelektrostantsiyalarni qurish orqali gidroenergetika quvvatini oshirish uchun salohiyatga ega. Gruziyadagi elektr tarmoqlarini Rossiya, Turkiya, Armaniston va Ozarbayjonga ulaydigan elektr uzatish liniyalari mavjud.

Gruziya tabiiy gaz iste’moli 2017- yilda 1,8 milliard kubometrni tashkil qildi. Tabiiy gaz Rossiya tomonidan Gruziyaga yetkazib berilardi. Biroq so‘nggi yillarda Gruziya Gidroenergetika ishlab

chiqarishining o‘sishi va Ozarbayjondan tabiiy gaz manbalarining mavjudligi tufayli Gruziya Rossiyadan importga qaramligini bartaraf etdi. Bundan tashqari, Armanistonning barcha Rossiya gaz eksporti Gruziya quvur tarmog’idan o‘tadi. Gruziya ushbu gazning 10 foizini tranzit to‘lovi sifatida oladi. 2018- yilda Gruziya iste’molida Rossiya gazining ulushi atigi 1,7% ni tashkil etdi. 2022-yilda bu ulush 13 foizga oshgan, o‘tgan yili esa deyarli 25 foizga yetgan.

Gruziya energetik xavfsizligini oshirish maqsadida a’zo davlatlarning energetika bozorlarini Yevropa Ittifoqining ichki energiya bozori tamoyillari asosida yaqinlashtirilishi. Gruziya barqaror energetikani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va energetika loyihalari uchun sarmoyalarni jalb qilish kabi to‘rtta asosiy mavzusi bo‘lgan Yevropa Ittifoqi INOGATE energetika dasturining hamkor davlatidir.

Gruziya tashqi savdosi tovarlar tarkibi va yo‘nalishlari (2022- y.)

Eksport		**Import**	
Eksport (USD)	$5.58mlrd	**Import (USD)**	$13.5mlrd
Tovarlar bo‘yicha	Avtoulovlar, ferro-qotishmalar, mineral yoki	**Tovarlar bo‘yicha**	Yog ‘moylari, yonilg’i quyish vositalari, gazlar,
eksport tarkibi	kimyoviy o‘g’itlar, yong’oq, temir, oltin, mis rudalari,	**import tarkibi**	dori-darmon, bug’doy, telefonlar, shakar,
	spirtli ichimliklar, yangi uzum sharobi		sigaretalar, Avtomatik qayta ishlash mashinalari
Asosiy hamkorlar	Yevropa Ittifoqi 27% Rossiya 9.8%	**Asosiy hamkorlar**	Yevropa Ittifoqi 30.3% Turkiya 18.7%
	Turkiya 8.2%		Rossiya 9.3%
	Xitoy 8% Ozarbayjon 7.3%		Xitoy 7.6% Ozarbayjon 6.8%
	Boshqalar 39.7%		Boshqalar 27.2%

Gruziyada ishlab chiqilgan yoqilg’i-energetika jamg’armasi sanoatlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Rioni va Suxumi majmualari, shu jumladan ko‘plab gidrotexnika inshootlari ko‘mir va

tabiiy gaz bilan jihozlangan ko‘plab stansiyalar qurildi. Hozirda ular yagona bo‘lgan energiya tizimiga ulangan.

Poytaxt yaqinida joylashgan Rust’avi metallurgiya zavodi 1956-yilda dastlabki po‘latni ishlab chiqardi. Rossiya, Ukraina va boshqa mamlakatlarda uning laminatlangan temir va choksiz quvurlar ishlab chiqariladigan katta bozorlari mavjud. Zestaponiy ikkinchi yirik metallurgiya markazi hisoblanadi.

Gruziya kimyo sanoati mineral o‘g’itlar, sintetik materiallar, tolalar va farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaradi. Mahalliy xomashyodan foydalanib, qurilish sanoati mamlakatni sement, shiftli va ko‘plab prefabrik beton konstruktsiyalar hamda butlovchi qismlar bilan ta’minlaydi.

Mashinasozlik sanoati temir yo‘l lokomotivlaridan, og’ir transport vositalari, mexanik uskunalar va nozik sanoat jihozlarigacha ishlab chiqaradi. Ixtisoslashgan mahsulotlarga mamlakat o‘simliklari uchun choy-yig’uvchi mashinalar va uskunalari kiradi. Sanoat ishlab chiqarish katta shaharlarda joylashgan.

2014- yildan boshlab Gruziya Yevropa Ittifoqining erkin savdo hududiga a’zo bo‘ldi va mintaqaning yirik savdo sherigiga aylandi. Gruziyaning umumiy savdo aylanmasining to‘rtdan bir qismi aynan ushbu hudud hissasiga to‘g’ri kelmoqda. Yevropa Ittifoqining savdo bitimidan so‘ng 2015 yilda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmining o‘sishi qayd etildi.

Rossiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bilan savdo-iqtisodiy aloqalar 22% ni tashkil qildi. 2016- yilga kelib, Gruziyaning asosiy eksporti: mis rudalari va kontsentratlar, ferro eritmalar, dori- darmonlar, azotli o‘g’itlar, sharob, xom neft, mineral suvlar, denatatsiz etil spirti va spirtlarni tashkil qilgan.

Gruziyaning geografik joylashuvi muhim siyosiy ahamiyat kasb etganligi tufayli TRACECA (англ. Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia) xalqaro dasturining asosiy a’zolaridan biri hisoblanadi. TRASEKA - Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridorini tashkil etish bo‘yicha Yevropa Ittifoqi va hamkor davlatlar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik dasturi. TRASEKA dasturi 1993- yilda Bryussel

deklaratsiyasi asosida Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston ishtirokida tuzilgan. Tez orada Moldova, Mo‘g’uliston va Ukraina, 2000 yilda - Turkiya, Ruminiya va Bolgariya, 2009 yilda - Eron dasturga qo‘shildi.

Yevropa va Osiyo o‘rtasida joylashganligi bois, yaqin kelajakda mamlakat zamonaviy Ipak yo‘lining o‘tish davri markaziga aylanishi kerak. 2015-yilning 11-martida Gruziya matbuoti Xitoy va Gruziya kompaniyalari Anakliadagi chuqur suv portini rivojlantirish bo‘yicha Pekinda kelishuvga erishilganini e’lon qildi. Bu TRACECA yo‘nalishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Port 1000 gektardan ziyod maydonlarida quriladi va chuqur dengiz kanyoniga ega bo‘ladi.

Gruziya turizmi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida xalqaro turizm tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan sanoatdir. 2016- yilda 158,5 ming kishi ish bilan ta’minlangan. Yalpi ichki mahsulotning 6,7 foizini tashkil etib 1,94 milliard dollar daromad keltirgan.

Gruziyadagi chet ellik mehmonlarning xarajatlari to‘lovlar balansiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Gruziyaning xizmat ko‘rsatish sohasidan tushgan daromadlarining taxminan 64,3 foizini tashkil qildi. Xalqaro sayyohlar mamlakatda o‘rtacha 6,5 kun qoladilar.

Gruziya turizmni targ’ib qilish vazifasi yuklatilgan rasmiy organ Gruziya milliy turizm idorasi (GNTA) hisoblanadi. 2016-yilda GNTA 21 ta xalqaro va ichki turizm yarmarkasida ishtirok etdi. Ushbu kompaniya 16 maqsadli bozorda marketing tadqiqotlarini o‘tkazgan va 99 ta matbuot tanishuv safarlarini uyushtirdi.

Ekoturizm. Gruziya hududining 41% o‘rmonlar bilan qoplangan bo‘lib, mamlakat hududining 25% himoyalangan milliy parklarda iborat. Gruziyadagi qo‘riqlanadigan hududlar turli xil xizmatlarni taklif etadi: qayiq safarlari, qushlarni kuzatish, ekologik ta’lim, 18 ta piyoda sayr qilish, otda sayr qilish, velosiped, safari turizmi, baliq ovlash.

Gruziya 5601 turdagi jonivorlarga ega bo‘lib, ular orasida 648 turdagi jonzotlar (butun dunyoda topilgan turlarning 1% dan ortig’i) mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi xonakilashtirilgan.

5.4. O‘zbekiston va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlari

O‘zbekiston-Rossiya aloqalari uzoq, tarixga ega. Oltin O‘rda davlati sohibqiron Amir Temur zarbalari ostida barham topganidan keyin Rus davlati bilan O‘rta Osiyo o‘rtasida elchilik munosabatlari o‘rnatishga harakat boshlandi. Rus davlati ham Buxoro va Xiva xonliklari bilan aloqalardan manfaatdor edi.

XVI asrning 2-yarmi, XVII-XVIII asrlarda ikki o‘rtada diplomatok va savdosotiq aloqalari faollashgan. XIX asrning 60-yillaridan O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingach, bu yerlar Rossiyaning xom ashyo manbai bo‘lib qoldi.

O‘rta Osiyodan paxta, ipak va boshqa yuborish va bu yerga sanoat mollari keltirish yo‘lga qo‘yildi. 1917- yil oktabr to‘ntarishidan keyin O‘zbekiston - Rossiya aloqalari sobiq Sovet hukumati siyosati doirasida yagona iqtisodiyot rejasiga binoan, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash yo‘lida amalga oshiriddi.

1992-yil 20- mart kuni ikki davlat o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgan. O‘tgan yillar mobaynida strategik sheriklik va ittifoqchilik tamoyillariga asoslangan O‘zbekiston - Rossiya do‘stona hamkorligining shakllanishi va rivojlanishi katta yo‘lni bosib o‘tdi.

Har ikki davlat BMT, ShHT, MDH va boshqa tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlikni kengaytirmoqda. “O‘zbekiston biz uchun mintaqadagi eng ustuvor sheriklardan biri va bizning munosabatlarimiz alohidadir”, - deya bayonot bergan edi Rossiya Prezidenti Vladimir Putin o‘zining 2012 - yil 4 - iyun kuni Toshkentga buyurgan tashrifi chog’ida. – “Biz mamlakatning qanday imkoniyatlarga ega ekanligini juda yaxshi bilamiz va munosabatlarimizni uning salohiyatiga hamda xalqlarimiz o‘rtasidagi tarixiy aloqalarning chuqur ildizlariga muvofiq ravishda quramiz”.

O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyaning faoliyati ikki tomonlama amaliy aloqalar taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Gumanitar va madaniy aloqalar rivoji ikki tomonlama hamkorlikning yana bir yo‘nalishi hisoblanadi.

Bu boradagi hamkorlikning asosini ―madaniyat, fan va texnika, ta’lim, sog’liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohalaridagi hamkorlik to‘g’risida‖gi Hukumatlararo bitim hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi Madaniyat vazirligi o‘rtasida imzolangan ― Madaniyat sohasida hamkorlik to‘g’risidagi Bitim tashkil etadiki, ular yildan-yilga yangi amaliy mazmun bilan boyib bormoqda.

Respublikamizda 1994-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Rus madaniyat markazi o‘zbek va rus xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda rus tilida asosiy ta’lim olish va mutaxassislik bo‘yicha o‘qishni davom ettirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Yurtimizda 800 dan ortiq rus va o‘zbek tillarida ta’lim beradigan maktablar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, mamlakatimizning deyarli barcha oliy o‘quv yurtlarida rus tilida tahsil olinadi. So‘nggi yillarda ta’lim, sog’liqni saqlash, ilm-fan va texnika sohalaridagi o‘zaro manfaatli aloqalar ham muvaffaqqiyatli rivoj topmoqda.

Yurtimizda G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti va I.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining filiallari ochilgan. Shuningdek, Rossiya universitetlari 2024-yilda o‘zbekistonlik talabalar ta’limi uchun 800 ta budjet kvotasi ajratdi.

O‘zbekiston Rossiya oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun kelgan talabalar soni bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. 2016-yil yakunlariga ko‘ra ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash 4,2 mlrd. AQSh dollarni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Belarus o‘rtasida diplomatik aloqalar 1993-yil 21-yanvar kuni o‘rnatilgan. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligida 1994-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Belarus Respublikasi Hukumati o‘rtasida xalqaro avtomobil qatnovi to‘g’risida tuzilgan Bitimning 19-moddasiga binoan, xalqaro avtomobil qatnovi bo‘yicha O‘zbek-Belarus Qo‘shma komissiyasining navbatdagi yig’ilishi bo‘lib o‘tdi.

2018-yil 11-iyul kuni Toshkent shahridagi ― Turkiston mehmonxonasining konferensiyalar zalida O‘zbekiston va Belarus Ichki ishlar vazirliklari vakillari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda tomonlar umumjinoyat hatti- harakatlariga qarshi kurashish va qidiruv ishlarini olib borish, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, narko xavf-xatarlarni bartaraf etish borasida o‘zaro hamkorlikning bugungi holati va kelgusidagi istiqbollarini muhokama qildi.

Hozirga qadar O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida davlatlar va hukumatlararo 24 ta shartnoma, idoralararo va xalqaro 11 tadan hujjat imzolangan. Belarus O‘zbekistonning muhim savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2010- yilda ikki davlat o‘rtasidagi mahsulot ayirboshlash 136,2 million AQSh dollarini tashkil qilgan.

2022-yil yakunlariga ko‘ra tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshdi va 2023-yil yakuniga ko‘ra 620,1 million dollardan ortiqni tashkil etdi. 2023-yil yakunlari bo‘yicha qiymati 1 milliard dollardan ziyod shartnoma va bitimlar imzolangani qayd etildi.

Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko 2024-yilning 7 – 9 fevrali kunlari rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘lib qaytdi. Shu doirada 8 - fevral kuni Toshkentda ikki davlat prezidentlarining o‘zaro va hay’atlararo uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Mazkur uchrashuvda Belarusning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lishi masalasi ham prezidentlar uchrashuvi kun tartibidan o‘rin oldi. Muzokaralar yakunida prezidentlar ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma deklaratsiyaga qo‘l qo‘ydilar.

Toshkent shahrida O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida jami 14 ta shartnoma imzolandi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 - yili Belarusga bo‘lgan rasmiy tashrifi chog’ida ikki davlat o‘rtasida 13 ta shartnoma imzolangandi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Gruziya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1994-yil 19-avgust kuni o‘rnatilgan. Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat – 1995-yilning 4-sentabrida O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasida imzolangan do‘stlik va

hamkorlik to‘g’risidagi kelishuv hisoblanadi. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha o‘zbek-gruzin Qo‘shma komisiyasi tartibga soladi.

2016-yil yakunlari bo‘icha ikki davlat o‘rtasidagi umumiy tovar aylanmasi hajmi 90,8 million AQSh dollarini tashkil etdi. Gruziya O‘zbekistonning Kavkaz mintaqasidagi muhim hamkoridir. Mamlakatlarimiz o‘rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalar izchil rivojlanmoqda.

O‘zbekiston Gruziyaga avtomobillar, to‘qimachilik va elektr texnikasi mahsulotlari eksport qilish, Gruziya yo‘llari orqali jahon bozoriga chiqishdan manfaatdor. Gruziya mamlakatimizdan meva-sabzavotlar xarid qilishi, vinochilik sohasida qo‘shma korxonalar tashkil etishi mumkin.

Xalqlarimiz o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro hurmat qaror topgan. O‘zbekistonda gruzin millatiga mansub fuqarolarimiz mamlakatimiz hayotida faol ishtirok etmoqda. Bu madaniy-gumanitar aloqalar rivojiga mustahkam asos bo‘lmoqda.

2024-yilning 8-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Gruziya parlamenti Spikeri Shalva Papuashvili boshchiligidagi delegatsiya a’zolari bilan uchrashdi.

Muloqot davomida delegatsiya a’zolariga mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, Konstitutsiyaning yangi tahriri normalarini amalga oshirish borasidagi sa’y-harakatlar, shuningdek, Qonunchilik palatasi tuzilishi, qonun ijodkorligi faoliyati, qo‘mitalar, komissiyalar va palata deputatlarining asosiy vazifalari haqida batafsil ma’lumot berildi.

Nazorat va takrorlash uchun savollari

1. Rossiya iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishlarini tasniflab bering.
2. Gruziya iqtisodiyotining yetakchi sektorlari tavsiflab bering.
3. Belarusiya iqtisodiyotining o‘ziga xos tomonlarini izohlab bering.

4. O‘zbekiston va Rossiyaning o‘zaro aloqalari?
Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarining katta ahamiyat kasb etgan yana bir shakli **kapital eksportidir.** Ushbu funksiya Yaponiyaning oltin-valyuta zaxiralarining o'sishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning ushbu ko'rsatkich uning jahon bo'yicha yetakchiligini ta'minlaydi. Yaponiyaning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 600 milliard dollardan oshdi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga Yaponiya investitsiyalarining tabiati juda farq qiladi. Masalan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotiga kiritilgan barcha yapon investitsiyalarining deyarli 1/2 qismi moliya, bank va sug‘urta sohalariga, 1/4 qismi esa ishlab chiqarish sanoatiga to‘g‘ri keladi. 1980-

yillarning boshlariga kelib, Yaponiyaning mintaqa iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari 45 milliard dollarga yetdi va bu G‘arbiy Yevropaning Yaponiya iqtisodiyotiga qo‘ygan sarmoyalaridan 12,5 barobar ko‘p bo‘ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda Yaponiya asosan yoqilg'i va xom ashyo qazib olishga investitsiya kiritadi.

XX asr Yaponiya iqtisodiyoti "xizmatlar iqtisodiyoti"ga aylandi (madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat, yo’lovchi transporti va aloqa, umumiy ovqatlanish va boshqalar).

Yaponiyada iqtisodiyoti tarkibidagi xizmat ko’rsatish sohasining ulushi 1970-yildagi 49% dan 1994-yilda 62% dan oshdi. 2022-yil uchun so’nggi ma'lumotlar 71.39 %ni tashkil etdi.

Transport. XIX asrning ikkinchi qismiga qadar yapon xalqining ko‘pchiligi piyoda yurishgan. Avtomobil transporti erkaklar yoki hayvonlar transporti vagonlar, aravalar yoki palanquin (kago) bilan cheklangan. Birinchi temir yo‘l 1872 - yilda Tokio va Yokohama o‘rtasida qurilgan bo‘lib, ko‘p o‘tmay boshqa yo‘nalashlar ham ishga tushdi. Mamlaktada ko‘plab tunnellar va ko‘priklarni qurish talab qilinar edi. Shu bilan bir vaqtda temir kemalar va zamonaviy portlar qurildi. Biroq yo‘l qurilishi boshqa transport vositalarining rivojlanishidan orqada qolmadi, natijada shaharlarning aksariyat qismi hozirgi kunda to‘liq tizimda ishlaydi.

Yaponiya hozirgi kunda dunyoning eng rivojlangan transport va aloqa tarmoqlaridan biriga ega. Yaponiyada 175 ta aeroport mavjud bo‘lib, ular xalqaro logistikaning bir qismi hisoblanadi. Tokioning eng yirik aeroporti - Osiyodagi ikkinchi eng katta aeroportdir.

Asosiy transport turi avtomobil (yuk tashishning 52,1%, yo‘lovchi tashishning 59,4%) hisoblanadi. Avtomobil yo‘llarining uzunligi 1,2 million km, shundan 5 ming kmga yaqini tez yo‘llardir. Temir yo‘llarning uzunligi 30 ming km ga yaqin. Temir yo'llar orqali tashiladigan yuklar hajmi bo'yicha u dunyoning ko'pgina davlatlaridan kam, lekin ularning yuk aylanmasi bo'yicha - faqat Rossiya va Xitoydan. Shuningdek, yo‘lovchi tashuvchi temir yo‘l harakati bo‘yicha ham bu ikki davlatdan past, lekin, yo‘lovchi tashuvchi temir yo‘l tashish zichligi bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi.

Yaponiya temir yo'llari juda yuqori texnik darajaga ega. Barcha asosiy magistrallar elektrlashtirilgan. Yaponiya Fransiya bilan birga tezyurar temir yo'llarni rivojlantirish bo'yicha dunyoda etakchi o'rinni egallaydi, bu yerda poyezd tezligi soatiga 250–300 km. Yaponiya temir yo'llarida 3,5 ming tunnel bor. Dunyodagi eng uzun 10 ta temir yo‘l tunnelidan 5 tasi Yaponiyada.

Yo‘llarning uzunligi bo‘yicha Yaponiya Xitoy, Kanada, Rossiya va dunyoning boshqa yirik davlatlarini ortda qoldirib, AQSH, Braziliya, Hindistondan keyin ikkinchi, **yo‘llarning zichligi bo‘yicha esa dunyoda birinchi o‘rinda turadi.** Avtotransport parki hajmi bo'yicha (65 million avtomobil, shu jumladan 45 million avtomobil) u dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Yaponiya dunyodagi eng yirik va texnik jihatdan rivojlangan savdo dengiz flotiga ega. Kemalar soni (10 ming) bo'yicha u nafaqat dunyodagi boshqa mamlakatlardan, balki birgalikda olingan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Ispaniya flotlarini ham ortda qoldiradi.

Avtomobil yo'llar odatda temir yo'llarga parallel bo'lib, polimagistral deb ataladigan yo'llarni hosil qiladi.

Turizm. Yaponiya o‘zining boy tarixi, madaniyati, festivallari, milliy urf-odati va sana’ti bilan asrlar davomida dunyo hamjamiyatining diqqat markazida bo‘lgan. Shuningdek, ikkinchi Jahon urushidan so‘nggi qayta tiklanish natijasida mamlakatda madaniy va tarixiy yodgorliklarga alohida e’tibor qaratildi. Milliylikni saqlab qolgan holda yaponlar endilikda dunyo malakatlari uchun betakror sayyohlik markaziga aylandi. Ichki turizm Yaponiya iqtisodiyoti va madaniyatining muhim qismi bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina o‘rta maktablarda bolalarni Tokiodagi Disneylend yoki Tokio minorasiga tashrif sifatida ko‘rishlari mumkin. Ko‘plab o‘rta maktab o‘quvchilari odatda Okinava yoki Xokkaydoga sayohatga boradilar. Yaponiya sayyohlik agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoylik sayyohlar Yaponiyadagi eng katta daromad keltiradigan millat hisoblanadi.

Turizmning YaIMga umumiy hissasi unchalik katta emas, taxminan 1,9% (taqqoslash uchun, turizmning Fransiya iqtisodiyotiga

qo‘shgan hissasi taxminan 10%, Janubiy Koreyada 5%, AQShda esa taxminan 3%). Yaponiyada turistlar sonining aholiga nisbati: 25%, ya’ni mamlakatning har 4 nafar rezidentiga yiliga 1 nafar sayyoh to‘g‘ri keladi (masalan, Fransiyada har bir rezidentga yiliga 3 nafar turist to‘g‘ri keladi). Yaponiyada xalqaro turizmdan tushumlar 49,2 trln. 2019- yilda AQSh dollari yoki har bir yapon rezidentiga yiliga taxminan 400 AQSh dollari.

2009 yildan 2019 yilgacha bu mamlakatga kelgan xorijlik sayyohlar soni 5 barobar oshdi. Iqtisodiy sabablardan tashqari (yenaning tushishi va Xitoy iqtisodiyotining o'sishi) turizmning o'sishiga Xitoy, Tailand va Malayziya bilan viza rejimining soddalashtirilgani ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Immigratsiya xizmatlari agentligining dastlabki hisobotida aytilishicha, 2023- yilda Yaponiyaga kirgan xorijliklar soni o‘tgan yilga nisbatan qariyb 6,1 baravarga oshib, 25 million 830 ming 789 nafarga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan aloqalari. O‘zbekiston Respublikasi bilan Yaponiya o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 26-yanvar kuni o‘rnatilgan. Yaponiya O‘zbekiston mustaqilligini 1991- yil 28- dekabrda e’tirof etdi va 1992- yil 26- yanvardan boshlab mamlakatlarimiz o‘rtaisda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniy-gumanitar sohada ham samarali hamkorlik rivojlanmoqda. Oxirgi paytlarda Yaponiyada o‘zbek san’at ustalari bir qator madaniy tadbirlari o‘tkazildi. Xususan, Yaponiya parlamentida o‘tkazilgan ―O‘zbek fotografiyasining 125 yilligi ko‘rgazmasi; Buyuk Ipak yo‘li mavzusiga bag’ishlangan turkum tadbirlar; ―Fukushima-O‘zbekiston‖ uyushmasining tashkil topgan kuni bilan bir vaqtda o‘tkazilgan O‘zbekiston madaniyati kunlari; ―Yaponiyada o‘zbek kinosi kunlari; ―Jata World Tourism Congress And Travel Fair - 2010 Xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasi doirasida ―O‘zbekiston sayyohlik sanoatining taqdimot marosimi kabi tadbirlarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. O‘zbek madaniyatiga hurmat yuzasidan va buyuk qalam sohibining o‘chmas ijodini e’tirof etgan holda 2004- yil Soka universiteti hududida atoqli shoir va

mutfakkir Alisher Navoiyning haykali o‘rnatildi. Har yili 9 fevral kuni ushbu universitetda g’azal mulkining sultoni haykalining poyida navoiyxonlik o‘tkaziladi.

Mamlakatimizda 15ta O‘zbekistonYaponiya qo‘shma korxonasi faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonda Yaponiyaning “JOGMEC”, “Mitsubishi”, “Itochu”, “Sumitomo”, “Marubeni”, “Isuzu” va boshqa yetakchi kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston-Yaponiya qo‘mitasi faoliyati o‘zaro savdoni rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Yurtimizda, shuningdek, eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish, sarmoyaviy loyihalar doirasida uskuna va jihozlarni yetkazib berish kabi sohalarda ish olib boruvchi Yaponiyaning 14 yetakchi firma va kompaniyasi o‘z vakolatxonasini ochgan.

Iqtisodiyot, menejment, yurisprudensiya, telekommunikatsiyalar, sog’liqni saqlash, biznes, qishloq xo‘jaligi, sayyohlik, bank-moliya sektori, transport va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan ikki mingdan ziyod o‘zbek mutaxassislari — JICA tashkiloti loyihasi bo‘yicha Yaponiyada malaka oshirib qaytdilar.Yaponiya hukumat granti doirasida har yili 15 nafar o‘zbekistonlik talaba mazkur mamlakatning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida ta’lim oladi.

Yaponiyalik tadbirkorlar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarni yuqori baholab, valyuta va soliq tizimlarining liberallashuvi, viza tartib-taomillarining soddalashtirilgani O‘zbekistonda muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratganini alohida ta’kidlamoqda. Hamkorlar O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga ilk rasmiy tashrifi ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarga yangi sahifa qo‘shib, yapon biznesi, jumladan, mamlakatimizda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda kichik va o‘rta biznes vakillarining faol ishtiroki turtki bo‘lganini ta’kidladilar.

2019-yilda Yaponiya ishbilarmon doiralari bilan energetika, sanoat va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, infratuzilma, ekologiya, sog’liqni saqlash va boshqa sohalarda qator qo‘shma loyihalarni amalga

oshirish bo‘yicha 6,5 milliard dollarlik shartnomalar imzolangani ham shundan dalolat beradi.

2019-yildan boshlab O‘zbekiston Yaponiyaga quritilgan mevalarning sinov partiyalari: mayiz, quritilgan o‘rik va o‘rikning qo‘shimcha yetkazib berishini yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekistonning Yaponiyaga quritilgan mevalar yetkazib beruvchilar ro‘yxatida mavjudligi muhim yutuqdir, chunki yapon importchilari mamlakatga yetkazib berilayotgan mahsulotlar xavfsizligi va sifati bo‘yicha juda yuqori standartlarni belgilab qo‘ygan.

2021-yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 169,2 million dollarni tashkil etdi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) orqali O‘zbekistonda umumiy qiymati 1,9 milliard dollar bo‘lgan 7 ta loyiha amalga oshirildi, 721 million dollarlik tijorat kreditlari, jumladan, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi (622,2 million dollar), Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi (59 million dollar), Ko‘kdumaloq konida kompressor stansiyasi (76 mln.), Farg’ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstruksiya qilish (83 mln.) uchun ajratildi.

7.3. Mo‘g‘iliston mamlakatining iqtisodiyotiga umumiy tavsif

Mo‘g‘iliston - Sharqiy Osiyoda joylashgan mamlakat. Maydoni 1565 ming km². Aholisi 2, 893 ming kishi (2013). Poytaxti - Ulan-Bator shahri Ma’muriy jihatdan 18 aymoq (viloyat)ga, aymoklar somon (tuman)larga bo‘linadi.

Mo‘g’iliston iqtisodiyoti an’anaviy ravishda dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan iqtisodiyotdir. Mo‘g’iliston shuningdek, ko‘pgina foydali qazilma konlariga ega: mis, ko‘mir, molibden, qalay, volfram va oltin sanoat ishlab chiqarishining katta qismini tashkil qiladi. Mo‘g’iliston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) uchdan bir qismini tashkil etgan Sovet yordami Sovet Ittifoqi parchalangan paytda, 1990-1991-yillarda deyarli bir kechada yo‘qoldi va Mo‘g’iliston chuqur tanazzulga yuz tutdi.

Iqtisodiy o‘sish 1996-yilda bir qator tabiiy ofatlar va mis hamda kashmir jahon narxlarining oshishi tufayli to‘xtab qolganidan keyin

1997-1999-yillarda o‘sdi. 1998 - va 1999 - yillarda Osiyo moliyaviy inqirozi oqibatlari tufayli davlat daromadlari va eksporti pasayib ketdi. 1999-yil avgust va sentyabr oylarida iqtisodiyot Rossiya tomonidan neft va neft mahsulotlarini eksport qilishni vaqtincha taqiqlanishidan zarar ko‘rdi. Mo‘g’iliston 1997-yilda Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lgan.

Xalqaro donor hamjamiyat 1999-yil iyun oyida Ulan-Batorda bo‘lib o‘tgan maslahat guruhining so‘nggi yig‘ilishida mamlakatga yiliga 300 million dollardan ortiq mablag‘ ajratishga va’da berdi. So‘nggi paytlarda Mo‘g’iliston iqtisodiyoti tog‘-kon sanoatining o‘sishi hisobiga tez sur’atlar bilan o‘sdi va mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’ati 2013-yilda 11,7 % ga yetdi. Biroq, bu o‘sishning katta qismi eksportga asoslanganligi sababli, Mo‘g’iliston Xitoyga bo‘lgan eksport o‘sishining pasayishi tufayli tog‘-kon sanoatining global sekinlashuvidan aziyat chekmoqda.

Iqtisodiy tarixi. 1990-1991-yillardagi tez siyosiy o‘zgarishlar Mo‘g’ilistonning bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarining boshlanishi bo‘ldi, biroq bu sa’y-harakatlar sobiq Sovet Ittifoqi iqtisodiyotining parchalanishi tufayli murakkablashdi va to‘xtab qoldi.

1991-yilgacha Mo‘g’iliston savdosining 80 % i sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari bilan, 15 % i esa O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (CMEA) mamlakatlari bilan amalga oshirilgan. Mo‘g’iliston yoqilg‘i, dori-darmon va zavod hamda elektr stansiyalari uchun ehtiyot qismlar bo‘yicha sobiq Sovet Ittifoqiga qaram edi.

Sobiq Sovet Ittifoqi Mo‘g’iliston sanoati uchun asosiy bozor bo‘lib xizmat qilgan. 1980-yillarda Mo‘g’ilistonning sanoat sektori muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq, minerallar, hayvonlar va hayvonlardan olingan mahsulotlar hali ham mamlakat eksportining katta qismini tashkil qiladi. Asosiy import mahsulotlariga esa mashinasozlik, neft, gazlama va qurilish materiallari kiradi.

1980-yillarning oxirida hukumat nokommunistik Osiyo hamda G‘arb bilan aloqalarni yaxshilashga kirishdi va Mo‘g’ilistonda turizm rivojlandi. 1991-yil 1-yanvardan boshlab Mo‘g’iliston va sobiq Sovet

Ittifoqi o‘zaro savdoni jahon narxlarida erkin valyutada olib borishga kelishib oldilar.

Mo‘g‘uliston tashqi savdodagi qiyinchiliklarga qaramay, islohotlarni davom ettirdi. Mamlakatda 1990-yillarda kichik do‘konlar va korxonalarni xususiylashtirish deyarli yakunlandi va ko‘pchilik narxlar erkinlashtirildi. Mo‘g’ilistonda shuningdek, yirik davlat korxonalarini xususiylashtirish hamda soliq islohotlari boshlandi, barter va rasmiy valyuta kurslari 1991-yil oxirida birlashtirildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish. 1990-1993-yillarda Mo‘g’ilistonda inflyatsiya, ishsizlikning o‘sishi, asosiy tovarlar va oziq-ovqat ratsioni tanqisligi kuzatildi. Bu davrda iqtisodiy mahsulot uchdan biriga qisqardi. Bozor islohotlari va xususiy tadbirkorlik amalga oshirilgach, 1994-1995-yillarda iqtisodiy o‘sish yana boshlandi. Afsuski, bu iqtisodiy o‘sish bank sektorining keskin zaiflashuvi bilan birga kechdi, chunki o‘sish bank kreditlarining qolgan davlat korxonalariga ortiqcha ajratilishi hisobiga ta’minlangan edi. 1995-yilda yalpi ichki mahsulot taxminan 6 % ga o‘sdi, bu asosan mis narxining ko‘tarilishi tufayli kechdi. O‘rtacha real iqtisodiy o‘sish 1996-1999-yillarda Osiyo moliyaviy inqirozi, 1998-yilgi Rossiya moliyaviy inqirozi va xom ashyo, ayniqsa, mis hamda oltin narxlarining pastlashuvi tufayli taxminan 3,5 % ni tashkil qildi.

Mo‘g’iliston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o‘sishi 1999-yildagi 3,2 % dan 2000-yilda 1,3 % ga tushdi. Bu pasayish 2000-yilda yomon ob-havo va tabiiy ofatlar natijasida 2,4 million chorva mollarining nobud bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

An’anaviy ko‘chmanchi chorvachilikka asoslangan qishloq xo‘jaligidan tashqari rivojlanish istiqbollari Mo‘g’ilistonning dengizga chiqish imkoni yo‘qligi va asosiy infratuzilmaning yetishmasligi sababli cheklanadi. 1990-yildan buyon Mo‘g’ilistonga 61 ta mamlakatdan 1500 tadan ortiq xorijiy kompaniyalar jami 338,3 million dollarni tashkil etuvchi sarmoya kiritdi. 2003-yilga kelib xususiy kompaniyalar Mo‘g’iliston’ yalpi ichki mahsulotining 70 % ini va eksportning 80 % ini tashkil etdi.

Yaqin paytgacha Mo‘g’ilistonning sotsializmdan keyingi davrida xorijiy investitsiyalar uchun juda kam cheklovlar mavjud edi. Binobarin, tog‘-kon sanoatining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kirib kelishiga qo‘shgan hissasi 1990-yildagi 0 % dan 1999-yilda deyarli 25 % ga oshdi.

Hozirgi kundagi iqtisodiy rivojlanish. Mo‘g’ilistonning ko‘proq Xitoy bilan savdoga tayanishi butun jahon moliyaviy inqirozi paytida mamlakat iqtisodiyotining o‘sishini jiddiy ravishda to‘xtatib qo‘yishi mumkinligini anglatardi. Metall, ayniqsa mis narxining keskin pasayishi (2008-yil iyulidan 2009-yil fevraliga nisbatan 65 % ga pasaygan) mamlakat xom ashyo eksportidan foydani cheklab qo‘ydi.

Iqtisodiyot tiklana boshlaganida, Mo‘g’iliston 2009-2010-yillar qish mavsumida „Zud“ga duchor bo‘ldi, bu ko‘plab chorva mollarining nobud bo‘lishiga olib keldi va shu tariqa mamlakat eksport daromadlarining 7 % ini tashkil etuvchi kashmir ishlab chiqarishga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisob-kitoblariga ko‘ra, 2009-yilda Mo‘g’iliston yalpi ichki mahsulotining real o‘sishi 8 % dan 2,7 % ga qisqardi, eksport esa 26 % ga qisqarib, 2,5 milliard dollardan 1,9 milliard dollargacha kamaygan. Shu sababli, global moliyaviy inqirozdan chiqa olgan 20 000 dan 40 000 gacha mongollar (mos ravishda 0,7 % va 1,4 %) qashshoqlikdan xalos bo‘lishi prognoz qilingan.

2009-yil oxiri va 2010-yil boshida bozor yana tiklana boshladi. Oldingi iqtisodiy beqarorliklarni aniqlab, ulardan saboq olib, qonunchilikni isloh qilish va qat’iylashtirilgan soliq siyosati mamlakatni oldinga olib chiqishi ko‘zda tutilgan. 2010-yil fevral oyida xorijiy aktivlar 1 569 449 million AQSH dollarini tashkil etdi. Yangi savdo shartnomalari tuzildi va xorijiy investorlar „Osiyo bo‘risi“ ni diqqat bilan kuzatib borishdi.

Tog‘-kon sanoati. Mo‘g’ilistonning asosiy sanoat tarmog‘i bo‘lib, butun Mo‘g’iliston sanoatining 30 % ini tashkil qiladi. Mamlakatdagi yana bir muhim sanoat kashmir ishlab chiqarishdir. Mo‘g’iliston kashmir ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi,

mamlakatdagi asosiy kashmir kompaniyasi hisoblangan Gobi Cashmere 2006-yil holatiga koʻra jahon kashmir ishlab chiqarishining 21 % mahsulotini tashkil qiladi.

Moʻgʼilistonda 2019-yilda jami eksport 7,6 milliard dollarni tashkil etdi.

2023-yildan boshlab Xitoyga yoʻnaltirilgan yangi koʻmir temir yoʻl tarmoqlari ishga tushishi va Rio Tinto kompaniyasining Moʻgʼiliston janubidagi Oyu Tolgoʻy yer osti konidan mis ishlab chiqarishni koʻpaytirishi orqali mamlakat tovar eksportining sezilarli darajada koʻpayishi kutilmoqda.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari: bugʻdoy, arpa, sabzavot, yem-xashak ekinlari, qoʻy, echki, qoramol, tuya va ot.

Sanoat: qurilish va qurilish materiallari; togʻ - kon sanoati mahsulotlari (koʻmir, mis, molibden, flyuorit va oltin); oziq-ovqat va ichimliklar; chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, kashmir jun va tabiiy tola ishlab chiqarish.

Eksport tovarlari: mis, kiyim-kechak, chorvachilik, chorvachilik mahsulotlari, kashmir jun, teri, flyuorit va boshqa rangli metallar.

*Import tovarlar*i: mashina hamda asbob-uskunalar, yoqilgʼi, avtomobillar, oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat isteʼmol tovarlari, kimyo, qurilish materiallari, shakar va choy.

Oʻzbekiston Respublikasi bilan Moʻgʼiliston oʻrtasida diplomatik aloqalar 1993-yilda oʻrnatilgan. Bugungi kunga qadar avtomobil transporti sohasidagi hamkorlik masalalari boʻyicha ikki davlat transport vazirliklari oʻrtasida tranzit tashish uchun 100 ta va uchinchi davlatlarga 50 ta ruxsatnomalar almashildi va bayonnoma bilan tasdiqlandi. 2023-yil 15-noyabr holatiga koʻra, Oʻzbekiston hududidan Moʻgʼuliston chegarasini yuk ortilgan 85 ta avtomobil kesib oʻtgan.

2023- yil 7- noyabrda Moʻgʼiliston Yoʻl va transportni rivojlantirish vaziri Sandangiin Byambatsogt Oʻzbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi va Moʻgʻulistondagi doimiy elchisi Farhod Arziyev bilan uchrashdi va ikki davlat oʻrtasida yaqin kelajakda havo qatnovi va xalqaro avtomobil qatnovi toʻgʻrisida Bitim tuzishga kelishib oldi.

“Bugunga qadar ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 7 million dollarga yetdi. Mamlakatimizdan meva-sabzavot, shuningdek, Mo‘g’ulistondan go‘sht, jun, kaşmir mahsulotlari savdosini kengaytirmoqchimiz. Hozirda ikki davlat fuqarolari 30 kun muddatga vizasiz sayohat qilishlari mumkin”, - dedi elchi Arziyev ushbu imtiyozdan turizmni rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun foydalanish zarurligini ta’kidladi.

Uchrashuv yakunlari bo‘yicha tomonlar yaqin vaqt ichida ikki davlat o‘rtasida havo aloqalari va avtomobil transporti bo‘yicha hukumatlararo bitimlar tuzishga qaror qilishdi.

Nazorat va takrorlash uchun savollari

1. Sharqiy Osiyo mintaqasining o‘ziga xos belgilari?
2. Mo‘g’iliston mamlakatining iqtisodiy rivojlanish davrlari?
3. Yaponiya mamlakati haqida umumiy ma’lumot bering.
4. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi aloqalar?
5. Yaponiyaning rivojlanishidagi “iqtisodiy mo‘jiza” nimadan iborat?
6. Mo‘g’ilistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni qachon va qanday boshlangan?
7. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya iqtisodiy rivojlanishining muhim xususiyatlari?
8. Sharqiy Osiyo mintaqasidagi eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlar?
9. Yaponiya mamlakatida baliqchilik tarmog’i?
10. Mo‘g’ilistonda tog‘-kon sanoati?

VIII BOB. OSIYO MINTAQASI ENG KICHIK INDUSTRIAL MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI

Tayanch iboralar: *Industrial rivojlangan davlat, transmilliy korporatsiyalar, sotsializm, "Sharqiy Osiyo Mo'jizasi", Koreya Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti, Uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, IT-reja, qulay investitsion muhit, iqtisodiy modernizatsiyalash.*

8.1. Yangi industrial davlatlari iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish yo'li

Jahonning eng yirik qit'asi Osiyo deb atalishi uning geogrfik o'rni bilan bog'liq. Qadimiy assuriyaliklar tilida u "Quyosh chiqishi", ya'ni "sharq" ma'nosini anglatadi. Osiyoning maydoni 44,5 million km² bo'lib, qit'ada 47ta mamlakat joylashgan, shundan, 34tasi respublika, 13tasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Osiyoda dunyodagi 5ta mutlaq monarxiyaning 4tasi (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney) joylashgan.

Osiyoda 4,54 mlrd. aholi yashaydi (2022), bu Yer shari aholisining 60,6 %ni tashkil etadi. Osiyoda maydoni 1 ming km2dan kichik bo'lgan 3ta davlat mavjud – Bahrayn, Singapur va Maldiv Respublikasi.

Osiyoning yangi industrial davlatlari – *Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Gonkong.*

XX-asrning 60–80-yillari rivojlanayotgan davlatlar ichidan "**Yangi industrial davlatlar"** (YaID)ning ajralib chiqish davri bo'ldi. Bugungi kunda bunday davlatlar Osiyo va Lotin Amerikasida mavjud. Yangi industrial davlatlar shakllanishida chet el sarmoyasi katta rol o'ynadi. Chunonchi, 80-yillarning birinchi yarmida YaID iqtisodiga kiritilgan sarmoya chet davlatlarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiga kiritgan jami sarmoyasining 42 foizini tashkil etdi. YaID iqtisodiga eng ko'p sarmoya kiritgan davlat AQSH (chetga chiqarilgan barcha sarmoyasining 10 foizi)dir.

BMTning hisoblash uslubiga koʻra, u yoki bu davlatni yangi industrial davlatlar safiga qoʻshishda quyidagi koʻrsatkichlar hisobga olinadi:

- yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti koʻrsatkichi;
- yalpi ichki mahsulotning yillik oʻsish surʼati (qoʻshimcha);
- qayta ishlash sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi solishtirma salmogʻi (u 20 foiz-dan yuqori boʻlishi zarur);
- sanoat mahsulotlarining eksportdagi salmogʻi;
- xorijga chiqarilgan investitsiya salmogʻi.

1995-yilda xalqaro tashkilot – "Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti" Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari orasida birinchi boʻlib *Singapur*ga industrial rivojlangan davlat maqomini berdi. 30 yil ichida barqaror iqtisodiy taraqqiyot Singapurni kichik bir bandargohdan jahondagi eng boy davlatlardan biriga aylantirdi (yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti hajmi boʻyicha dunyoda 9-oʻrinda turadi). Shu yili aholi jon boshiga oʻrtacha daromad 22300 AQSH dollarini tashkil etdi.

Chet el sarmoyalari YaIDning sanoatini rivojlantirishda va eksportning raqobatbardosh boʻlishida muhim rol oʻynadi. Bunga Koreya Respublikasi iqtisodi misol boʻla oladi. Bu davlat iqtisodiga joylashtirilgan jami sarmoyalarning yarmidan koʻpi Yaponiya sarmoyasidir. Bu sarmoya Koreya Respublikasida mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika jihozlari, kemasozlik komplekslari yaratilishiga asos boʻldi.

Bugungi kunda YaID iqtisodiyotida xorij sarmoyasi joylashtirilmagan biror-bir soha qolmadi. Ayni paytda, Osiyo YaID iqtisodiyotiga kiritilgan chet el sarmoyalarining daromad keltirish ulushi Lotin Amerikasi davlatlarinikidan yuqoridir.

Bundan tashqari, keyingi qator oʻn yilliklarda transmilliy korporatsiyalar ilm talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta eʼtibor berdi. Osiyoning YaID bunday oʻzgarishga tayyor boʻlib chiqdilar.

Ayni paytda, quyidagi omillar ham transmilliy korporatsiyalarning aynan Osiyo hududiga kirib kelishida katta rol o‘ynadi:

- Osiyo YaIDning qulay geografik o‘rni. Ularning deyarli hammasi dunyo iqtisodiy yo‘llari kesishgan nuqtalarda hamda AQSH va Yaponiyaga yaqin joylashgan;
- Osiyo YaIDda mustahkam siyosiy barqarorlikning tiklanganligi hamda demokratik va siyosiy qayta qurishlarning iqtisodiy islohotlar manfaatiga xizmat qilganligi;
- Osiyo YaID aholisining o‘ta mehnatkashligi, tirishqoqligi va intizomliligi.

Yuqoridagi omillar Osiyo YaIDda xorij sarmoyasi xavfsizligiga yuqori kafolat berilishini ta’minladi.

Osiyoning YaID o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda milliy iqtisodiyotni tashqi bozor – eksportga yo‘naltirgan holda rivojlantirish modelini qo‘lladilar. Barcha omillarning uyg’unligini ta’minlay olgan Osiyoning YaID juda qisqa tarixiy muddat oralig’ida yuksak rivojlanish darajasiga erishdilar. Masalan, Yaponiya 100 yilda bosib o‘tgan yo‘lni ular 25 yilda bosib o‘tdilar.

8.2. Koreya Respublikasi iqtisodiy rivojlanishi



Janubiy Koreya Osiyoning 4-eng yirik iqtisodiga ega bo‘lgan ushbu mamlakat jami yillik “yalpi ichki mahsulot” (GDP) hajmi 2,92 trillion dollarni (2022-yil) tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Koreya Respublikasi dunyoda 14- o‘rinni egallaydi. Aholining jon boshiga to‘g’ri keladigan yalpi ichki mahsuloti – 32 255 dollar.

YaIM tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasi - 66,2 foiz, sanoat - 27 foiz, qurilish - 4,7 foiz, qishloq xo‘jaligi - 2,1 foizni tashkil etadi. Shuningdek ta’limi ilg‘or mamlakatlardan biri bo‘lib, aholisi ilmiy savod darajasi bo‘yicha jahonda birinchi, matematik savod bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinda turadi.

Koreya 1910-yilda Yaponiya mustamlakasiga aylanib qolgan edi. Bu hol 1943-yilgacha davom etdi. 1943-yilda Koreya mustaqillikka erishgan bo‘lsa-da, keyinchalik u ikki davlatga bo‘li-nib ketdi. Bu – 1945-yilda Koreyaning shimolini SSSR armiyasi, janubini esa AQSH armiyasi egallaganligining oqi-bati bo‘ldi. 1945-yilgi Potsdam konfe-rensiyasi 38-parallel kenglikni SSSR va AQSH armiyasi o‘rtasidagi chegara chizig’i, deb belgiladi. Bu ikki o‘ta buyuk davlatning siyosiy xaritani o‘z xohishlariga ko‘ra tuzishga urinishlari oxir-oqibatda Koreyaning ham ikkiga bo‘linib ketishiga olib keldi.

1948-yilning 15-avgustida Koreyaning janubida Li Sin Man boshchiligida Koreya Respublikasi tashkil topdi. Shu yilning 9-sentabrida esa shimolda Kim Ir Sen boshchiligida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi. 1950-yilda bu ikki koreys davlati o‘rtasida urush harakatlari boshlandi. Bu urushga AQSH, SSSR va XXR ham aralashdi. Ikki yillik muzokaralardan so‘ng, nihoyat, 1953-yilning 27-iyulida yarash bitimi imzolandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bu ikki koreys davlati taraqqiyoti turlicha yo‘ldan bordi. Shimoliy Koreya sovet nusxasidagi “sotsializm” qurishga kirishdi. Buning oqibatida u Osiyoning eng kam taraqqiy etgan davlatlaridan biriga aylandi. 1994-yil-da Kim Ir Sen vafot etgach, uning o‘g’li Kim Chen Ir prezidentlik lavozimini egalladi.

1994-yilda aholi jon boshiga 920 AQSH dollariga teng yalpi milliy mahsulot ishlab chi-qarildi. Shunday bo‘lsada, Shimoliy Koreya zo‘r berib qurollanmoqda. Hatto, o‘z atom bombasi va uni mo‘ljalga yetkazib qo‘yuvchi vositalarga ega bo‘lish imkoniyati reallikka aylanishi mumkinligi jahon hamjamiyatini tashvishga soldi. 2005-yildan buyon Shi-moliy Koreya hukumati xalqaro hamjamiyat e’tirozlariga qaramasdan bir necha marta yadro sinovlarini muvaffaqiyatli o‘tkazishga erishdi.

Janubiy Koreyada Li Sin Man 1960-yilda o‘ldirilgach, hokimiyat Pak Chjon Xi qo‘li-ga o‘tdi. U ham 1979-yilda suiqasd qilib o‘ldirildi va 1980–1987-yillarda prezidentlik lavozimini Chon Du Xvan boshqardi. 1987-yilgi saylovlarda general Ro De Vu g’alaba qozondi. 1993-yilgi saylovlarda esa Kim Yen Sam hokimiyatni egalladi.

Koreyaning yer maydoni 222 ming 154 km^2 bo‘lib, ushbu maydonning 45.5 % yoki 100 ming km^2idan qishloq xo‘jaligida foydalanish mumkin. Koreyaning uch tomonini yuvib turuvchi dengizlar ham aholi hayotida uzoq davrlardan beri muhim rolga ega bo‘ldi. Shuning uchun ham dengizshunoslik va kemasozlik sanoati tez rivojlandi.

Aholi soni – 51 814 400 nafar (2022). Koreya Respublikasi yuqori urbanizatsiyalashgan davlat, aholisining 80%dan ziyodi shaharlarda istiqomat qiladi.

Koreya Respublikasi 60–70-yillarda juda tez taraqqiy qildi. Hukumat markazlashdi. DEU, Samsung, Hyunday, Lak-Goldstar kabi kompaniyalar juda katta foyda oldilar. Butun dunyodagi LCD monitorlarning 50%i aynan Janubiy Koreyada tayyorlanadi. Samsung va LG mobil telefon ishlab chiqaruvchilari orasida dunyoda yetakchi shirkatlardandir. Kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va boshqa sohalar o‘ta tez rivojlandi.

Keyingi 20 yil ichida har yili 10 %dan rivojlandi. Lekin, inqirozlar ham yuz berdi. 1997-yildagi inqiroz tufayli yuzlab korxonalar sindi. Xalqaro valyuta fondidan 47 mlrd. AQSH dollari miqdorida qarz oldi. Bu davrda koreys xalqi haqiqiy vatanparvarligini ko‘rsatdi. Fuqarolar milliardlab pul yig’dilar, ayollar oxirgi taqinchoqlarigacha davlatga topshirdilar.

Janubiy Koreyaning 1997-yildagi inqirozgacha bo‘lgan ildam iqtisodiy rivoji „Sharqiy Osiyo Mo‘jizasi” deb atalgan. Uch dekada shiddatli iqtisodiy rivojlanish kambag‘al agrar mamlakatni dunyodagi o‘n ikkinchi iqtisodiy-eksport davlatiga aylantirdi.

1996-yil 12-dekabrda Koreya Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT)ga qabul qilinishi haqiqatan Koreya iqtisodiyotining avjiga chiqqan payti bo‘ldi. Koreyaning bunday tez rivoji yuqori darajadagi jamg‘arma va sarmoyaga katta yordam berdi, shuningdek milliy ta’limning taraqqiy topishiga rag‘bat bo‘ldi. Shuning evaziga bugungi kunda bir qancha yosh o‘g‘il-qizlar dunyoning eng nufuzli oliygohlarida ta’lim olishmoqda.

Lekin rivojlanishga bo‘lgan yo‘l oson bo‘lmadi. Bu yo‘lga erishish turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishni talab etdi. 1945-yili Yaponiya qaramligidan ozod bo‘ldanidan so‘ng milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xalqning hayot-mamot masalasiga aylandi. Tabiiy boyliklarning cheklanganligi, ichki bozorning zaifligi va iqtisodiy rivojlanish tajribasiga ega bo‘lmasligiga qaramay, Koreya milliy iqtisodiyotning barqaror va mustaqil rivojlanishini amalga oshirdi.

1950-1953-yillarda bo‘lib o‘tgan Koreys Urushi Janubiy Koreya iqtisodiyoti rivojlanishiga katta putur yetkazdi. Bir xalqning o‘zaro urushib ikki qismga bo‘linishi Koreya tuprog‘ida buzg‘unchilik va alamli xotiralarni qoldirdi. Urush qurbonlari va nogironlar soni 1,5 mlnni tashkil etadi. Urushning moddiy zarar qiymati 1953-yil narxlarida 3,1 mlrd AQSh dollarini tahskil etdi.

Janubiy Koreyaning urushdan ko‘rgan zarari 1953-yilgi YaMMning 85%ini tashkil etdi. Urushdan keyingi qayta tiklanish davrida (1953-1960-yy) rivojlanish darajasi xorijiy davlatlarning yordamlari bo‘lishiga qaramay past bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, 1953-yildan 1995-yilgacha o‘rtacha YaMM o‘sishi 7,6%ni tashkil etdi, bu esa 21 marta o‘sganligidan dalolat berdi.

Bu vaqt davomida aholi yillik o‘sishi 2,2%, YaMM real daromadi aholi boshiga 5,6%ni, yani 9,3 marta o‘sishni tashkil etdi. 1953-yildan 2007-yilgacha Janubiy Koreya YaMM 2,3 mlrddan 1,2 trln AQSh dollariga o‘sdi. Aholi boshiga YaMM daromadi qiymati 67 AQSh $dan 24 600 $ga o‘sganini ko‘rsatadi.

1960-yillarda boshlangan iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish sohasida o‘z aksini topti, asosan avtomobilsozlik, neftni qayta ishlash, elektronika, kemasozlik, tekstil va po‘latni qayta ishlash sohalari bunga misol bo‘la oladi.

Koreyaning o‘sha davrdagi iqtisodiy ishlash tizimini quyidagicha izohlash mumkin. 1961-yildan boshlanib 1979-yilga qadar davom etgan qo‘mondon Pak Jong Hi davlat rahbarligi davrida dunyodagi mavjud siyosiy ziddiyat sababli Janubiy Koreyaga g‘arb davlatlari va Yaponiya sarmoya qila boshladi.

Davlat koreys tilida „chebo‘l“ deb ataluvchi katta korxonalarni rivojlantirish maqsadida chet eldan kelgan sarmoyani ular uchun quyi foizlarda foydalanishiga ruxsat berildi. Bunga asos katta korxonalarning rivojlanishi, keyinchalik kichik va o‘rta biznesning rivojlanishiga sabab bo‘lishiga ishonch edi. Qo‘mondon Parkning eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosati 5 yillik rejalar asosida muvoffaqiyatli amalga oshirildi.

Iqtisodiyot asosiy qismini qishloq xo‘jaligi tashkil qilgan yillar ham bo‘lgan. Endilikda esa Janubiy Koreya qayta ishlash sohasi bilan g‘ururlansa bo‘ladi, chunki 1997-yilning o‘zida YaMM ning 25,7%ini ishlab chiqarish tashkil etti. 1997-yilgi YaMM 5%ga, 1996-yil 6,8%ga, 1995-yil esa 8,9%ga o‘sish kuzatilgan edi. 1998-yil YaMM o‘sishi 6,7% manfiy ko‘rsatkichni tashkil etti. Buning asosiy sababi 1997-yilda Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlaridagi iqtisodiy bo‘hron oqibatidadir.

Xorijiy sarmoyadorlarning Xitoy kabi boshqa rivojlanayotgan davlatlarga sarmoyalarini ko‘chirishi bilan iqtisodiy ahvol yanada salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishiga qaramay, 1999-yil YaMM o‘sishi 10,9%, 2000-yil 9,3%, 2001-yil 3%, 2002-yil 6,3%ni, 2007-yil 4,8%ni va miqdori 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil etti.

Janubiy Koreya aholisi elektronikadan eng ko‘p foydalanuvchi xalqlar qatoriga kiradi. Internetdan foydalanuvchilarning foiz nisbatdagi soniga ko‘ra birinchi o‘rinda turadi. Koreya Respublikasi Rossiya bilan fazoviy hamkorlik olib bormoqda, bu hamkorlik doirasida “Arirang-1“ va “Arirang-2“ nomli sun’iy yo‘ldoshlar uchirildi.

Janubiy Koreya bugungi kunda dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlaridan biriga aylandi. Chunonchi, 2019-yilda esa 2 174 mlrd. AQSh dollarni tashkil qildi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2020- yilda umumiy biznes yuritish qulayligi (DB) ko‘rsatkichi bo‘yicha Janubiy Koreya 5-o‘rinni egallagan Koreya Respublikasi eksport hajmi bo‘yicha jahonning yetakchi 10ta mamlakatlari qatoriga kiradi. Janubiy Koreyaning asosiy savdo hamkorlari:

Eksport bo‘yicha – Xitoy (25%), AQSh (13,5%), Gonkong (6,6%), Vetnam (6,5%), Yaponiya (4,9%), Singapur 2,6%), Tayvan

(2,5%), Hindiston (2,5%), Meksika (2,0%). Ishlab chiqariladigan mahsulotlar eksporti quyidagicha: *yarim o‘tkazgichlar* (10,5%), *avtomobillar* (7,4%), *kema qurilishi* (5,2%), *qayta ishlangan mahsulotlar* (5,1%), *mobil telefonlar* (5,1%), 4%), *ekranlar* (3,2%) va boshqalar.

Import bo‘yicha – Xitoy (11,5%), Avstraliya (3,7%), Vetnam (3,1%), Qatar (2,5%). Import qilinadigan asosiy mahsulotlar: *neft* (9,9%), *yarim o‘tkazgichlar* (6,8%), *tabiiy gaz* (3,3%), *qayta ishlangan mahsulotlar* (2,6%) va boshqalar.

Koreya Respublika 1991-yil 30-dekabrda Osiyo – Tinch okean mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. O‘zbekiston bilan KR o‘rtasida 1992-yil yanvarda diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda keng hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Koreya Respublikasi va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Janubiy Koreyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga qo‘ygan kapitali 1,5 mlrd. AQSH dollaridan oshdi. 128 ta qo‘shma korxona ishlamoqda. O‘zbekistonda chiqarilayotgan “Neksiya”, “Damas”, “Matiz”, “Lasetti” avtomobillari, qator to‘qimachilik korxonalarining qurilishi ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning kelajagi yanada porloqligini ko‘rsatmoqda.

2023 - yil O‘zbekistonning Janubiy Koreyaga eksporti o‘tgan yilgiga nisbatan 15 foizga ko‘paydi, O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to‘g’ridan to‘g’ri Koreya Respublikasi investitsiyalarining umumiy hajmi esa 7 milliard dollardan oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra 2020 yil yakuni bo‘yicha ikki davlat o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2 142,3 million AQSh dollarni tashkil qildi. Shundan eksport – 45,5 million AQSh dollarni, import esa – 1 872,7 million AQSh dollarni tashkil qildi.

O‘zbekistonning Janubiy Koreyaga eksport qiladigan asosiy mahsulotlari transport, qurilish, turizm xizmatlari (33,5%), yog’och va yog’och mahsulotlari (20,6%), to‘qimachilik mahsulotlari (13,4%),

kimyoviy mahsulotlar (10,3%), elektr uskunalar va uning qismlari (6,2%), oziq-ovqat mahsulotlari (4,3%), qurilish ma Koreyadan keltiriladigan import mahsulotlarining asosiy qismini transport vositalari va ularning ehtiyot qismlari (41,1%), turli xil mexanik va elektr uskunalar (23,1%), plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (5,5%), qurilish materiallari (5,3%), qora metall va undan tayyorlangan mahsulotlar (4,1%), optik uskunalar va apparatlar (3,2%), kimyoviy mahsulotlar (2,4%), kauchuk va rezina mahsulotlari (2,3%) va boshqalar. teriallari (4,1%), yog'li urug'lar, mevalar (2,6%) va boshqalar.

Tomonlar investitsion hamkorlik bo‘yicha ham ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Xususan, 1992-2020 yillar mobaynida Koreyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to‘g'ridan – to‘g'ri investitsiyalari hajmi 7 milliard AQSh dollardan ortiq. Koreya investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni esa 875 tani tashkil qilib, ulardan 539 tasi – 100% Koreya kapitali ishtirokida shakllantirilgan. Ushbu korxonalarning faoliyati asosan savdo, yengil sanoat, tog'-kon, kimyo, oziq – ovqat sanoatlariga, mashinasozlik va metalga ishlov berish, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, sog'liqni saqlash, turizm va xizmatlar sohalariga ixtisoslashgan.

O‘zbekistonga investitsiya kiritgan eng yirik kompaniyalar “Koreya milliy neft korporatsiyasi” (KNOC), “Koreya gaz korporatsiyasi” (KoGas), “Daewoo International”, “Korean Air”, “Shindong Enercom”, “Haintex” va “LG” hisoblanadi.

Shu jumladan, “Koreya gaz korporatsiyasi” (KoGas) “O‘zbekneftgaz” AJ bilan hamkorlikda O‘zbekiston shimoli-g'arbidagi Ustyurt yassi tog'ligida qiymati 4 milliard AQSh dollar bo‘lgan gaz-kimyo majmuasini 2016 yilda qurib bitirdi. “Koreya milliy neft korporatsiyasi” esa Farg'ona vodiysida yangi neft konlarini qidirib topish loyihalarini amalga oshirish ustida ish olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2020- yil 30-oktyabr kuni Seul shahrida videoanjuman shaklida bo‘lib o‘tgan Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumida o‘z nutqi bilan

ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari nutqida jahondagi mushkul vaziyat va global inqiroz sharoitida aynan shunday ko‘p tomonlama muloqot yangi xatar va tahdidlarga samarali qarshi turish uchun imkoniyat yaratib, mamlakatlarimiz barqarorligi, farovonligi va izchil taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilishini alohida ta’kidladi. Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasini mamlakatimizga raqamli va “yashil” texnologiyalarni keltirishda asosiy hamkorlardan biri deb bilishini alohida ta’kidladi.

8.3. Singapur industrial rivojlangan davlat sifatida



Singapur Respublikasi - Janubiy Sharqiy Osiyodagi davlat. Singapur 63ta oroldan iborat. Maydoni-640 km². (O‘zbekistonning eng kichik Andijon viloyati hududiga qariyb 6 ta Singapur sig’adi.) Aholisi-5.637 million kishi (2022). Poytaxti - Singapur shahri.

Tarmoqlar bo‘yicha YaIM: qishloq xo‘jaligi: 0%, sanoat: 24,8%, xizmatlar: 75,2% (2017-yil). Singapur 1958-yilgacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lib keldi (1828-yilda Buyuk Britaniyaning mustamlaka hududiga aylangan edi). 1959-yilda unga Britaniya Millatlar Hamdo‘stligi tarkibida muxtoriyat maqomi berildi. 1963-yilda esa Malayzia Federatsiyasi tarkibiga kirdi. Biroq, tez orada iqtisodiy masalalarda federatsiya subyektlari o‘rtasida chuqur kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Natijada, 1965-yilda Singapur federatsiya tarkibidan chiqdi va shu yilning 9-avgustida o‘zini mustaqil respublika deb e’lon qildi.

Singapurda innovatsion taraqqiyotning boshlanishi, birinchi navbatda, samarali, keng miqyosli uy-joy kommunal islohotining oshirilishi bilan bog’liqdir. Ushbu islohot yakunida 90 foiz singapurliklar davlat tomonidan qurilgan ko‘p kvartirali uy-joylarga ko‘chib o‘tishdi.

Qurilish tarmog’ining jadal rivojlanishi lokomotiv vazifasini bajarib, Singapurning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishiga sababchi bo‘ldi. Bunda davlat hududining mikroskopik darajada kichikligi va uy-joy muammosining mavjudligini e’tiborga olish kerak. Aholi zichligi 1 km2 ga 5 ming kishi to‘g’ri kelganligi sababli, Li Kuan Yu ko‘p qavatli uy-joy qurilishlariga, ya’ni 20–25 qavatli kompleks mikrorayonlarni yaratishga kuchli e’tibor qaratdi. Singapur mustaqillikka erishgan davrdanoq Uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (UKXB) tashkil etildi. UKXB o‘z faoliyati davomida millionga yaqin kvartiralarni qurib bitkazdi. Bu jarayonda juda sodda va samarali moliyaviy sxemadan foydalanildi.

Shuningdek, Singapurda Jamg’armalarning markaziy fondi (JMF) tashkil etilib, unga har bir singapurlik har oyda o‘z maoshining 20 foizini o‘tkazishga majbur, uning ish beruvchisi ham shunday miqdorda mablag’ o‘tkazadi. JMFdagi mablag’lar soliqqa tortilmaydi. Investitsion banklarda esa ularga foizlar qo‘shib boriladi. Pensiya yoshiga yetgandan so‘ng singapurlik ushbu mablag’ni to‘liq qo‘lga kiritadi. Undan avval esa, fuqaro JMFdagi mablag’ning ¾ qismini kvartira sotib olish uchun, chorak qismini esa zarurat tug’ilganda kasalxonadagi davolanish haqini to‘lashga ishlatishi mumkin. Kvartira olish uchun JMFda kvartiraning 20 foizini to‘plasa kifoya qiladi, qolgan summani bo‘lib-bo‘lib to‘lasa bo‘ladi.

JMF faoliyati natijasida Singapur jahondagi eng yuqori jamg’arish ulushiga ega bo‘lgan mamlakatga aylandi, bu ko‘rsatkich yalpi ichki mahsulotning 48 foizini tashkil etadi. Hozirgi kunda u yerda 60 milliard AQSH dollaridan ortiq mablag’ jamlangan. Bu hol faqatgina uy-joy qurilishini emas, balki sog’liqni saqlashni rivojlantirish, ijtimoiy ta’minot va pensiya dasturlarini mablag’ bilan ta’minlash imkonini beradi. Ushbu usul budjet hisobidan xarajatlarni amalga oshirishdan ko‘ra samaraliroqdir.

Aynan ko‘p qavatli uy-joy massivlariningqurilishi xususiy qurilish firmalariga “mehmonxonalar qurilishi bumi”ga qo‘shilish imkonini berdi. Buning natijasida hozirda Singapur yiliga 7 millionga yaqin sayyohlarni qabul qila oladi. Bu ko‘rsatkich esa shahar-davlat aholisidan

ikki barobar ko‘pdir. Fuqarolarning uy-joy sharoitini yaxshilash bilan birga Singapur rahbariyati yuqori texnologiyalar sohasida innovatsion siyosatni olib bordi. «IT-reja» Li Kuan Yu tashabbusi bilan 1980- yilda qabul qilingan. Ushbu reja Singapurni kompleks kompyuterlashtirish uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirishda davlat dasturi sifatida amalga oshirildi.

IT-rejani amalga oshirish maqsadida hukumat bir nechta qat’iy va majburiy chora-tadbirlarni qo‘llagan. Li Kuan Yu ma’muriyati majburiy ravishda minimal ish haqini ko‘tardi. Bundan maqsad, mehnat sig’imi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarishlarning egalarini bankrot qilib, yuqori texnologiyali, fan sig’imi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga urg’u berish edi. Bu bilan Singapur jar yoqasiga kelib, yoki iqtisodiy halokat yoki iqtisodiy yuksalish yo‘lini tanlashi zarur edi.

«IT-reja» uch strategik vazifani yechishni nazarda tutadi. Birinchidan, ta’lim tizimiga katta hajmdagi investitsiyalar yordamida Singapurda 100 foiz kompyuter savodxonligiga erishish. Ikkinchidan, davlat sektorini to‘liq kompyuterlashtirib, xususiy sektorga namuna ko‘rsatish. Uchinchidan, kompyuter texnikasi ishlab chiqaruvchi raqobatbardosh sanoatni yaratish. Shunday qilib, asosiy urg’u inson omili va ommaviy kompyuterlashtirishga qaratilgan edi.

Bu borada Singapur innovatsion siyosatining arxitektori Filipp Yo qiziqarli bir fikr aytgan: “... Innovatsiyalar – bu dabdaba emas, balki zaruratdir. Biz doimo eksportga yo‘naltirilgan edik, chunki bizda ichki bozor deyarli yo‘qdir. Bizda hech qanday tabiiy resurslar yo‘q, shu sababdan bizning boyligimiz – bu, inson, aql. Buyuk Britaniyadan mustaqillikka erishishdan oldin biz xalqaro savdo nuqtai nazaridan qulay geografik joylashuvga egaligimiz evaziga jon saqlar edik, keyinchalik 1970-yillar o‘rtalaridan iqtisodiyotni faol industrlashtirishni boshladik. Biz hozirgi kunda boshqa mamlakatlar uchun mahsulot ishlab chiqarmoqdamiz” YAIMda eng katta – 71,7 foiz ulush xizmat ko‘rsatish sohasiga, 28,3 foiz ulush esa sanoatga to‘g’ri keladi. Mamlakatda baliqchilikdan tashqari, qishloq xo‘jaligining boshqa sohalari deyarli yo‘qdir.

Sanoatining yetakchi tarmoqlari - aniq mashinasozlik, elektronika, elektrotexnika, optika, keng iste'mol mollari va murakkab apparatlar (shu jumladan, kosmik tadqiqotlar uchun eksportga mo'ljallangan apparatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Chetdan keltiriladigan xomashyo asosida neftni qayta ishlash sanoati rivojlangan. Singapur zavodlari yiliga 50 mln. tonna neftni qayta ishlash imkoniyatiga ega. Kemasozlik, kema ta'mirlash, samolyotsozlik, metallurgiya, kimyo, turli asbob-uskuna ishlab chiqarish, yog'ochsozlik, qurilish materiallari, to'qimachilik, rezina, ko'n poyabzal, oziq-ovqat korxonalari bor. Hunarmandchilik rivojlangan. Yiliga 20,8 mlrd. kVtsoat elektr energiya hosil qilinadi. Asosiy sanoat markazlari - Singapur, Jurong.

Singapur boshqa Osiyo-Tinch okeani bozorlari bilan yaqin strategik joylashuvi, rivojlangan aloqa va infratuzilmasi (aviakompaniyalar markazi va dengiz porti) tufayli turli transmilliy korporatsiyalarni boshqarish va operatsiyalari uchun mintaqaviy, kontinental va global markazdir. Bundan tashqari, Singapur turli xil turizm turlari uchun mashhur xalqaro sayyohlik yo'nalishi hisoblanadi (Biznes turizmi, MICE (Uchrashuvlar, Rag'batlar, Konferentsiyalar, Ko'rgazmalar) turizmi , tibbiyot turizmi).

Singapur iqtisodiyotining *ustunliklariga* qulay investitsion muhit, raqobatga ega bozor, iqtisodiy erkinlik, ta'lim, kompyuterdan savodxonligi va intizomli aholi reytinglaridagi yuqori o'rinlar, aholi turmush darajasining yuqoriligini kiritish mumkin. O'z navbatida, zaif tomonlariga oziq-ovqat va energiya importiga tobelik, iqtisodiy modelning eksportga yo'naltirilganligi, malakali mutaxassislarning yetishmasligini kiritish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, Singapurda hukumat tomonidan qat'iy jamoat intizomi, mamlakatda tartib va jinoyatchilikni shafqatsiz ravishda bostirish evaziga iqtisodiy modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanish amalga oshirildi. Gap shundaki, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari an'anaviy ravishdagi yuqori darajadagi korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning (oldingi davrlarda ko'pincha alternativ hukumat vazifasini ham bajargan) keng ta'siri bilan ajralib turadi. Unda juda qat'iy qonunlar amal qiladi: yerga tuflash mumkin emas (jarima 1500

frank); jamoat joylarida chekish mumkin emas (jarima 1500 frank); ishlatilgan qog’ozlarni tashlash mumkin emas (jarima 1500 frank); gullarga suv quyganda tuvaklar ostidagi tarelkalarda suv qoldirish mumkin emas (chivinlarni o‘ziga jalb etadi, jarima 1500 frank); shahar markazida mashinani parkovka qilish man etiladi.

Butun mamlakat bo‘ylab xushbo‘y hid ufurib turadi. Agar kechasi it akillasa, uning tovush paychalarini kesib tashlashadi. Mamlakat tartibiga ko‘ra ob-havo issiq bo‘lganda ham mamlakat erkaklari doimo shim kiyib yurishlari kerak, ayollari esa doimo chulki kiyib yurishlari shart. Barcha avtomobillar kuchli ovoz chiqaradigan sirenalar bilan jihozlangan bo‘lib, avtomobil tezligi 80 km/soatdan oshsa, sirena ishlab ketadi. Kech soat 18 dan keyin avtomobil egasi o‘z avtomobilida bir o‘zi yurishi mumkin emas, kasbdoshlari yoki boshqa yo‘lovchilarni olib yurishi lozim, bu avtomobil yo‘llaridagi tirbandlik va mashinalarning atrof-muhitga ko‘plab gaz chiqarishining oldini olishga yordam beradi (aks holda, 1500frank jarima to‘lanadi). O‘g’rilik, zo‘rlash, narkotiklar, korrupsiya uchun o‘lim jazosi (osish orqali) belgilangan.

Davlat shaxsiy boylik orttirishni rag’batlantiradi (singapurliklar turmush darajasi bo‘yicha Osiyoda Yaponiyadan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallaydilar, undan tashqari fuqarolarning birjada savdo qilishi odat tusini olgan). Bu vaqtning o‘zida, shunday boy mamlakatda talabalarga yotoqxona bepul beriladi.

Singapur eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirishning yuqori darajasini saqlab qolish uchun xomashyo sotib oladi va ularni reeksport uchun qayta ishlaydi. Eksportning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- Elektronika va texnologik jihozlar
- Kimyo sanoati mahsulotlari
- Neft va gaz
- Mexanik uskunalar

Hindiston aholisining qariyb 66% qishloqlarda yashaydi va Hindiston yalpi ichki mahsulotining taxminan 50% ni tashkil qiladi. U 593,279 milliard dollarlik valyuta zaxiralari bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turadi. Hindiston yalpi ichki mahsulotning 86 foizini tashkil etadigan yuqori davlat qarziga ega, uning fiskal taqchilligi esa YaIMning 6,9 foizini tashkil etdi.

Hindistonning hukumatga qarashli banklari umidsiz qarzga duch keldi, bu esa kreditlarning past o‘sishiga olib keldi. Shu bilan birga, NBFC sektori likvidlik inqiroziga duchor bo‘ldi. Hindiston o‘rtacha ishsizlik, daromadlar tengsizligining kuchayishi va yalpi talabning pasayishiga duch kelmoqda. Hindistonning yalpi ichki jamg‘arma darajasi 2019-moliya yilida YaIMning 30,1 foizini tashkil qildi. So‘nggi yillarda mustaqil iqtisodchilar va moliya institutlari hukumatni turli iqtisodiy ma’lumotlarni, xususan, YaIM o‘sishini manipulyatsiya qilishda ayblamoqda.

Hindiston dunyodagi eng yirik umumiy dori vositalari ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, uning farmatsevtika sektori vaksinalarga bo‘lgan global talabning 50% dan ortig’ini qondiradi. Hindiston IT-sanoati IT xizmatlarining asosiy eksportchisi sifatida 191 dollar milliard daromadga ega va to‘rt milliondan ortiq odamni ish bilan ta’minlaydi. Hindistonning kimyo sanoati juda xilma-xildir va 178 milliard dollarga baholanadi.

Turizm sanoati Hindiston yalpi ichki mahsulotining qariyb 9,2 foizini tashkil qiladi va 42 milliondan ortiq kishini ish bilan

ta’minlaydi. Hindiston oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Hindiston telekommunikatsiya sanoati mobil telefonlar, smartfonlar va internet foydalanuvchilari soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. U dunyodagi 23 - yirik neft ishlab chiqaruvchi va uchinchi yirik neft iste’molchisi. Hindiston avtomobil sanoati ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha dunyoda beshinchi o‘rinda turadi. Hindistonda 1,17 trillion dollarlik chakana bozor mavjud, bu Hindiston yalpi ichki mahsulotining 10% dan ortig’ini tashkil qiladi. Shuningdek, u dunyodagi eng tez rivojlanayotgan elektron tijorat bozorlaridan biriga ega.

Hindiston dunyodagi to‘rtinchi yirik tabiiy resurslarga ega, tog’-kon sanoati mamlakat sanoat yalpi ichki mahsulotining 11 foizini va umumiy yalpi ichki mahsulotning 2,5 foizini tashkil qiladi. Shuningdek, u dunyodagi ikkinchi yirik ko‘mir ishlab chiqaruvchi, ikkinchi yirik sement ishlab chiqaruvchi, ikkinchi yirik po‘lat ishlab chiqaruvchi va uchinchi yirik elektr ishlab chiqaruvchi hisoblanadi.

Britaniya davri (1793-1947) 19-asrning boshidan Britaniya Ost-Hind kompaniyasining kuchini bosqichma-bosqich kengaytirish va mustahkamlash soliqqa tortish va qishloq xo‘jaligi siyosatida katta o‘zgarishlarga olib keldi, bu esa savdoga e’tibor qaratgan holda qishloq xo‘jaligini tijoratlashtirishga yordam berdi, natijada oziq-ovqat ishlab chiqarish qisqardi. ekinlar, dehqonlarning ommaviy qashshoqlashuvi va qashshoqligi qisqa muddatda ko‘plab ocharchiliklarga olib keldi. Britaniya Rajining iqtisodiy siyosati talabning qisqarishi va ish bilan bandlikning pasayishi tufayli hunarmandchilik va qo‘lbolachilik sohalarida jiddiy pasayishga olib keldi. 1813-yil Xartiyasi bilan xalqaro cheklovlar olib tashlanganidan so‘ng, Hindiston savdosi barqaror o‘sish bilan sezilarli darajada kengaydi. Natijada, Hindistondan Angliyaga kapitalning sezilarli darajada o‘tkazilishi inglizlarning mustamlakachilik siyosati tufayli ichki iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo‘yicha har qanday tizimli sa’y-harakatlardan ko‘ra, daromadlarning katta miqdorda tushishiga olib keldi.

Britaniya hukmronligi ostida Hindistonning jahon iqtisodiyotidagi ulushi 1700-yildagi 24,4 foizdan 1950-yilda 4,2

foizgacha kamaydi. Hindistonning aholi jon boshiga yalpi ichki mahsuloti (PPP) Mug'allar imperiyasi davrida turg'un edi va Britaniya hukmronligi boshlanishidan oldin pasayishni boshladi. Hindistonning jahon sanoat mahsulotidagi ulushi 1750-yildagi 25% dan 1900-yilda 2% gacha kamaydi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyaning jahon iqtisodiyotidagi ulushi 1700-yildagi 2,9% dan 1870-yilda 9% gacha ko'tarildi. Britaniya Sharqiy Hindiston kompaniyasi, 1757-yilda Bengaliyani bosib olgandan so'ng, Hindistonda katta soliqqa tortilgan mahalliy hind ishlab chiqaruvchilari bilan solishtirganda, Britaniyada protektsionist bo'lgan holda, Hindistonda bojlar va bojlarsiz sotilishi mumkin bo'lgan Britaniya tovarlari uchun yirik Hindiston bozorini ochishga majbur qildi. Hindiston to'qimachilik mahsulotlarini u yerda sotilishini cheklash uchun taqiqlar va yuqori tariflar kabi siyosatlar amalga oshirilgan bo'lsa, paxta xom ashyosi Hindistondan Hindiston paxtasidan to'qimachilik ishlab chiqaradigan va yana Hindiston bozoriga sotuvchi Britaniya fabrikalariga bojsiz olib kelingan. Britaniya iqtisodiy siyosati ularga Hindistonning yirik bozori va paxta resurslari ustidan monopoliya berdi. Hindiston ingliz ishlab chiqaruvchilari uchun muhim xom ashyo yetkazib beruvchi va Britaniya ishlab chiqaruvchilari uchun yirik bozor bo'lib xizmat qildi.

Bir qancha iqtisodiy tarixchilarning ta'kidlashicha, haqiqiy ish haqining pasayishi XIX asrning boshlarida yoki, ehtimol, XVIII asrning oxirida asosan Britaniya imperializmi natijasida boshlangan. Prasannan Parthasarathi va Sashi Sivramkrishnaning so'zlariga ko'ra, hind to'quvchilarining maoshi, ularning britaniyalik hamkasblari bilan solishtirish mumkin edi va ularning o'rtacha daromadi Yevropaning ilg'or qismlari bilan solishtirish mumkin bo'lgan yashash darajasidan besh baravar yuqori edi. Biroq, ular ma'lumotlarning kamligi tufayli aniq xulosalar chiqarish qiyin va ko'proq tadqiqotlar talab etiladi degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, Hindiston XVIII asrning ikkinchi yarmida Mug'allar imperiyasining qulashining bilvosita natijasi sifatida sanoatsizlanish davrini boshidan kechirganligi ta'kidlangan.

10.3. Hindistonning qishloq xo‘jaligi

Hindiston - agrar-industrial mamlakat. Sanoat ishlab chiqarish, jalb qilinayotgan xorij sarmoyasi hajmi jihatidan dunyodagi rivojlangan o‘nta davlat qatoriga kiradi. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va baliq ovlash 25%, sanoat 30%, xizmat ko‘rsatish tarmog‘i 45% ni tashkil etadi. Iqtisodiyoti ko‘p ukladli. Yalpi milliy mahsulotining 28% ni tashkil etuvchi davlat sektori harbiy sanoat tarmoqlari, atom energetikasi, transport va aloqada yetakchi o‘rin egallaydi.

Qishloq xo‘jaligi. Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi, daraxt kesish va baliqchilik kabi qo‘shni tarmoqlar YaIMning 17% ni tashkil etdi, sektor 2014-yilda jami ishchi kuchining 49% ini ish bilan ta’minladi. Qishloq xo‘jaligi yalpi ichki mahsulotning 23% ni tashkil etdi va 2016-yilda mamlakat umumiy ishchi kuchining 59% ish bilan ta’minlandi.

Hindiston iqtisodiyoti diversifikatsiyalangani va o‘sishi bilan birga, qishloq xo‘jaligining YaIMga qo‘shgan hissasi 1951-yildan 2011-yilgacha doimiy ravishda pasayib bordi, ammo u hali ham mamlakatning eng katta bandlik manbai va uning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim qismidir. Besh yillik rejalarda qishloq xo‘jaligiga alohida e’tibor berilgani hamda sug‘orish, texnologiya, zamonaviy qishloq xo‘jaligi usullarini qo‘llash va qishloq xo‘jaligini ta’minlashning izchil takomillashtirilishi tufayli 1950-yildan boshlab barcha ekin maydonlarining hosildorligi o‘sdi.

Hindistondagi Yashil inqilobdan keyin qishloq xo‘jaligi kreditlari va subsidiyalar. Biroq, xalqaro taqqoslashlar shuni ko‘rsatadiki, Hindistondagi o‘rtacha hosil odatda dunyodagi eng yuqori o‘rtacha hosilning 30% dan 50% gacha. Uttar-Pradesh, Panjob, Haryana, Madxya-Pradesh, Andxra-Pradesh, Telangana, Bixar, G‘arbiy Bengal, Gujarat va Maxarashtra shtatlari Hindiston qishloq xo‘jaligiga asosiy hissa qo‘shmoqda.

Hindistonda o‘rtacha yillik yog’ingarchilik 1,208 millimetr (47.6 in) va umumiy yillik yog’ingarchilik 4000 kub metrni tashkil

qiladi, umumiy foydalanish mumkin bo‘lgan suv resurslari, shu jumladan yer usti va yer osti suvlari 1123 milliard kub metrni tashkil etadi. 546,820 square kilometre (211,130 mi²) yer maydoni yoki umumiy ekin maydonlarining 39% ga yaqini sug‘oriladi. Hindistonning ichki suv resurslari va dengiz resurslari baliqchilik sohasida olti millionga yaqin kishini ish bilan ta’minlaydi. 2010-yilda Hindiston dunyodagi oltinchi yirik baliqchilik sanoatiga ega edi.

Hindiston ekin maydonlarining 52% bilan AQShdan keyin ikkinchi eng katta ekin maydonlariga ega. Mamlakatning umumiy yer maydoni Xitoy yoki AQShning uchdan bir qismidan bir oz ko‘proq bo‘lsa-da, Hindistonning haydaladigan yerlari AQShnikidan biroz kichikroq va Xitoynikidan biroz kattaroqdir. Biroq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘z imkoniyatlaridan ancha orqada.

Hindistondagi past mahsuldorlik bir necha omillarning natijasidir. Jahon bankiga ko‘ra, Hindistonning yirik qishloq xo‘jaligi subsidiyalari fermerlar yetishtiradigan narsalarni buzmoqda va mahsuldorlikni oshirishga investitsiyalarga to‘sqinlik qilmoqda. Qishloq xo‘jaligini haddan tashqari tartibga solish xarajatlarni oshirdi, narx xavfi va noaniqlik, hukumatning mehnat, yer va kreditga aralashuvi bozorga zarar etkazmoqda. Qishloq yo‘llari, elektr energiyasi, portlar, oziq-ovqat omborlari, chakana savdo bozorlari va xizmatlar kabi infratuzilma yetarli darajada emas. Yer yerlarining o‘rtacha kattaligi juda kichik, yer uchastkalarining 70%i bir gektardan kam hajmida.

Sug‘orish inshootlari yetarli darajada emas, ma’lum bo‘lishicha, 2016-yil holatiga ko‘ra, umumiy ekin maydonlarining atigi 46 foizi sug‘orilgan, natijada fermerlar hali ham yog‘ingarchilikka, xususan musson fasliga bog‘liq bo‘lib qoladi, bu ko‘pincha nomuvofiq va butun mamlakat bo‘ylab notekis taqsimlanadi. Qo‘shimcha 20 000 000 gektar (49 000 000 akr) yerni sug’orish maqsadida turli sxemalar taqdim etilgan Tezlashtirilgan sug’orishdan foyda olish dasturi (AIBP) amalga oshirildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va tarqatish infratuzilmasi yo‘qligi fermerlik daromadlariga ham to‘sqinlik qilmoqda; Hindiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining uchdan bir qismi buzilish natijasida yo‘qoladi.

Hindiston dunyodagi eng yirik paxta yetishtiruvchi (23%) va eng katta paxta ekiladigan maydonga ega (dunyo maydonining 39%). Paxta ekinlari maydoni bo‘yicha Hindiston Xitoydan oldinda, ammo shunga qaramay, Hindiston eng yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar reytingida faqat *ikkinchi o‘rinda* turadi. Uning hududida paxta yetishtirish uchun ko‘p gektar maydonlar ajratilgan, ammo yetishtirish usullari samarasiz bo‘lgani uchun unumdorlik darajasi past.

Qishloq xo‘jaligida mayda dehqon xo‘jaliklari ustunlik qiladi. Mamlakatda 8 mln.dan ortiq fermer xo‘jaligi bor. Ishlanadigan yerlar (165 mln. gektar) mamlakat hududining 2/3 qismini tashkil etadi; shundan 141 mln. gektari faqat ekinzor (35 mln. gektaridan yiliga ikki marta hosil olinadi). Qishloq xo‘jaligi maydonining 20% sug‘oriladi. Mamlakatda aholi soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, uning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilibgina qolmay, ko‘p qismini eksport ham qiladi.

Qishloq xo‘jaligi dehqonchilikka ixtisoslashgan. Asosiy ekinlari - sholi, bug‘doy, tariq, duk-kakli don ekinlari va moyli o‘simliklar. Hindiston shakarqamish, yer yong‘oq, choy, jut, kanakunjut, paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinlarda turadi. Shuningdek, kauchuk, kofe, makkajo‘xori, tamaki, qalam-pir, ziravorlar (murch, kardamon, mushk, dolchin va hokazo) yetishtiriladi. Xindistonda kokos palmasi, banan, sit-rus va boshqa mevali daraxtlar ham o‘sti-riladi. Chorvachiligida qoramol, qo‘y, echki, cho‘chqa, yilqi, tuya, par-randa boqiladi. Pillachilik rivojlangan. Baliq va dengiz hayvonlari ovlanadi. O‘rmon xo‘jaligida qimmat-baho yog‘och tayyorlanadi.

2023- yilda Hindiston qishloq xo‘jaligi bozori hajmi 355,52 milliard dollarga baholandi. Qishloq xo‘jaligi Hindiston aholisining qariyb 58 foizi uchun asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Uning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) qo‘shgan hissasi 20 foizdan kamaygan bo‘lsa-da, boshqa tarmoqlarning hissasi esa tezroq o‘sgan bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘sdi. Bu mamlakatni oziq-ovqat

xavfsizligi bo‘yicha o‘zini-o‘zi ta’minlovchi va qishloq xo‘jaligi va unga aloqador mahsulotlarning sof eksportchisiga aylantirdi[19].

Hindiston guruch, bug’doy va boshqa don yetishtirish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. 2022-yil may oyida Ittifoq Qishloq xo‘jaligi va fermerlar farovonligini ta’minlash vazirligi mamlakatda oziq-ovqat don yetishtirish rekord darajada 314,51 metrik tonnani tashkil etishini ma’lum qildi, bu 2020-21 yillardagi oziq-ovqat don yetishtirishdan 3,77 metrik tonnaga ko‘p.

Sanoatida marganets, slyuda (du-nyoda oldingi o‘rinlardan birida), toshko‘mir, titan, temir rudasi, ol-tin, tabiiy gaz, xromit neft, bok-sit va boshqa qazib olinadi. Yiliga o‘rtacha 380 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi hosil qilinadi (uning 4/5 qismi issiqlik elektr stansiyalarida, 1/7 qismi GESlarda); AESlar ham bor. Yetakchi sanoat tarmoqlari: to‘qimachilik (aso-san, jut va ip-gazlama), oziq-ovqat (qand-shakar, tamaki), teri-poyabzal sanoati.

Neftni qayta ishlash, se-ment, qog‘oz, shisha-oyna ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Qora va rangli metal-lurgiya, kimyo sanoati, mashinasozlik rivojlangan. Dunyodagi axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi korxonalarning yarmidan ko‘pi Hindistonda joylashgan. Yadroviy texnologiyalar va koinotni zabt etish bo‘yicha yetakchi o‘rinda. Hindistonda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining 40% ga yaqinini mayda va hunarmandchilik korxonalari beradi.

Transporti. Transportida temir yo‘l transporti muhim rol o‘ynaydi. Transport yo‘lilar uzunligi 75 ming km (15% elektrlashtirilgan). Avtomobil yo‘llarning umumiy uzunligi, 2016-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, 5,6 million kilometrdan oshadi, bu esa uni Amerikadan keyin dunyoda 2-o‘rinni egallaydi. 1984-yil Kalkutta shahrida met-ropoliten ishga tushgan. Mamlakatda kemalar qatnaydigan daryo yo‘llari soni 14 ta. Mamlakat tashqi savdo aylanmasining 90% dengiz yo‘llari orqali amalga oshiriladi. Temir yo‘llarning umumiy uzunligi, 2014 yil ma’lumotlariga ko‘ra, 68,5 ming kilometrdan oshadi, bu esa uni Amerika, Xitoy, Rossiya va Kanadadan keyin dunyodagi eng uzun 5-o‘rinni egallaydi.

[19] https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/agriculture-industry-in-india

Mamlakat suv transportidan ham faol foydalanadi, lekin asosan yuk tashish.

Dengiz savdo flotining tonnaji 10366 ming t ded-veyt. Yirik dengiz portlari: Bombay, Kalkutta, Kochin, Vishakhapatnam, Chennay. Hindistonning ko‘p shaharlari jahondagi yirik shaharlar bilan havo yo‘llari orqali bog‘langan. Asosiy aeropor-tlari Bombay, Dehli, Kalkutta, Bangalor, Chennay, Bxubaneshvar, maduray shaharlarida joylashgan.

Havo aloqasi nuqtai nazaridan, 2017 -yil holatiga ko‘ra, Hindiston AQSh va Xitoydan keyin dunyodagi uchinchi yirik fuqaro aviatsiyasi bozoridir. Mamlakatda 132 ta fuqarolik aeroporti mavjud bo‘lib, ulardan 29 tasi xalqaro.

10.4. Mamlakatning tashqi savdo munosabatlari

Tashqi savdosi. Hindiston eksporti 2022- yilda 452 milliard dollarga yetdi. Hindiston chetga mashina va jihozlar, kiyim-kechak, teri va undan tayyorlangan buyumlar, kimyoviy tovarlar, ip-gazlama matolar, jutdan tayyorlangan buyumlar, temir rudasi, choy, kofe, ziravorlar, konserva, baliq va baliq mahsulotlari, brilliant, qimmatbaho toshlar chiqaradi. *Eksport hamkorlari:* AQSh 16,7%, BAA 8,5%, Xitoy 6,6%, Singapur 5,3%, Buyuk Britaniya 4,9%, Gonkong 4,4%.

Hindistonning umumiy importi 2022 yilda 732 milliard dollarni tashkil etdi. Hindiston chetdan neft va neft mahsulotlari, ishlab chiqarish vositalari, iste’mol mollari va boshqalarni oladi. *Eksport hamkorlari:* AQSh 16,7%, BAA 8,5%, Xitoy 6,6%, Singapur 5,3%, Buyuk Britaniya 4,9%, Gonkong 4,4%.

Chetdan neft va neft mahsulotlari, ishlab chiqarish vositalari, iste’mol mollari, qimmatbaho toshlar, elektronika, muhandislik mahsulotlari, kimyo, plastmassa, ko‘mir va rudalar, temir va po‘lat, o‘simlik moyi va boshqa oladi. *Import hamkorlari:* Xitoy 14% BAA 7,4% AQSh 7,2% Rossiya 6,3% Saudiya Arabistoni 6,0%.

Hindistonda ishchi kuchi. Mamlakatning mehnatga layoqatli aholisi har yili taxminan 1 foizga yoki 10 million kishiga (2017 yilda 9,7 million) ortib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Hindiston 2050-

yilga borib 280 million yangi ish o‘rni yaratish kerak bo‘ladi, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra esa, mamlakatda har yili ikki milliondan kam ish o‘rinlari yaratiladi.

Hindistondagi mehnat bozoridagi jarayonlarni baholashning qiyinligi, aksariyat rivojlanayotgan iqtisodlari singari, doimiy ravishda yashirin bandlikning mavjudligidadir, bu ko‘rsatkich rasmiydan bir necha baravar katta. Hindistonda rasmiy (tashqi) bandlik jami bandlikning taxminan 15% ni tashkil qiladi. Yashirin iqtisodiyotda norasmiy bandlik barcha ishchilarning 86% ni tashkil qiladi.

Shu bilan birga, aholining yarmidan ko‘pi qishloq xo‘jaligining samarasiz tarmoqlarida, qariyb uchdan bir qismi xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lib, sanoatning ulushi qariyb 12 foizni tashkil etadi.

Hindiston iqtisodiyotini monitoring qilish markazi Pvt rahbari Mahesh Vyas aytganidek. Ltd, 2022-yil dekabr oyining birinchi uch haftasida ishsizlik darajasi 8% dan oshdi.

Vyasning so‘zlariga ko‘ra, ish o‘rinlarining o‘sishi yangi ishchilar soniga yetib borishga ulgurmayapti. Shaharlarda ishsizlik 10,9 foizga ko‘tarilib, rekord darajaga ko‘tarildi. Xuddi shu davrda qishloq aholisining ishsizlik darajasi 8,4% ni tashkil etdi. Hindiston o‘z ishchilarini Yevropa davlatlariga jo‘natish uchun turli Yevropa davlatlari bilan ikki tomonlama shartnomalar tuzishni ko‘rib chiqmoqda. Hindiston hukumati 2015-yil yanvaridan 2023-yilning martigacha turli davlatlar bilan hindistonlik ishchilarni ta’minlash uchun 17 ta shartnoma imzoladi.

O‘zbekiston - Hindiston munosabatlari. O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. 1991- yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Hindiston O‘zbekiston mustaqilligini tan olib, 1992 -yil 18-martda diplomatik munosabatlari o‘rnatdi va ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli aloqalar yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston o‘rtasida munosabatlarning huquqiy asosini turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni tartibga solib turuvchi davlat, hukumat va muassasalararo hujjatlar tashkil etadi. 2005- yilgacha ikki davlat o‘rtasida 60 ga yaqin

rasmiy hujjat imzolandi. 1992- yil Toshkentda Hindistonning Bosh konsulxonasi (1988- yil tashkil etilgan), 1994- yil Dehlida O‘zbekiston Respublikasi konsulxonasi (1992- yil tashkil etilgan) elchixonaga aylantirildi.

Ikki mamlakat o‘rtasida axborot texnologiyalari, kon sanoati, madaniyat, fan, texnika va ta’lim sohasida hamkorlik rivojlanmoqda. Mamlakatlar tarixi, musiqa, adabiyot, arxeologiya, me’morlik, tibbiyot, biologiya, kosmik fazoni o‘rganish, geologiya va boshqalar ko‘plab sohalarda hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 1991-yil Hindistonda buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning 550 yilligiga bag‘ishlangan O‘zbekiston madaniyati va san’ati kunlari o‘tkazildi.

1993- yil Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi Hindiston va O‘zbekistonda keng nishonlandi. Mamlakatlar o‘rtasidagi ilmiy-madaniy --hamkorlikning rivojlanishida 1994-yil Hindistonning O‘zbekiston Respublikasidagi elchixonasi huzurida faoliyatini boshlagan Hindiston madaniy markazining hissasi katta.

Hindiston YaIM hajmi bo‘yicha dunyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Shu bois mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarda savdo-iqtisodiy hamkorlik alohida o‘rin tutadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Hindiston kapitali ishtirokidagi 280 dan ortiq korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Dehli shahrida Hindiston-O‘zbekiston savdo uyi ochilgani, Toshkent shahrida O‘zbekiston-Hindiston tadbirkorlikni rivojlantirish markazi tashkil etilgani ikki davlat ishbilarmonlari faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Turizm, qishloq xo‘jaligi, fan-texnika va innovatsiyalar sohalarida hamkorlikni mustahkamlanmoqda. Koinotni tadqiq qilish va tinch maqsadlarda foydalanish, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, sog‘liqni saqlash va tibbiyot fanlari sohasidagi hamkorlik kabi yo‘nalishlarda 20 ta hujjat imzolandi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 10,3 foizga o‘sdi va 490 million dollarni tashkil etdi, shundan 461 million dollari Hindiston eksporti hissasiga to‘g‘ri keladi.

Qayd etish joizki, bugungi kunda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida AKT sohasidagi sheriklik samarali va dinamik tarzda amalga oshirilmoqda. Hindiston dasturiy texnologiyalar parklari jamiyatining bevosita ishtirokida 2019-yil iyul oyida Toshkentda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologiyalari parki (IT-park) ochildi. IT-park faoliyati ko‘lamini kengaytirish va IT-tadbirkorlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida texnoparkning nafaqat poytaxtimizda, balki hududlarda ham filiallari ochilmoqda. Bugungi kunga qadar IT Park filiallari Andijon, Jizzax, Samarqand, Marg’ilon, Guliston, Buxoro, Navoiy va Qarshida faoliyat ko‘rsatmoqda.

2019-yil sentabr oyidan boshlab Toshkent shahrida Hindistonning nufuzli IT-universitetlaridan biri Amiti universitetining filiali ish boshladi. Universitet axborot texnologiyalari, kompyuter injiniringi, iqtisod, turizm menejmenti, biznes boshqaruvi kabi sohalarda mutaxassislar tayyorlaydi.

Bundan tashqari, a’lo darajadagi akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan talabalar Amiti universitetining xorijiy mamlakatlardagi boshqa kampuslarida o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Bitiruvchilar xalqaro diplom oladilar. Bugungi kunda universitetda 859 nafar talaba tahsil olmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining tashriflari natijasida Toshkent shahrida Andijon shahrida Sharda universitetlarining filiallari ochildi. O‘z navbatida, joriy yilning sentabr oyida Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Hindistonda o‘z filialini ochdi. Shunday qilib, bu O‘zbekistondagi birinchi xorijiy universitet filiali bo‘ldi. Shu tariqa milliy kadrlar tayyorlash sohasidagi tarixiy hamkorlik faollashib bormoqda.

2022-yilning 28-iyul kuni Nyu-Dehli shahrida O‘zbekiston va Hindiston hukumatlari vakillari qishloq xo‘jaligi sohasida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazdi. Uchrashuv O‘zbekiston hukumat delegatsiyasining Hindistonga tashrifi doirasida bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston tomonidan delegatsiyaga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Jamshid

Xo‘jayev, Hindiston tomonidan - Hindiston qishloq xo‘jaligi va fermerlar farovonligi vaziri Narendra Singx boshchilik qildi.

Muzokaralar chog’ida tomonlar tovar ayirboshlash hajmini, jumladan, milliy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarini ikki mamlakat bozorlariga o‘zaro kirishi uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish orqali oshirish zarurligiga kelishib oldilar.

O‘zbekiston Hindistonning 6 turdagi tovarlari, jumladan, *banan, mango, soya va guruch*ni olib kirishga fitosanitariya ruxsatnomalarini berdi, deb xabar beradi O‘zbekiston Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi matbuot xizmati.

O‘z navbatida Hindiston hukumati O‘zbekistondan *uzum, olxo‘ri va gilos*ning bozorga chiqishini ta’minlashga qaror qildi, deb xabar qildi Hindiston Qishloq xo‘jaligi va fermerlar farovonligi vazirligi matbuot xizmati.

Nazorat va takrorlash uchun savollari

1. Hindiston iqtisodiyotini umumiy tavsiflang?
2. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish tarixi.
3. Britaniya hukmronligi davrida mamlakatdagi iqtisodiyot.
4. Hindiston iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni?
5. Hindistonning tashqi savdo tarkibini tavsiflab bering.
6. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining rivojlanish holati
7. O‘zbekiston - Hindiston o‘rtasidagi hamkorlik?
8. Hindiston transport tizimi?
9. Mamlakatda mavjud ishsizlik muammosini yoritib bering
10. Hindistonda ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlarinin sanab bering

XI BOB. FORS KO‘RFAZI MINTAQASI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI





Tayanch iboralar: *Neft zaxiralari, konstitutsion monarxiyalar, xorijiy migrantlar, urbanizatsiya darajasi, tomchilatib sug’orish, kapital bozori, valyuta konvertatsiyasi, xalqaro tashkilotlar, xalqaro aeroportlar, diplomatik munosabatlar.*

11.1. Fors ko‘rfazi mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlari

Fors ko‘rfazi - Eron va Arabiston yarimoroli o‘rtasidagi ko‘rfaz. Quyidagi davlatlar qirg‘oqlari Fors ko‘rfazi bilan yuvilib turiladi: *Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Bahrayn, Quvayt, ,Ummon, Iroq* va *Eron.*

Fors ko‘rfazining katta iqtisodiy ahamiyati ushbu mintaqaning neft zaxiralari bilan bog’liq. Ushbu neft zaxiralari tufayli misli ko‘rilmagan iqtisodiy va demografik rivojlanish yuz berdi. Neft xomashyosi bu yerdan Yevropa Ittifoqi davlatlariga, Yaponiya hamda AQSh ga yuboriladi.Shuni yodda tutish kerakki, Fors ko‘rfazi mintaqasi iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi uchta qit’a – Osiyo, Afrika va Yevropa tutashgan hududda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz yo‘llari bo‘yida joylashganligi bilan belgilanadi.

Fors qo‘ltig’i davlatlari maydoni va aholisi soni jihatdan bir-biridan farq qiladi. Mintaqadagi hududiy va demografik salohiyati bo‘yicha eng yirik davlat – Saudiya Arabistoni. Qatar, Kuvayt va Bahrayn esa kichik mamlakatlar hisoblanadi.

Fors qo‘ltig’i arab davlatlarining barchasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon – mutlaq

monarxiyalar, Kuvayt va Bahrayn – konstitutsion monarxiyalar, BAA esa har biri mutlaq monarxiya hisoblanadigan yettita amirlik federatsiyasi bo‘lib, davlat tuzumida mutlaq va konstitutsion monarxiya elementlari uyg’unlashgan.

Fors qo‘ltigi davlatlari aholisining muhim xususiyati xorijiy migrantlarning katta ulushidir. Ummonda xorijiy ishchilar aholining 25 % ini, Saudiya Arabistonida 30 % ini tashkil etsa, boshqa davlatlarda bu ko‘rsatkich 50 % dan yuqori, BAAda esa 90 % ga yaqin. Xorijiy migrantlar asosiy qismini Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika davlatlarining fuqarolari tashkil etadi.

Aholining tabiiy o‘sishi Saudiya Arabistoni va Ummonda yiliga 1,6– 1,8 %, qolgan davlatlarda esa 0,8-1,3 % ga tengdir. Mintaqa davlatlariga shahar aholisining juda yuqori ulushi xos. Ummonda urbanizatsiya darajasi 75 %, Saudiya Arabistoni va BAAda 80 % dan yuqori, Kuvayt, Qatar va Bahraynda esa deyarli 100 % ga teng.

Iqtisodiyotining tayanch tarmog’i – neft va gaz sanoati. Neft va gaz eksporti mintaqa davlatlari uchun eng muhim daromad manbayi hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar xom neft eksportining 40 foizini va neft mahsulotlari eksportining 15 foizini yetkazib beradi. Energiya manbalari bilan yaxshi ta’minlanganligi hisobiga mintaqa davlatlarida kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanmoqda.

Dehqonchilikning rivojlanishi suv resusrlarining yetishmovchiligi bilan cheklangan. So‘nggi vaqtlarda tomchilatib sug’orish texnologiyalarini keng qo‘llashga e’tibor qaratilmoqda. An’anaviy ravishda asosiy qishloq xo‘jalik ekini xurmo palmasi hisoblanadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qo‘ychilik, echkichilik va tuyachilik hisoblanadi. Mintaqa davlatlarida, shuningdek, bank-moliya sektori, tranzit savdo va turizm ham rivojlanib bormoqda.

Mintaqada kapital bozori jadal rivojlanmoqda va kuchli moliyaviy markazlar paydo bo‘lmoqda. Iqtisodiy ochiqlik bo‘yicha Bahrayn dunyoda Gonkong va Singapurdan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solinmaydi,

kapitalni eksport qilish, foyda va valyutani konvertatsiya qilishda cheklovlar yo‘q.

Mahalliy ishlab chiqarish uchun xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va kapital olib kirishda boj olinmaydigan rejim o‘rnatilgan. 100 foiz chet el kapitali ishtirokida korxonalar tashkil etishga ruxsat berilgan, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi soddalashtirilgan. Mamlakat rivojlangan mahalliy kapital bozoriga ega va uning aholisi bank depozitlari Saudiya Arabistoni, Abu-Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari tarkibidagi amirlik, BAA) va Qatar aholisidan ham ko‘proq.

Fors ko‘rfazi mamlakatlarini yirik savdo hamkorlari Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya mamlakatlari hisoblanadi.

11.2. Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari

Saudiya Arabistoni Qirolligi Fors ko‘rfazi mintaqasidagi eng yirik davlat bo‘lib, uning hududi – salkam 2,4 mln. kv. km.ni tashkil qiladi (uning janubida va janubi–sharqida haligacha aniq belgilangan chegaralar yo‘q). Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022 yil hisobotiga ko‘ra Saudiya Arabistoni nominal YaIM hajmi 1 108 mlrd. AQSh dollari, 2022 yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 30 436 AQSh dollarini tashkil etadi.

Saudiya Arabistoni- mutlaq teokratik monarxiya. Davlat boshlig‘i - podshoh, ayni vaqtda bosh vazir va qurolli kuchlar oliy bosh qo‘mondoni hamdir. Podshoh vazirlarni tayinlash, hukumatni tarkatib yuborish va yangidan tuzish vakolatiga ega. Hukumat, asosan, podshoh oila a’zolaridan tuziladi. Siyosiy partiya va kasaba uyushmalari faoliyati rasman man etilgan.

Saudiya Arabistonida aniqlangan neft zaxiralari butun jahon neft zaxiralarining 25 foizga yaqinini tashkil qiladi. Saudiya neftining eng asosiy afzalligi – tannarxining arzonligi. XX asrning 80-yillarida 1 tonna Saudiya neftini qazib olish tannarxi 2 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, Indoneziyada bu ko‘rsatkich- 4 dollarni, Nigeriyada-8, AQShda-

22 dollarga teng bo‘lgan. Mintaqada Saudiya Arabistoni hududi jihatdan ham katta yer maydonini egallagan bo‘lib jami Fors ko‘rfazi mintaqasi hududining 82,5% ini tashkil qiladi.

1902-yilda Abdul Aziz Bin Abdul Raxman Al Saud Ar-Riyodni bosib olganidan so‘ng salkam 30 yil mobaynida Arabiston yarim orolidagi hududlarni birlashtirishni amalga oshirdi. 1932 yildan boshlab rasman Saudiya Arabistoni Qirolligi deb nomlangan. Uning aholisi soni 2022 yil holatiga ko‘ra **36 996 558** kishini tashkil qilib, aholi sonining 38,3%ni migrant aholi tashkil qiladi.

Aholining o‘sish darajasi 2,31 foiz, ishsizlik darajasi esa 4,9 foizdir. Hozirgi kunda Saudiya Arabistonining turli iqtisodiyot sohalarida 13 millionga yaqin xorijlik fuqarolar mehnat qilishadi. Birgina Yaman mamlakatidan rasmiy ravishda Saudiya Arabistoni mamlakatida faoliyat ko‘rsatayotgan ishchilarning soni 4 million 168 ming kishini tashkil qiladi. “Haj” mavsumiga keladigan xorijiy fuqarolarning soni salkam 5 mln.kishiga yetadi.

Bugungi kunda faqat yoqilg’i-energetika sohasining o‘ziga yiliga o‘rtacha 150 mlrd. AQSH dollari sarflanmoqda. Poytaxt Ar-Riyod shahri bo‘lib, uning aholi soni 7 mln.kishini tashkil qiladi (7,1 ming.kishidir). E’tiborlisi, 1930 yilda Ar-Riyodda atigi 35 ming aholi istiqomat qilgan xolos.

1930-yilda Saudiya Arabistoni hududida eng birinchi neft koni topilgach, mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi “yangi hayot davri”, ya’ni real iqtisodiy rivojlanish davri boshlangan. 1933- yilning may oyida eng birinchi bo‘lib «Standart oil of Kaliforniya» va yilning oxirlariga kelib AQSHning ARAMKO neft kompaniyalari konsessiya shartnomasi asosida o‘z faoliyatlarini boshladi (hozirgi kunda Saudiya Aramko kompaniyasi maxalliy kompaniyadir). Iqtisodiy tarixdan ma’lumki, 1930- yilda Saudiya Arabistoni hududida eng birinchi neft koni topilgan bo‘lsa, uni qazish hajmlari yildan-yilga juda yuqori miqdorlarda ko‘payib bormoqda. Masalan, 1938- yilda 0,5 mln.barrel qazilgan bo‘lsa, 1970- yilga kelib 2772,7 mln. barrelga, 2020- yilda esa qariyb 10 mln.barrelga (1 kunda) yetdi.

Saudiya Arabistoni mamlakati iqtisodiy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va bosqichlari mavjuddir. Iqtisodiy tarixdan ma’lumki, XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Fors ko‘rfazi mintaqasida, jumladan Arabiston yarim orolida yirik neft konlari aniqlangach, jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning, jumladan, AQSH va Buyuk Britaniya neft kompaniyalarining mazkur orolga bo‘lgan iqtisodiy siyosati va qiziqishi kuchaydi. Shu sababli ham, Buyuk Britaniyaning bir qator yirik neft kompaniyalari tomonidan ushbu hududda birinchilardan bo‘lib neft qidiruv ishlarini va mavjud neft konlaridan qazish faoliyatlarini tashkil etdi.

Milliy iqtisodiyotda neft evaziga olingan xorijiy valyutalarning asosiy qismi Podshohlikning infratuzilmasini rivojlanishiga sarflandi. Masalan, har 5 yillik davlat rejasida o‘rtacha 1100 km lik masofadagi qattiq qoplamalik avtomobil yo‘llari, yangi zamonaviy binolar va yirik osmono‘par inshootlar, maktablar, bog’chalar va o‘nlab sanoat korxonalari bunyod qilinmoqda. O‘tgan 50 yil davr ichida qishloq xo‘jaligi sohalari unchalik rivojlanmagan agrar davlat jahondagi yirik industrial mamlakatlarning biriga aylandi.

1970-yilda (hijriy–1390- yil) Saudiya Arabistoni hukumati tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda “5 yillik” davlat rejalaridan samarali foydalandi va aynan shu yili 1971-1975 yillarga mo‘ljallangan 1-5 yillik davlat dasturini tadbiq qildi. Hukumat o‘z oldiga Podshohlik hududi iqtisodiyotning keng tarmoqli rivojlanishini hamda, eng muhimi, xom-ashyolarni qayta ishlashga e’tiborni qaratgan holda zamonaviy sanoat tarmoqlarini tashkil qilishni o‘z oldiga maqsad qildi. 1980-yillarning boshlarida jahon xo‘jaligida yuzaga kelgan neft inqirozlari natijasida milliy iqtisodiyotda neftga bog’lanib qolgan ko‘plab korxonalarda diversifikatsiya jarayonlarining tezlashishiga olib keldi.

Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining tarmoq tarkibi. Milliy iqtisodiyotda neft-gaz sanoatdan tashqari boshqa sanoat tarmoqlari ham rivojlangan. Jumladan, neftni qayta ishlash, kimyo, kemasozlik, samolyotsozlik kabi sohalar ham rivojlanib ushbu sanoat tarmoqlarida neft mahsulotlari, amiyak, suyultirilgan gaz, sement, mineral o‘g’itlar,

plastmassa, metall, kema ta’miri, kemalar va samolyotlar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasining qurilish, kema va samolyotlar ta’miri, turizm va bank-moliya sohalarini rivojlanishi bilan Saudiya Arabistoni jahondagi eng tez rivojlanayotgan mamlakatlarning biriga aylandi.

Saudiya Arabistoni iqtisodiy islohotlarni 70-yillardan boshlagan bo‘lsa hukumat tomonidan dastlabki amalga oshirilgan islohotlardan biri bu iqtisodiyotni sanoatni sohasini rivojlantirish bo‘ldi. Saudiyada sanoatni rivojlantirishda bir qancha muammolar ko‘zga tashlandi, xususan, xorijiy texnologiyalar kirib kelishiga cheklovlar qo‘yish, mahalliy kapital egalarini faqat xizmat ko‘rsatish sohasiga sarmoya kiritishlari, xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga cheklovlar bo‘lganligi sabab ichki sarmoyalarning tanqisligi kabi bir qator muammolar ko‘zga tashlanadi. Hozirgi paytda sanoat mahsulotlari dunyoning 90 dan ortiq mamlakatlariga eksport qilinadi.

Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti hozirda sezilarli darajada neft-gaz sanoatiga bog’liq bo‘lib eksportining ham asosiy qismini aynan neft va gaz tashkil qiladi. Qolgan barcha sohalarning rivojlanishi jahon bozoridagi neftning narxiga bog’liq bo‘lib hukumat neftdan kelgan daromadni asosiy qismini shu sohalarni rivojlanishiga sarflaydi.

Mamlakat iqtisodiyoti neftga bog’liqligi sababli 2008- yilgi jahon moliyaviy inqirozi Saudiya Arabistoni iqtisodiyotiga boshqa Fors ko‘rfazi mamlakatlariga nisbatan salbiy ta’sir qildi. OPECga a’zo mamlakatlar neft narxini bir xilda ushlab turish uchun uni qazib chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo‘lishdi. 2008-yilda a’zo mamlakatlar kunlik neft qazib chiqarish hajmini 4,2 mln barrelgacha kamaytirishni kelishib olishdi. Bu Saudiya Arabistoni uchun neft qazib chiqarish hajmini 17% ga pasayganini anglatadi.

Sanoatni qisqa 30 yil davomida rivojlanishi mamlakatni jahon xo‘jaligida o‘z o‘rnini topishiga yordam berdi, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmi va uning jon boshiga to‘g’ri kelishi, kishi boshiga ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi, sanoat mahsulotlari eksport hajmi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashdi.

Agar Saudiya Arabistoni yalpi ichki mahsulotining tarmoqlar bo‘yicha tarkibini ko‘radigan bo‘lsak, unda sanoat ishlab chiqarishi asosiy o‘rinni (60%) egallashining guvohi bo‘lamiz. Xizmat ko‘rsatish sohasi 37%ni (turizm, xajga boradiganlarga xizmat ko‘rsatish va avia xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridan katta daromad oladi) va qishloq xo‘jaligi 2%ni tashkil qiladi.

Neftga bog’liqlikni pasaytirish uchun Saudiya hukumati iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish siyosatini amalga oshirmoqda. Uning asosiy yo‘nalishlari: to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xususiy sektorni mustahkamlash, turizm sanoatini rivojlantirish va energetika sohalarini qamrab oladi.

2010-yilda Saudiya iqtisodiyotiga jalb etilgan to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar miqdori 170 mlrd dollardan oshdi. Sanoatda diversifikatsiya jarayonlari aviatsiya va avtomobil sohalarida amalga oshirildi. Saudiya hukumati “Saudia Arabian Airlines” avia kompaniyasini jahonda 29 yetakchi bo‘lishini rejalashtirmoqda. Saudiya shuningdek avtomobil biznesi markazlari uchun juda qulay mamlakat hisoblanadi. Mamlakatda transport infratuzilmasini rivojlantirish turistlar oqimini ko‘payishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi. Saudiya Arabistoni hukumati sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdan tashqari qishloq xo‘jaligi sohalarini rivojlantirishga ham alohida e’tiborni qaratadi. mamlakatning qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida dehqonchilik bilan shug’ullanishda bir qator tabiiy qiyinchiliklar mavjuddir. **Birinchidan,** suv muammosi bo‘lsa, **ikkinchidan** yerning unumdorlik toifasiga kirmasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham, qishloq xo‘jaligida suv muammosining kelib chiqishi va ushbu sohada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qiyin va mushkul holatlarda yetishtirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi ham tabiiy ravishda ko‘tariladi.

Shuningdek, ekin maydonlari ko‘plab mineral o‘g’itlar talab qilishi sababli, mamlakatning asosiy import mahsulotlar tarkibida mineral o‘g’itlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, fermer xo‘jaliklar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi davlat tomonidan jahon bozoridan 2-3 marotabaga qimmat narxda

sotib olinadi, lekin qimmat narxda sotib olingan mahsulotlarni ichki bozorda aholini xarid qilish qobiliyatidan va jahon bozoridan kelib chiqqan narhlar asosida sotiladi.

Shuning uchun ham, Saudiya Arabistonida fermerlar uchun subsidiya miqdorlari boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori miqdorni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi bilan shug’ullanuvchi fermer xo‘jaliklariga hukumat tomonidan tashkil qilingan maxsus Saudiya Arabistoni Qishloq xo‘jaligi banki tomonidan beg’araz ssudalar taqdim qilinadi.

Qishloq xo‘jaligida bug’doy, pomidor, kartoshka, piyoz, qovun, xurmo (finiki), sitrus mevalar, baliq, chorva mahsulotlari, parranda, tuxum, sut kabi mahsulotlar yetishtiriladi.

Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan bug’doy, mevasabzavot, quritilgan mevalar, xurmo, sut mahsulotlari, tuxum, parranda va baliq mahsulotlari mamlakat aholisini to‘la ehtiyojini qoplaydi. Hatto, ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qo‘shni arab mamlakatlariga, jumladan Quvayt, Qatar, Birlashgan Arab Amirligi va Bahrayn kabi mamlakatlariga eksport ham qilinadi.

Saudiya Arabistoni 2022-yilda kutilganidan qariyb ikki baravar ko‘p bug’doy ishlab chiqardi va 2023- yilda ham xuddi shunday natijalarga erishmoqda, chunki davlat xaridlari narxlari yuqoriligicha qolmoqda. Qishloq xo‘jaligi vazirligi Tashqi qishloq xo‘jaligi xizmati (FAS) hisobotiga ko‘ra, ishlab chiqarish 2022-yilda 1,18 million tonnani tashkil etgan. Hukumat bir tonna uchun 466,70 dollardan sotib olish narxini taklif qildi. Biroq, mamlakat 2022- yilda taxminan 4,63 million tonna va 2023- yilda 4,8 million tonna bug’doy import qilishi kerak bo‘ladi.

Saudiya Arabistoni oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi mamlakatdir, ammo ba’zi hududlarda, jumladan, yangi sut, osh tuxumlari, xurmo va sabzavotlarda o‘zini o‘zi ta’minlaydi. Bu bug’doy, arpa, makkajo‘xori va guruchning aniq importchisi. Biroq, Saudiya Arabistoni ichki talabni qondirish uchun katta miqdorda bug’doy import qilishi kerak.

Mahalliy bug’doy iste’moli 2022- yilda 4,5 million tonna va 2023- yilda 4,7 million tonnani tashkil etadi, bu esa har yili 3 foizga o‘sishi kutilmoqda. Saudiya Arabistoni bo‘ylab megaloyihalar, kurortlar va sayyohlik ob’yektlarini qurish uchun yuzlab mehnat lagerlari tashkil etilayotgani sababli oziq-ovqat xizmatlari sohasining kengayishi hisobiga bug‘doyga bo‘lgan talab yiliga 5-10 foizga oshib bormoqda.

Saudiya Arabistoni jahondagi deyarli barcha nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zo, jumladan BMT, Arab mamlakatlari ligasi, Islom konferensiya tashkiloti, OPEC, OAPEC, Fors ko‘rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi kabi tashkilotlarda Saudiya Arabistoni yetakchilikni o‘z qo‘liga olgan.

Saudiya Arabistonida turizm. Saudiya Arabistoni 2017-yilda 16 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgani bilan Yaqin Sharqdagi ikkinchi yirik sayyohlik yo‘nalishi hisoblanadi. Saudiya Arabistonidagi aksariyat turizm hanuzgacha diniy ziyoratlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, dam olish turizmi sektorida ham o‘sish kuzatilmoqda.

So‘nggi paytlarda turizm sektori sezilarli darajada rivojlanganligi sababli, sektor Saudiya Arabistoni uchun „oq neft“ bo‘lishi kutilmoqda. Bu ta’rif 2019-yilda turizm sektoridan 25 milliard dollar daromad kelganligi bilan isbotlangan. 2021-yilda Saudiya Arabistoniga 63 milliondan ortiq kishi tashrif buyurdi - 2018-yilga nisbatan 2 barobar ko‘p.

Saudiya Arabistonida ziyorat qilinadigan mashhur joylar Makka, Madina, Madain Solih, Yanbu, Tabuk, Jidda va Ar-Riyoddir. Saudiya Arabistoniga turli global aviakompaniyalar xizmat ko‘rsatadigan 13 ta xalqaro aeroport orqali kelish mumkin.

Makka yiliga Zulhijja oyida Hajda uch milliondan ortiq ziyoratchilarni, Ramazon oyida esa ikki million atrofida umra ziyoratini amalga oshiruvchilarni qabul qiladi. Yilning qolgan qismida Umra uchun Makkaga to‘rt millionga yaqin odam tashrif buyuradi. Hajni ziyorat qilish Islomning besh ustunidan biridir. Makkada bu ziyoratni amalga oshirish uchun faqat musulmonlarga ruxsat berilgan.

11.3. Birlashgan Arab Amirliklari iqtisodiyoti

Birlashgan Arab Amirliklari Fors va Omon ko‘rfazida Arab yarim orolining sharqiy qismida joylashgan, Saudiya Arabistoni Qirolligi, Qatar va Omon Sultonligi bilan chegaradosh. BAA 7 ta amirlik (xonlik)dan iborat: Abu-Dhabi, Ajman, Dubay, Ras Al-Hayma, Fujeyra, Um Al-Quvayn, Sharja. Abu-Dabi mamlakatning poytaxti, eng ko‘p aholisi bo‘lgan Dubay esa xalqaro markaz hisoblanadi. BMT a’zosi. Davlatni boshqarish shakli mutloq monarxiya. Maydon 82,880 km², aholisi 10 206 508 kishi.

Statistics Time xalqaro reyting kompaniyasi 2022 yil hisobotiga ko‘ra Birlashgan Arab Amirliklari nominal YaIM hajmi 508 mlrd. AQSh dollari, 2022 yil yakunlari bo‘yicha XVF ma’lumotiga ko‘ra aholi jon boshiga tushadigan milliy daromad bo‘yicha esa 45 321 AQSh dollarini, YaIMning yillik o‘sish sur’ati 8,5% tashkil etadi.

Amirliklar iqtisodiyotining asosini neft qazib olish tashkil qiladi. Bu davlat neftning aniqlanmagan zaxiralari bo‘yicha dunyoda 6-o‘rinda, taxminan 97,8 milliard barrel, tabiiy gaz zaxirasi - 6,1 trillion m³ bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinda turadi. Bundan tashqari turizm, yuqori axborot texnologiyalari, xizmat ko‘rsatish sohalari ham iqtisodiyotning muhim manbalari sifatida rivojlanmoqda.

Iqtisodiy rivojlanish tarixi. Birlashgan Arab Amirliklarida 1950-yillarda neft konlari topilganga qadar iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari baliqchilik va marvarid qazib olish bo‘lib, bu davrga kelib u allaqachon tanazzulga yuz tutgan.

1962 yildan boshlab Abu-Dabi neft eksport qilgan amirliklar orasida birinchi bo‘ldi. Iqtisodiyoti 1973- yilda neft narxi keskin ko‘tarilganda o‘zgardi. Buning sharofati bilan BAA jadal rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi va 25 yil ichida yuqori iqtisodiy farovonlikka erishdi. Neft eksportidan katta daromadlar hisobiga transport tarmog’i sezilarli darajada yaxshilandi.

BAAda temir yo‘l yo‘q, lekin mamlakatning asosiy shaharlarini bog’lovchi yo‘llar tarmog’i yaxshi rivojlangan. 1990-yillar boshida mamlakatda oltita xalqaro aeroport mavjud edi. 1988 - yilda dunyodagi

eng katta sun’iy bandargohga ega bo‘lgan Dubay amirligida Jebel Ali dengiz porti ochildi.

Neft sanoati va qurilishning rivojlanishi xorijlik ishchi kuchining kirib kelishiga ham yordam berdi, bu hozirda mamlakat aholisining taxminan to‘rtdan uch qismini tashkil qiladi. So‘nggi paytlarda neft qazib olish va neftni qayta ishlash sanoatining YaIMdagi ulushi asta-sekin kamayib, o‘z o‘rnini ko‘chmas mulk, savdo, qishloq xo‘jaligi kabi tarmoqlarga bo‘shatib bormoqda.

Mamlakat oziq-ovqatga bo‘lgan ichki ehtiyojning to‘rtdan bir qismini qondiradi, shuning uchun qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar juda yuqori. Eng avvalo, investitsiyalar nafaqat dala va bog’larni, balki yaqinda paydo bo‘lgan yashil maydonlarni ham chuchuk suv bilan ta’minlash maqsadida suvni tuzsizlantirish zavodlarini qurishga yo‘naltirilmoqda.

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti so‘nggi chorak asrda 8 barobarga o‘sdi – 1990-yildagi 50 milliard dollardan 2015-yilda 400 milliard dollarga yetdi.So‘nggi o‘n yillikdagi jadal rivojlanishi Amirliklar iqtisodiyotiga Saudiya Arabistonidan keyin arab dunyosida ikkinchi iqtisodiyotga aylanishiga imkon berdi. Neft bir necha o‘n yilliklar ichida BAA iqtisodiyotining jadal o‘sishiga turtki berdi, ammo iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham juda tez rivojlandi, ayniqsa tashqi savdo.

BAA o‘z iqtisodiyotini, xususan, Dubayda muvaffaqiyatli diversifikatsiya qildi, ammo uning iqtisodiyotida, ayniqsa Abu-Dabida neft va tabiiy gaz daromadlariga katta bog’liqlik hanuzgacha davom etmoqda. Abu-Dabi va BAAning boshqa amirliklari diversifikatsiyaga nisbatan nisbatan konservativ bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, neft zaxiralari ancha kichikroq bo‘lgan Dubay diversifikatsiya siyosatida jasoratliroq bo‘ldi.

Biznes va turizmning rivojlanishi amirliklarda katta hajmda qurilishlar boshlanishiga yordam berdi. Ko‘rgazmali loyihalarga milliardlab dollar sarmoya kiritilmoqda. Nafaqat aholining chuchuk suvga, balki keyingi 25 yil davomida ekilgan qariyb 100 million tup

daraxt ehtiyojini qondirish uchun zamonaviy binolar va sho‘r suvlarni tozalash inshootlari qurilishiga salmoqli sarmoya kiritilmoqda.

Ayni paytda mamlakatda 350 milliard dollarlik qurilish ishlari olib borilmoqda. Qurilishdagi tub burilishlar, ishlab chiqarish bazasining kengayishi va rivojlanayotgan xizmatlar sektori BAAga iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Dubayning savdo markazi va unga tutash Jebel Ali erkin zonasi keng ko‘lamli xorijiy sarmoyalarni jalb qilmoqda. Oxirgi paytlarda neft qazib olish va qayta ishlashdan tushgan daromadlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi pasayib bormoqda, bu esa hukumatning iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlari bilan bog‘liq.

Shunday qilib, 2009- yilda BAA iqtisodiyotining 85% dan ortig’i neft eksportiga asoslangan; 2011-yilda neft eksporti BAA hukumati byudjetining 77% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot tarkibida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, jumladan, *qurilish, savdo, turizm va qishloq xo‘jaligining* ahamiyati ortib bormoqda.

Foydali qazilmalar. Mamlakatning eng muhim tabiiy boyligi **neft** va **gaz**dir. Asosiy uglevodorod zaxiralari Abu-Dabi va Dubay amirliklarida jamlangan. 1999 yil ma’lumotlariga ko‘ra, BAAda tasdiqlangan neft zaxiralari dunyoda 6-o‘rinni egallaydi (Saudiya Arabistoni, Iroq, Quvayt, Eron va Venesueladan keyin).

Tabiiy gazning tasdiqlangan zahiralari bo‘yicha BAA dunyoda 5-o‘rinda turadi (Rossiya, Eron, Qatar va Turkmanistondan keyin). Gaz zaxiralari asosan Abu-Dabida, shuningdek Sharja, Dubay va Ras al-Xayma amirliklarida topilgan.

XXI asr boshlaridagi holatga ko‘ra, ishlab chiqarilgan gazning 55% respublikada foydalaniladi, qolgan qismi suyultirilgan holda eksport qilinadi.

Sanoat. ***Neft va gaz sanoati.*** 2022 - yilda BAAda kuniga o‘rtacha 300 ming tonna neft qazib olindi, Abu-Dabi 83%, Dubay 15%, Sharja 2%. Abu-Dabi Yaqin Sharqda neft qazib olish bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi (Saudiya Arabistoni va Erondan keyin). Ras al-Xaymada ham oz miqdorda neft ishlab chiqariladi.

BAA neft ishlab chiqarish kvotalari Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) tomonidan belgilanadi, biroq BAA har doim ham bu chegaralarga amal qilmagan. Masalan, 1990 yilda Iroq Quvaytga bostirib kirishi paytida mamlakatda neft qazib olish kvotani ikki barobarga oshirdi.

2003 - yilga kelib Abu-Dabi neft va gaz sanoatida yetakchiga aylandi. So‘nggi paytlarda yangi konlarni qidirish, neft va gazni sotishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Neftni qayta ishlash, neft mahsulotlari va suyultirilgan gazni taqsimlash va sotish ikkinchi o‘ringa qo‘yildi.

BAAda ishlab chiqarilgan neftning asosiy qismi eksport qilinadi. Amirliklardan neftning asosiy importchilari *Yaponiya, G’arbiy Evropa mamlakatlari va AQSh*dir. Bundan tashqari, suyultirilgan gaz eksport qilinadi.

Transport. BAA Uzoq Sharq va Yevropaning samarali iqtisodiy yo‘llari o‘rtasida joylashgan bo‘lib, mamlakatni xalqaro iqtisodiy markazga aylantirishga yordam beradi. Mamlakatda yaxshi rivojlangan tranzit transport infratuzilmasi mavjud - xususan, *xalqaro aeroportlar* mavjud: Abu-Dabi, Dubay, Sharja, Ras al-Xayma, Fujayra va Al-Ayn; Al Maktum aeroporti qurilgan. Ularning eng yiriklari – Abu-Dabi va Dubayda 2010- yilda 50 milliondan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatgan va yuk tashish hajmi ham oshib bormoqda. Shu bilan birga, Dubay xalqaro aeroporti 2014- yilda London Xitroudan o‘tib, xalqaro yo‘lovchi tashish bo‘yicha dunyodagi eng gavjum aeroportga aylandi .

Mamlakatda *yirik portlar* mavjud. Birlashgan Arab Amirliklarining asosiy portlari: Xalifa porti , Zayed porti , Jebel Ali porti , Rashid porti , Xolid porti , Port Said va Port Xor-Fakkan. Amirliklar Yevropa va Xitoy yoki Afrika o‘rtasidagi savdoda ishtirok etish uchun logistika va portlarini tobora rivojlantirmoqda. Shu maqsadda portlar jadallik bilan kengaytirilib, ularning texnologiyasiga sarmoya kiritilmoqda.

Ayni paytda BAAda *temir yo‘l transporti* mavjud emas, ammo Amirliklar o‘rtasidagi temir yo‘l aloqalarini ta’minlaydigan, shuningdek, BAAni qo‘shni davlatlar - Saudiya Arabistoni va Ummon

bilan bog’laydigan Etihad Rail loyihasi (davlatga qarashli Etihad Rail kompaniyasi tomonidan) ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi vaqtda asosiy transport turi - bu *avtomobillar*, bu yerda ko‘pchilik yo‘llar asfaltlangan.

Turizm. Turizm butun BAA iqtisodiyoti uchun o‘sish sektori sifatida ishlaydi. Dubay Yaqin Sharqdagi eng yaxshi sayyohlik yo‘nalishi hisoblanadi. Master Card Global Destination Cities Index ma’lumotlariga ko‘ra, Dubay dunyodagi eng mashhur sayyohlik yo‘nalishi bo‘yicha beshinchi o‘rinda turadi. Dubay BAA turizm iqtisodiyotining 66% gacha ulushiga ega.

BAA mintaqadagi eng ilg’or va rivojlangan infratuzilmaga ega. 1980-yillardan beri BAA infratuzilma uchun milliardlab dollar sarflaydi. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, Abu-Dabi va Dubayning yirik amirliklarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shimoliy amirliklar uy-joy va tijorat mulklarini ishlab chiquvchilar uchun katta rag’batlarni taqdim etib, tez sur’atlar bilan da’vo qilmoqda.

BAAda 2019- yil uchun kirish turizmi xarajatlari chiqish turizmi xarajatlarining 118,6 foizini tashkil etdi. 2020-yil 6-yanvardan boshlab Birlashgan Arab Amirliklariga sayyohlik vizalari besh yil muddatga amal qiladi.

Tashqi savdo. Eng yirik savdo hamkori Yaponiya bo‘lib, u BAAning neft va gaz eksportining eng katta ulushini egallaydi, shuningdek, transport vositalari, elektronika va turli iste’mol mahsulotlari yetkazib beruvchisi hisoblanadi.

2022- yilda Rossiya va BAA o‘rtasidagi tovar aylanmasi 68 foizga o‘sib, qariyb 9 mlrd dollarni tashkil etdi (8,5 mlrd dollar – Rossiya eksporti va 500 million dollar – Amirlik eksporti).

Birlashgan Arab Amirliklari qimmatbaho metallar yetkazib berish bo‘yicha asosiy markaz bo‘lib, asosiy yetkazib beruvchilar Hindiston va Afrika davlatlari hisoblanadi. 2022-yilda Rossiya BAAga eng yirik oltin yetkazib beruvchiga aylandi va 96,4 tonna oltin yetkazib berdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 15 barobar ko‘pdir.

2021- yilda BAAdan **jami eksport** 425 milliard dollarni tashkil etdi. Qiymat jihatidan BAAdan tovarlar yetkazib berish hajmining

o‘sishi 2020-yilga nisbatan 26 foizni tashkil etdi: Tovarlar eksporti 89 milliard dollarga oshdi (2020-yilda BAAdan 335 milliard dollarlik mahsulot yetkazib berilgan).

2021- yilda BAA eksporti tarkibi quyidagi asosiy mahsulot guruhlari bilan ifodalangan:

51% (217 mlrd. AQSh dollari): Mineral yoqilg’i, neft va ularni distillash mahsulotlari;

14,4% (61 mlrd. AQSH dollari): Tabiiy yoki madaniy marvaridlar, qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlar, qimmatbaho metallar, metallar, zargarlik buyumlari; tangalar

8,04% (34 mlrd. AQSh dollari): Elektr mashinalari va uskunalari, ularning qismlari; ovoz yozish va qayta ishlab chiqarish uskunalari,

4,37% (18,6 mlrd. AQSh dollari): Yadro reaktorlari, qozonxonalar, uskunalar va mexanik qurilmalar; ularning qismlari

2,74% (11,6 mlrd. AQSH dollari): yer usti transport vositalari, ularning qismlari va aksessuarlari

2,17% (9,26 mlrd. AQSh dollari): Plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar

1,91% (8,14 mlrd. AQSh dollari): Alyuminiy va undan tayyorlangan mahsulotlar

1,14% (4,86 milliard AQSh dollari): Tamaki va sanoat tamaki o‘rnini bosuvchi mahsulotlar.

BAAga **jami import** 2021- yilda 347 milliard dollarni tashkil etdi. Qiymat jihatidan BAAga tovar yetkazib berish hajmining o‘sishi 2020-yilga nisbatan 40 foizni tashkil etdi: Tovarlar importi 100 milliard dollarga oshdi.

2021 yilda BAAga import tarkibi quyidagi asosiy mahsulot guruhlari bilan ifodalangan:

21% (73 milliard AQSh dollari): Tabiiy yoki madaniy marvaridlar, qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlar,

15,3% (53 mlrd. AQSh dollari): Turlari bo‘yicha ko‘rsatilmagan tovarlar

12% (41 mlrd. AQSh dollari): Elektr mashinalari va uskunalari, ularning qismlari; ovoz yozish va qayta ishlab chiqarish uskunalari,

10,5% (36 mlrd. AQSh dollari): 27 - Mineral yoqilg’i, neft va ularni distillash mahsulotlari; bitumli moddalar; mineral mumlar

8,23% (28 mlrd. AQSH dollari): 84 - Yadro reaktorlari, qozonxonalar, uskunalar va mexanik qurilmalar; ularning qismlari

5,29% (18,4 mlrd. AQSH dollari): 87 - yer usti transporti vositalari, temir yo‘l yoki tramvay harakat tarkibi va ularning qismlari va aksessuarlaridan tashqari

1,89% (6,57 mlrd. AQSh dollari): 30 - Farmatsevtika mahsulotlari

11.4. O‘zbekistonning Fors ko‘rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng Fors ko‘rfazi mintaqasidagi deyarli barcha mamlakatlari O‘zbekiston Respublikasini mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo‘lib tan oldi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi ham o‘zining tashqi siyosatida Fors ko‘rfazi mintaqasi mamlakatlariga e’tibor qaratmoqda. Jumladan, Saudiya Arabistoni Qirolligida elchixonamiz samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yurtimizda esa Quvayt, Saudiya Arabistoni, Eron kabi Fors ko‘rfazi mintaqasi mamlakatlarining elchixonalari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatida Fors ko‘rfazi mamlakatlari o‘ziga xos o‘rin va ahamiyatga ega. Arab mamlakatlari bilan tovar aylanmasi 2010-yilda 130 ming AQSh dollarini va 2011-yilda 149 ming dollarni tashkil etdi.

*Eksport*ning asosiy tarkibini xizmatlar (turistik, moliyaviy, transport va aloqa xizmatlari), mexanik vositalar, plastmassa, va undan tayyorlanadigan mahsulotlar tashkil etadi.

Import tarkibida ham asosiy o‘rinni xizmatlar, shuningdek, transport vositalari, mexanik va elektr asbob-uskunalari, kofe va kimyoviy mahsulotlar egallaydi. Mamlakatimizning umumiy tashqi savdo-sotiq jarayonlarining 0,6% BAA ga to‘g’ri kelar ekan.

O‘zbekiston va Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari iqtisodiyotlari ko‘p jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi mamlakatlar hisoblanadi. Ulardagi tabiiy boyliklarning va sanoat-ishlab chiqarish imkoniyatlarining yetarli darajada ekanligi, madaniy va tarixiy qadriyatlar o‘xshashligi,

mamlakatlararo o‘zaro foydali va samarali hamkorlik uchun barcha shart-sharoitlarni yaratmoqda hamda har ikkala mintaqa mamlakatlarining tashqi iqtisodiy manfaatlari ko‘lamini tobora kengaytirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek “O‘zbekistonni Fors ko‘rfazi mamlakatlari bilan munosabatida investitsion va iqtisodiy hamkorlik asosiy rol o‘ynaydi”[20]

O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992- yil 25 oktabrda o‘rnatilgan. O‘zbekistonda hozirda BAA kapitali ishtirokida tashkil etilgan 107 ta korxona mavjud va ulardan 40 tasi 100% xorij kapitali asosida faoliyat yuritadi. Ular asosan to‘qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari, meva konservalari, poligrafiya, ulgurji savdo, umumiy ovqatlanish tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida ish olib bormoqda.

2009-2010 yillar davomida Davlat investitsiya dasturi doirasida O‘zbekistonga BAA dan hajmi 24,04 mln AQSh dollari miqdoridagi sarmoya jalb etilgan bo‘lib, shu o‘rinda to‘g’ridanto‘g’ri investitsiyalar hajmi 11.93 mln dollarni tashkil etgan.

Shu o‘rinda o‘zbek-amirlik ishtirokida tashkil etilgan OAJ “Jurabek Laboratories” ni misol qilishimiz mumkin. O‘zbekiston va Fors ko‘rfazi mamlakatlari tabiiy resurslarga boy hisoblanadi. Bularning hammasi ikki tomon o‘rtasida eksport import jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

1992-yil 20-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi bilan Saudiya Arabistoni Podshohligi o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2019- yil yanvar-noyabr oylarida o‘zaro savdo hajmi qariyb 60 million dollarni tashkil etgan.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda Saudiya Arabistoni sarmoyadorlari ishtirokida 10 ta kompaniya faoliyat olib bormoqda. Ulardan to‘rttasi 100 foiz xorij kapitali asosida tashkil etilgan. Ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik diniy-ma’rifiy sohada ham rivojlanib bormoqda.

[20] Karimov I.A. O’zbekiston-Quvayt: hamkorlikning yangi bosqichi//”Xalq so’zi”.-22.06.2008-yil.

Har yili mamlakatimizning o‘n mingdan ziyod fuqarosi Haj va Umra amallarini ado etmoqda. Jumladan, 2019- yil 30 mingdan ortiq yurtdoshimiz Umra, 7 mingdan ortiq kishi Haj ziyoratlarini bajardi. Tomonlar sayyohlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratmoqda.

Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi bergan ma’lumotga ko‘ra, 2019- yil Saudiya Arabistonidan O‘zbekistonga kelgan sayyohlar soni 2018- yilga nisbatan qariyb 170 foizga oshgan.

Nazorat va takrorlash uchun savollari

1. Saudiya Arabistoni qanday tabiiy resurslarga ega?
2. Fors ko‘rfazi mamlakatlari boshqaruv shakli va iqtisodiyoti?
3. Saudiya Arabistoni turizm sohasi to‘g’risida ma’lumot bering.
4. Birlashgan Arab Amirliklarining iqtisodiy rivojlanish tarixi qanday kechgan?
5. O‘zbekiston Respublikasi bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasida munosabatlarni tavsiflab bering.
6. Fors ko‘rfazi mamlakatlarining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni?
7. BAAning tashqi savdo munosabatlari?
8. Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining tarmoq tarkibi?
9. Saudiya Arabistonida turizm
10. Birlashgan Arab Amirliklarida transport tizimi?

XII BOB. TURKIYA IQTISODIYOTI





Tayanch iboralar: *ilmiy - tadqiqot markazlari, industrialagrar mamlakat, chet el sarmoyasi, elektronika sanoati, diplomatiya munosabatlari, sarmoyalar, qo‘shma korxona, davlat konservatoriya, shamol elektr stansiyalari.*

12.1. Turkiya respublikasiga umumiy tavsif.

Turkiya Respublikasi- G‘arbiy Osiyo (97%) va Janubiy Yevropa (3%)dagi davlat. Turkiya ham Osiyo, ham Yevropa qit’asiga kiradi. Maydoni - 783,562 km². Aholi soni (2022) - 85 279 553 kishi. Turkiya Respublikasi 81 ta viloyatlardan iborat. Turkiya 14 ta davlat bilan chegaradosh.

Turkiya iqtisodiyoti dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va ko‘p sohalarda rivojlanib borayotgan dinamik iqtisodiyotlardan biridir. Mamlakat rivojlangan sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sektori bilan ajralib turadi. Ko‘p tarmoqli iqtisodiyot, qulay geografik joylashuv, yosh va arzon ishchi kuchi va xorijiy investitsiyalar oqimi mamlakat iqtisodiyotini mintaqadagi eng kuchli iqtisodiyotlardan biriga aylantirdi.

Turkiyaning nominal yalpi ichki mahsuloti 2023-yilda 1 trillion 154 million dollarni, aholi jon boshiga nominal yalpi ichki mahsuloti esa o‘sha yili 13 383 dollarni tashkil qildi. 2023- yil holatiga ko‘ra, Turkiya iqtisodiyoti nominal YaIM bo‘yicha dunyoda 17-o‘rinda va Yevropada 7-o‘rinda turadi. XVF ma’lumotlariga ko‘ra, Turkiya o‘rtadan yuqori daromadli, aralash bozor , rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega.

Mamlakat dunyoda eng koʻp tashrif buyuriladigan toʻrtinchi joy va koʻp millatli milliy firmalar tomonidan tashkil etilgan 1500 dan ortiq ilmiy - tadqiqot markazlariga ega.

Turkiya qishloq xoʻjaligi mahsulotlari, toʻqimachilik, avtotransport vositalari, transport uskunalari, qurilish materiallari, maishiy elektronika va maishiy texnika ishlab chiqarish boʻyicha dunyoda yetakchi davlatlar qatoriga kiradi.

Turkiya iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari xizmatlar sohasi (34%), sanoat (22%), savdo (16%), transport (11%), qurilish (10%), qishloq xoʻjaligi (7%) hisoblanadi. Turkiya iqtisodiyotini sanoat va xizmat koʻrsatish sohasi boshqaradi, ammo barcha ish oʻrinlarining 25 foizi qishloq xoʻjaligida.

Soʻnggi 20 yil ichida Turkiya iqtisodiyotining moliyaviy va ijtimoiy jihatlarida, masalan, 2000- yildan buyon bandlik va oʻrtacha daromadning oshishi kabi katta oʻzgarishlar roʻy berdi.

Zamonaviy Turkiya 1923-yilda Usmonli imperiyasining birinchi jahon urushidagi magʻlubiyati va turk xalqining milliy ozodlik urushi, monarxiyaning tugatilishi, parchalanishi va turk milliy davlatining barpo etilishi natijasida tashkil topgan.

Aholisining 90 % - turklar. Kurd, arab, Oʻzbeklar, adigey, ubix, chechen, osetin, lezgin, yunon, arman, laz, gurj, ozarbayjon, turkman, bolgar, albanlar ham yashaydi.

Aholisining asosiy qismi islom dinining sunniy mazhabiga e’tiqod qiladi. Rasmiy til - turk tili. Shahar Aholisi 69 %. Yirik shaharlari: Istanbul, Anqara, Izmir, Koʻniya, Bursa, Gʻoziantep, Diyorbakir, Antaliya, Adana, Edirna. Turkiyaning eng yirik shahri boʻlgan Istanbul, nafaqat mamlakatning, balki Yevropaning eng katta shaharlaridan biri sifatida tanilgan. Istanbulda taxminan 16–17 million kishi yashaydi, bu esa Turkiyaning jami aholisining deyarli toʻrtdan bir qismini tashkil etadi.

Turkiya aholisi nisbatan yosh boʻlib, oʻrtacha yosh 32–33 yosh atrofida. Bu, ishchi kuchining koʻpligi va iqtisodiy faoliyatni yengillashtiruvchi omil hisoblanadi. Turkiya aholisining yillik oʻsish

sur'ati 1.1% atrofida. Bu o‘sish ko‘p jihatdan tug‘ilish darajasining nisbatan yuqori bo‘lishi bilan izohlanadi.

12.2. Mamlakatning tabiiy resurslari.

Turkiya tabiiy resurslari mamlakatning iqtisodiyoti va sanoati uchun juda muhim rol o‘ynaydi. Turkiya, geografik jihatdan juda boy tabiiy resurslarga ega bo‘lib, bu uning iqtisodiy faoliyatiga va mintaqadagi strategik ahamiyatiga katta ta'sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda Turkiyada 60 ga yaqin turli minerallar ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatdagi eng boy foydali qazilma konlari bor tuzlari bo‘lib, Turkiyaning zahiralari dunyodagi jami 72% ni tashkil qiladi. 2019- yilda mamlakat xrom ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinni egalladi; dunyodagi eng yirik bor ishlab chiqaruvchisi; Surma ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 6-o‘rinda; Qo‘rg‘oshin ishlab chiqarish bo‘yicha 9-o‘rinda; Temir rudasi bo‘yicha dunyoda 13-o‘rin; molibden bo‘yicha dunyoda 11-o‘rinda turadi; gips ishlab chiqarish bo‘yicha 4-o‘rinda; Grafit ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 15-o‘rinda; tuz ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 11-o‘rinda turadi.

Turkiyada oltin sektori mamlakatning iqtisodiyoti va tabiiy resurslaridan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. Turkiya oltin qazib olish, qayta ishlash va eksport qilish sohasida yirik mamlakatlardan biri bo‘lib, bu sektorda ilgari surilayotgan islohotlar, investitsiyalar va kashfiyotlar mamlakatning iqtisodiy ahvoliga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Oltin, shuningdek, Turkiyaning milliy zaxiralarida ham muhim o‘rin tutadi. Turkiya **oltin** ishlab chiqaruvchisi sifatida hozirda jahon miqyosida 22-o‘rinda. Yevropa qit’asidagi eng yirik oltin konlariga mezbonlik qilgan holda, u hozirda Yevropaning eng yirik oltin ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, 2020 yilda 42 tonna oltin ishlab chiqaradi.

Energiya. Turkiyada elektr energiyasi ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish sohasida katta rivojlanishlarga erishilgan. Elektr energiyasining ishlab chiqarilishi turli manbalardan, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, ko‘mir, tabiiy gaz va

yadroviy energiya resurslaridan olib boriladi. Mamlakatda energetika sektori iqtisodiyotning muhim tarmog‘ini tashkil etadi va buning uchun ko‘plab milliy va xalqaro investitsiyalar amalga oshirilgan. Turkiyada elektr energiya ishlab chiqarishda an’anaviy o‘tin, toshko‘mir, neft, tabiiy gaz, gidro va issiqlik energiyasi singari manbalardan tashqari quyosh va shamol energiyasidan ham foydalaniladi. Yiliga o‘rtacha 125 milliard kVt/soat elektr energiya hosil qilinadi.

So‘nggi 20 yil ichida Turkiya iqtisodiyoti deyarli ikki baravar o‘sishi bilan energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyoj ham 166 foizga oshdi. Turkiya bu ko‘rsatkich dinamikasi bo‘yicha dunyoda Xitoydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. 2021-yilda Turkiyaning birlamchi energiya ehtiyoji 163 million tonnani tashkil etdi va uni ishlab chiqarish 47 million tonnani tashkil etdi.O‘rnatilgan quvvatning deyarli 28 foizini tabiiy gaz elektr stansiyalari, ikkinchi o‘rinda gidroelektr stansiyalari (25 foiz), shamol elektr stansiyalari (11 foiz) va qo‘ng’ir elektr stansiyalari (11%) turadi.

Turkiya 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 30-35% ga yetkazishni maqsad qilmoqda. Shamol va quyosh energiyasining ishlab chiqarilishiga bo‘lgan investitsiyalar davom etmoqda.

Tabiiy gaz. Turkiya tabiiy gaz resurslari borasida o‘zining ichki ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi, shuning uchun u gazni import qiladi, lekin oxirgi yillarda yangi kashfiyotlar va resurslarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2014-yilda Turkiya 1990-yilga nisbatan 126 foiz ko‘p tabiiy gaz ishlab chiqardi. Biroq, bu mamlakat ehtiyojlarining atigi 1 foizini qondirish uchun yetarli edi.

2022-yilda qishda kunlik gaz iste’moli 280 million m3, yozda 140 million m3 ni tashkil qiladi. 2022 yil aprel oyidagi asosiy gaz eksportchilari Rossiya, AQSh, Ozarbayjon, Jazoir hisoblanadi.

2022-yilda Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi ortidan bir qancha Yevropa davlatlari rus nefti yoki gazini sotib olishni to‘xtatdilar, biroq Turkiyaning Rossiya bilan aloqalari yetarlicha yaxshi va sotib olishda davom etmoqda. Turkiya o‘z gazining deyarli yarmini

Rossiyadan oladi. Shuningdek, import qilinadigan gazning yirik qismini Iroq, Ozerbayjon, hamda suyuqlashtirilgan tabiiy gaz (LNG) shaklida boshqa davlatlardan oladi.

Neft. Turkiyada neft resurslari nisbatan cheklangan bo‘lib, mamlakatning o‘z ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun neft importiga muhtoj. Turkiya o‘zida neft ishlab chiqarishni olib borayotgan bo‘lsa-da, bu ishlab chiqarish hajmi cheklangan. 2021-yilgi ma'lumotlarga ko‘ra, Turkiya kuniga taxminan 50,000–60,000 barrel neft ishlab chiqaradi, bu esa uning umumiy neft ehtiyojlarini qondirishga yetarli emas.

Turkiya iste’mol qiladigan neftning atigi 7 foizini ishlab chiqarganligi sababli, mamlakatning jami importi eksportidan qimmatroqdir , bu esa iqtisodiyoti uchun muammodir. Turkiyaga neft va neft mahsulotlarini yetkazib berish bo‘yicha yetakchilar: Rossiya, Iroq va Qozog’iston.

Ko‘mir. Turkiyada ko‘mir resurslari mamlakatning energetika sektori uchun muhim ahamiyatga ega. Ko‘mir Turkiyada energiya ishlab chiqarish, sanoat va isitish tizimlarida keng qo‘llaniladi. Mamlakatda ko‘mir zaxiralari mavjud bo‘lib, bu resurslar nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki eksport qilish uchun ham ishlatiladi. Biroq, Turkiya ko‘mirni ko‘plab sohalarda ishlatgan bo‘lsa-da, ekologik muammolar va chiqindilar bilan bog‘liq cheklovlar mavjud.

Turkiya 11,5 milliard tonnaga yaqin ko‘mir zaxiralariga ega bo‘lib, ularning 97 foizi qo‘ng’ir ko‘mirdir. Mamlakatda mavjud ko‘mir zahiralari 192 yilga yetarli. Ko‘mir mahalliy energiya ishlab chiqarishning 40% dan ortig’ini ta’minlaydi. Turkiyada qazib olinadigan ko‘mirning aksariyati qo‘ng’ir tosh bo‘lib, u boshqa ko‘mir turlariga qaraganda ko‘proq ifloslanadi. Shu sababli, Ko‘mir havoni katta miqdorda ifloslanishiga olib keladi va butun mamlakat bo‘ylab sog’likka zarar yetkazadi , hatto uylar va shaharlarda ham yoqiladi.

Turkiyada ko‘mir resurslari asosan elektr energiyasini ishlab chiqarishda, sanoat sohasida va isitishda ishlatiladi. Mamlakatda **lignit** (qo’ng’ir ko‘miri) ko‘plab hududlarda qazib olinadi, bu esa energetika tizimining asosiy qismiga aylanadi. Biroq, ko‘mirning atrof-muhitga

salbiy ta'siri va ekologik muammolar tufayli, Turkiya qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish va ko‘mirga bo‘lgan qaramlikni kamaytirishga harakat qilmoqda.

12.3. Turkiyaning sanoati va qishloq xo‘jaligi.

Xo‘jaligi. Turkiya - industrialagrar mamlakat. 1980-yil iqtisodiyotda tub burilishni ko‘zda tutgan keng qamrovli dastur joriy etila boshlandi. Eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari paydo bo‘la boshladi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida markazdan boshqaruv o‘rniga bozor mexanizmiga o‘tildi.

Soliq masalasida bir qancha qulayliklar yaratildi, sarmoya jamg‘armalari tez sur’atlar bilan ko‘paydi, chet el sarmoyasi erkin kelishiga qulay imkoniyat yaratiddi. Chet el sarmoyasi va texnologiyasini jalb etishni tezlashtirish uchun 1985-yilda „Erkin mintaqalar qonuni“ kuchga kirdi. Bunday mintaqalar 1987-yilda atigi 2 ta (Mersin va Antaliya) bo‘lgan bo‘lsa, 2002-yilga kelib ularning soni 21 taga yetdi. Ana shular natijasida yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 28,7 %, qishloq xo‘jaliginiki 14,4 %, xizmat ko‘rsatish sohasiniki 56,9 % bo‘ldi.

Mamlakat statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, aholining asosiy qismi uchta tarmoqda band bo‘lgan: qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish. Hisobotga ko'ra, birinchi o'rinda *xizmat ko'rsatish* sohasi, mamlakatning jami m*ehnatga layoqatli aholisining 57,7 foizi* ushbu sohada ishlaydi. Agar gender haqida gapiradigan bo'lsak, ish bilan band bo'lgan ayollarning 62 foizdan ortig'i xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydi. Turkiyada ishlaydigan *aholining deyarli 27 foizi sanoat sohasida* ishlaydi va bu sohada, aksincha, erkaklar ayollarga qaraganda ancha ko'p. Ishchilar umumiy sonining *15,4 foizdan bir oz ortig‘i qishloq xo‘jaligida* ishlaydi. Bundan tashqari, u erda ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq. Mamlakatning mehnatga layoqatli aholisining asosiy qismi yollanma ishchilardir.

Sanoati. Turkiya sanoati mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivojlanib, dunyo bozorida o‘z o‘rnini mustahkamladi. Turkiya sanoati diversifikatsiya

qilinib, koʻplab sohalarda oʻzining quvvatini oshirdi. Mamlakatning sanoat tarmoqlari, ayniqsa, yengil sanoat, mashinasozlik, avtomobil sanoati, kimyo sanoati, metallurgiya, oziq-ovqat sanoati va toʻqimachilik sohalarida rivojlangan**.**

2023-yilda Turkiya sanoati umumiy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim oʻrin tutib, mamlakat yalpi ichki mahsulotning taxminan 25–30% ini tashkil etadi. Sanoat sektori koʻplab odamlarni ish bilan ta'minlab, ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi.

Turkiya *xromit* ishlab chiqarish va eksport qilishda dunyoda yetakchi (toʻrtinchi) oʻrinda turadi (40 million tonnalik xromit zaxirasi bor). Shuningdek, gaz, neft, toshkoʻmir, temir, marganets, mis va boshqa rangli metallar qazib olinadi. Sanoat korxonalari asosan mamlakatning gʻarbiy va markaziy qismida joylashgan. Keyingi yillarda mamlakat sharqiy qismini rivojlantirish uchun chora-tadbirlar koʻrildi. Turkiya sanoatida *avtomobilsozlik, elektronika, kimyo, toʻqimachilik, koʻnchilik mahsulotlari, qurilish materiallari, oʻsimlik yogʻi* ishlab chiqarish. yetakchi oʻrin tutadi.

Turkiya avtomobil sanoati sohasida jahonning eng yirik ishlab chiqaruvchilaridan biri hisoblanadi. Avtomobil sanoatidagi 15 firma Renault, Ford, FIAT, Hyundai, Toyota, Honda, Opel, Daimler, Isuzu и MAN, bundan tashqari, BMC, Temsa, Otokar kabi mahalliy brendlarning avtobuslari ham ishlab chiqaradi. 2022- yilda Turkiya 1 352 648 ta motorli avtomobil ishlab chiqardi va bu dunyoda 13-oʻrinni egalladi. Turkiyada ishlab chiqarilgan avtomobillarning qariyb 80 foizi eksport qilindi.

Keyingi davrda Turkiyada elektronika sanoati jadal rivojlandi. Yalpi ichki mahsulotning 2% elektronika sohasiga toʻgʼri keladi. Bu sohada yirik kompaniyalar, jumladan Vestel, Arcelik, Beko va boshqalar, turli texnik mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Turkiya, shuningdek, LED ekranlar, mobil telefonlar, kompyuter texnikasi va boshqa elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarishda global bozorlar bilan raqobatlashmoqda.

Turkiya sanoatining rivojlanishi uchun muhim omillardan biri bu — samarali infratuzilma. Mamlakatda sanoat parklarining soni ortib

bormoqda, bu esa ishlab chiqarishni yengillashtiradi va investitsiyalarni jalb qiladi.

Turkiya sanoati, o‘zining texnologik rivojlanishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va arzon ishchi kuchi tufayli, Yevropa Ittifoqi, Afrika, Yaqin Sharq, Osiyo va AQSh bozorlariga eksport qilishda muvaffaqiyatga erishgan.

Sanoat eksporti: 2023-yilda Turkiya sanoati eksporti 130 milliard dollarga yaqin bo‘lgan.

Kimyo sanoatida 970 fabrika faoliyat ko‘rsatadi. Turkiya *plastik ishlab chiqarish* bo‘yicha Yevropada uchinchi (Germaniya va Italiyadan keyin) (7,2 million tonna, 30 milliard dollar), *bo‘yoq ishlab chiqarish* bo‘yicha Yevropada oltinchi o‘rinda turadi.

O‘g‘itga bo‘lgan talab bo‘yicha dunyoda o‘ninchi o‘rinda turadi. 2022- yilda kimyo mahsulotlari eksporti 17,5 milliard dollarni tashkil etdi, asosiy iste’molchilar: Misr, Iroq va Germaniya.

Turkiya to‘qimachilik sanoati mollari eksportida dunyoda 15, tayyor kiyim eksportida esa 7-o‘rinda turadi. Turkiyaning to‘qimachilik, tikuvchilik va charm sanoatida ishlab chiqarish sanoatidagi barcha ishchilarning uchdan biridan ko‘prog‘i ishlaydi (turli ma’lumotlarga ko‘ra, to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida 750 mingdan 1,9 million kishigacha va 40 mingga yaqin kompaniya ishlagan).

Yengil sanoatda xorijiy va Turkiya davlat kapitalining ulushi unchalik katta emas. Xitoy, Vetnam, Hindiston, Bangladesh va Pokistondan arzonroq mahsulotlar bosimi ostida ko‘plab turk kompaniyalari qimmatroq narx segmentiga o‘tdi va markali mahsulotlar ishlab chiqarishni boshladi.

Qishloq xo‘jaligi. Turkiya qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim va tarixiy ahamiyatga ega tarmog‘idir. Qishloq xo‘jaligi sohasining ahamiyati nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham katta. Turkiya geografik joylashuvi, iqlimi va tabiiy resurslari tufayli juda xilma-xil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi va eksport qiladi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi

sektori mamlakatda ko‘plab odamlarni ish bilan ta'minlab, ishsizlik darajasining pasayishiga yordam beradi.

Turkiya qishloq xo‘jaligi sohasining asosiy mahsulotlari

Mahsulot	Ishlab chiqarish hajmi (tonna/yil)	Eksport hajmi (million dollar)	Asosiy ishlab chiqarish hududi
Bug‘doy	20 million tonna (taxminan)	1.5 milliard dollar	Anatoliya, Marmara, G‘arbiy Turkiya
Arpa	7 million tonna (taxminan)	500 million dollar	Anatoliya, G‘arbiy va Janubiy Turkiya
Makkajo‘xori	7 million tonna (taxminan)	400 million dollar	Janubi-sharqiy Anatoliya
Pomidor	12 million tonna	1.3 milliard dollar	Antalya, Adana, Mersin
Olma	3 million tonna (taxminan)	500 million dollar	Amasya, Isparta, Konya
Uzum	3.2 million tonna (taxminan)	500 million dollar	Manisa, Izmir, Denizli
Anor	1.5 million tonna (taxminan)	50 million dollar	Antalya, Mersin
Zaytun	1.8 million tonna (taxminan)	500 million dollar	Egey dengizi, Marmara, Antaliya
Sitrus mevalari	1.2 million tonna	400 million dollar	Mersin, Antalya, Adana
Yong‘oq	75,000 tonna (taxminan)	250 million dollar	G‘arbiy Anatoliya
Go‘sht (mol, qo‘y)	1.1 million tonna (mol go‘shti)	600 million dollar	Marmara, G‘arbiy Anatoliya
Sut va sut mahsulotlari	18 million tonna sut (taxminan)	1 milliard dollar	Anatoliya, G‘arbiy Turkiya
Paxta	1.5 million tonna (taxminan)	400 million dollar	G‘arbiy Anatoliya, Egey mintaqasi
Choy	215,000 tonna (taxminan)	400 million dollar	Rize (Qora dengiz mintaqasi)

Turkiya hududining 16 % ni o‘tloq, 26 % ni o‘rmonlar tashkil etadi, 35 % da, ya’ni jami hududning 1/3 qismida dehqonchilik qilinadi. Turkiyada g‘alla, paxta, tamaki, qand lavlagi, zig‘ir, kanop va boshqalarlar yetishtiriladi.

Turkiya yong‘oq (funduk), anjir va o‘rik yetishtirishda dunyoda 1, sabzavot, uzum va tamaki yetishtirishda 4, bug‘doy va paxta

yetishtirishda esa 7o‘rinda turadi. Beda, kungaboqar, meva ham yetishtiriladi.

So‘nggi yillarda sug‘orma dehqonchilikka e’tibor kuchaydi. 2000-yil chorvachilikda 11 mln. qoramol, 28,4 mln. qo‘y-echki, 250 mln. tovuq yetishtirilgan. 2020-yilda Turkiya iqtisodiyotining umumiy hajmida qishloq xo‘jaligining ulushi taxminan 6–7% ni tashkil etdi.

Turkiya o‘zining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini jahon bozorida keng miqyosda eksport qiladi. Eng ko‘p eksport qilinadigan mahsulotlar orasida mevalar (uzum, anor, apelsin), zaytun va zaytun moyi, paxta, pomidor, yong‘oq, go‘sht, sut mahsulotlari va choy mavjud.

Zaytun va zaytun moyi, qayta ishlangan mevalar va sabzavotlar Turkiyaning eng yirik eksport mahsulotlari hisoblanadi. 2022-yilda Turkiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti 20 milliard dollardan oshdi.

Turkiya yirik oziq-ovqat ishlab chiqaruvchisi bo‘lishiga qaramay, bug’doy importchisi bo‘lib, uning katta qismi Rossiya va Ukrainadan keladi.

12.4. Mamlakat turizmi va tashqi savdo munosabatlari

Turizm. Turkiya iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda tobora muhim rol o‘ynamoqda. Unda ikki millionga yaqin kishi ishlaydi (510 ming bevosita, yana 1,5 millioni turdosh tarmoqlarda). Bugungi kunda Turkiya xalqaro sayyohlar soni bo‘yicha dunyoda oltinchi o‘rinni egallaydi. Yillar davomida Turkiya Gretsiya , Italiya va Ispaniya bilan raqobatlashuvchi ko‘plab yevropaliklar uchun mashhur sayyohlik maskani sifatida paydo bo‘ldi. Antaliya va Mug’la (Turkiya Rivierasida joylashgan) kabi viloyatlardagi kurortlar sayyohlar orasida juda mashhur.

Turkiyada turizmning rivojlanayotgan bir tarmog’i tibbiy turizmdir. Odatda amalga oshiriladigan tibbiy muolajalar soch ko‘chirib o‘tkazish operatsiyalari , rinoplastika va kosmetik stomatologiyadir , chunki u har yili minglab chet ellik sayyohlarni jalb qiladi. 2021-yilda tibbiy turizmdan olingan daromad 1,05 milliard dollar qilib, tibbiy

xizmat ko‘rsatish maqsadida tashrif buyurgan 642 000 kishidan iborat bo‘ldi. Bu Turkiyaning Yevropaning qolgan qismiga nisbatan arzon narxlarda yuqori sifatli klinikalar taklif qilishi va uning Osiyo hamda Yevropa o‘rtasidagi markaziy joylashuvi bilan bog‘liq.

Turkiyada sog’liqni saqlashga bo‘lgan talabning yuqori bo‘lishining boshqa sabablari chet elliklar uchun oson viza tartib-qoidalariga ega va operatsiyalarni darhol rejalashtirishdir. Turkiya Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilda mamlakatga *44 million 564 ming 395 nafar* xorijiy sayyoh tashrif buyurgan.

2023- yilda Turkiyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni 56,7 million kishini tashkil etdi. Turizm sanoati 2023 yilda Turkiyaga rekord darajadagi daromad keltirdi - 46 milliard dollardan ortiq. Bu o‘tgan yilgi natijadan 53,4 foizga ko‘pdir. Bu haqda Turkiya Statistika Instituti (TÜİK)ning o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha hisobotida ko‘rsatilgan.

Departament ma’lumotlariga ko‘ra, bu 2022-yilga nisbatan 11,1 foizga ko‘pdir. O‘tgan yili turizmdan tushgan daromad 54,31 milliard dollarni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 16,9 foizga ko‘pdir. Ularning 41,6 milliard dollari sayyohlarning shaxsiy xarajatlariga, 13,25 milliardi esa turpaketlar xarajatlariga tegishli.

Tashqi savdosi. Turkiya chetga qora va rangli metall rudalari, po‘lat, gazlama, ho‘l meva, tamaki, charm buyumlar, kimyoviy mahsulotlar, elektronika va ro‘zg‘or buyumlar chiqaradi, chetdan neft, mashina va uskuna, sanoat xom ashyosi va tayyor buyumlar oladi. Olmoniya, Italiya, AQSH, Fransiya, Rossiya, Kavkaz va O‘rta Osiyo mamlakatlari bilan savdo qiladi.

2022- yilda **Turkiyadan eksport** 254 milliard dollarni tashkil etdi. Turkiyadan eksport qilinadigan tovarlarning asosiy yo‘nalishlari:

Germaniya ulushi 8,31% (21 mlrd AQSH dollari)

AQSh ulushi 6,64% (16,8 mlrd. AQSh dollari)

Iroq ulushi 5,4% (13,7 milliard AQSh dollari)

Buyuk Britaniya ulushi 5,11% (13 mlrd. AQSh dollari)

Italiya ulushi 4,87% (12,3 mlrd. AQSh dollari)

Ispaniya ulushi 3,79% (9,65 milliard AQSh dollari)

Fransiya ulushi 3,75% (9,54 mlrd. AQSh dollari)

Rossiya ulushi 3,67% (9,34 mlrd. AQSh dollari)

Niderlandiya 3,15% ulush bilan (8,02 mlrd AQSH dollari)

Isroil ulushi 2,76% (7,03 mlrd. AQSh dollari)

2022- yilda Turkiyadan eksport tarkibi:

10,5% (26 mlrd. AQSH dollari): - yer usti transporti vositalari, shuningdek ularning ehtiyot qismlari va aksessuarlaridan tashqari

8,91% (22 mlrd. AQSH dollari): - Yadro reaktorlari, qozonxonalar, uskunalar va mexanik qurilmalar; ularning qismlari

6,45% (16,4 mlrd. AQSh dollari): - Minerallar

5,77% (14,6 mlrd. AQSh dollari): - Qora metallar

5,39% (13,7 mlrd. AQSH dollari): - Elektr mashinalari va uskunalari, ularning qismlari; ovoz yozish va qayta ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar,

4,55% (11,5 mlrd. AQSH dollari): - Plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar

4,33% (11 milliard AQSh dollari): - trikotaj yoki trikotajdan tikilgan kiyim-kechak va kiyim-kechak aksessuarlari

4,14% (10,5 mlrd. AQSh dollari): - Qora metall mahsulotlari

4,01% (10,2 mlrd. AQSH dollari): - Tabiiy yoki madaniy marvaridlar, qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlar,

3,32% (8,46 mlrd. AQSH dollari): - kiyim-kechak va kiyim-kechak aksessuarlari.

Turkiyaning **jami importi** 2022- yilda 363 milliard dollarni tashkil etdi.

2022- yilda Turkiyaga tovarlar importi bo‘yicha eng yirik savdo hamkorlari:

Rossiya ulushi 16,1% (58 mlrd. AQSh dollari)

Xitoy ulushi 11,3% (41 mlrd AQSH dollari)

Maxsus toifalar ulushi 9,47% (34 mlrd. AQSH dollari)

Germaniya ulushi 6,6% (24 mlrd AQSH dollari)

Shveytsariya ulushi 4,21% (15,3 mlrd AQSH dollari)

AQSh ulushi 4,18% (15,2 mlrd. AQSh dollari)

Italiya ulushi 3,87% (14 milliard AQSH dollari)

Hindiston ulushi 2,94% (10,6 mlrd. AQSh dollari)

Frantsiya ulushi 2,59% (9,42 mlrd. AQSh dollari)

Janubiy Koreya ulushi 2,47% (9 mlrd. AQSH dollari)

2022- yilda Turkiyaga import tarkibi:

26% (96 mlrd. AQSh dollari): - Mineral yoqilg'i, neft va ularni distillash mahsulotlari; bitumli moddalar; mineral mumlar

9,5% (34 mlrd. AQSH dollari): - yadro reaktorlari, qozonxonalar, uskunalar va mexanik qurilmalar; ularning qismlari

7,79% (28 mlrd. AQSH dollari): - Qora metallar

6,44% (23 mlrd. AQSH dollari): - tabiiy yoki madaniy marvaridlar, qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlar,

3,05% (11,1 mlrd. AQSh dollari): - Organik kimyoviy birikmalar

2,11% (7,68 milliard dollar): - alyuminiy va undan tayyorlangan mahsulotlar

1,51% (5,51 mlrd. AQSH dollari): - Mis va mis mahsulotlari.

12.5.O‘zbekiston - Turkiya munosabatlari

Turkiya 1992-yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olib, ikki davlat o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgach, Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993-yil yanvarda esa O‘zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi. Istanbulda O‘zbekiston Respublikasining Bosh konsulxonasi ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1991-yil dekabr, 1994-yil iyun va 1997-yil noyabrda rasmiy tashrif bilan Turkiyada bo‘ldi. 1998-yil oktabrda Turkiya Respublikasining 75 yilligiga bag‘ishlangan tantanalarda ishtirok etdi.

O‘z navbatida, Turkiya Prezidentlari Turkiya O‘zal, S. Demirel va boshqa davlat arboblari bir necha bor rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldilar. Ana shu tashrif va muloqotlar natijasida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasida “Abadiy

do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida“gi shartnoma hamda siyosiy, savdo iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, harbiy va harbiytexnikaviy aloqalar, terrorizm va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, huquqiy yordam, sog‘liqni saklash, transport, sayyoxlik, madaniyat va boshqa sohalarda 78 hujjat imzolandi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2000-yil sentabrda Turkiya Prezidenti A. Sezer bilan BMTning „Ming yillik“ sammiti doirasidagi uchrashuvi ikki tomonlama aloqalarda muhim ahamiyat kasb etdi.

2003-yilda Turkiya Bosh vaziri Rajab Tayyip Erdo‘g‘on O‘zbekistonga keldi. Tashrif davomida yana bir qancha hujjat imzolandi. Jumladan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik va diplomatik pasport egalari uchun vizalarni bekor qilish haqida hukumatlararo bitim tuzildi.

O‘zaro aloqalar xalqaro tashkilotlar doirasida ikki davlatning parlamentlari va vazirliklari o‘rtasida ham davom etdi. Savdo iqtisodiy hamkorlik sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash, ikki tomonlama soliq solishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi bitimlar bilan muvofiqlashtirildi.

Ikki tomon o‘rtasida bojxona to‘lovlariga nisbatan eng ko‘p qulaylik berish tartibi kuchga kirishi tufayli 2002-yil O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi tovar aylanmasi 1,7 % o‘sib, 190,48 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Bugungi kunda Turkiya Respublikasi O‘zbekistonning asosiy tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biridir. Masalan, 2022-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 3,2 milliard dollarni tashkil etdi – O‘zbekiston tashqi savdosida bu Rossiya, Xitoy va Qozog‘istondan keyin 4-o‘rinni egalladi.

Turkiya O‘zbekistondan rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar, ip gazlama, trikotaj mato, paxta tolasi, oziq-ovqat (meva va yong‘oq) oladi va O‘zbekistonga mexanik uskunalar, yer osti transport vositalari, optik jihoz va uskunalar, mebel, elektr asboblar, plastmassa buyumlari, kimyoviy mahsulot, gilam va boshqa yuboradi.

Ayni paytda umumiy qiymati salkam 1 mlrd. AQSH dollariga teng bo‘lgan (bu mablag‘ning yarmini T. Eksimbanki bergan) 16 loyihani birgalikda amalga oshirishga kirishildi. Chunonchi jun yigirish, mayin jun matolar va shu kabilarni ishlab chiqarish.ga ixtisoslashgan „Kosonsoy Tekmen“ qo‘shma korxonasini barpo etish (loyiha qiymati 76 mln. AQSH dollari), Xorazm viloyatida trolleybus liniyasini qurish (loyiha qiymati 7,7 mln. AQSH dollari), shakar zdini qurish (loyiha qiymati 82,2 mln. AKTJJ dollari) kabi loyiqalar shular jumlasiga kiradi. O‘zbekistondagi bir qancha mehmonxonalarni qayta qurish va ta’mirlashda Turkiyaning “AySel”, “Ulus inshaat”, “O‘qan xolding”, “Emesam” firmalari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasida Turkiya sarmoyasi ishtirokidagi 1882 qo‘shma korxona bor, ulardan 765 tasi qo‘shma korxona va 1117 tasi xorijiy korxonalar hisoblanadi. Qo‘shma korxonalar orasida “SamKochavto” (avtobus va o‘rta hajmdagi yuk mashinalari ishlab chiqarish.), “Papfen” (paxta tolasidan ip yigirish), “Koxis” (savdovositachilik faoliyati, “MetroMarket“ supermarketa), “SharqMir LTD” (chakana savdo), “Mejik Plast” (plastik oyna romlari ishlab chiqarish.), yakka tartibdagi korxonalar orasida esa “Beta Algoritm” (choy qadoklash), “Dilek Interprayzis”, “Aylin gida sanai va anonim shirkati” (ikkovi qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish) eng yiriklari hisoblanadi.

Hamkorlikda tashkil etilgan korxonalarning 70 % ga yaqini respublika ichki bozorida savdovositachilik faoliyatini olib boradi, xalq iste’mol mollari ishlab chiqarish hamda texnik maqsadga mo‘ljallangan mahsulotlarni O‘zbekistonga kiritish va sotish bilan shug‘ullanadi.

25 % dan ziyod korxonalar esa to‘qimachilik va ko‘nchilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish mollari va boshqa soxalarda ishlab chiqarish. faoliyatini amalga oshiradi. Korxonalarning qolgan qismi xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Turkiyada o‘zbek sarmoyasi ishtirokida 2 korxona faoliyat ko‘rsatadi.

Qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi hamkorlik ham samaralidir. Chunonchi, xorijlik hamkorlar bilan birgalikda Orol dengizining qurigan Femida o‘rmonchilikni tashkil etish va kengaytirish bo‘yicha

amalga oshirilayotgan loyihada turk tomoni ham o‘zining ishtirok etishini bildirdi. Mazkur loyihani amalga oshirishga hissa qo‘shish uchun Turkiya 2 dona MB Trac 1100 Mersedes traktori va boshqa texnik jihozlar ajratdi.

Madaniy gumanitar sohadagi hamkorlik O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport va turizm sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (1991-yil 19 dekabr), madaniy aloqalar to‘g‘risida hamkorlik bitimi (1993-yil 22-iyul), ilmiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida bitim (1995-yil 9-iyul) asosida rivojlanib bormoqda.

1993-yil Turkiyada O‘zbekiston madaniyat kunlari o‘tkaziddi va unda respublikamizning 60 nafar madaniyat va san’at vakillari ishtirok etdi. 1994-yil oktabrda 48 kishidan iborat turkiyalik san’atkorlar guruxi „Turk dunyosi madaniyati va shodligi kunlari“ doirasida O‘zbekistonga tashrif buyurib, Toshkent va Samarqand shahrilarida konsertlar berdi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bilan Anqaradagi Bilkent universiteti o‘rtasida malaka oshirish, tajriba va mutaxassislar almashish, qo‘shma konsertlar tashkil etish borasida o‘zaro hamkorlik o‘rnatilgan. Samarqandda o‘tkazilayottan „Sharq taronalari“ xalqaro musiqa festivalida turkiyalik san’at ustalari ham muntazam qatnashib kelmoqdalar. O‘zbekistonda „O‘zbekistan- Turkiya“ do‘stlik jamiyati bu sohadagi ishlarga samarali hissa qo‘shmoqda.

Fan va texnika sohasida O‘zbekiston Fan va texnologiyalar markazi bilan Turkiyaning fan va texnik tadqiqotlar kengashi o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Keyingi yillarda o‘zbekistonlik olimlar yadro fizikasi, biologiya, ekologiya, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda Turkiya ilmiy markazlari tomonidan o‘tkaziladigan konferensiya va simpoziumlarda muntazam ishtirok etib kelishmoqda.

2018-yilda ikki davlat rahbarlari raisligida Turkiya-O‘zbekiston Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi tuzilib, uning birinchi yig’ilishi 2020-yil fevral oyida Anqarada, ikkinchi yig’ilishi 2022-yil mart oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan edi.

2023- yili O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiyaga ikki marta tashrif buyurgan edi. Prezident Rajab Toyyib Erdo‘g’an ham bir marta Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitida qatnashish uchun O‘zbekistonga tashrif buyurgan edi.

2023-yil dekabr oyida Anqara shahrida Turkiya-O‘zbekiston qo‘shma iqtisodiy komissiyasining 7-yig’ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Qo‘chqorov boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etgan yig‘ilishda mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo aloqalarida yangi davr boshlandi. 2016-yilda 1 milliard 242 million dollarni tashkil etgan o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2020-yilda 2,1 milliard dollarni, 2023-yilda esa 3,1 milliard dollarni tashkil etadi.

2016-yilgacha O‘zbekiston tashqi savdosida yetakchi besh davlatdan biri bo‘lgan Turkiya, o‘tgan yili 5 foizlik ulush bilan mamlakatning 4-savdo hamkori bo‘ldi.

Turkiyaning 2023-yilda O‘zbekistonga eksporti 6,4 foizga oshib, 1 milliard 851 million 200 dollarga, O‘zbekistondan importi esa 24 foizga kamayib, 1 milliard 248,5 million dollarga yetdi.

2017-yilda O‘zbekiston hukumati Turkiya fuqarolariga 3 kun muddatda viza berish to‘g’risidagi qarorni imzolagan bo‘lsa, 2018-yil fevral oyida Turkiya fuqarolari uchun 30 kunlik vizani bekor qilish tartibi joriy etilgan edi. Natijada ikki davlat fuqarolarining o‘zaro tashriflari ortib, 2016-yilda qariyb 150 ming kishi bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolarining Turkiyaga sayohat qilishlari soni 2023-yilda 500 mingga yaqinlashadi. 2016-yilgacha haftasiga 5 marta amalga oshirilgan ikki davlat o‘rtasidagi muntazam reyslar ham keyingi yillarda sezilarli darajada oshdi.

Aloqalar rivoji bilan ikki davlat aviakompaniyalari uchadigan yo‘nalishlar soni ortib, Istanbul-Toshkent reyslaridan tashqari Turkiyaning Anqara va Izmir shaharlari hamda Samarqandning tarixiy shaharlarini bog’lovchi reyslar tashkil etila boshlandi. O‘zbekistonda Buxoro, Urganch va Farg’ona.

Ayni paytda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida haftasiga 60 ta muntazam reyslar amalga oshirilmoqda va yozgi mavsumda ularning soni yanada oshishi kutilmoqda.

Nazorat va takrorlash uchun savollari

1. Turkiya Respublikasining jahon mamlakatlari orasida tutgan o‘rni?
2. Turkiya iqtisodiyotining asosiy kamchiliklari nimadan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasining Turkiya bilan tashqi savdo munosabatlari?
4. Turkiya iqtisodiyotida eksportning o‘rni?
5. O‘zbekiston - Turkiya qo‘shma korxonalari faoliyati.
6. Mamlakatning tashqi savdo aylanmasi va asosiy hamkor davlatlari?
7. Turkiya iqtisodiyotini industrialagrar mamlakat sifatida yoritib bering
8. Mamlakatning tabiiy resurslari tarkibi?
9. Turkiyada iqtisodiyotida turizmning tutgan o‘rni?
10. Turkiya iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi haqida ma’lumot bering.

XIII BOB. YAQIN SHARQ MINTAQASI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI

Janubiy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq, Afrika mintaqasidagi mamlakatlar bilan mavjud aloqalarni yanada kengaytirish, yangi va istiqbolli yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, keng mintaqalarni bog’lovchi va O‘zbekistonni jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo‘laklarini shakllantirish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi 92-maqsad

Tayanch iboralar: *Xalqaro Valyuta Jamg’armasi, to‘liq bandlik, hayot sifati indeksi, harbiy baza, iqtisodiy hamkorlik, eksport mahsulotlari, defolt, kredit bozori, fiskal konsolidatsiya, narx barqarorligi, moliyalashtirish, budjet taqchilligi.*

13.1. Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlarining xalqaro bozordagi o‘rni

Yaqin Sharq - Osiyoning g‘arbiy va janubiy-g‘arbiy hamda Afrikaning shimoliy - sharqiy qismidagi hududlarning nomi. Yaqin Sharqda *Misr, Sudan, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Iordaniya, Iroq, Isroil, Falastin, Kipr, Quvayt, Livan, Saudiya Arabistoni, Suriya, Turkiya, Ummon, Yaman, Qatar* kabi davlatlar va amirliklar joylashgan.

2017-yildan oldingi o‘n yil ichida Yaqin Sharq aholisi qariyb 100 millionga yoki 22 foizga oshdi. Arab davlatlari aholisi soni 83 millionga yoki chorakga oshdi, arab bo‘lmagan uchta davlat esa sekinroq o‘sdi. Isroil aholisining o‘sishi Yaqin Sharqdagi o‘rtacha ko‘rsatkichga yaqin edi. Demografik jihatdan eng yirik arab davlati bo‘lgan Misrda 20 million yoki qariyb 26 foizga ko‘paygan.

Respublikasi) ushbu davr mobaynida YaIM o‘sishida turli xil tebranishlarni boshdan kechirdi.

2018-2022- yillarda Markaziy Afrika mintaqasi mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, %

	2019-yil	**2020-yil**	**2021-yil**	**2022-yil**
Angola	-10,76	-31,59	37,12	60,56
Kamerun	-0,76	2,78	10,35	-3,00
Kongo Demokratik Respublikasi	8,85	-5,91	13,57	16,97

Shu bilan birga, Markaziy Afrika mintaqasi qator muammolarga duch kelmoqda va ularni hal qilish uchun davlatlar ham o‘zaro, ham xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilishlari zarur. Bunday yondashuv sarmoyaviy muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari, ular inson kapitalini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari, jumladan, ta’lim, sog’liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga ham katta e’tibor qaratishlari zarur.

Umuman olganda, Markaziy Afrika iqtisodiyoti o‘sish va rivojlanish uchun katta salohiyatga ega. Biroq uni amalga oshirish uchun resurslardan samarali foydalanish, hududdagi mavjud muammolarni hal etish zarur.

Shimoliy Afrika - Misr, Liviya, Marokash, Sudan, Tunis kabi mamlakatlarni o‘z ichiga olgan ulkan mintaqa.

Marokash va Misrda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi ko‘proq bo‘lgan Jazoirga nisbatan barqarorroq. Jazoir 2022-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘tgan yillarga nisbatan sezilarli o‘sishini ko‘rsatdi, bu esa mamlakat iqtisodiyotidagi ijobiy dinamikani ko‘rsatishi mumkin.

Shimoliy Afrika mamlakatlarida 2018-2022- yillarda YaIM o‘sishi, %

	2019-yil	**2020-yil**	**2021-yil**	**2022-yil**
Jazoir	-1,80	-15,15	12,16	19,29
Misr	21,36	20,44	10,64	12,26
Marokko	1,24	-5,87	16,86	-7,69

2019-yilda yalpi ichki mahsulotning 1,80% ga bir oz pasayishidan boshlab, Jazoir iqtisodiyoti 2020-yilda 15,15% ga katta qisqarishni boshdan kechirdi. Biroq, keyingi yillarda YaIM o‘sishi bilan ijobiy tendentsiya kuzatildi. Bu iqtisodiyotdagi aralash tendentsiyalarni, bir oz qisqarish va keyinchalik tiklanishni ko‘rsatadi.

Jazoirdan farqli o‘laroq, Misr ko‘rib chiqilayotgan davr mobaynida yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘sishini ko‘rsatdi. Eng yuqori o‘sish 2019 yilda qayd etilgan, shundan so‘ng o‘sish sur’ati biroz pasaygan.

Mamlakat Marokash. Marokashning dastlabki ikki yili yalpi ichki mahsulotning nisbatan kichik o‘sishi bilan ajralib turdi, ammo keyin 2021- yilda keskin o‘sish kuzatildi. Biroq, 2022- yilda yalpi ichki mahsulotning pasayishi kuzatilmoqda, bu esa ba’zi iqtisodiy qiyinchiliklardan dalolat beradi.

Umuman olganda, jadval Shimoliy Afrika mintaqasi iqtisodiyoti turli o‘sish va pasayish tendentsiyalarini boshdan kechirayotganini ko‘rsatadi. Ushbu tebranishlar turli omillar, jumladan, siyosiy barqarorlik, investitsiya muhiti va mintaqadagi umumiy iqtisodiy sharoitlarga bog’liq bo‘lishi mumkin.

4. Sharqiy Afrika 17 mamlakatni o‘z ichiga olgan juda xilma-xil mintaqadir. Bu mamlakatlarning har birining iqtisodiyoti o‘ziga xos va o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish uchun Efiopiya, Keniya va Tanzaniya kabi davlatlar olindi.

Ko‘rib chiqilayotgan barcha uch mamlakat (Efiopiya, Keniya, Tanzaniya) 2018-yildan 2022-yilgacha YaIM o‘sishining ijobiy dinamikasini namoyish etmoqda.

Efiopiya uch mamlakat orasida eng yuqori YaIMga ega va ko‘rib chiqilayotgan davr mobaynida barqaror o‘sishni ko‘rsatdi. Keniya va Tanzaniya ham ijobiy yalpi ichki mahsulot o‘sishini ko‘rsatmoqda, ammo ularning o‘sish sur’atlari Efiopiyadan biroz pastroq bo‘lishi mumkin.

2018-2022- yillar uchun Afrikaning Sharqiy mintaqasi mamlakatlarida YaIMning o‘sishi. %

	2019-yil	**2020-yil**	**2021-yil**	**2022-yil**
Efiopiya	13,82	12,25	3,35	13,95
Keniya	8,87	0,28	8,99	3,39
Tanzaniya	7,06	8,26	6,94	7,19

Ushbu ma’lumotlar Afrikaning Sharqiy mintaqasi mamlakatlarida ko‘rib chiqilayotgan davrda iqtisodiy o‘sishning turli dinamikasini ko‘rsatadi, bu turli xil ichki va tashqi omillar, masalan, investitsion muhit, siyosiy barqarorlik, jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar bilan bog’liq bo‘lishi mumkin.

Muammolarni hal qilish uchun Sharqiy Afrika hukumatlari birgalikda ishlashi va infratuzilmani rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilishlari nazarda tutilgan.

Umuman olganda, Sharqiy Afrika iqtisodiyoti o‘sish va rivojlanish uchun sezilarli salohiyatga ega, ammo uni amalga oshirish mintaqa hukumatlarining sa’y-harakatlarini va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni talab qiladi.

Demak, Afrikaning har bir mintaqasi iqtisodiyoti rivojlanish uchun ulkan salohiyatga ega, ammo uni amalga oshirish uchun ko‘plab to‘siqlarni engib o‘tish va bir qator muammolarni hal qilish kerak. Faqat qit’a mamlakatlari va xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi sa’y-

harakatlari orqali Afrikaning barqaror rivojlanishi va aholisining turmush darajasini yaxshilashga erishish mumkin.

16.3. Janubiy Afrika Respublikasi iqtisodiyoti

Janubiy Afrika Respublikasi (JAR)- Afrika janubdagi mamlakat. **Janubiy Afrika iqtisodiyoti** aralash iqtisodiyot , rivojlanayotgan bozor va yuqori o‘rta daromadli iqtisodiyot. Iqtisodiyot Afrikadagi eng sanoatlashgan, texnologik jihatdan rivojlangan va diversifikatsiyalangan.

Maydoni 1221 ming km². Aholisi 60 mln. kishidan ortiq (2021-yil). Janubiy Afrika qit’adagi eng rivojlangan respublikadir. 2022- yil uchun yalpi ichki mahsulot XVF ma’lumotlariga ko‘ra 405,7 milliard dollarni tashkil etdi (dunyoda 33-o‘rin). Aholi jon boshiga ushbu ko‘rsatkich 2022-yilda 6019 USDni tashkil etdi.

Janubiy Afrika Respublikasi - federalizm nishonalari bo‘lgan unitar respublika. Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlik tarkibiga kiradi. 1997-yil 4-fevraldan kuchga kirgan konstitutsiya amal qiladi. Davlat boshlig‘i - prezident.

Mamlakat bozori faol ravishda kengayib borayotganiga qaramay, hanuzgacha dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga kirmaydi. U juda katta tabiiy resurslarga ega. Telekommunikatsiya, elektr energetikasi, moliya sektori keng rivojlangan. 2019- yilning 1-choragi holatiga ko‘ra, Janubiy Afrika barcha Afrika mamlakatlari orasida eng yuqori o‘rtacha ish haqiga ega.

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari - ishlab chiqaruvchi sanoat (yalpi ichki mahsulotning 22,6 %), konchilik sanoati (13 %), moliya (15,21 %), savdo va sayyoxlik industriyasi (11,52 %), transport va aloqa (9,11 %), qishloq xo‘jaligi (5 %) va baliqchilik (4,7 %). Xizmat ko‘rsatish sohasi, neft va gaz qazib olish hamda qayta ishlashni istiqbolli sohalar qatoriga qo‘shish mumkin.

Bu muvaffaqiyat boy xomashyo bazasi, qazib olingan yer resurslarining keng assortimenti, keng ilg’or texnologik baza va ancha arzon malakali va malakasiz ishchi kuchi bozori mavjudligi bilan bog’liq. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini tiklashning asosiy

yo‘nalishlari tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirish bilan birga inflyatsiya sur’atlarini sekinlashtirish, davlat moliya tizimini mustahkamlash va tashqi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtirishga yordam bergan iqtisodiy siyosatdir.

Mamlakatda bank va sug’urta xizmatlarining ravshanligi va ishonchliligi bilan ajralib turadigan qulay moliyaviy va sarmoyaviy muhit mavjud. Investorlarni jalb qilish qonun bilan qo‘llab-quvvatlanadi. To‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalarga bo‘lgan qiziqish Janubiy Afrika hukumatini istiqbolli xorijiy investorlarga 100% ulushga ega bo‘lgan korxonalarni yaratishga, investorlarga Afrika mamlakatlari va Hind okeani mintaqasi bozorlariga kirishni ta’minlashga, nisbatan arzon elektr energiyasini ta’minlashga va tabiiy resurslardan erkin foydalanishga ruxsat berishga majbur qildi.

Mamlakatda xorijiy va mahalliy investorlar uchun narxlar, korxonalar kapitali miqdori, foyda va dividendlar eksporti va boshqalar bo‘yicha cheklovlarsiz bir xil huquqiy sharoitlar yaratilgan. JAR iqtisodiyotiga sarmoya kiritishning eng ommabop yo‘nalishlari telekommunikatsiya sohasi, energetika, yengil sanoat va avtomobilsozlik. Asosiy investorlar: AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Malayziya.

Janubiy Afrika iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari moliya sektori, ko‘chmas mulk, ishlab chiqarish, ulgurji va chakana savdo, mehmonxona va restoran biznesi, transport va aloqa, konchilik, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligi, qurilish, energetika, mashinasozlik, metallurgiya, telekommunikatsiyalardir.

Sanoati. Janubiy Afrika Respublikasi oltin (yiliga o‘rtacha 530 t dan ko‘proq), platina metallari guruxi (100 t ga yaqin), vanadiy, xrom va marganets rudalari, surma, olmos qazib olishda dunyoda oldingi o‘rinlarda, ko‘mir qazib chiqarishda 5-o‘rin, uran qazib chiqarishda 7-o‘rinda turadi.

Temir rudasi, mis, asbest va boshqa ham qazib olinadi. Yiliga o‘rtacha 170 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Qora

metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, neftni qayta ishlash, sement, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati rivojlangan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotining deyarli hammasi oq tanlilarga qarashli fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi. Asosiy ekinlari: makkajo‘xori (7,7 mln. tonna, 1999), shakarqamish (21 mln. tonna), bug‘doy (1,5 mln. tonna), kartoshka, tamaki, sitrus va boshqa mevalar. Mamlakat hududining taxminan 80 % (98 mln. gektar)dan qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun foydalaniladi. Qariyb 1,4 mln. gektar yer sug‘oriladi.

Ekinlarni sug‘orish uchun Vaal, Ulifants, Krokodayl, GreytFish va boshqa daryolardan suv olinadi. Chorvachilikda qoramol, qo‘y, echki, cho‘chqa boqiladi. Qo‘y juni yetishtirishda mamlakat faqat Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentinadan keyingi o‘rinda turadi. Sut chorvachiligi asosan yirik shaharlar atrofida.

Tabiiy resurslari. 2019- yilda mamlakat dunyodagi eng yirik platina ishlab chiqaruvchisi bo‘ldi; dunyodagi eng yirik xrom ishlab chiqaruvchisi; marganetsning dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchisi; titan ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda turadi; oltin qazib olish bo‘yicha dunyoda 11-o‘rinda turadi; vanadiyning jahon bo‘yicha uchinchi ishlab chiqaruvchisi; temir rudasi bo‘yicha dunyoda 6-o‘rinda turadi; kobalt ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 11-o‘rinda turadi va fosfat ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 15-o‘rinda turadi. 2018-yilda uran qazib olish bo‘yicha dunyoda 12-o‘rinni egalladi.

Janubiy Afrika tog’-kon va foydali qazilmalarni qayta ishlash bo‘yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biridir.

Neft va neft mahsulotlari portlardan asosiy sanoat markazlariga quvurlar orqali oqiziladi. Dengiz floti rivojlangan. Eng muhim portlari: Durban, Keyptaun, Port-Elizabet, IstLondon. 3 ta xalqaro aeroport bor.

Tashqi savdo aylanmasi yiliga 40 mlrd. AQSH dollaridan oshadi. Chetdan asosan mashina va asbob-uskunalar sotib oladi, chetga mineral va qishloq xo‘jaligi xom ashyosi, olmos va metallar, kimyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari chiqaradi. Janubiy Afrika Respublikasi jun eksport qilishda dunyoda 4-o‘rinda turadi. Yiliga salkam 70 mln. litr

vino eksport qiladi. Tashqi savdodagi asosiy mijozlari: AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Shveysariya.

Janubiy Afrika har yili 8.070.000 million sayyohni qabul qiladi. Bu yerda madaniy turizmni uning asosiy shaharlarida (Pretoriya, Bloemfontein va Keyptaun) amalga oshiriladi, ammo aksariyat sayyohlar bu yerga turli xil milliy bog'lar va tabiat bo'ylab ekskursiyalar va safarlar uchun tashrif buyurishadi.

16.4. Misr mamlakati iqtisodiyotining rivojlanishi

Misr Arab Respublikasi Afrikaning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan davlatdir. Maydoni 1 million 14 ming km². Aholisi 102 million kishi. 2022-yilda Misr yalpi ichki mahsuloti 476,75 milliard dollargacha ko'tarildi. Aholi jon boshiga ushbu ko'rsatkich 4089 USDni tashkil etdi.

Misr - agrar-industrial mamlakat. Jahon bozoriga yuqori sifatli uzun tolali paxta va undan to'qilgan gazlamalarni ko'p miqdorda yetkazib beradi. XIX asr 70-yillar oxiri 80-yillar boshlarida neft qazib olish va eksport qilish kupaya boshladi. Iqtisodiy taraqqiyotga, ayniqsa, sanoat va unga ko'maklashuvchi tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor kuchaydi. 90-yillarning o'rtalarida yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 28,5 %, qishloq xo'jaligi ulushi 20 % ga yetdi.

Sanoati mustaqillikka erishgunga qadar, asosan, mayda hunarmandchilik korxonalaridan iborat edi. Iskandariyada neftni qayta ishlovchi, avtomobil shinalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, Suvaysh-Qohira neft quvuri mavjud. 1952-yildan beri 1000 dan ortiq yangi sanoat obyektlari ishga tushirildi.

Sanoat korxonalari, asosan, Qohira, Iskandariya va Nil deltasidagi boshqa yirik shaharlarda joylashgan. 1958-yilda Qohira yaqinida qurilgan Hulvon metallurgiya zavodi mamlakatning dastlabki yirik metallurgiya korxonalaridandir. Bu zavod Asvon yaqinidan qazib olingan sifatli temir (40-60 %) rudasi asosida ishlaydi.

Asvon shahrida yiliga 300 ming tonna po'lat ishlab chiqaradigan metallurgiya markazi bor. Mashinasozlik sanoati ham qayta qurilgan. Mostorodda elektr kabellari zavodi va metall buyumlar ishlab chiqarish

fabikasi, Hulvonda va-gonsozlik, avtomobil, po‘lat quvurlar zavodlari, Iskandariyada to‘qimachilik sanoati uskunalari zavodi, Qohirada velosiped va televizor zavodlari, Port-Fuod, Iskandariyada kemasozlik korxonalari, keyingi yillarda ishga tushirilgan avtomobil, traktor, sovitkich, metall qirqish stanoklari ishlab chiqaruvchi korxonalar ham bor.

Suvaysh, Qohira, Iskandariya, Tanta shaharlari neftni qayta ishlash markazlaridir. Kimyo sanoati faqat mineral o‘g‘it ishlab chiqarishdan iborat. Kafr-uzzayyat va Abuza’baldagi zavodlar yiliga 200 ming tonna superfosfat ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Asyutda yiliga 200 ming tonna superfosfat chiqaradigan zavod mavjud. Abuza’balda qurilgan antibiotiklar zavodi farmatsevtika sanoatiga asos soldi. Yana 5 farmatsevtika korxonasi qurildi. Bulardan tashqari, Asvonda kalsiy, Suvayshda ammoniy sulfat, Iskandariya yonida soda zavodlari, Xulvonda koks kimyo zavodi bor. Qurilish ashyolari sanoati korxonalari Hulvon, Al-Ma’sara, Al-Tur va Iskandariya atroflarida bo‘lib, asosan, sement ishlab chiqaradi. Yirik to‘qimachilik korxonalari AlMahallat-ul-Kubro, Kafr-ud-Davvar va Kafr-uzzayyat shaharlaridadir.

Oziq-ovqat sanoati qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlaydi. Armant, Ko‘m-Umbo‘, Adfu shaharlarida yirik qand zavodlari bor. Asvon gidroenergetika majmuiga kiruvchi elektr styalar va yoqilg‘i bilan ishlaydigan elektr styalar yiliga o‘rtacha 525 mlrd. kVtsoatdan ortiq elektr energiya ishlab chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i - dehqonchilik. Qishloq xo‘jaligi, asosan, Nil deltasi va vodiysida rivojlangan, bu yerda 3 mln. gektarga yaqin (mamlakat hududining 3 %) maydonda yiliga 2-marta, Asvon to‘g‘oni qurilgandan beri 3-marta (qishda ham) ekin ekib, hosil olinadi. Birinchi navbatda ko‘proq daromad keltiradigan sholikorlik va paxtachilik (ingichka tolali paxta tayyorlash bo‘yicha dunyoda 1-o‘rin) rivojlangan.

Bundan tashqari, bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, dukkaklilar va sabzavot, shakarqamish, xashaki ekinlar ekiladi. Sitrus mevalar

(apelsin, mandarin, limon), xurmo, banan, anjir, uzum, asosan, mamlakat shimolda yetishtiriladi.

Tabiiy yaylov va yem-xashak kamligi sababli chorvachilik yaxshi rivojlanmagan. O‘troq aholi (dehqonchilik vohalarida) qoramol (sut uchun), qo‘y, echki va xonaki parranda, ko‘chmanchilar esa tuya, qo‘y va echki boqadi. Asal-arichilik rivojlangan. Nil daryosi va ichki ko‘llarda, shuningdek, O‘rta dengizda baliq ovlanadi.

Turizm. Turizm Misrning asosiy daromad manbalaridan biridir, shuning uchun davlat ushbu sanoatni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Dengiz sohillarida, Sharm al-Shayx, Xurgada va boshqalar kurort shaharlarida kurort majmualari jadal qurilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda.

Misrda turli davr va sivilizatsiya yodgorliklari mavjud: qadimgi misrlik, nasroniy (kopt), o‘rta asr arablari.

Misr Jahon sayyohlik tashkilotiga taqdim etgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 - yilda mamlakatga 8 million sayyoh tashrif buyurgan. 2022 - yil oxirida Misrga xorijiy oqim 40 foizlik o‘sib, qariyb 11 million kishini tashkil etdi va bu soha 10,7 milliard dollar pul tushumini ta’minladi.

Misr Turizm vazirligining xabar berishicha, 2022- yilda Misrga kelgan eng ko‘p mehmonlar Sharqiy Yevropadan kelgan - 50,6 foiz.

O‘zbekiston-Misr munosabatlari BMTga a’zo ikki davlat – O‘zbekiston Respublikasi va Misr Arab Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlardir. Har ikki davlat bir-birini mustaqil davlat va jahon hamjamiyatining to‘laqonli a’zosi sifatida tan oladi. Misr 1992-yil 23-yanvarda O‘zbekiston bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan to‘rtinchi davlat bo‘ldi.

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar azaldan iliq va do‘stona munosabatda bo‘lib kelgan. Misr O‘zbekistonning Afrikadagi eng yirik siyosiy va iqtisodiy hamkoridir. Misr uchun O‘zbekiston, o‘z navbatida, Markaziy Osiyodagi eng yirik hamkor hisoblanadi.

Misr Arab Respublikasi elchixonasi O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrida, O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi esa Misr poytaxti Qohira shahrida joylashgan. O‘zbekistonning Qohiradagi

elchixonasi O‘zbekistonning Afrika qit’asidagi eng yirik diplomatik vakolatxonasi hisoblanadi.

Mamlakatlar Qo‘shilmaslik harakati, Islom hamkorlik tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi xalqaro tashkilotlarga a’zodir.

1997-yilda O‘zbekistonda “O‘zbekiston-Misr” do‘stlik jamiyati, 2000-yil may oyidan Misrda “Misr-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsata boshladi. O‘zbekiston Misr Arab Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Hamkorlikni rivojlantirish agentligi bilan ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. 1993 - yildan buyon ushbu agentlik qoshidagi diplomatlar, turizm xodimlari, arab tili o‘qituvchilari va boshqa sohalar kurslarida O‘zbekistonning 1100 dan ortiq vakillari tahsil oldi. O‘zbekistonning ko‘plab fuqarolari Misrdagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olgan va tahsil olmoqda.

Bunga ikki mamlakat xalqlarining tarixiy va ma’naviy yaqinligi hamda o‘zaro munosabatlarning 60 ga yaqin hujjatdan iborat mustahkam shartnomaviy-huquqiy bazasi asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Misr Prezidenti Abdulfattoh As-Sisining 2018-yil 4-5-sentyabr kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralari tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi.

Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida samimiy va ishonchli siyosiy muloqot o‘rnatilgan va u turli shakldagi tadbirlar doirasida izchil qo‘llab-quvvatlab kelinyapti. Xususan, ular o‘tgan yil fevral oyida Pekin shahrida Qishki Olimpiya o‘yinlarining tantanali ochilish marosimi doirasida uchrashgan edilar.

So‘nggi yillarda mamlakatlarimiz parlamentlari, vazirlik va idoralari, ishbilarmon doiralari vakillari o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Xususan, O‘zbekiston va Misr parlamentlarida do‘stlik guruhlari faoliyat ko‘rsatyapti, tashqi ishlar vazirliklararo muntazam siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmi yaratilgan. O‘zbekiston-Misr qo‘shma komissiyasi va O‘zbekiston-Misr ishbilarmonlar kengashi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha sa’y-harakatlarni amalga oshirib kelyapti.

Shu bilan birga, O‘zbekiston va Misr BMT, Islom hamkorlik tashkiloti, Arab davlatlari ligasi, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar doirasida samarali munosabatlar o‘rnatgan bo‘lib, bir-birining tashabbuslarini o‘zaro qo‘llab-quvvatlayapti. Ko‘pgina xalqaro masalalar bo‘yicha mamlakatlarning pozitsiyalari va yondoshuvlari o‘xshash yoki yaqindir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda bo‘lgani kabi Misrda ham keng ko‘lamli demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgani va mazkur jarayonlar barqaror va tinch taraqqiyotga, o‘z xalqlarining farovonligini yuksaltirishga intilayotgan mamlakatlarni birlashtiruvchi omil bo‘layotganini ta’kidlash lozim.

Shu nuqtayi nazardan ko‘p qirrali O‘zbekiston-Misr munosabatlarini rivojlantirishda savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Ikki davlat ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish uchun salmoqli salohiyatga ega hamda ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanishdan manfaatdordir. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Misr ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida muntazam o‘tkazib kelinayotgan biznes-forumlar, tadbirkorlar delegatsiyalarining ikki tomonlama tashriflari yakunlari hamda o‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari ham bundan dalolat beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Misr kapitali ishtirokidagi 12 ta korxona tashkil etilgan. Ular qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat, farmatsevtika va boshqa sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelyapti.

O‘zbekistonda yaratilgan qulay muhit sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, Misrning “Solyphar” kompaniyasi bilan birgalikda Toshkent viloyatidagi “Bo‘stonlik-farm” erkin iqtisodiy zonasida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi zavod qurish loyihasi amalga oshirilyapti.

Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida “One World Pharma” va “Kapo Agri” kompaniyalari bilan hamkorlikda “C” gepatitiga qarshi va baliqchilik sohasi uchun dori vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish ishlari olib borilyapti. Misrning “Orascom Telecommunications and Construction”, “Al Madani Construction”, “One World”, “Toshiba-Al-

Arabi”, “Al Suwaidi Electrics” va boshqa yirik kompaniyalari O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishdan manfaatdor ekanini bildiryapti.

Savdo sohasidagi imkoniyatlar doirasi ham juda keng. O‘zbekiston Misr bozorida talab yuqori bo‘lgan elektrotexnika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, yengil, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va boshqa tovarlarni eksport qilishi mumkin. O‘z navbatida, Misr mamlakatimizga dori-darmon, tibbiy asbob-uskunalar, mebel, marmar, neft-kimyo va charm-plastmassa mahsulotlari, turli xizmatlar yetkazib berish imkoniyatiga ega.

Misr turizm sohasida katta salohiyat va tajribaga ega davlat. O‘zbekiston esa o‘zining qadimiy shaharlari va islom qadamjolari bilan dunyoga mashhur. 2018-yil sentyabr oyida imzolangan turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim ushbu yo‘nalishdagi munosabatlarni izchil rivojlantirishga yangi sur’at bag‘ishlashda ishonchli asos bo‘ldi. Ayni paytda Misr bunday munosabatlarni faollashtirishdan manfaatdor.

Misrlik turoperatorlar O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan xalqaro sayyohlik yarmarkalarining an’anaviy ishtirokchilari hisoblanadi. Xususan, 2019-yil fevral oyida Buxoroda bo‘lib o‘tgan Ziyorat turizmi bo‘yicha birinchi xalqaro forum, shuningdek, 2022-yil noyabr oyida Samarqand shahrida o‘tkazilgan Ziyorat turizmi haftaligida Misr yuqori darajadagi vakillarining ishtirokini alohida ta’kidlash joiz.

Davlatimiz rahbari Misr Prezidenti Abdulfattoh As-Sisining taklifiga binoan 2023- yilning 20-21 fevral kunlari ushbu mamalakatda rasmiy tashrif bilan bo‘ldi. Ta’kidlanganidek, tomonlar jurnalistika, turizm hamda aniq fanlar yo‘nalishlarida ta’lim beruvchi misrlik mutaxassislarni O‘zbekistonga jalb qilish masalasiga kelishib oldilar. Shuningdek, O‘zbekiston Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vaziri hamda Misr Oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar vaziri hamkorlikdagi 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi loyihasini muhokama qilib, imzolashga kelishdilar.

Nazorat va takrorlash uchun savollari

1. Afrika mamlakatlarida ta’lim darajasi?
2. Afrika mintaqasi tabiiy resurslari?
3. Afrika Ittifoqi to‘g’risida ma’lumot bering.
4. Afrikadagi ichi ziddiyatlar nimalardan iborat?
5. Janubiy Afrika Respublikasi sanoati?
6. Misr iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni?
7. Misr hamda O‘zbekiston davlatlarining o‘zaro munosabatlari?
8. Misrda turizm va uning rivojlanishi to‘g’risida ma’lumot bering.
9. Janubiy Afrika tabiiy resurslari hamda tog’-kon sanoati?
10. Janubiy Afrika iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari haqida ma’lumot bering.

GLOSSARIY

“Aqlli kishilarning ketib qolishi”	Утечка мозгов	“Brain drain”	mamlakatning intellektual salohiyatli vakillarini chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.
Aksiya	Акция	Stock	qimmatbaho qog’oz
Assotsiatsiya	Ассоциация	Association	xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyoriy birlashmasi.
Bandlik	Занятость	Employment	mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg’ul bo‘lishi
Bankrot	Банкрот	Bancrupt	to‘lovlar majburiyatini bajara olmaslik
Bojxona ittifoqi	таможенный союз	The Customs Union	ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan tarif siyosati
Bojxona tarifi	таможенный тариф	customs tariff	tovar oqimlarining chegarani kesib o‘tishida davlat tomonidan undiriladigan to‘lov

Bozor	Рынок	The market	Sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi mahsulot sotish va xarid qilish bo‘yicha erkin munosabatlar tizimi
Byudjet defitsiti	Бюджетный дефицит	budget deficit	byudjet xarajatlarining daromadlaridan oshib ketishi
Daromad	Доход	The income	tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat natijasida pul yoki natura shaklida olinadigan mablag’lar
Davlat byudjeti	Госбюджет	State budget	davlat daromadlari va sarfarining moliyaviy rejasi.
Defyatsiya	Дефляция	deflation	Inflyastiya davrida muomaladagi qog’oz pulni kamaytirish
Demografik portlash	Демографический Взрыв	The demographic explosion	Jahonning kam rivojlangan va kambagal mamlakatlarida nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada aholi sonining o‘sishi.

Diversifikatsiya	Диверсифицировать	diversify	Tadbirkorlik faoliyati turini kengaytirish va o‘zgartirish
Eksport	Экспорт	export	Tovarlarni xorij bozorlarida sotish
embargo	Эмбарго	Embargo	Alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta’qiqlash.
Erkin iqtisodiy hudud	Зона свободной торговли	free trade zone	Xorijiy tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari joriy etilgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish joylari.
Fond bozori	фондовый рынок	Stock market	qimmatli qog’ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari
Franchayzing	Франчайзинг	franchising	bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.
Infyatsiya	Инфляции	inflation rate	ma’lum vaqt ichida narxlar darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Innovatsion texnologiyalar	инновационные технологии	innovative technologies	iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo‘llaniluvchi usul va vositalar majmui
Investitsion kreditlar	инвестиционный кредит	investment credit	ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizastiyalash
Investitsiya	Инвестиция	The investment	Foyda olish maqsadidagi pul qo‘yilmalarini yo‘naltirish
Investitsiya muhiti	инвестиционный климат	Инвести цион ный климат	Foyda olish jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi omillar
Investor	Инвестор	investor	Tadbirkorlik faoliyatifagi kapital qo‘yilmalarning egasi
Iqtisodiy integratsiya	экономическая интеграция	economic integration	Iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida mamlakatlar, jamiyatlar bilan birlashish

Iqtisodiy ittifoq	экономический союз	economic alliance	iqtisodiy integratsiyaning oliy ko‘rinishi
Iqtisodiy o‘sish	Экономический Рост	Economic growth	yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga o‘sishi
Iqtisodiy resurslar	Экономические Ресурсы	Economic resources	tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda foydalaniladiga barcha vositalar
Iqtisodiyot	Экономика	Economy	Resurslardan samarali va havfsiz foydalanish
Ishlab chiqarish	Производство	Manufacture	Mahsulotni ko‘zda tutilgan texnologiyalar asosida yaratish
Jahon banki	Всемирный банк	The World Bank	birinchi davlatlararo investitsiya institutidir
Jahon bozori	мировой рынок	World market	Qit’alararo bozor
Kartel	Картель	cartel	tashqi savdo assostiastiyasi
Kon’yunktura	Конъюнктура	Conjuncture	bozor mexanizmi sharoitlarida rivojlanishning qonuniyatlari davlat tomonidan tartibga solinishi

Korporatsiya	Корпорация	Corporation	Tadbirkorliq maqsadidagi ilkan masshtabli komaniyalar
Modernizatsiya	Модернизация	Moderniza tion	takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me’yorlarga moslashtirsh
Moliya bozori	Финансовый рынок	The financial market	moliya mablag’larini vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni yo‘naltirish
Moliya-bank tizimi	Финансовая и банковская система	Financial and banking system	Xalqaro institutlar tominidan ishlab chiqilgan siyosat
Preferensiya	Предпочтения	preferences	korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, alzallik va ustuvorliklar
Proteksionizm	Протекционизм	protectionism	davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati
Pul - kredit siyosati	Денежно-кредитная политика	Monetary and Credit Policy	pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta’minlash uchun amalga oshiriladigan siyosat

Tashqi qarz	внешний долг	external debt	mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag’larining hajmi
Tashqi savdo	внешнеторговый	Foreign trade	bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi
Tashqi savdo siyosati	Политика внешней торговли	Foreign Trade Policy	bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi)
Texnologiya	Технология	Technology	tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish to‘g’risidagi amaliy bilimlar.
To‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar	Прямые инвестиции	Direct investments	foyda olish bilan birgalikda kapital ko‘yilayotgan ob’ekt ustidan nazoratni ta’minlash huquqini beruvchi kapital
Umumiy bozor	общий рынок	The total market	erkin ko‘chib o‘tishi ta’minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko‘rinishi.

Valyuta	Валюта	currency	qonun bilan o‘rnatilgan pul vositasi bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valyutasi
Xalqaro kooperatsiyasi	международное кооперация	International cooperation	ishlab chiqarish bosqichlarining o‘zaro bir-birini muvofiqlashtirish maqsadida milliy
Xalqaro iqtisodiy munosabatlar	Международные экономические отношения	International Economic Relations	mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari tizimi.
Xalqaro ixtisoslashuv	Международная Специализация	International specialization	mamlakatlar o‘rtasidagi mexnat taqsimoti ko‘rinishi bo‘lib, bir sohaning yuqori imkoniyatlarini iqtisodiy faoliyatga jalb qilish.
Xalqaro tashkilotlar	международные организации	international organizations	BMTning ta’siri ostida kelshilgan maqsad asosida qit’zlararo faoliyat yuritish
Xalqaro tranzit	международный транзит	international transit	Qit’alararo mamlakatlar hududidan yuklar logistikasi

Xalqaro valyuta jamg’armasi	Международный валютный фонд (МВФ)	International Monetary Fund (IMF)	BMTga a’zo mamlakatlarga iqtisodiy va texnik-texnologik rivojlantirish maqsadida yordamlar
Xizmat ko‘rsatish sohasi	сектор услуг	Service sector	Tannarxi mavjud bo‘lmagan faoliyat turi bo‘lib yuqori foyda keltiradi
Yalpi ichki mahsulot	Валовой внутренний продукт	Gross domestic product	Mamlakatda bir yilda ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati
Yangi industrial mamlakatlar	Новые индустриальные страны	New industrial countries	Iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023 yil 1 may.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g’risida”gi Qonuni, 1990 yil 31 oktabr.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi suyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g’risida”gi Qonuni, 1998 yil 24 dekabr.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 2023 yil 1 may.

1.5. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g’risida”gi Qonuni, 2019 yil 29 oktabr.

1.6. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g’risida”gi O‘RQ-395-sonli Qonuni, 2019 yil 28 sentyabr.

1.7. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g’risida”gi Qonuni, 2019 yil 19 iyun.

1.8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni, 2020 yil 23 sentyabr.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining Farmonlari va Qarorlari

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 feraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi Farmoni.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-1112-sonli Qarori.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 sentyabrdagi “2019 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi Farmoni.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi” to‘g’risidagi” 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi Farmoni.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni.

2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni.

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi o‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to‘g’risidagi va o‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti to‘g’risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” Qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va Prezident Sh.M.Mirziyoevning asarlari va ma’ruzalari

3.1. Karimov I.A. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir”./Islom Abdug’anievich Karimov –T. 19. –T.: “O‘zbekiston” 2011.-360-bet.

3.2. Karimov I.A. “Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir” ./Islom Abdug’anievich Karimov –T. 20. –T.: “O‘zbekiston” 2012. –B. 320.

3.3. Karimov I.A. “Mamlakatimizni yanada ozod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida” ./Islom Abdug’anievich Karimov –T. 21. –T.: “O‘zbekiston” 2013.–B. 384.

3.4. Karimov I.A. “Demokratik islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikning ustuvorligini ta’minlashga keng yo‘l ochib berish – Vatanimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida hal qiluvchi omildir”. ./Islom Abdug’anievich Karimov –T. 24. –T.: “O‘zbekiston” 2016. –B. 376.

3.5. Karimov I.A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”. /Islom Abdug’anievich Karimov. –T.: “O‘zbekiston” 1995. –B. 269.

3.6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.//Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.//Xalq so‘zi” gazetasi. 2016 yil 15 dekabr.

3.7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –B. 488.

3.8. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-J. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –B. 592.

IV. Ilmiy monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklar

4.1. Абдукаримов Б.А ва бошқ. Савдо иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. I–қисм.–Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013.

4.2. Абдуллаев Ё.А.ва бошқалар. Статистика: – Т., 2011. –Б. 256.

4.3. Абдуллаев Ё.А. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари - Т.: Меҳнат, 2000.-352 б.;

4.4. Адукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик, II қисм Т.: «Фан ва технология». 2008.

4.5. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Дарслик – Т.: Меҳнат. 2009. –Б. 667.

4.6. Абдурахмонов Қ.Х., Бекмуродов А.Ш. ва бошқалар. Инсон тараққиёти. Дарслик. – Т.: “Фан ва технология”, 2013. –Б. 207.

4.7. Абдураҳмонов Х.Х., Арабов Холмухамедов М.М. Аҳоли даромадлари ва турмуш сифати. Ўқув қўлланма. Т.: “Тафаккур бўстони”. 2014. 242 б.

4.8. Адамчук В.В., Ромашов О.В., Сорокина М.Е. Экономика и социология труда. – М.: ЮНИТИ, 1999. –С. 407.

4.9. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник/ Под общей ред, д.э.н., проф, А.В. Сидоровича; МГУ им. М.В.Ломоносова.-4-е изд., перераб и доп.-М.: Дело и Сервис, 2007.–С. 214.

4.10. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.-Т.: “Abu matbuot-konsalt” 2017.-344-бет.

4.11. Абалкин Л.И. Экономическая энциклопедия. /Гл. ред.– М., 1999. С. 271.

4.12. Адам Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Отв. ред. Абалкин А.И.- М.: Наука, 1980.- 527с

4.13. Булатова А.С., Волков А.М., Габарта А.А., Галишева Н.В., Мировая экономика и международные экономические отношения. Полный М64 курс: учебник/коллектив авторов; под ред.– 3-еизд., стер. – Москва: КНОКУР, 2017. – 916 с. – (Бакалавриат).

4.14. Галина Маховика, Елена Павлова. Внешнеэкономическая деятельность: учебный курс. – М.: ЭКСМО, 2017.

4.15. Дятлов С.А. Рабочая сила в системе рыночных отношений. –СПб.: СПбУЭФ, 2005.

4.16. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономическая теория. - М., Юнити, 2002. - С. 21.

4.17. Ильинский И.В. Инвестиции в будущее: образование в инвестиционном воспроизводстве. –СПб.: СПбУЭФ, 1996. - С.127.

4.18. Капелюшников Р.И. Экономический подход Гэри Беккера к человеческо - му поведению // США: экономика, политика, идеология. - 1993. - №11.

4.19. Костюк В.Н. Теория эволюции и социоэкономические процессы. – М.: УРСС, 2004.- С.126.

4.20. Корчагин Ю. А. Инвестиционная стратегия. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2006. С. 17.

4.21. Мерко А.И. Социально–ответственный бизнес–взаимосвязь государственной и корпоративной политики в глобализирующемся мире. Монография. – М., 2009. - С.180.

4.22. Мухаммедов М. ва бошқалар “Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари”- С.: Зарафшон 2017. – Б. 299.

4.23. Islamov B.A., Ismailova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI Darslik, 1-Tom 2018-y.

4.24. Nordhoug O. Human Capital in Organizations: Competence, Training and Learning. – Oslo.: Scandinavian University Press, 1993. - P.52.

4.25. Paul R. Krugman and Maurice Obstfeld. Developing Countries: Growth, Crisis, and Reform. 2003 Pearson Education, Inc. 22 Chapter.

4.26. Po‘latov M.E., Mirzaev Q.J., Sharipov T.S., Boboqulov S.B., Sharifov Sh.S. Iqtisodiy o‘sish [Matn]: Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “FAN BULOG’I” Nashriyoti, 2023 – 380 bet.

4.28. Shultz T. Human Capital, family planning and their etfects on population growth // American Economic Review. -1994. –May. P.45.

4.29. Schultz T. The Emerging Economic Science and Its Relation to High School Education // The High School in a New Era.1958.

4.30. Schultz T. Investments in the schooling and health of women and men: quantities and return // Journal of Human Resources, 1993., 28(4): 694-734.

4.31. Vaxabov A.V., Xadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. ―Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari‖.Toshkent, 2015 y.

4.32. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Очилов И.С. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – Б. 384.

4.33. Пашковская М.В., Госпорадик Ю.П., Мировая экономика , 4-е изд., перераб. и доп. - М: Университет ―Синергия‖, 2017. – 768 с

4.34. Савина С. А., Дугина Т. А., Высочкина С. А., Внешнеэкономическая деятельность**:** учебно – методическое пособие для подготовки бакалавров направления 100800.62 «Товароведение» /– Волгоград: ФГБОУ ВПО Волгоградский ГАУ, 2014

4.35. Хасбулатов Р.И., Международные экономические отношения: учебник для бакалавров/– М.: Издательство Юрайт, 2017. – 910 с. Серия: Бакалавр. Углублѐнный курс.

V. Internet saytlar

5.1. http://press-service.uz.

5.2. www.worldbank.org/eca/russian/data/

5.3. www.unctad.org/iia.

5.4. www.stat.uz сайти.

5.5. http://cbu.uz.

5.6. http://www.worldbank.org/en/country/switzerland/overview#.

5.7. www.lex.uz.

5.8. www.finans.uz.

5.9. www.bank.uz.

5.10. www.chamber.uz.

5.11. https://ru.wikipedia.org/wiki/Услуга.

5.12. http://statisticstimes.com/economy/countries-by-projected-gdp.php

5.13. http://www.edu.uz - Образование в Республике Узбекистан.

5.14. http://www.pravo.uz - Экономическое законодательство РУз.

5.15. www.unctad.org - веб-сайт Конференции ООН по торговле и развитию

5.16. http://www.lex.uz - Национальная база законодательства РУз.

5.17. https://www.uzanalytics.com

Isxakova Sarvar Ayubovna
Artikova Shoxida Ilyasovna
Sheraliyev Axror Sodiqovich

JAHON MINTAQALAR IQTISODIYOTI

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 30 - avgustdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (1-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2024

6459 **ISBN:** 978-9910-720-78-9

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 05.11. 2024 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2024 y.

07.112024 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84$^{1}/_{16}$, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 22.00
Buyurtma № 0119A/24. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.

ISBN: 978-9910-720-78-9

